



T.H. Asadov

# MATN TILSHUNOSLIGI

O'quv qo'llanma

---

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
O'ZBEK TILSHUNOSLIGI VA JURNALISTIKA KAFEDRASI

*T.H.Asadov*

# MATN TILSHUNOSLIGI

(70230101 – *Lingvistika (o'zbek tili) ta'lif yo'nalishi magistrlari uchun*  
"Matn tilshunosligi" fanidan o'quv qo'llanma)

BUXORO – 2023  
«DURDONA» nashriyoti

---

---

**81.2O'zb-5-923**

**811.512.133'42(075.8)**

**A 82**

**T.H.Asadov**

Matn tilshunosligi [Matn] : o'quv qo'llanma / T.H.Asadov– Buxoro:  
«Sadriddin Salim Buxoriy» Durdonashriyoti, - 2023. – 224 b.

**UO'K 811.512.133'42(075.8)**

**KBK 81.2O'zb-5-923**

**MAS'UL MUHARRIR:**

**M.Abuzalova**

– f.f.d., prof.(DSc)

**TAQRIZCHILAR:**

**A.Axmedov**

– BuxDU dots., f.f.n.

**U.Qo'ziyev**

– NamDU dotsenti, f.f.d.(PhD)

*O'quv qo'llanma Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi BuxDU  
2023-yil 29-noyabrdagi 673-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat  
berilgan. Ro'yyatga olish raqami 673-20.*

---

**ISBN 978-9910-04-160-0**

---

**© T.H.Asadov**

**O'QUV QO'LLANMA**

---

*T.H.Asadov*

# MATN TILSHUNOSLIGI

*Texnik muharrir:*

*G.Samiyeva*

*Musahhih:*

*M.Raximov*

*Sahifalovchi:*

*M.Arslonov*



Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original –  
maketdan bosishga ruxsat etildi: 17.12.2023. Bichimi 60x84.

Kegli 16 shponli. « Palatino Linotype» garn. Ofset bosma  
usulida. Ofset bosma qog’ozi. Bosma tabog’i 25.5 Adadi 50.

Buyurtma № 329.



«Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Buxoro shahar O’zbekiston Mustaqilligi ko’chasi, 70/2 uy.  
Tel: 0(365) 222-46-46

---

...

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**O'ZBEK TILSHUNOSLIGI VA JURNALISTIKA KAFEDRASI**

**T.H.ASADOV**

## **MATN TILSHUNOSLIGI**

(70230101 – Lingvistika (o'zbek tili) ta'lif yo'nalishi magistrlari uchun  
"Matn tilshunosligi" fanidan o'quv qo'llanma)

**BUXORO - 2023**

**Asadov T.H.**

Matn tilshunosligi. [Matn]: o'quv qo'llanma/ T.H.Asadov. – Buxoro:  
"Sadiddin Salim Buxoriy" Durdon, 2023.

"Matn tilshunosligi" fani 70230101–Lingvistika (o'zbek tili) ta'lif yo'nalishi magistrleri uchun mo'ljallangan bo'lib, bu fan magistrler – bo'lajak mutaxassislar, yosh tilshunoslarga turli hajm va mazmundagi matn ko'rinishlarini tasnif hamda tavsif qilishni o'rgatadi. O'quv qo'llanma mazkur fanning mazmun-mohiyati, fanning yuzaga kelish bosqichlari, o'rganilishi, matnning tahlil usullari, matnga qo'yilgan talablar, uning tarkibiy qismlari, mazkur tarkibiy qismlarning birikishi, shuningdek, badiiy matnda badiiylikni ta'minlovchi lisoniy hodisalar, matn tahvilini zamonaviy tilshunoslik sohalari bilan uyg'un holda olib borish haqidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan. Shu va shu kabi maqsadlar ko'zlangan ushbu qo'llanmada nazariy ma'lumotlar bilan birga, magistrlarning bilim darajasini oshirishga xizmat qiluvchi savol va topshiriqlar, foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar, testlar berilgan. Qo'llanma Respublika oliy o'quv yurtlarining Lingvistika (o'zbek tili) ta'lif yo'nalishi magistrlariga mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:**  
f.f.d., prof.(DSc) M.Abuzalova

**Taqrizchilar:**  
BuxDU dots., f.f.n. A.Axmedov  
NamDU dotsenti, f.f.d.(PhD) U.Qo'ziyev

O'quv qo'llanma Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi BuxDU 2023-yil 29-noyabrdagi 673-sonli buyrug'iiga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.  
Ro'yxatga olish raqami 673-20.

Предмет лингвистика текста 70230101 Языкоzнание (узбекский язык) предназначен для магистров специальности, данный предмет учит будущих специалистов, молодых лингвистов классифицировать и описывать текстовые формы различного размера и содержания. В учебном пособии рассказывается о сущности этой науки, этапах ее возникновения, ее изучении, методах анализа текста, требованиях к тексту, его компонентам, сочетании этих компонентов, а также о языковых явлениях, обеспечивающих художественность в литературных произведениях и содержит информацию о том, как проводить анализ текста в соответствии с областями современной лингвистики. Наряду с теоретической информацией, вопросами и заданиями, служащими повышению уровня знаний магистров, рекомендуемой литературой, тестами в настоящем пособии, преследующем эти и подобные цели, приведены. Пособие предназначено для магистров лингвистического (узбекского языка) образования высших учебных заведений Республики Узбекистан

**Главный редактор:**  
к.м.н., профессор (доктор наук) Абузалова М.А.

**Рецензенты:**  
доцент БухГУ, Ф.Ф.Н. А. Ахмедов  
Доцент НамГУ, к.ф.н., Казиев У.

The subject “Text Linguistics” is intended for masters of the educational direction 70230101–Linguistics (Uzbek language), which trains masters – future specialists, young linguists in the classification and description of textual phenomena of various volume and content. The textbook contains information about the content of this science, the stages of its emergence, the study of science, methods of text analysis, requirements for the text, its components, combinations of these components, as well as about linguistic phenomena that ensure artistry in a literary text, about conducting text analysis in harmony with modern linguistics areas. This manual, which pursues these and similar goals, along with theoretical data, contains questions and tasks, recommended literature for use, tests that serve to improve the level of knowledge of masters. The manual is intended for masters of linguistic (Uzbek) education in higher educational institutions of the Republic.

**Responsible editor:**  
d.ph.s., Prof.(DSc) M.Abuzalova

**Reviewers:**  
BukhSU associate professor, c.ph.s.A.Akhmedov  
Associate Professor of NamSU, d.ph.s.(Phd) U.Kuziev

## SO'ZBOSHI

Bilamizki, XXI asr texnika-texnologiya va axborot almashuv asri bo'lib, ijtimoiy hayotda axborot almashuvida nutq, uning ko'rinishi bo'lgan matn har jihatdan xarakterli sanaladi. Kishilik jamiyatida odamzod umri davomida katta-kichik turli mazmundagi axborotlar, ya'ni matnlar qamrovida yashaydi. Bu ijtimoiylikning dastlabki shartlaridan bo'lib, inson bolalik damlarida matnning kichik shakllari (maqol, ertak, hikoya, rasmi lavhalar va h.k.)ga duch kelgan bo'lsa, ulg'aygach mazmunan yanada boy, shaklan rangorang ko'rinishli matnlar qurshovida, ta'sirida hayot kechirishiga to'g'ri keladi. Bunda turli daraja va shakldagi badiiy, ilmiy, rasmiy, publitsistik matn namunalari bilan to'qnashadi. Tevarak-atrofimiz u yoki bu mazmundagi, katta-kichik axborotlarga – e'lon va reklamalar, xabar va lavhalarga to'la. Tabiiyki, bularning bari "matn" insoniyat shuuri, ma'naviyatining ajralmas bir qismi ekanligidan dalolat beradi.

Har bir ta'limot, fanning ehtiyoj natijasi tufayli yuzaga kelishini inobatga olib, aytish mumkinki, "Matn tilshunosligi" fanining paydo bo'lishida ham yetarlicha zarurat mavjud edi. XX asrning 60-yillaridan boshlab, umumiy tilshunoslikda yangi yo'nalish – "Matn tilshunosligi" paydo bo'ldi. Matnning tarkibiy qismlari har jihatdan o'rganildi. Matn lingvistikasini tilshunoslik fanining asosi sifatida baholaydigan tadqiqotchilar ham topildi.

Ma'lumki, XXI asr fanlar integratsiyasi asri hisoblanadi. Muayyan hodisa mohiyatini yoritishda fanlararo hamkorlik o'z natijasini, ijobiy samarasini bermoqda. Xuddi shu nuqtayi nazardan yondashadigan bo'lsak, umumiy tilshunoslikda, jumladan, o'zbek tilshunosligida o'tgan davr mobaynida matn lingvistikasi yo'nalishida jiddiy tadqiqotlar amalga oshirildi, deyishga haqli sanalamiz hamda V.V.Odinsovning "Tekst stilistikasi" (1980), I.R.Galperinning "Matn lingvistik tahlil obyekti sifatida" (1981), X.Doniyorov, B.Yo'ldoshevlarning "Adabiy til va badiiy stil" (1988), V.P.Belyaninning "Badiiy tekstning psixolingvistik aspektlari" (1988), N.M.Shanskiyning "Badiiy tekstning lingvistik tahlili", M.To'xsanovning "O'zbek badiiy nutqida mikromatn va uning tabiatи" (1987), A.Mamajonovning 1989-yilda nashr qilingan "Tekst lingvistikasi" nomli qo'llanmasi, B.O'rinooyev, R.Qo'ng'urov, J.Lafasovlarning "Badiiy tekstning lingvistik tahlili" (1990), A.Mamajonovning M.Abdupattoyev bilan hamkorlikda nashr ettirgan "Matn sintaksisi" nomli o'quv qo'llanmasi (2002), E.Qilichevning "Matnning lingvistik tahlili" (2004), N.Q.Turniyozovning "Matn lingvistikasi" (2004), N.Q.Turniyozov, B.Yo'ldoshevlarning "Matn tilshunosligi" (2006) kabi asarlarini ta'kidlash lozim deb bilamiz.

Matn va u bilan bog'liq muammolar haqida izlanishlar olib borgan tadqiqotchilardan yana biri M.Hakimov hisoblanadi. Olimning matn bilan bog'liq "O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari" (1993) hamda "O'zbek tilida matnning pragmatik talqini" (2009) kabi tadqiqotlarini e'tirof etish mumkin.

Nisbatan keyingi jiddiy tadqiqot M.Yo'ldoshev tomonidan amalga oshirildi. Uning doktorlik dissertatsiyasi badiiy matn lingvopoetikasiga bag'ishlangan (Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДД. – Т., 2009).

Matn va u bilan bog'liq masalalarga bag'ishlangan oxirgi fundamental ishlardan yana biri S.Boymirzayeva tomonidan amalga oshirildi (Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив pragmatik мазмунини шакллантирувчи категориялар. ДД. – Т., 2010).

Hozirgi zamonda badiiy matnni antropotsentrik va uning yo'naliishlari sanaladigan psixolingvistik, sotsiolingvistik, lingvokulturologik, pragmatik jihatdan tahlil etish ishlar ko'lami kengayib bormoqda.

Hozirgi kunda nasriy va nazmiy asarlarni lingvopoetik nuqtayi nazardan ayro-ayro o'rganish, lingvistik poetika, lingvopoetik tahlil jarayonlarini baholash, lingvopoetik tahlil tamoyillarini belgilash borasidagi ishlar va shunga yondosh tadqiqotlar ko'laming oshib borayotganligi o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi kesimida lingvopoetikaning nazariy jihatdan ancha yetilib ulgurganligini ko'rsatadi. O'zbek lingvopoetikasida ma'lum bir ijodkor asarlari tilini turli usul va ko'rinishlarda tadqiq va tahlil etish bo'yicha keng yutuqlarga erishildi. Biroq matnni tadqiq etishning yangi-yangi usul va yo'naliishlarini yuzaga chiqarish, matn bilan bog'liq ishlar ko'lamini kengaytirish matn lingvistikasi tadqiqi oldida turgan vazifalardan sanaladi.

Matn deganda, avvalo, badiiy matn ko'z oldimizda gavdalanadi. O'sib kelayotgan yosh avlodning badiiy adabiyot bilan oshno qilish, badiiy matnni chuqurroq anglash matn lingvistikasi fanining nazariy jihatlari bilan ham uyg'un, albatta. Badiiy adabiyot yosh avlodni ma'nani kamol topishida katta kuchga ega. Quvonarlisi shundaki, kitobxonlik, badiiy matn mutolaasi bugungi zamonda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mamlakatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tashabbuslari bilan kitob o'qish va uqish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur holat yurtimiz rahbarining quyidagi fikrlarida ham yorqin aks etgan: "Ayni paytda, axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularning kitob bilan do'st bo'lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi".

Xullas, "Matn tilshunosligi" tilshunoslikdan ajralib chiqqan, o'z obyekti va predmetiga ega bo'lgan, o'z navbatida, yondosh yo'naliishlar uchun

zamin hozirlayotgan, u yoki bu darajadagi tadqiqotlarga asos bo'layotgan, shaklan va mazmunan kamol topib borayotgan, kelajagi bardavom fanlardan biri hisoblanadi.

## 1-MAVZU. "MATN TILSHUNOSLIGI"NING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI XUSUSIDA REJA:

1. Jahon tilshunosligida matn kategoriyasining o'rganilishi borasida qarashlar.
2. Fanning o'rganish predmeti, maqsad va vazifalari.
3. Matnning lingvistik tahlili xususida.
4. O'zbek tilshunosligida matn va u bilan bog'liq masalalar tadqiqi.

**Tayanch tushunchalar:** *matn, matn tilshunosligi, nutqiy jarayon, nutqiy faoliyat, kommunikativ birlik, matn tarkibi, matn birliklari, matn va til, matn va nutq, matn maqomi, matnning shakllanishi, matnni tahlil qilish tamoyillari, shakl va mazmun birligi.*

Odatda, matn deganda biron-bir muallifga tegishli bo'lgan, ma'lum fikrlar majmuasi hisoblangan, qo'lyozma yoki nashrdan chiqqan asar tushuniladi. Ammo har qanday bosma yoki qo'lyozmani ham matn deyaverish to'g'ri emas. Matn bo'lishi uchun, tadqiqotchilar fikricha, hajmidan qat'i nazar, asar hisoblanishi va mazmunga (ilmiy, ommabop, rasmiy, badiiy va h.k.) yoki hujjat xarakteriga ega bo'lishi zarur.

Matn bilan bog'liq nazariy qarashlar uzoq tarixga ega. Dastlab bog'li nutq, yaxlit nutqiy asar haqidagi tadqiqotlar Aristotel va uning izdoshlari tomonidan amalga oshirilgan. XX asr o'talaridan boshlab esa jahon tilshunosligida matn va uning lisoniy tabiatini o'rganishga qaratilgan maxsus tadqiqotlar amalga oshirila boshlandi. Bunda rus, ingлиз, fransuz, nemis tilshunosligi yetakchilik qildi. Bu davrlarda dunyo tilshunosligida matn lingvistikasi bo'yicha turli nashrlar – monografiyalar, darsliklar, maktablar uchun qo'llanmalar nashr etilgan.

Rus tilshunosligida matn ("tekst") tushunchasining rivoji o'tgan asrning 40-yillariga to'g'ri keladi. O'tgan asrning 60-yillari ikkinchi yarmidan boshlab jahon tilshunosligida "matn lingvistikasi" alohida yo'nalish sifatida rivojlandi.

Rus tilshunosligida matn nazariyasi, uning muammolari V.V.Odinsov, I.R.Galperin, O.I.Maskalskaya, L.M.Loseva, Y.M.Lotman, Z.Y.Turayeva, N.D.Zarubina, E.V.Sidorov, O.L.Kamenskaya, A.I.Gorshkov, N.S.Valgina kabi

tilshunoslar tomonidan o'rganildi<sup>1</sup>. Shulardan V.V.Odinov "Tekst stilistikasi" (1980), I.R.Galperin "Matn lingvistik tahlil obyekti sifatida" (1981), O.I.Moskalskaya "Matn grammatikasi" (1981), N.M.Shanskiyning "Badiiy tekstning lingvistik tahlili" (1990) kabi tadqiqotlarini alohida ta'kidlash lozim.

Matn tilshunosligi tadqiqini tadrijiy o'rgangan o'zbek olimlaridan biri M.Yo'ldoshev o'zining "Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi" nomli doktorlik dissertatsiyasida matn va u bilan bog'liq G'arb olimlari fikrlarni quyidagicha keltiradi: "Bir gapdan boshqasiga tortilgan iplar shu qadar ko'p va shunday pishiq to'rni hosil qiladiki, gaplarning chatishishi, ularning yagona to'r sifatida o'rib to'qilganligi haqida gapirish mumkin, chunki har bir alohida gap boshqalari bilan chambarchas bog'langan (K.Bost), "Biz, odatda, alohida so'zlar bilan emas, gaplar va matnlar bilan gapiramiz" (X.Vaynrix). "Agar biz gapirsak, faqat matnlar bilan gapiramiz" (P.Xartman). "Til faqat matnlar shaklida va matn tuzish vazifasida kishilar o'rtasidagi aloqa vositasidir" (P.Xartman). "Biz tildan foydalanganimizda asosiy birlik so'z yoki gap emas, balki matndir" (M.A.Xellidey). "Matn tilshunosligining to'liq asoslanishi uchun hali kamida yuz yil kerak" (R.Harveg). "Bizning kunlarimizda tilning oliv va eng mustaqil birligi gap emas, balki matn ekanligi umumning e'tirofiga sazovor bo'lib bormoqda" (V.Dressler). "Ichki bog'lanishli bo'lgan, muloqot maqsadida mazmunan o'zaro birikkan gaplardan tashkil topgan nutqning har qanday parchasi matn deb ataladi" (R.Bart).

Ayrim olimlar matn lingvistikasini "tilshunoslikning poydevori", deb ham bildilar. Mazkur to'xtamga kelinishida ham ma'lum ma'noda asos bor. Aytmoqchimizki, har qanday til o'z bo'y-bastini, to'la-to'kis tabiatini sintaksisda, aniqrog'i, matn sintaksisida namoyon etadi. Shuning o'ziyoq matn va u bilan bog'liq masalalar til uchun o'ta muhim ekanligini ko'rsatadi. Umuman, matn lingvistikasi shu tarzda shakllanib, rivojlanib bormoqda.

Tadqiqotchilarning umumlashma fikri shuni ko'rsatadiki, matn har tomonlama mukammallashtirilgan yozma nutq mahsulidir. Og'zaki matn borasidagi qarashlar esa biroz o'zgacha, ya'ni matnning bu ko'rinishida "turli qaytariqlar, uzuq-yuluq gaplar" ham bo'lishi mumkin, shuning uchun og'zaki nutq matnning talabiga to'liq javob bera olmasligi ta'kidlanadi. Matn biror maqsad ifodasi uchun o'zaro munosabatga kirishayotgan birliklarning ham grammatik, ham mazmun jihatdan birikishidan tashkil topgan bo'ladi.

Shunday qilib, jahon tilshunosligida matn lingvistikasi bobida bir qator yutuqlarga erishilgan. Biroq turkiy tilshunoslikda, jumladan, o'zbek tilshunosligida matn lingvistikasi muammolarini o'rganish yaqin yillarda boshlandi. XX asr so'nggi choragida X.Doniyorov, B.Yo'ldoshevlarning

---

<sup>1</sup> Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДД. – Т., 2009. 41-6.

"Adabiy til va badiiy stil" (1988), B.O'rinboyev, R.Qo'ng'uров, J.Lafasovlarning "Badiiy tekstning lingvistik tahlili" (1990), E.Qilichevning "Matnning lingvistik tahlili" (2004), N.Q.Turniyozovning "Matn lingvistikasi" (2004), N.Q.Turniyozov, B.Yo'ldoshevlarning "Matn tilshunosligi" (2006) kabi asarlari bunga misol bo'ladi.

Tilshunos olim M.To'xsanov o'zining nomzodlik dissertatsiyasida makromatn va mikromatnni farqlagan holda o'zbek tilidagi mikromatn tarkibidagi unsurlarni bog'lovchi vositalar sistemasini tadqiq etgan (Тұхсанов М. Үзбек бадиий нутқида микроматн ва унинг табиати. НД. – Т., 1987).

A.Mamajonovning 1989-yilda nashr qilingan "Tekst lingvistikasi" nomli qo'llanmasida matn nazariyasi va matn tahlili bilan bog'liq masalalarga to'xtalib o'tilgan.

A.Mamajonovning shogirdi M.Abdupattoyev bilan hamkorlikda nashr ettirgan "Matn sintaksisi" nomli o'quv qo'llanmasida matnning struktur-semantik va stilistik jihatlari, matn birliklaridagi munosabat atroflicha tahlil qilingan, tegishli xulosalar umumlashtirilgan (Мамажонов А., Абдупаттоев М. Матн синтаксиси. – Фарғона, 2002).

Ma'lumki, o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab o'zbek olimlari matn tilshunosligining nazariy muammolari bilan maxsus shug'ullana boshladilar. Bu jihatdan B.O'rinboyev, R.Qo'ng'uров, J.Lafasovlarning "Badiiy tekstning lingvistik tahlili" nomli o'quv qo'llanmasini alohida qayd etishimiz zarur. Bu asarning kirish qismi, ya'ni dastlabki bandi "Tekst – lingvistik tahlil obyekti" deb nomlanadi. Bunda matn tiplari, ularning umumiyy va o'ziga xos belgilari, matnning lisoniy tahlili, metodologik tamoyillari, matn yaratish muammolari, ifoda vositalarining tanlanishi va ularning matn tuzilishidagi roli singari dolzarb masalalar misollar orqali yoritilgan.

N.Turniyozovning "Matn lingvistikasi" (2004) nomli qo'llanmasi ham ana shunday ta'limiy xarakterdagi ishlardan biridir. Unda matn haqida umumiyy ma'lumot, mikromatn va makromatn tushunchalari, matn qismlari orasidagi turli munosabatlar bo'yicha ilmiy ma'lumotlar berilgan .

Matn va u bilan bog'liq muammolar haqida izlanishlar olib borgan tadqiqotchilardan yana biri M.Hakimov hisoblanadi. Tadqiqotchining nomzodlik va doktorlik ishi ayni shu hodisalar bilan bog'liq. Olimning "ilmiy matn va uning birlklari orasidagi mazmuniy munosabatni ifoda etuvchi bog'lovchilar, ularning o'ziga xos xususiyatlari va vazifalarini aniqlashga yo'naltirilgan ishlarga hissa qo'shish, ilmiy matnda muallifning xususiy munosabati hamda uning turlarini belgilash" dan iborat bo'lgan nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari boy daliliy materiallar asosida batafsil tadqiq etilgan (Ҳакимов М. Х. Үзбек илмий матнининг синтагматик ва парадигматик хусусиятлари. НД. – Т., 1993). M.Hakimovning o'zbek tilidagi matnning pragmatik talqiniga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasida esa matnni lingvistik pragmatika asosida o'rgangan va

matnda ochiq va yashirin ifodalanadigan mazmunlarning o'ziga xos qonuniyatlarini ko'rsatib bergan, ularning semantik, sintaktik, presuppositional va pragmatik mexanizmlariga daxldor qoidalar aniqlashtirilgan (Ҳакимов М.Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. ДД. – Т., 2001). Dissertatsiyada o'zbek tilidagi matn lingvistikasi muammolariga nazariy jihatdan birmuncha oydinlik kiritilgan, bir qator tamoman yangi fikrlar ilgari surilgan.

Nisbatan keyingi tadqiqot M.Yo'ldoshev tomonidan amalga oshirildi. Tadqiqotchi mazkur masala bilan bog'liq bir qancha kitoblarni nashr ettirgan. "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari" (2007), "Badiiy matn lingvopoetikasi" (2008), "Badiiy matnning lisoniy tahlili" (2010) kabilar buning dalilidir. Mazkur asarlarda matnning nazariy masalalari, uning maqomi, birlıkları, matn turlari, matnning tarkibiy qismlari, matn tarkibiy qismini bog'lovchi vositalar, badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari (shakl va mazmun birligi tamoyili; makon va zamon birligi tamoyili; xususiylikdan umumiyligka o'tish tamoyili), badiiy matnni tahlil qilish usullari (matn variantlarini qiyoslash usuli; lug'atlarga asoslanish usuli; lisoniy birliliklar indeksini tuzish usuli), badiiy matnning lingvistik tahlili (badiiy matnning fonetik-fonologik xususiyatlari, badiiy matnning leksik-semantik xususiyatlari, badiiy matnning morfologik xususiyatlari, badiiy matnning sintaktik xususiyatlari), badiiy matnda ko'chimlar kabi masalalar haqida ma'lumot beriladi.

Matn va u bilan bog'liq masalalarga bag'ishlangan keyingi fundamental ishlardan yana biri S.Boymirzayeva tomonidan amalga oshirildi. 2010-yilda himoya qilingan S.Boymirzayevaning doktorlik ishi (Ўзбек тилида матннинг коммуникатив прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар.–Т., 2010) matn hodisasi mazmuniy tuzilishining kognitiv mohiyatini monografik tadqiq qilishga bag'ishlangan. Ishda matn hodisasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari tadqiq etilgan. Uning mazmunini shakllantirishga xizmat qiluvchi modallik va temporallik kategoriyalarining matn mohiyati bilan uzviy aloqadorligi ko'rsatib berilgan hamda matn mazmuni shakllanishining ijtimoiy hodisa ekanligi ochib berilgan. Sh.Turniyozovaning nomzodlik ishi matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, unda mikromatn va uning turlari haqida mulohaza bildirilib, oddiy grafema (nutqda tovush), so'z va so'z birikmalari ham matn maqomida kelishi mumkinligi dalillangan, mikro va makromatnlar voqelanishining derivatsion xususiyatlarining ilmiy talqini berilgan, matn komponentlari va umumiy matnning derivatsion xususiyatlari yoritilgan.

Hozirgi kunda badiiy matnni antroposentrik va uning yo'naliishlari sanaladigan psixolingvistik, sotsiolingvistik, lingvokulturologik, pragmatik jihatdan tahlil etish ishlar ko'lami ham kengayib bormoqda. Bu borada olima D.Xudoyberganovaning monografiyasini (Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. –Т.:Фан, 2013) alohida ta'kidlash

mumkin.

Mutaxassislar badiiy matn lingvostilistikasi tahlilining bir necha tamoyillarini tavsiya etishadi. Muayyan bir matn tahlilida tilning turli sath birliklari (fonetik, fonologik, orfoepik, grafik, morfonologik, orfografik, morfemik, leksik, morfologik, sintaktik, punktuatsion, stilistik vositalar) o'ziga xos tarzda ishtirok etadi.

Manbalarda badiiy matnni lingvistik, lingvostilistik tahlil etishning quyidagi umumiy va keng tarqalgan an'anaviy yo'naliishlari mavjud:

*Badiiy asarning fonetik, fonografik tahlili.* Bunday tahlilda badiiylikni ta'minlovchi unsurlar sifatida tovushlar tadqiq etiladi. Ya'ni uslubni yaratishda o'ziga xos tovush o'zgarishlari, urg'uning ahamiyati, ularning kitobxon tasavvuriga ta'siri va boshqa omillar e'tiborga olinadi. Masalan, she'riyatda vazn talabiga ko'ra tovush tushishi, tovush orttirilishi, tovushlarning o'rinni almashishi muhim sanaladi. Nasrda ham obrazning ishonchli bo'lishi uchun turli so'zlar ifodasidagi o'ziga xos holatlar kuzatiladi. Bu kabi o'zgarishlarning maqsadini lingvopoetik tahlil ochib beradi. Bu yo'naliish tadqiqi imlo va to'g'ri talaffuz bilan bog'liq holda olib boriladi. Tovushlarning badiiy matndagi mavqeyi, uslubiy imkoniyatlari matn lingvistik tahlilida boshqa turdag'i tahlil namunalari singari muhim sanaladi.

*Badiiy asar leksik tahlili.* Tahlilning mazkur bosqichi ham o'ziga xos tarzda kechadi. Bu yo'naliishning tadqiqot ko'lami nihoyatda keng bo'lib, leksik birliklar (sinonimiya, antonimiya, omonimiya va b.)ning badiiy asar, jumladan, she'riy misralardagi ifodasi, mavqeyi tahlil etiladi.

*Badiiy asar morfologik tahlili.* Tahlilning mazkur bosqichi morfemika, morfologiya va so'z yasalishi bo'yicha kuzatishlarni o'z ichiga oladi. Bunda turli grammatik shakllarning badiiy asardagi ifodasi inobatga olinadi.

*Badiiy asarning sintaktik tahlili.* Bu yo'naliishda matnning gap qurilishi tadqiq etiladi. Unda lingvopoetik tahlil formal sintaksis, mazmuniy sintaksis, kommunikativ sintaksis va matn sintaksisi bilan bog'liq holda olib boriladi. Poetik nutqni tahlil etish usuli ikki xil: 1) she'riy; 2) nasriy matn asosida amalga oshiriladi. Chunki bunda she'riy nutqni shakllantiruvchi unsurlarga, she'riy nutqning tuzilish tizimiga, gap bo'laklari tartibiga, lafziy va ma'naviy san'atlarning qo'llanilishiga e'tibor berish kerak bo'ladi. Badiiy asardagi sintaktik vositalar tahlilida sintaktik parallelizm, inversiya, ritorik so'roq gap, parselyatsiya, troplar, o'xshatish, murojaat birliklari va h.k. larning uslubiy imkoniyatlari inobatga olinadi.

Ammo bu kabi shu kunga qadar mavjud bo'lgan tahlil usullari samaradorligi jihatdan hozirgi kunda o'zini to'liq oqlay olmaydi. Chunki zamon bilan bog'liq holda matn va uning tahlil usullari qamrovi hamda matnga turli jihatdan yondashuv har jihatdan takomillashib, o'sib bormoqda. Bu hayotiy ehtiyoj mahsuli, aslida. Har qanday fan hayotiy ehtiyojlar, kishilarning talab va zaruratlari evaziga paydo bo'ladi.

Ta'kidlash kerakki, badiiy matn bilan bog'liq muammolarni o'zbek xalqining ko'p asrlik tarixi davomida shakllangan o'ziga xos milliy

xarakteri---, urf-odatlari, milliy qadriyatları va an'analarini yaxshi bilmasdan turib, bu haqda ilmiy-nazariy xulosalarga kelish aslo mumkin emas. Chunki badiiy ijod, adabiyot millat ma'naviy qiyofasining yorqin ifodasi bo'lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liqdirki, bu bog'liqlik xalqning tarixi, ijtimoiy-siyosiy hayotida sodir bo'lgan o'zgarishlari bilan ajralmasdir.

Badiiy matn deganda, ma'lum bir xalq, ijtimoiy guruh o'tasida asrlar mobaynida avloddan avlodga o'tib kelgan o'ziga xosliklarning badiiy tarzda, tildagi badiiy vosita va usullar yordamida o'z ifodasini topishi tushuniladi. Badiiy ijodga muayyan millatning yashash maskani xususiyatlari, xalqning turmush tarzi, siyosiy-iqtisodiy sharoiti, e'tiqodi, urf-odat va milliy qadriyatları jiddiy ta'sir ko'rsatadi. V.Vinogradov "Badiiy adabiyot tili haqida"(1959) nomli asarida ta'kidlaganidek, badiiy adabiyot tilining tarixiy harakatini umumxalq tili hamda uning turli tarmoqlanishi tarixidan va adabiy til tarixidan tamoman ajratilgan holda o'rganish mumkin emas, albatta. Badiiy asarni o'rganish, tahlil etish, bir so'z bilan aytganda, unga munosabat bildirish shunchaki yumush emas. Bu jarayon o'ta murakkab hamda mas'uliyatli ish sanaladi. Qolaversa, badiiy asar tahlilida hamma uchun birdek amal qilinishi lozim bo'lgan muayyan bir qat'iy me'yorlar mavjud emas. Bugungi kunda matn yaratish jarayonida badiiy matnga qo'yilayotgan talablar ham oshib bormoqda. Bularning bari badiiy matn tadqiqotchisidan sinchkovlikni, keng dunyoqarash va mushohadani talab qiladi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

- 1."Matn tilshunosligi" fanining yuzaga kelishi haqida nimalar bilasiz?
- 2."Matn tilshunosligi" fani nima haqida bahs yuritadi?
- 3.Jahon tilshunosligida matn bilan kimlar shug'ullangan va qanday fikrlarni ilgari surgan?
- 4.O'zbek tilshunosligida matn va u bilan bog'liq tadqiqotlar haqida nimalarni bilasiz?
- 5.Badiiy matnning lingvopoetik tahlili deganda nimani tushunasiz?

### **Topshiriq. Keltirilgan quyidagi fikrlarga munosabat bildiring.**

- 1."Bir gapdan boshqasiga tortilgan iplar shu qadar ko'p va shunday pishiq to'rni hosil qiladiki, gaplarning chatishishi, ularning yagona to'r sifatida o'rib to'qilganligi haqida gapirish mumkin, chunki har bir alohida gap boshqalari bilan chambarchas bog'langan. (K.Bost)
- 2."Biz, odatda, alohida so'zlar bilan emas, gaplar va matnlar bilan gapiramiz". (X.Vaynrix)
- 3."Til faqat matnlar shaklida va matn tuzish vazifasida kishilar o'tasidagi aloqa vositasidir". (P.Xartman)

4.“Matn tilshunosligining to’liq asoslanishi uchun hali kamida yuz yil kerak”. (R.Harveg)

5.“Ichki bog’lanishli bo’lgan, muloqot maqsadida mazmunan o’zaro birikkan gaplardan tashkil topgan nutqning har qanday parchasi matn deb ataladi”. (R.Bart)

**Topshiriq.** “Matn” va uning tabiatи haqida o’z fikringizni bildiring, matnni ta’riflab bering.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Абдулпаттоев М. Ўзбек матнида суперсинтактик бутунликлар. НД. –Т., 1997.
- 2.Барт Р. Лингвистика текста // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 8. Лингвистика текста. – М.: Прогресс, 1978. – С. 444-445.
- 3.Гальперин И. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981
- 4.Ҳакимов М. Х. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва парадигматик хусусиятлари. НД. – Т., 1993.
- 5.Ҳакимов М. Х. Ўзбек тилида матнининг прагматик талқини. ДД. – Т., 2001.
- 6.Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Т., 1988.
- 7.Москальская О.И. Грамматика текста. – М.: Высшая школа, 1981.
- 8.Қиличев Э. Матннинг лингвистик таҳлили. – Бухоро, 2004.
- 9.Турниёзов Н. Матн лингвистикаси. – Самарқанд: СамдЧТИ нашри, 2004.
- 10.Турниёзов Н., Йўлдошев Б. Матн тилшунослиги – Самарқанд, 2006.
- 11.Тўхсанов М. Ўзбек бадиий нутқида микроматн ва унинг табиати. НД. – Т., 1987.
12. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДД. – Т., 2009.
- 13.Ўринбоев Б., Қўнғиров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили.– Т.: Ўқитувчи, 1990.

## 2-MAVZU. MATNNING LINGVISTIK TAVSIFI<sup>2</sup>

### REJA:

1. Jahon tilshunosligida matnga berilgan tavsif va tasniflar.
2. O’zbek tilshunosligida matnga berilgan tavsif va tasniflar.
3. Matn va uning tabiatи xususida.

*Tayanch tushunchalar: matn, matn tabiatи, matn ta’rifi, og’zaki matn,*

---

<sup>2</sup> Mazkur mavzuni yoritishda M.Yo’doshev tadqiqotiga tayandik. Qarang: Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДД. – Т., 2009.

*yozma matn, matn birliklari, matn va til, matn va nutq, nutqiy faoliyat, matn tuzilishi, matn grammatikasi, matn sintaksisi.*

Ma'lumki, "matn" atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da matn so'zining arabchadan o'zlashganligi, eskirgan kitobiy so'z ekanligi va aynan *tekst* so'zi anglatgan ma'noga tengligi aytildi. Manbada *tekst* so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: [r\xlat] 1. *Yozilgan, ko'chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning bir parchasi; matn. Maqolaning teksti.* 2. *Muzika asariga, masalan biror kuyga, opera, romans va shu kabilarga asos bo'lgan she'r, so'z.* 3. *Poligrafiyada yirik shriftlardan birining nomi.* Bu ta'rifda matnning asosiy xususiyatlari to'g'ri ko'rsatilgan. Faqat axborot-kommunikatsiya vositalarining taraqqiy etishi natijasida *matn* (*tekst*) so'zi anglatadigan ma'no yanada ortganligini ko'rishimiz mumkin. *Kompyuterda terilgan matn formati Word, RTF matn, oddiy matn, formatlangan matn, gipermatn* kabilar ham iste'molda faollashdi.

M.Yo'ldoshev muloqot, matn haqida gapira turib shunday yozadi: "Tabiiyki, har qanday nutqiy kommunikatsiyaning yuzaga kelishi, voqelanishida uch asosiy unsurning ishtiroki majburiydir, ya'ni so'zlovchi (yozuvchi) – axborot (matn) – tinglovchi (o'quvchi)". To'g'ri, nutqiy kommunikatsiyada nutqiy sharoit, axborot kanali (ovoz, yozuv, magnit yozushi, telefon kabi), muloqot a'zolarining maqomi, yoshi va boshqa belgilari, shuningdek, boshqa turli g'ayrilisoniy vositalarning ham o'rni benihoya muhim, hatto ko'pincha hal qiluvchi ahamiyatga ega. Lekin mazkur uch unsur nutqiy kommunikatsiyaning asosiy ustunlaridir, ularning birortasisiz muloqot jarayoni voqe bo'lmaydi. Tilshunoslik ayni kommunikatsiya jarayonida ikki tomon (so'zlovchi, tinglovchi) o'rtasidagi "berish-olish"ning asosiy predmeti bo'lgan axborotning lisoniy ifodalaniishi va anglanishi masalasiga mutlaqo tabiiy ravishda birinchi darajali diqqatni qaratdi"<sup>3</sup>.

Rus tilshunosligida matn va u bilan bog'liq masalalar, nazariy qarashlar tilshunos olim O.I.Moskalskaya tomonidan atroflichcha o'rganilgan<sup>4</sup>. Tadqiqotchi o'zigacha bo'lgan matn haqidagi fikrlarni umumlashtirib, mazkur hodisaga quyidagicha umumiylashtirish keltiradi:

1. Nutqning tugallangan fikr bildiradigan asosiy birligi gap emas, balki matndir; gap-fikr esa faqat xususiy holat, matnning alohida turidir. Matn sintaktik sathning oliy birligi hisoblanadi. 2. Konkret nutqiy asarlar – matnlarning asosida matn tuzishning umumiylashtirishini yotadi; bu tamoyillar nutq sohasiga emas, balki til sistemasiga yoki til vakolatiga daxildordir. Bu jihatlar hisobga olinsa, shulardan kelib chiqilsa, matnni faqat nutq birligigina emas, balki ayni paytda til birligi deb ham hisoblash kerak. 3. Boshqa til birliklari kabi matn lisoniy belgilar sistemasining

<sup>3</sup> Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Д.Д. – Т., 2009. 39-6.

<sup>4</sup> Москальская О.И. Грамматика текста. – М.: Высшая школа, 1981..

qismidir. 4. Matnni alohida sathning nutqiy va lisoniy birligi sifatida har tomonlama o'rganish tilshunoslik doirasidagi maxsus fan – matn lingvistikasini yaratishni taqozo etadi. Y.A.Referovskayaning fikriga ko'ra, hozirgi paytgacha matn strukturasi masalasi murakkab sintaktik qurilma materiali asosida o'rganilib kelindi. Buning asosiy boisi murakkab sintaktik qurilma bir necha gapdan tashkil topib, matn maqomida ham kelishi mumkinligidadir. Hozirgi davrga qadar matn lingvistikasi bo'yicha, asosan, masalaning umumiyligi jihatlari, tadqiqot metodlari haqida bildirilayotgan fikr va mulohazalar ham murakkab sintaktik qurilma materiallariga asoslanmoqda.

Rus olimi M.V.Lyapon ham matn tilshunosligi muammolarini murakkab sintaktik qurilmalar asosida talqin etadi. U matn tavsifi quyidagi to'rt tamoyilga asoslanishi mumkinligini ko'rsatadi:

1. Matn bu – jumlalarning o'zaro munosabatidan kelib chiquvchi xabar. Matn tadqiqotchi uchun til hodisalarini o'rganishda birdan bir manbadir.
2. Matn bu – so'zlovchining nutqiy qobiliyatini ro'yobga chiqaruvchi vositadir. Bu jarayonda matn tilning nutqda real qo'llanilishini ta'minlovchi makon vazifasini ham bajaradi.
3. Matn – so'zlovchining faol nutqiy faoliyati mahsulidir.
4. Matn bu – til sistemasining kommunikativ jarayonda muhim vazifa bajaruvchi eng yuqori pog'onasidir.

O'zbek tilshunoslida matn va u bilan bog'liq ayrim masalalar dastlab atoqli tilshunos olim A.G'ulomov tomonidan tadqiq etilgan. A.G'ulomov gapdagagi fikr tugalligining nisbiy ekanligini, asarda mazmun to'liqligi butun matndan anglashilishini ta'kidlab, quyidagilarni yozadi:

1. Fikr bayon qilish gap (sodda gap va qo'shma gap) doirasi bilangina chegaralanmaydi. To'liq fikrni, odatda, gapdan yirik bo'lgan sintaktik butunlik beradi. Gap bu butunlik sostavida uning bir komponenti sanaladi.
2. Bu komponent shu butunlikdagi boshqa komponentlar bilan har jihatdan (mazmun, grammatik) turli vositalar orqali bog'langan bo'ladi. Uning o'z kompozitsiyasi va stilistik xususiyatlari saqlangan bo'ladi.
3. Sodda gap butunlik sostavida ma'lum sharoitlarda o'zicha bir abzasni tashkil qilishi mumkin.
4. Bunday sintaktik butunlik, sintaktik konstruksiya tekst sanaladi. Ayrim – uzuq gap nisbiy tugal fikrni ifodalaydi, tekst butun bir kompleksning mundarijasini bildiradi.
5. Tekst bir butunlik bo'lganligidan u o'z mundarijasiga mos keladigan ayrim sarlavhalarga ega bo'lishi ham mumkin. Tekst ayrim segmentlarga – qismlarga (ayrim parchalarga, abzaslarga, gaplarga) bo'linadi). Demak,

tilning aloqa-ralashuv vositasi ekanligini tekst yana ham aniq ko'rsatadi. Nutq tekst tusida namoyon bo'ladi.

6. Tekst – yirik nutq parchasi, abzas esa tekstning bo'lagi. Tekstning hamma ko'rinishlari (maksimal tekst va minimal tekst) ma'lum bir temani (mundarijani) tugal ifodalaydi. Demak, u – yuqori darajadagi sintaktik birlik.

A.G'ulomov o'zbek tili tabiatidan kelib chiqqan va matnga berilgan umumiyligi ta'riflarga tayanib, matnning tabiatini va mohiyatini aniq ko'rsatib bergen. Matn haqidagi keyingi barcha qarashlar A.G'ulomovning mazkur fikrlari bilan hamohang, deyish mumkin.

Tilshunos olim E.Qilichev "Matnning lingvistik tahlili" (2004) nomli kitobida "Matn – hamma elementlari o'zaro zinchaloqada bo'lgan va avtor nuqtayi nazaridan ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan nominativ-estetik axborotni ifodalovchi murakab tuzilma", – degan ta'rifni beradi. I.Rasulov esa matnni quyidagicha ta'riflaydi: "Gapdan katta birlik murakkab sintaktik butunlik bo'lib, u fikran va sintaktik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan gaplar birlashmasidan iborat. Unda fikr gapga nisbatan ancha to'liq bo'ladi".

Matn lingvistikasining yana bir muhim tarmog'i – badiiy matnni lingvopoetik tadqiq qilish ham alohida kuzatishga zarurat sezadi. Xuddi shu masala 2009-yilda M.Yo'ldoshevning badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilishga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasida yoritildi. Mazkur doktorlik ishida badiiy matnda tilning estetik vazifasining namoyon bo'lish tarzi o'zbek adabiyotining eng sara asarlari misolida tahlil qilingan, badiiy matnning mazmuniy turlari hamda intertekstuallik muammosi faktik materiallar asosida tasnif va tavsif qilingan, badiiy matnning lingvopoetik tahlili tamoyillari ishlab chiqilgan, shuningdek, badiiy matnning shakllanish tarzi va unda ishtirok etuvchi lisoniy omillar o'rganilib, badiiy matnda fono-grafik, leksik, morfologik va sintaktik vositalarning poetik aktuallashish mexanizmlari aniqlangan.

Yuqorida fikrlardan kuzatiladiki, matn lingvistikasi yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan va olib borilmoqda. Ammo bu borada amalga oshirilishi lozim ishlar mavjudligi qayta-qayta ta'kidlanmoqda.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Jahon tilshunoslida matnga berilgan tavsif va tasniflar haqida nimalar bilasiz?
2. Matnning lingvistik tavsif va tasnifi deganda nimani tushunasiz?
3. Matnning xarakterli jihatlari qanday?
4. O'zbek tilshunoslida matnga qanday ta'riflar berilgan?
5. O'zbek tilshunoslida qachondan boshlab matn va u bilan bog'liq ishlar

rivojlana boshladi?

6. A.G'ulomovning matnga bergan ta'rifini izohlab bering.

**Topshiriq.** Matn lingvistikasi bilan maxsus shug'ullangan olim M.Yo'ldoshevning matn haqidagi quyidagi ta'riflarini izohlab bering.

- a) til sistemasining nutqda real qo'llanishi – matn;
- b) matn – nutq birligi, biroq til sistemasining mohiyati unda mujassam;
- c) matnning lingvistik tabiatini og'zaki shakldagi matn asosida emas, balki yozma shakl materiallariga tayangan holda o'rganish maqsadga muvofiq;
- d) matn yaratish ikki narsa bilan uzviy bog'liq: til materiali, inson omili.

**Topshiriq.** *Qoidani unutma/ Ma'nodan uzoq ketma/ Gapni cho'zma, oz gapir/ Keng ma'noli, soz gapir.* Mazkur she'riy parchani matn bilan bog'liq holda tushuntirishga harakat qiling.

**Foydalaniman adabiyotlar:**

- 1.Гальперин И. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981.
- 2.Ҳакимов М. Х. Ўзбек илмий матннинг синтагматик ва парадигматик хусусиятлари.НД. – Т., 1993.
- 3.Ҳакимов М. Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. ДД. – Т., 2001.
- 4.Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Т., 1988
- 5.Қиличев Э. Матннинг лингвистик таҳлили. – Бухоро, 2004.
- 6.Қурбонова М. Йўлдошев М. Матн тилшунослиги.–Т.: Университет, 2014.
- 7.Турниёзов Н. Матн лингвистикаси. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2004.
- 8.Тўхсанов М. Ўзбек бадиий нутқида микроматн ва унинг табиати. НД. – Т., 1987.
9. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДД. – Т., 2009.
- 10.Ўринбоев Б., Қўнғиров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили. – Т.: Ўқитувчи, 1990.

### **3-MAVZU. LINGVOPOETIKA MUSTAQIL YO'NALISH SIFATIDA REJA:**

- 1.Umumiy tilshunoslikda lingvopoetika borasidagi izlanishlar.
- 2.O'zbek tilshunosligida lingvopoetikaning o'rganilishi.
- 3.Lingvopoetika – umumfilologik tadqiqot.

**Tayanch tushunchalar:** *lingvopoetika, lingvostilistika, badiiy asar tili, poeziya tili, nasriy asar tahlili, she'riy asar tahlili, badiiy matn muammolari, tilning kommunikativ vazifasi, tilning estetik vazifasi.*

Ma'lumki, ijodkorlar asarlarini lingvistik tahlil qilish bilan tilimizni har jihatdan chuqur o'rganishga shart-sharoit yaratilib borilaveradi. O'tgan asrning birinchi yarmida ma'rifatparvar olimlar Oybek, Ayub G'ulomlar boshlab bergan bu tajriba tilshunosligimizning bugungi taraqqiyot bosqichiga kelib o'zining lingvopoetik tadqiqotlar darajasiga ko'tarildi.

Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, "badiiy asar tili turli usullarda o'rganilib, bu borada ko'plab ilmiy tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, mavzu bugungi kunda ham o'zining dolzarblik va yangilik bo'yog'ini yo'qotgan emas. Toki badiiy asarlar yaratilaverar ekan, ularning tilini va ijodkor poetik mahoratini tadqiq etish davom etaveradi. Nega deganda, yozuvchining individual uslubi, avvalo, uning tilida aks etadi<sup>5</sup>. Bu haqida mashhur rus yozuvchisi K. Fedin quyidagicha fikr bildiradi: "Yozuvchining mahorati haqidagi gapni tildan boshlash kerak. Til hamma vaqt asarning asosiy materiali bo'lib qoladi. Badiiy adabiyot bu til san'atidir. Hatto badiiy formaning bosh bo'laklaridan bo'lgan kompozitsiya ham yozuvchi tilining hal qiluvchi ahamiyati oldida keyinda turadi. Biz yetilmagan yoki hatto yomon kompozitsiyali yaxshi adabiy asarlarni bilamiz. Ammo tili yomon yaxshi asarning bo'lishi mumkin emas. Yozuvchi umrbod so'z ustida ishlashi kerak"<sup>6</sup>.

XX asrning boshlarida poeziyani o'rganishda lingvopoetik yo'nalishning shakllanishida Y.N.Tinyanov, V.M.Jirmunskiy, R.O.Yakobson, B.M.Eyxenbaum kabi olimlarning mehnati katta bo'ldi.

Lingvopoetika nazariyasiga oid qarashlar o'z aksini topgan manbalardan biri A.A.Lippgartning "Lingvopoetika asoslari" asaridir. Lingvistika va poetikaning oralig'ida yuzaga kelgan lingvopoetika sohasining predmeti, maqsad va vazifalari tadqiqiga bag'ishlangan ushbu asar chuqur tahlillarga tayanib yozilganligi ta'kidlanadi. Bu asarda V.Vinogradov, V.Tomashevskiy, A.Potebnya, R.Yakobson, O.Axmanova, I.Galperin, M.Baxtin, V.Zadornova singari taniqli rus filolog olimlarining lingvopoetikaga oid qarashlari tahlil etilgan.

Lingvopoetika va u bilan bog'liq masalalarni tadqiq etish o'zbek filologiyasi fanida o'tgan asrning birinchi choragidan boshlangan. Abdurauf Fitratning "Tilimiz" (1919), "Yopishmagan gajaklar" (1924), "Adabiyot qoidalari" (1926); Cho'lpionning "Adabiyot nadur?", "Tilimizning ishlanishi" (1923) nomli maqolalarida badiiy asar tiliga doir fikrlar bayon qilingan.

Kuzatishlar ko'rsatadiki, XX asrning 40-yillardan e'tiboran badiiy adabiyot tili masalalariga alohida e'tibor berila boshlandi. Bunda A.G'ulomovning xizmati katta bo'lib, xuddi shu mavzuda "Badiiy

<sup>5</sup> Умирова С. Ўзбек шеъриятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърияти мисолида. PhD. –Самарқанд, 2020. 35-б.

<sup>6</sup> Федин К. Маҳорат ҳақида. Бадий ижод ҳақида. Ёзувчиларнинг нутқ ва мақолалар тўплами. –Т., 1960, -Б.133-134.

adabiyotning tili haqida” va “Badiiy asar tilidagi ba’zi kamchiliklar haqida” nomli maqolalari e’lon qilindi.

So’ngra Sh.Shoabdurahmonovning “Ravshan” dostonining badiiy tili haqida” (1949) yozilgan nomzodlik dissertatsiyasi, A.Shomaqsudovning Muqimiy asarlari tiliga doir kuzatishlari (1953) bu boradagi tadqiqotlar ko’lamini kengaytirdi.

O’tgan asrning 70-80-yillaridan e’tiboran o’zbek tilshunosligida badiiy asar matnini lingvopoetik nuqtayi nazardan o’rganishga alohida e’tibor qaratila boshlandi. N.Mahmudovning Oybek she’riyati va Abdulla Qahhor hikoyalarining lingvopoetikasi tahlil etilgan ishlari shular jumlasidandir (Махмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. –Т., 2012. 115-127 б.).

Shu davrlarda A.Shomaqsudov, X.Doniyorov, I.Qo’chqortoyev, R.Qo’ng’urov, E.Begmatov, M.Mukarramov, X.Nazarova, M.Sodiqova, B.Bafoyev, B.O’rinboyev, Q.Samadov, S.To’rabekova, B.Yo’ldoshev, L.Abdullayeva, B.Umurqulov, S.Karimov kabi olimlarning o’zbek tili stilistikasining nazariy masalalari bilan shug’ullanishi, funksional stilistikaning keng ko’lamda tadqiq etilishi, ayrim stilistik kategoriyalarning chuqur o’rganilishi badiiy adabiyot tilini, xususan, alohida olingan shoir va yozuvchilar tilini tadqiq etishni ham yangi bosqichga ko’tardi.

Mustaqillik yillarida o’zbek badiiy matni muammolariga, lingvopoetikasi masalalariga bag’ishlangan bir necha dissertatsiyalar himoya qilindi, monografiyalar nashr etildi. I.Mirzayevning “She’riy matnni lingvopoetik talqin qilish muammolari” (-T.,1992), S.Karimovning “O’zbek tilining badiiy uslubi” (-Samarqand, 1992), M.Yoqubbekovaning “O’zbek xalq qo’shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari” (-T.,2005), M.Yo’ldoshevning “Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi” (-T.,2008) nomli doktorlik dissertatsiyalari, G.Muhammadjonovaning “80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o’zbek she’riyatining lingvopoetik tadqiqi” (-T.,2004), M.Muhiddinov va S.Karimovlarning “G’afur G’ulomning poetik mahorati” (-Samarqand, 2003), B.Yo’ldoshev, Z.Shodiyevlarning “Ufq” trilogiyasining lingvopoetik tadqiqi masalalari” (-Samarqand, 2006) monografiyalari shular jumlasidandir.

O’zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligida badiiy asar tili va uslubiy xususiyatlarini o’rganish o’tgan asrda boshlangan bo’lsa ham, uni lingvopoetik planda, nazariy jihatdan jiddiy o’rganish M.Yo’ldoshev ishlari bilan bog’liq. Olim “Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yaratdi va “Badiiy matn lingvopoetikasi” (-T., 2008) nomli monografiyasini e’lon qildi.

M.Yo’ldoshev badiiy matnning lingvopoetik tahlili haqida mulohaza yuritgan, o’zigacha bo’lgan fikrlarni umumlashtirgan, o’z qarashlari bilan boyitgan va uning, ya’ni badiiy asar lingvopoetik tadqiqining asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni belgilagan: mazmun va shakl birligi, makon va zamon birligi, matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabati, matnga badiiy-estetik yaxlitlik, butunlik sifatida yondashish,

matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash, matndagi eksplisitlik va implisitlik nisbatini aniqlash, matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash kabi.

Shuningdek, ishda poetik aktuallashadigan fonetik-grafik, leksik, morfologik va sintatik vositalar alohida-alohida tadqiq etilgan hamda ularning estetik salmog'i tahlil etilgan.

Adabiy matnlar lingvopoetikasiga bag'ishlangan yana bir tadqiqot M.Yaqubbekovaning "O'zbek xalq qo'shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari" nomli doktorlik dissertatsiyasidir (-T., 2005). Dissertatsiya ishida o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodining namunasi bo'lgan qo'shiqlarga lingvofolkloristikaning obyekti sifatida qaralgan. M.Yaqubbekova ushbu janr namunalarida sodir bo'ladigan poetik hodisalarining mohiyatini ochib berishga e'tibor bergan.

Badiiy asar tili poetikasiga bag'ishlangan tadqiqotlardan yana biri G.Jumanazarovaning "Shirin bilan Shakar" dostonining lug'aviy va lingvopoetik xususiyatlari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi hisoblanadi. Ushbu ish matn tadqiqida matematik metodlar va kompyuter texnologiyalaridan foydalanilganligi, dostondagi lug'aviy qatlamlar, troplar va poetik figuralar ilk bor lingvopoetik va lingvostilistik planda o'rganilganligi bilan ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

G.Muhammadjonovaning "80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi ham mavzumizga oid tadqiqotlardan biridir. O'tgan asrning oxirlari badiiy nutqining kumulyativ va ekspressiv xususiyatlarini ochib berish maqsad qilib qo'yilgan ushbu ishda qayd etilgan davr – mustaqillik arafasi badiiy nutqida yuz bergen o'zgarishlar aniqlangan va uning sabablari ochib berilgan. Ishda o'zbek she'riyatida qo'llanilgan leksik birliklar lingvopoetikasini tahlil etish orqali Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, A'zam O'ktam, Iqbol Mirzo singari zabardast o'zbek ijodkorlarining o'ziga xos uslubini aniqlashga harakat qilingan.

M.Qosimovaning "Badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlari" (-T., 2007) deb nomlangan dissertatsiya ishi O'zbekiston xalq yozuvchisi Tog'ay Murod asarlari matni misolida badiiy nutqqa xos bo'lgan va emotSIONAL-ekspressivlikka xizmat qiladigan lingvistik vositalar tahliliga bag'ishlangan.

Xullas, alohida filologik yo'nalish sifatida tilshunoslik, adabiyotshunoslik, poetika va estetika fanlari kesishuvida yuzaga kelgan badiiy matnning lingvistik tahlili keng qamrovli va murakkab tushuncha bo'lib, adabiy matnda kommunikativ-estetik vazifani bajaradigan individual til tizimi uning predmeti hisoblanadi.

### **Yaqin yillarda badiiy asar tili va uslubi o'rganilgan tadqiqotlardan namunalar:**

**Мирзаев И.** Провлемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дис. ...д-ра филол. наук. – Ташкент, 1992.

- Каримов С.** Ўзбек тилининг бадиий услуби: Филол. фан. д-ри дисс. – Тошкент, 1994. – Б.292.
- Жумаев Т.** Умар Боқий асарларининг лисоний хусусиятлари: филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – С.23.
- Холманова З.** «Шайбонийхон» достони лексикаси: филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – Б.25.
- Нормуродов Р.** Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари: филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – Б.25.
- Сайдов Ё.** Фитрат бадиий асарлари лексикаси: филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – Б.24.
- Бабаджанов Ф.** Ўзбек жадид драмаларининг лисоний хусусиятлари (Беҳбудий ва Авлоний драмалари асосида): филол. фан. номз... дисс. автореф. – Самарқанд, 2002. – Б.23.
- Боймирзаева С.** Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: филол. фан. номз... дисс. автореф. – Самарқанд, 2004. – Б.23.
- Тожибоев М.** Муҳаммад Шайбоний девони тилининг лексик-семантик хусусиятлари: филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – Б.24.
- Джалалова Л.** Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи: филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. –Б.22.
- Халиков А.** «Гўрўғлиниң туғилиши» достони тилининг лексик-семантик хусусиятлари: филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2009. – Б.24.
- Холманова З.** «Бобурнома» лексикаси тадқиқи: филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – Б.52.
- Хасанов А.** Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадииятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар: филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – Б.26.
- Нормаматов С.** Абдулла Авлоний шеърияти лексикасининг маъновий-услубий хусусиятлари: филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – Б.25.
- Кадирова Х.** Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати: филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2012. – Б.26.
- Максумова С. Э.** Воҳидов асарларида коннотативликнинг ифодаланиши: филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – Б.25.
- Хамраева Х.** Озод Шарафиддинов публицистикасининг тили ва услуби: филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – Б.27.
- Шофқоров А.** Миртемир шеъриятида такрорнинг маъновий-услубий хусусиятлари: филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – Б.27.
- Хамраева Х.** Озод Шарафиддинов публицистикасининг тили ва услуби: филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – Б.27.

- Ёқуббекова М.** Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – Б.27.
- Йўлдошев М.** Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 2009. – Б.313.
- Йўлдошев М.** Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – Б.26.
- Муҳаммаджонова Г.** 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – Б.25.
- Шадиева Д.** Муҳаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси: Филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – Б.26.
- Ибрагимова Ф.** Бадиий матнда эллипсис ва антиэллипсис. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2011.
- Жамолиддинова Д.** Бадиий нутқда парантез бирликларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2009.
- Муҳиддинов М., Каримов С. Faфур Ғуломнинг поэтик маҳорати.** Монография. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2003. – 26 б.
- Йўлдошев Б. Шодиев З.** «Уфқ» трилогиясининг лингвопоэтик тадқиқи масалалари. – Самарқанд, 2006. – 126 б.

### Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Lingvopoetika borasidagi kuzatishlar haqida gapiring.
2. “Lingvopoetika” atamasiga tavsif bering.
3. Bu sohada o’zbek tilshunosligida bajarilgan ishlardan sanang.
4. Lingvistika va lingvopoetikaning farqli jihatlari nimada?
5. Qaysi ijodkorlarning asarlari lingvopoetik jihatdan tadqiq etilgan?
6. Lingvopoetik tahlil jarayonida tadqiqotchidan nimalarga e’tibor berish talab etiladi?

**Topshiriq.** Lingvopoetika, lingvostilistikа sohasida bajarilgan muayyan bir tadqiqot haqida ma’lumot bering.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Т., 1988
- 2.Қурбонова М. Йўлдошев М. Матн тилшунослиги. – Т.: Университет, 2014.
- 3.Турниёзов Н. Матн лингвистикаси. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2004.
- 4.Тўхсанов М. Ўзбек бадиий нутқида микроматн ва унинг табиати. НД. – Т., 1987.
- 5.Умирова С. Ўзбек шеъриятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърияти мисолида. PhD. – Самарқанд, 2020.

6. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДД. – Т., 2009.

7. Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили. – Т.: Ўқитувчи, 1990.

#### **4-MAVZU. MATNNING TARKIBIY QISMLARI. MATNNING TARKIBIY QISMLARINI BOГ'LOVCHI VOSITALAR REJA:**

1. Matnning tarkibiy qismlari va bu boradagi qarashlar.
2. Matnning tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalar.
3. Matn birliklarining munosabati.
4. Matn – shaklan va mazmunan bir butun qurilma.

*Tayanch tushunchalar: matnning qismlari, murakkab sintaktik butunlik, supersintaktik butunlik, gap, erkin gap, abzas, bog'li nutq, takrorlar, olmoshlar, sinonimlar, zamon/makon ifodalovchi birliklar, parselyativ tuzilmalar, nominativ va infinitiv gaplar, murojaat birliklari, kiritmalar.*

Tabiiyki, har qanday butunlik kabi matn ham unsurlardan, muayyan birliklardan iborat bo'ladi. Tilshunoslikda qanday birliklar matnni shakllantirishi yoki matnni bo'laklarga ajratganda qanday birliklar aynan matn birligi deb hisoblanishi borasida ancha-muncha munozaralar mavjud. Aslida, matn birliklarini belgilash u qadar ham qiyin ish emasday tuyuladi. Bu masalada matn lingvistikasi tadqiqotchilari orasida juda ko'p va farqli qarashlar, ziddiyatli talqinlar mavjud.

M.Yo'ldoshev ta'kidicha, matnga ta'rif berganda, ikki asosiy belgiga, ya'ni bog'langanlik va yaxlitlikka alohida e'tibor berish lozim. Tabiiyki, bog'langanlik, yaxlitlik gaplar o'ttasida va gaplarning mazmuniy-grammatik birligi asosida yuzaga keladi. Ko'pgina matn tadqiqotchilari bu ikki belgiga alohida e'tibor qaratadilar.

##### **Matnning tarkibiy qismlari:**

**Supersintaktik butunlik.** M.Yo'ldoshev kuzatishlari va tadqiqiga ko'ra, matnning asosiy birligi sifatida "frazadan katta butunlik" matn birligi bo'la oladi. Tadqiqotda ayni shu "frazadan katta butunlik" matnning asosiy birligi sifatida baholanadi. Bu termin orqali ifodalangan tushuncha turli tilshunoslar tomonidan turlicha nomlanadi. Mazkur terminning bir qancha sinonimlari mavjud. Masalan: "frazadan katta butunlik" (O.S.Axmanova), "murakkab sintaktik butunlik" (A.M.Peskovskiy, N.S.Pospelov), "matn komponenti" (I.A.Figurovskiy), "prozaik strofa" (G.Y.Solganik), "sintaktik kompleks" (A.I.Ovsyannikova), "monologik jumla", "kommunikativ blok" va boshqalar<sup>7</sup>.

O'zbek tilshunosligida ham mazkur tushunchani ifodalash uchun rus

---

<sup>7</sup> Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДД. – Т., 2009. 73-б.

tilshunosligiga tayanilgan holda bir qator farqli terminlar qo'llanmoqda. Tadqiqotchi A.Mamajonov dastlabki ishlarida "yirik sintaktik birlik" terminini qo'llagan bo'lsa, keyingi ishlarida "superfrazali sintaktik birlik" terminidan foydalanadi. Matnning stilistik muammolari bilan shug'ullangan I.Rasulov va H.Rustamovlar esa "murakkab sintaktik butunlik" terminini ma'qul ko'radir. O'zbek matnidagi ana shunday birliklarni monografik tarzda tadqiq etgan M.Abdupattoyev "supersintaktik butunliklar" terminini qo'llashni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi<sup>8</sup>. Tadqiqotchi M.Yo'ldoshev ham mohiyatni to'g'ri va xolis aks ettiradigan atama sifatida "supersintaktik butunlik" terminini qo'llash ma'qul ekanligini aytadi.

M.Abdupattoyev nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek tilidagi matnda supersintaktik butunliklarning mohiyati, sintagmatik va semantik-uslubiy xususiyatlarini ilmiy asosli ravishda ko'rsatib bergan. Tadqiqotchi supersintaktik butunliklarning matn tarkibidagi chegaralarini belgilash, ularni ajratish prinsiplarini (semantik, grammatick va kompozitsion-stilistik) ishlab chiqqan. Shu asosda matndagi bir kichik mavzuning tugallanib, yangi bir mavzuga o'tilishi supersintaktik butunlikning strukturasini belgilovchi omillardan biri ekanligini, bu butunlikni tashkil etuvchi nisbiy mustaqil gaplar orasida mustahkam semantik-grammatick aloqa mavjudligini, ayni shu aloqa supersintaktik butunlikning semantik-struktural yaxlitligini ta'minlashini aytadi. Supersintaktik butunlik gaplardan iborat bo'ladi. Ammo har qanday ikki va undan ortiq gap birikib sintaktik butunlikni hosil qilavermaydi. Matnning mazkur birligida quyidagi sifatlar mavjud bo'lishi lozim:

- 1) yagona kichik bir mavzuning mavjudligi;
- 2) gaplar mazmunining umumiyligi, o'zaro uyg'unlik;
- 3) semantik yaxlitlik;
- 4) grammatick yaxlitlik;
- 5) kommunikativ yaxlitlik.

Masalan, quyidagi misolda mazkur sifatlarni kuzatish mumkin: *Iloji boricha odamlarning mushkulini oson qilishga harakat qil. Toki ular sen ekkan daraxtning mevasidan bahramand bo'lsin. Agar odamlarning mushkulini oson qilish qo'lingdan kelmasa, aqalli bir og'iz shirin so'z bilan ko'nglini ko'tar. Toki ular sen ekkan daraxtning soyasidan bahramand bo'lsin.* (O'.Hoshimov)

**Gap.** Ko'pgina ishlarda gapning matn birligi sifatidagi o'rni rad etiladi. Gap bunda sintaktik birlik, ya'ni sintaktik termin sifatida qaraladi. Ba'zi tilshunoslar esa gapni uzil-kesil "matnning minimal birligi" deb hisoblaydilar. Gapning matn hosil qilish xususiyati haqida gapirganda, mutaxassislar rus ritorikasi namoyandalaridan biri I.Davidovning "Gap dondir, undan butun asar unib chiqadi" tarzidagi juda obrazli qilib aytgan (1838-yilda) gapini eslashadi. Umuman aytganda, gap matn hosil bo'lishida o'ziga xos materialdir.

---

<sup>8</sup>Абдулпаттоев М. Ўзбек матнида суперсинтактик бутунликлар. НД. – Т., 1997.

Gapga matn birligi sifatida qarashda nutqiy vaziyatni ham inobatga olish lozim. To'satdan aytilgan har qanday gap matn birligi bo'la olmasligi mumkin. Masalan, kutilmaganda suhbatdoshingizga nutqiy vaziyat, holat (lisoniy maydon) dan tashqari aytilgan gap matn birligi bo'la olmasligi mumkin. Lekin shunday mazmuniy to'liq matnlar bo'ladiki, birgina gapdan iborat bo'lishi mumkin. Bu holatda mazkur misol (bir gapdan iborat matn) ga matn deb qarash, ayni paytda matn birligi sifatida baholash mumkin. Masalan: *Obro'ga erishishning eng halol yo'lli – kamtarlik.* (O'.Hoshimov) Bunda birgina gap matn talabiga javob bera oladi, ya'ni matn bo'la oladi.

**Erkin gap.** Ayrim tadqiqotchilar erkin gap atamasini ham qo'llaydilar. Ba'zan uchraydigan bu kabi gaplarni matn birligi sifatida baholaydilar. M.Yo'ldoshev o'z doktorlik dissertatsiyasida tadqiqotchilar A.Mamajonov va M.Abdupattoyev ishlariga tayanib erkin gap ham matn birligi bo'la olishini ta'kidlaydi hamda quyidagi misolni keltiradi: *Dala toshni kuydirgan saraton haroratini bag'riga yashirgan o'sha mash'um tutzor, azamat yigitning pahlavon ko'ksiga bosh qo'ygan qoq tush pallasi...*

*U damlar Dildorga katta baxt, tush kabi shirin hayot va'da qilgandi. Aldangan qiz hamon tush pallasi o'zini unutgan daqiqalarning dardini tortadi.*

Ayol kishiga vafo degan narsa qanchalar qimmatga tushishini ko'plar hali bilmaydi.

*Dildor hech kimni qoralayolmasdi. Faqat birgina o'zim aybliman deb bilardi. Agar u Nizomjonga bevafolik qilmaganda, bu kunlar boshiga tushmasdi.* (S.Ahmad, "Ufq")

Matnning lirik chekinish tarzida kelgan "Ayol kishiga vafo degan narsa qanchalar qimmatga tushishini ko'plar hali bilmaydi" qismi erkin gap sanaladi.

**Abzas.** M.Yo'ldoshev ta'kidicha, matn birliklarini belgilashdagi eng munozarali va behad ko'p tadqiq etilgan masalalardan biri abzasning mohiyati, tabiatи va matn tarkibidagi maqomi masalasidir. Abzasni matn birligi sifatida belgilashda ikki qarash mavjud. Bir qator tadqiqotchilar abzasni matn birligi sifatida belgilasalar, bir guruh tadqiqotchilar mazkur fikrni rad etishadi. Ularning fikricha, abzas til sistemasining birligi emas, shuning uchun unda boshqa sintaktik birliklardan farqlanishga xizmat qiladigan grammatik belgilar yo'q, demakki, u alohida sintaktik birlik emas. Ana shundan kelib chiqib, ular abzasni sintaktik kategoriya deb hisoblamaydilar. Ayni paytda ular abzasning yozma nutq amaliyotida fikr idrokini qulaylashtirish maqsadida yozuvchi tomonidan ongli ravishda ajratiluvchi birlik ekanligiga alohida urg'u beradilar. Qolaversa, shartli abzaslar (Masalan, T.Murod asarlarida ko'p kuzatiladigan shartli abzaslar) ham uchraydiki, bularning bari abzasning matn birligi bo'la olishiga soya soladi.

Abzasning matn birligiga munosabati borasida M.Yo'ldoshev shunday yozadi: "Hozirgacha qarab chiqilgan abzas haqidagi mulohazalardagi asosiy nuqtalarni shunday guruholashtirish mumkin: 1) abzas – sintaktik

birlik, 2) abzas sintaktik birlik emas, balki 3) abzas – kompozitsion-stilistik birlik, 4) abzas – kompozitsion-grafik usul. Ko'rinib turganiday, bu qarashlarning har biri boshqasini inkor etadi yoki to'la e'tirof etmaydi. Abzasning sintaktik (umuman lingvistik) hodisa emasligini, u o'z mohiyatiga ko'ra bunday bo'la olmasligini aksar tilshunoslar ta'kidlaydilar. Ammo shunga qaramasdan, abzas va supersintaktik birlik (murakkab sintaktik butunlik) munosabati masalasida babs-munozaralarning intihosi ko'rinmaydi”<sup>9</sup>.

Umuman olganda, ko'pchilik tadqiqotchilar fikriga ko'ra, matnning asosiy birlklari sifatida supersintaktik butunlik (murakkab sintaktik butunlik), gap, abzas belgilanadi.

**Matn birlklarini bog'lovchi vositalar.** Matn kamida ikkita gapdan iborat bo'lgan murakkab sintaktik butunlik sanaladi. Ayni paytda mazkur matn tarkibiy qismlari o'zaro shakliy va mazmuniy yaxlitlikka ega bo'ladi. Mana shu yaxlitlikni ta'minlashda ishtirok etadigan maxsus hodisalar (vositalar) mavjud. Matnni tadqiq etishda uni so'z birikmasi va gapdan farqlash lozimligi, matnning ham o'z kategoriyasi va qonuniyatlarini borligi aytiladi. Tilshunos M.Hakimov ilmiy matn tadqiqiga bag'ishlangan dissertatsiya ishida bu haqida shunday yozadi: “Matn so'zining lug'aviy ma'nosida birikish, bog'lanish tushunchalarining borligi, shuning uchun matn tarkibi o'zaro qaysidir bog'lovchilar yordamida birikishini o'rganish “Matn tilshunosligi” sohasining asosiy muammolaridan biri bo'lib qoldi”<sup>10</sup>.

Matnning tarkibiy qismlariga alohida ahamiyat qaratgan A.Mamajonov va M.Abdupattoyevlar “matn maxsus leksik-grammatik va umumiyligi mazmun talabi bilan birikkan birdan ortiq mustaqil gap turlarining yig'indisidan iborat”ligini ta'kidlaydilar.

Matn birlklari bog'lovchilarining o'zbek tilidagi asosiy ko'rinishlari quyidagicha:

- 1) takrorlar;
- 2) sinonimlar;
- 3) olmoshlar;
- 4) zamon/makon ifodalovchi birlklar;
- 5) parselyativ tuzilmalar;
- 6) nominativ (atov) va infinitiv gaplar;
- 7) murojaat birlklari;
- 8) kiritmalar.

Shuningdek, matn birlklarining o'zaro aloqasi masalasida manbalarda **mazmuniy yaqinlik, mazmuniy izchillik, matn komponentlarining o'zaro kontakt (masofasiz), distant (masofali) aloqalari** haqida ham fikrlar ilgari suriladi<sup>11</sup>. Matnda mazmuniy yaqinlik bilan birga mazmuniy izchillik ham

<sup>9</sup> Bu haqda qarang: Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. DD.– T.,2009, 81-b.

<sup>10</sup>Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва парадигматик хусусиятлари. НД. – Т., 1993. 38-b.

<sup>11</sup> Йўлдошев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Т.: Фан, 2008. 28-30-b.

ahamiyatli sanaladi. Masalan, atayin buzilgan quyidagi parchani kuzatamiz: 1. Duradgorlar ishlata digan "shayton" degan asbob bor. 2. "Shayton"ning shaytonligi ham shunda bo'lsa kerak. 3. Bunaqalar odamlar orasida ham uchrab turadi. 4. Qizig'i shundaki, birov undan "Kecha u yoqda eding, bugun nega bu yoqqa o'tib olding?" deb so'ramaydi. 5. Qaysi tomon baland bo'lsa, "lip" etib o'sha yoqqa o'tib oladi. Mazkur parchada mazmuniy yaxlitlik bo'lsa -da, lekin mazmuniy izchillik mavjud deb bo'lmaydi. O'.Hoshimovning mazkur ijod mahsuli, aslida:

*Duradgorlar ishlata digan "shayton" degan asbob bor. Qaysi tomon baland bo'lsa, "lip" etib o'sha yoqqa o'tib oladi. Bunaqalar odamlar orasida ham uchrab turadi. Qizig'i shundaki, birov undan "Kecha u yoqda eding, bugun nega bu yoqqa o'tib olding?" deb so'ramaydi. "Shayton"ning shaytonligi ham shunda bo'lsa kerak. (O'.Hoshimov, "Shaytonning fe'li")*

Matn komponentlarining o'zaro kontakt (masofasiz), distant (masofali) aloqalari haqida quyidagilarni aytish mumkin. Buning uchun quyidagi misolni kuzatamiz: 1. "Xalq" degan so'z bilan "halqa" degan so'zda mushtaraklik bor. 2. Qadimda zanjirning quvvatini aniqlash uchun eng ojiz halqani sinab ko'rishar ekan. 3. Negaki, yuzta halqa mustahkam bo'lgani bilan bittasi nobop bo'lsa, zanjir xuddi o'sha yerdan uziladi...

4 ...Bir-biri bilan zanjirdek bog'langan, orasidan "ola" chiqmaydigan xalqni yengib bo'lmaydi. (O'.Hoshimov, "Yakdillik") Matndagi to'rtta gap uzviy holda o'zaro kontakt (masofasiz) bog'langan bo'lsa, 1- va 3-; 2-va 4-gaplar o'zaro distant (masofali) bog'langan, deyish mumkin.

**Navbatda matn birliklarini bog'lovchi vositalarga to'xtalamiz:**

Takrorlar atamasi "takror so'z" hodisasidan farqli holda matn birliklarini o'zaro biriktirishda xizmat qilishi aytildi. Takrorlar ham tovushlar, ham grammatik shakllar, ham so'z birikmalari, ham gaplar vositasida yuzaga chiqadi. Takrorlarning yaqqol ko'rinishlari alliteratsiya (undosh tovushlarning takrori), assonans (unli tovushlarning takrori), anafora (misralar boshida so'zning takror-takror qo'llanish), epifora (misralar so'ngida so'zning takror-takror kelishi), xiazm (ikki qismidan iborat bo'lib, ikkinchi qism birinchisining teskarisi ko'rinishida) hodisalarida kuzatiladi. Masalan:

*Bozorda hayot qaynaydi. Mozor esa marhumlar makoni.*

*Bozorda shoh – shoh, gado – gado. Mozorda esa shoh-u gado barobar.*

*Bozorda shovqin tinmaydi. Mozor esa sukunat maskani.*

*Bozor bilan Mozor bir-biridan naqadar uzoq. Lekin...*

*Aqli raso odam hech qachon Bozorni buzmaydi, aqli raso odam hech qachon Mozorni ham buzmaydi...*

*Aqli raso odam qay yurtga bormasin, bozorni aylanadi. Aqli raso odam qay yurtga bormasin, Mozorni ham aylanadi.*

*Bozor bilan Mozor bir-biridan naqadar uzoq. Bozor bilan Mozor bir-biriga naqadar yaqin! (O'.Hoshimov, "Bozor va Mozor")*

**Sinonimlar.** Muayyan bir matnning tarkibiy qismlarini bog'lashda sinonimlar ham xizmat qila oladi. Masalan, "Vatan" sarlavhasi ostida matn tuzadigan bo'lsak, albatta, vatan so'zi bilan birga *yurt*, *ona zamin*, *ona tuproq*, *diyor*, *go'sha*, *o'lka* kabi vatan sinonimik qatori a'zolariga zarurat seziladi. Bu so'zlar matnning umumiy butunligini, mazmuniy yaxlitligini ta'minlashda qo'l keladi.

**Olmoshlar.** Ma'lumki, olmoshlarning matn tuzilishi uchun ahamiyati katta. Mazkur so'zlar matn yaratishda o'z o'rni ega. Masalan, "Anvar har galgidan ko'ra ishdan kech qaytdi, shunga qaramay, u kela sola kitoblar, qog'ozlari yoyilib yotgan ish stoliga o'tirdi" gapida "u" olmoshi ikki gapning bir-biriga bog'lashini ta'minlagan, deyish mumkin.

**Zamon/makon ifodalovchi birliklar.** Matn birliklari aloqasini ta'minlashda zamon va makon ma'noli so'zlar ham ishtirok etadi. Bu kabi ma'nolar deyarli barcha so'z turkumlari orqali ifodalanishi mumkin. Ot, sifat, birikmali sonlar, ravish, fe'l shakllari (ravishdosh, birikmali harakat nomi, sifatdoshlar), olmoshlar matn tarkibida payt yoki o'rin ma'no ifodasiga ega bo'la oladi. Masalan:

1. *Uyingda shunday ko'zgu borki, sen unga har kuni qaraysan. Har qaraganingda o'z fazilatlaringni ham, nuqsonlaringni ham ko'rasan. Bu ko'zgu – farzanding!* (O'. Hoshimov)
2. *Hech qachon Osmonga tupurma! Osmon qahrlı, Tupuging yuzingga qaytib tushadi! Hech qachon Yerga tupurma! Yer mehrli: tupuging yuzingga sachramaydi. Ammo shu Yer seni ko'ksida ko'tarib yuribdi!* (O'.Hoshimov)

Birinchi matndagi birliklar o'zaro payt ma'noli so'zlar (har kuni – har qaraganingda) bilan bog'langan bo'lsa, ikkinchi misolda matn birliklari o'rinn-joy ma'no ifodasida kelgan so'zlar (osmonga – yerga) ni biriktirib, bir mazmuniy yaxlitlikni yuzaga keltirishga xizmat qilgan. Shuningdek, *hech qachon* so'zi takror holda kelib, ma'noni kuchaytirish va mazmun uyg'unligini ta'minlash vazifasini ham bajargan.

**Parselyativ tuzilmalar.** Badiiy matnda parselyativ konstruksiylar matn komponentlarini ekspressiv-estetik maqsadga ko'ra qayta tartiblash orqali yuzaga chiqadi. Parselyatsiya fransuzcha *parceller* so'zidan olingan bo'lib, "bo'laklash, qismlar tarzida maydalash" ma'nosini ifodalarydi. Matnni bo'laklarga bo'lib ifodalashda ham muayyan maqsad ko'zlangan bo'ladi.

Manbalarda bunday qurilmalar ham matn birliklarini bog'lashda ishtirok eta olishi aytildi. Masalan: "*Hurriyat va adolat uchun kurashish kerak*"gapi "*Kurashish kerak. Hurriyat uchun. Adolat uchun*"tarzida qayta tartiblansa, ikkita parselyativ konstruksiya (*Hurriyat uchun* va *Adolat uchun*) yuzaga keladi.

**Nominativ (atov) va infinitiv gaplar.** Bu hodisa kitobxon ko'z o'ngida biror voqeа-hodisani, narsa-buyum yoki davrni jonli gavdalantirishga, uning xotirasi yoki xayolida ular bilan aloqador voqeа-hodisalarni tiklashga xizmat qiluvchi sintaktik birlikdir. Masalan: *Tun. Tanhomani*.

*Derazam yopiq/ Uriladi oynaga yomg'ir/ Junjikaman, o'ylarim siniq/ Koshki kelsang, ilisa bag'ir. (T.Ahmad) Bir sahar... Chayqaldi olam sarosar/ To'plar gumburiga cho'mdi bahru bar. (T.Ahmad)*

**Murojaat birliklari.** Murojaat birliklari fikr (gap) boshida kelganda buyurish ma'nosini ifoda etsa, fikr o'rtasi va oxirida kelganda subyektiv ma'no (muhabbat, suyish yoki aksincha holat) anglatadi. Shu bilan birga, matn tarkibiy qismlarining umumiyligini yuzaga chiqarish vazifasini ham bajaradi. Masalan: *Qip-qizil gulim, yop-yorug' oyim/ Ketma, tur biroz, men ko'ray seni. (A.Fitrat) Yovuz yorim, yuzingga hech boqolmam/ Ko'ngil dardim oyog'ingga to'kolmam. (A.Fitrat)*

Murojaat birliklari adabiyotda *nido, iltifot* san'atini yuzaga keltiradi. Murojaat birliklari muloqot uchun "ko'prik" vazifasini bajaradi.

**Kiritmalar.** Kundalik hayot, badiiy adabiyotda qahramonning muayyan bir tabiat - o'ziga xos salobati yo xususiyatini namoyon etishda kiritmalar keng qo'llanadi. Ifodani qabartirib ko'rsatishda kiritmalar ahamiyat kasb etadi. Kiritmalar, ayniqsa, kirish so'zlar uslub jihatdan ham farqlanadi: 1) jonli so'zlashuvda qo'llanadigan kirish so'zlar: *xayriyat, menimcha, mayli, yo'g'e, yaxshi, qariyalarning aytishicha, mening bilishimcha, bilishimcha, qaradimki, taxminimcha, hech bo'lmasa, ishqilib* va h.k.; 2) badiiy adabiyot (she'riyat) da qo'llaniluvchi kirish so'zlar: *afsuski, esiz, baxtimga, yaxshiyamki, deydilarki, shoyad, ajabo, toleyimga* va h.k. Kirish so'z va kirish birliklar tasdiq, inkor, fikr tartibi, izoh, fikr yo'nalishi, xulosalash, e'tiborni tortish, voqealarni rivojlantirish, asosiysi, matn birliklarini bir-biriga bog'lash kabi keng vazifa ifodalariga ega.

Xullas, matn haqidagi fikrlar to'laqonligi uchun matn birliklari va ularni bog'lanishi haqida xulosa chiqarishda matn tadqiqotchisi yetarlicha ma'lumotga ega bo'lmosg'i lozim. Manbalarda bu boradagi fikrlar turlicha. Ularni to'ldirish, bir-birini rad etuvchi fikrlarni tuzatish, bu boradagi qarashlarni kengaytirish matn tilshunosligi fani oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Matnning tarkibiy qismlarini sanang.
2. Matn tarkibiy qismlarining mazmuniy va grammatik jihatdan bog'liqligi deganda nimani tushunasiz?
3. Gapni bog'lovchi shakllar va matnni bog'lovchi shakllar qaysi jihat bilan farqlanadi?
4. Matnning tarkibiy qismlari bog'lanishi borasidagi muammolar nimalardan iborat?
5. Matn kengaytiruvchilari haqida qanday ma'lumotlarni bilasiz?

**Topshiriq.** Takrorlar orqali bog'langan quyidagi matnda keltirilgan jumlalardan nuqtalar o'rniiga mosini qo'yib o'qing.

- Iste'dodsiz iste'dodsizni yomon ko'rsa, nima bo'ladi?
- ...
- Iste'dodsiz iste'dodlini yomon ko'rsa, nima bo'ladi?
- ...
- Iste'dodli iste'dodsizni yomon ko'rsa, nima bo'ladi?
- ...
- Iste'dodli iste'dodlini yomon ko'rsa, nima bo'ladi?
- ...

(O'.Hoshimov)

**Maxsus so'zlar:** *hech narsa bo'lmaydi, fojia bo'ladi.*

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Абдулпаттоев М. Ўзбек матнида суперсинтактик бутунликлар. Н.Д. –Т., 1997.
- 2.Гальперин И. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981.
- 3.Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Т., 1988
- 4.Турниёзов Н. Матн лингвистикаси. – Самарқанд: СамдЧТИ нашри, 2004.
- 5.Турниёзов Н., Йўлдошев Б. Матн тилшунослиги – Самарқанд, 2006.
- 6.Йўлдошев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Т.: Фан, 2008.
7. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Д.Д. – Т., 2009.
- 10.Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили. – Т.: Ўқитувчи, 1990.

## **5-MAVZU. NUTQNING KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARI MATN BUTUNLIGINI TA'MINLOVCHI VOSITA SIFATIDA REJA:**

- 1.Nutqning to'g'riliği.
- 2.Nutqning aniqligi.
- 3.Nutqning mantiqiyligi.
- 4.Nutqning tozaligi va ta'sirchanligi.

**Tayanch tushunchalar:** *nutqning kommunikativ xususiyatlari, matn to'g'riliği, nutq to'g'riliği, nutqning aniqligi, nutqning mantiqiyligi, nutqning izchilligi, ta'sirchanlik, obrazlilik, jo'yalilik.*

Matn so'zlovchi nutqi sanalar ekan, unda nutqning kommunikativ xususiyatlari alohida o'ringa ega. Nutqimiz ravon, tushunarli bo'lishi, tinglovchini o'ziga jalb qilishi uchun so'zlovchidan bir qator shartlarni


bajarishni talab etadi. Bulardan eng asosiysi, nutqning aloqaviy sifatlarini to'laqonli egallahshdir. Nutqning asosiy xususiyatlari bo'lgan mazkur mezonlarga quyidagilar kiradi: to'g'rilik, aniqlik, soflik, mantiqiylik, ta'sirchanlik, obrazlilik, maqsadga muvofiqlik, jo'yalilik.

**Nutqning to'g'riliqi.** To'g'rilik, albatta, nutqqa qo'yilgan birlamchi kommunikativ xususiyat sanaladi. Agarki, nutq to'g'ri bo'lmasa, aniq ham, maqsadga muvofiq ham, tushunarli ham bo'la olmaydi. Har bir kishi o'z tilining "madaniy sayqal topgan til" darajasiga erishishi uchun, avvalo, nutqini to'g'rilib olmog'i lozim.

Shu o'rinda rus tilshunosi V.G.Kostomarovning quyidagi fikrlarini bayon etmasdan ketishning iloji yo'q: "To'g'rilik deganda, nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma'lum paytda qabul qilingan me'yoriga qat'iy va aniq muvofiq kelishini, uning talaffuz, imloviy va grammatik me'yorlarini egallahshini tushunish lozim"<sup>12</sup>. Demak, nutqning to'g'ri bo'lishi dastlab uning adabiy til me'yorlariga muvofiq kelishidir (1- va 2-chizma).

Nutqning to'g'ri bo'lishi, asosan, ikki me'yorga – urg'u va grammatik me'yorga amal qilishni taqozo qiladi.

## 1-chizma



## 2-chizma

<sup>12</sup> Костомаров В. Культура речи и стиль. – М., 1960, 24-6.



Xullas, nutqning to'g'riliği deganda, talaffuz me'yollariga e'tibor berish, grammatik me'yorga rioya qilish, asos bilan qo'shimchalar imlosiga, qo'shimchalarni o'z o'rnidagi qo'llash, ularni to'g'ri tanlash, gap bo'laklarini to'g'ri shakllantirishga e'tibor berish tushuniladi.

**Nutqning aniqligi.** Aniqlikni ta'minlash ham tilning, avvalo, leksik me'yolari, so'ng grammatik me'yolari bilan bog'liq (bu borada keyinroq to'xtalamiz). Aniq nutq obyektiv borliq va nutq mazmunining mosligi sifatida yuzaga chiqadi. Bu borada, ya'ni nutqning aniqligi bo'yicha Aristotel shunday deydi: "Agar nutq noaniq bo'lsa, u maqsadga erishmaydi. Ravshanlik tilning asosiy fazilati".

Nutqning aniqligi bevosa ta'minlash bilan uzviy bog'liq. Nutqdan ko'zlangan maqsad amalga oshishi uchun, albatta, aniqlik mezoniga e'tibor qaratish lozim. Aniqlikni ta'minlash bevosa so'zning ma'nosini chuqur bilish bilan bog'liq. Shuningdek, aniqlik inson tafakkuri bilan ham aloqador. Fikr tiniqligi nutq tiniqligini – aniqligini ta'minlaydi. Bu borada A.N. Tolstoy shunday deydi: "So'zdagi noaniqlik, shubhasiz, fikr noaniqligining alomati". "Mujmal gapirish, – deydi G.Galiley, – har kimning qo'lidan keladi, aniq gapirish esa ayrim kishilarga xos".

Aniqlik, qisqalik fikr ixchamligiga yo'l ochadi. Nutq orasida "gapi pach", "gapining tuzi yo'q" tarzidagi jumlalar uchrab turadi. Bunday mujmal, mavhum, tushunarsiz jumlalar esa aniq bo'limgan nutq natijasi sababli paydo bo'ladi.

Nutqning aniqligini ta'minlash yana quyidagilar bilan ham bog'liq.

*Sinonim so'zlardan keraklisini tanlay olish va nutqda qo'llash.*

Masalan, *quyoshli yurt farzandlari* jumlesi o'rnidagi *oftobli yurt farzandlari* deya olmaymiz. Yoki yana bir misol: *Aksiya mobaynida yutilgan yutuq natijalari haqida ma'lumotlar* "Sug'diyona" gazetasida e'lon

*qilinardi*. ("Sug'diyona", 2014-yil, 3-aprel). Bu gapda *yutilgan* so'zi noo'rin keltirilgan. *Yutilgan* so'zi o'rnda uning sinonimi bo'lgan "qo'lga kiritilgan" so'zini qo'llash lozim edi.

*Paronim so'zlarni bilish, ulardagi tovush yaqinliklariga e'tibor berish*. Paronim so'zlarning ma'nosini bilmay qo'llash nutq aniqligiga aks ta'sir ko'rsatadi. Afsuski, bunday holat tez-tez uchrab turadi.

O'z paronimik jufti mavjud so'zlardan foydalanishda so'z ma'nosini chuqur bilish shart. Aks holda *nufuz-nufus*, *diplomat-diplomant*, *tanbur-tambur*, *tunamoq-to'namoq* (televideniye filmlarida ko'p hollarda *tunamoq-to'namoq* juftligini farqlamasdan qo'llash uchraydi), *yondosh-yondash* va h.k. paronimlarning keraksizi tanlanib, nutqda qo'llashda xatolikka yo'l qo'yilishi mumkin.

*Chegaralangan qatlama oид so'zlar (noadabiy qatlama so'zlar, kasbhunarga oид so'zlar, sheva so'zlar, varvar so'zlar)ning ma'nolarini yetarlicha tushungan holda nutqda qo'llash*. Bunday so'zlarga ba'ziba'zida bo'lisa-da, ehtiyoj seziladi. Mana shu vaqtida so'z tanlashda e'tiborsizlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Xullas, nutq aniqligiga e'tibor berish so'zlovchining "til sezgirligi" bilan ham bog'liq. Har bir so'z va jumlanı talabga ko'ra, zarurat natijasi o'laroq qo'llash nutq aniqligini ta'minlaydi.

**Nutqning mantiqiyligi.** Har qanday nutq g'alizlik, to'mtoqlik, qo'pollik, mujmallikdan yiroq bo'lishi kerak. To'g'ri, hamma ham chiroyli so'zlash qobiliyatiga, notiqlik san'atiga, nutqiy salohiyatga, chechan nutqqa ega bo'lmasligi mumkin. Biroq mantiqiy nutq tuzishga majbur. Aks holda, til boshga balo yog'dirishi mumkin.

Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlari – to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'langandir. Chunki grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifoda etish uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan leksik birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o'quvchiga ifodalanayotgan fikrning to'liq borib yetmasligiga, ba'zan umuman anglashilmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Nutqni shakllantirishdagi e'tiborsizlik oqibatida ba'zan mantiqsizlik ham yuz beradi. Quyidagi misolga diqqat qilaylik: *Ferma jonkuyarlari olti oylik davlatga sut sotish planlarini muddatdan oldin bajardilar* (Gazetadan). Gapda so'zlarning tartibi to'g'ri bo'lmasligi, *olti oylik* birikmasining *davlat* so'zidan keyin kelmagan mantiqqa putur yetkazyapti, fikrni bayon qilishda xatolik yuz beryapti.

Nutqning mantiqiy bo'lishi so'zlovchi yoki yozuvchining tafakkur qobiliyati bilan bog'liq. Nutqimizning izchil, mantiqiy bo'lishi ko'p mutolaa bilan bog'liq. So'zlovchining aqli va tafakkuri, bilim saviyasi, madaniyati uning mantiqiy nutqi bilan namoyon bo'ladi. So'zlovchi so'zlash jarayonida tinglovchini o'ziga jalb eta olishi, unga ta'sir ko'rsata olishi uchun izchil, tadrijiy va albatta, mantiqiy nutq tuzishga erishishi kerak.

Mantiqiy nutq erkin fikrlash, mantiqiy mushohada bilan uzviy bog'liq bo'lib, albatta, til fanining leksik-grammatik me'yorlarini bilishni ham talab

etadi. Masalan, matn tarkibidagi so'zlarni bir-biriga mazmunan bog'lashda, ular orasidagi grammatik aloqaga e'tibor bermasdan ilojimiz yo'q.

Nutqni mantiqiy tog'ri shakllantirish sintaktik me'yorlarga amal qilish bilan ham bog'liq. So'z va jumla tanlashda o'ta ehtiyyotkorlik shart. Aks holda yuz qizaradigan holatga tushib qolishimiz mumkin. Bu borada A.Qahhor o'zining "Bolalar adabiyoti to'g'risida" maqolasida shunday deydi: "Dokladda muzokaraga chiqqan o'rtoqlarning nutqida odam xijolat bo'ladigan misollar ko'rsatildi. Bularning ichida yozuvchining chalasavod ekanini ko'rsatadigan faktlar ham bor. Bu qandoq gapki, yozuvchi – bolalarning ikkinchi muallimi bo'lgan yozuvchi chalasavod, jumla tuzolmaydi! Yozuvchi bo'la turib, o'zbek so'zlarining ma'nosini bilmaydi, so'zni o'z o'rnida ishlatmaydi... Bolalar uchun kitob yozadigan kishi g'oyat usta san'atkor, katta tajribali pedagog, tilning zarshunosi bo'lmos'i kerak".

Mantiqsiz nutq ko'rinishlari, aniqrog'i, so'zlar birikishidagi izchillik, mazmuniy munosabat buzilgan holatlar ko'cha-ko'ydag'i reklama yozuvlarida ham kuzatilib qoladi. Masalan, *salqin ichimliklar, do'mboq jo'jalar, baxtli jo'jalar* kabi qo'llanishlarda so'z qo'llash bilan bog'liq g'alizliklar seziladi. Aslida salqin so'zi uy, joy, havoga ko'ra aytildi. Ichimlikka nisbatan esa yaxna so'zi ishlatilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Keyingi jumladagi do'mboq, baxtli so'zlarining ishlatilishini ham maqsadga muvofiq deb bo'lmaydi.

Xullas, mantiqli nutq ko'rinishi kishi nutqining risoladagidek bo'lishini ta'minlaydi. Bunda til bilimidan yetarlicha foydalana olish ko'nikmasi muhim sanaladi.

**Nutqning tozaligi.** Nutqning tozaligi, avvalo, uning adabiy til me'yorlariga muvofiq kelish yoki kelmasligi bilan bog'liq. Nutq tozaligiga erishish ham so'zlovchidan mas'uliyat talab etadi. Tozalik madaniy nutqqa qo'yiladigan talablardan biri sanaladi. Ma'rifatli otabobolarimizning mehnati, donoligi va sobitligi tufayli o'zbek tili o'z sofligi, serjilo va purma'noligini saqlab kelmoqda.

Ma'lumki, har bir til shu xalqning ma'naviyati, ruhiyati, bir so'z bilan aytganda, o'zligini ko'rsatib turadigan buyuk in'omdir. Bu borada ulug' olmon tilshunosi Vilgelm fon Gumboldtning quyidagi so'zlarini e'tirof etmasdan o'tolmaymiz, albatta. U yozadi: "Mening millatim tilining doiralari mening dunyoqarashimning doiralarini bildiradi". Bundan ko'rindiki, tinglovchining so'zga, jumlaga bo'lgan loqaydligi shu tilda so'zlaydigan xalqqa, millatga nisbatan bepisandligidan o'zga holat emas.

Ba'zida ma'naviyat va ma'rifat targ'ibotchilari nutqida ham yot til unsurlari, to'mtoq jumlalar (Masalan: *nima desam ekan, anaqa, tak, znachit, haligi, prosto, vobshe, nu va b.*) ning ishlatilishiga guvoh bo'lamic. Yoshlarga ta'lim-tarbiya berayotgan katta yoshdagi kishilar nutqidagi bu kabi g'alizlik va chaynalishlarni oqlab bo'ladimi?

Tilshunoslik fanining yangi tarmoqlaridan biri bo'lgan Lingvokulturologiya, Amaliy filologiya, xususan, Nutq madaniyati fanlari

ham bevosita nutqning tozaligiga daxldor hisoblanadi, toza nutq bu kabi fanlarning obyekti sanaladi.

Nutq tozaligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan quyidagi holatlar mavjud:

I. *Sheva unsurlari.*

Ma'lumki, shevaga xos so'z, iboralardan foydalanish, qolaversa, grammatik shakllar, talaffuz ma'yorlarini buzib so'zlash nutq tozaligiga zarar yetkazadi. Sheva unsurlari (leksik, fonetik, grammatik vositalar) adabiy til me'yorlariga bo'ysunmaganligi uchun ham nutqning tozalik sifatini buzadi. Shevaga xos talaffuzdan butunlay qutulish qiyin bo'lsa-da, so'zlovchi, xususan, ma'ruzachilar (o'qituvchilar, jurnalistlar, diktorlar, aholi bilan tez-tez muloqotda bo'luvchi shaxslar) o'z nutqiga doimo e'tiborda bo'lishi, o'z kasb-koriga mas'uliyat bilan yondashishi natijasida ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

II. *Adabiy tilga o'zlashmagan chet so'z va iboralar.*

Bu kabi so'zlar til hodisasi sifatida varvarizmlar deyiladi. Tilning lug'at tarkibiga kirmagan, faqatgina og'zaki nutqda mavjud bo'lgan bunday (Masalan: *otlichniy, konechno, maxan, paxan, bratan, privet, mersi, okey, babulya, kashmar, chyotkiy, poka* va h.k. ) ajnabiy so'zlar nutq tozaligiga katta zarar yetkazadi. Mazkur so'zlar, asosan, yoshlar nutqida uchraydi. Bu tarzdagi ajnabiy so'zlardan yoshlarimizni xalos etish nutq tozaligiga qo'yilgan asosiy talablardan biri.

O'rni kelganda aytish joizki, badiiy matn tarkibida ijodkorning muayyan badiiy maqsadi tufayli ishlatalgan varvar so'zlarni yuqoridaq holat bilan qiyoslamaslik lozim. Bu hol badiiy asar yaratish mezonlariga muvofiq keladi: Dinsiz ekanini *dokazat* etish uchun kolbasa yeb ko'rsatdi. (S.Ahmad, "Buqalamun bilan uchrashuv " hikoyasidan) Qator-qator lampalar, o'zim Toshkentdan atay sotib olib kelgan qirqinchi fonarlar qayoqqa ketibdi, kerosin bo'lsa bir yilga yetarligini bochka-bochka *zapas* qilib qo'ygan edim. (G'.G'ulom "Shum bola" qissasidan).

III. *Jargon va vulgar so'zlar.*

Nutqda ba'zan madaniy nutqning tozaligiga jargon hamda vulgar so'zlar ham putur yetkazishi mumkin. Ma'lum bir guruh kishilarigina tushunadigan to'qima tilga nisbatan jargon so'zlar deyiladi. Ayrim yoshlarning o'zaro suhabatida kuzatiladigan "tanka", "hachcha", "ko'k", "ment", "limon", "xit" kabilarni ijobiy baholash mumkin emas.

IV. *Nutqda ortiqcha takrorlanadigan "parazit" so'zlar va "konselyarizm"lar.*

Ayrim kishilar nutqida, asosan, so'zlashuv jarayonida *masalan, shu desangiz, misol uchun, xo'sh, demak, tak, maqsad, degancha, aytaylik, haligi, ibi, nima, nimajon* va h.k. kabi so'zlarni tez-tez qo'llash odatga aylangan. Bundan qutulish qiyin kechsa-da, so'zlovchi toza nutq tarafdoi ekan, bu kabi salbiy holatdan tiyilishi lozim. Bu hol, ya'ni "parazit" so'zlarni ishlatish so'zlovchi (notiq)ning o'z nutqiga e'tiborsizligi sababli yuzaga keladi va bora-bora odatga aylanib qoladi.

Tadqiqotchi A.Ahmedov o'zining "Til boyligi" asarida bu holatga

tanqidiy yondashib, shunday yozadi: "Bir dokladchining bir soatlik nutqida "o'rtoqlar" so'zi 101 marta, "ya'ni" so'zi 73 marta, "demak" so'zining 63 marta takrorlanganligining guvohi bo'lganmiz"<sup>13</sup>.

"Konselyarizm"lar ish qog'ozlari (rasmiy-idoraviy uslub) hamda fikrni ixcham va mantiqiy ifodalash uchun juda zarur bo'lgan, ma'lum bir shaklda saqlanadigan jumlalardir. Ular o'z o'rnidagina kerakli. Chunki ish qog'ozlari qat'iy bo'lgan ma'lum shakllarni talab etadi. Biroq bunday "qat'iy shakllar", shablonlar so'zlashuv nutqiga o'tsa, nutqni buzishi mumkin. O'rinsiz konselyarizmlar majlislarda, kengashlarda, radio va televideniyedagi nutqlarda uchrab turadi.

"Bundan 365 kun muqaddam siz bilan biz o'z hayotimizda qat'iy burilish yasab, zo'r sinovlar sharoitiga bevosita qadam qo'ydik... (A.Qahhor) Gapdag'i "365 kun muqaddam", "qat'iy burilish yasab, zo'r sinovlar sharoitiga bevosita qadam qo'ydik" kabi nutq birliklarini qo'llash bilan yozuvchi ayrim "notiqlar" ustidan kuladi<sup>14</sup>.

Xullas, nutqning tozaligiga barcha birdek mas'ul sanaladi. Har bir kishi kiyimi, xonasi, tana a'zolari, o'y-xayollarini toza tutganidek, o'z nutqini ham sof saqlashi, uni ortiqcha, yot unsurlardan himoyalashi shart va zarur.

**Nutqning ta'sirchanligi.** Asosan, adabiy tilning og'zaki shaklida nutqning ta'sirchanligiga e'tiborliroq bo'lish talab etiladi. Donolar aytganlaridek, ta'sirchan nutq tinglovchi va o'quvchining e'tibori va qiziqishini hisobga oladigan nutqdir. So'zlovchi tinglovchilarning qiziqishlari, saviyasi, xohishi, ruhiy holati – bari-barini inobatga olgan holda ish tutishi o'ta muhim. Aks holda so'zlovchi (notiq) tinglovchiga o'z fikrini to'laqonli yetkaza olmaydi, uning nutqi o'zgalar uchun zerikarli bo'lishi mumkin. Bir so'z bilan aytganda, so'zlovchi maqsadiga erisha olmaydi.

Nutq ta'sirchanligini ta'minlashda so'zlovchi oldiga o'ziga xos mas'uliyat hamda muayyan talablar qo'yiladi. Avvalo, nutq mantiqan to'g'ri, fikran aniq, shaklan sodda, yo'nalishiga ko'ra maqsadli, qolaversa, jo'yali bo'lishi lozim.

Tadqiqotchilar aytganidek, professional bilimga ega bo'lgan kishilar oldida jo'n, sodda tilda so'zlash maqsadga muvofiq bo'lmagan kabi oddiy, yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lmagan tinglovchilar oldida ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilish maqsadga muvofiq emas.

Ta'sirchan nutq sohibi bo'lish har kimga ham nasib etavermaydi. Buning uchun tinimsiz mehnat talab etiladi. Bunda, avvalo, nutqning to'g'riliqi va aniqligini ta'minlash lozim bo'ladi. Nutq grammatik jihatdan to'g'ri shakllangan bo'lishi, orfoepik talablar darajasida talaffuz etilishi,

<sup>13</sup> Аҳмедов А. Тил бойлиги. –Т.: Фан, 1968. 27-б.

<sup>14</sup> Расулов Р. Хусанов Н. Мўйдинов Қ. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. Ўқув қўлланма. – Т., 2006. 30-б.

gap qurilishida izchillik bo'lishi lozim. Shundagina tinglovchi e'tibori so'zlovchida bo'ladi.

Nutqning ta'sirchanligiga erishishda izchilikka riosa etish o'ta shart. Notiq nutq so'zlash jarayonida so'z borayotgan narsa-hodisa haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi nutq izchilligini ta'minlovchi birinchi mezondir. Shuningdek, doimo bir xil ohangda, bir xil tempda va ovoz balandligida nutq so'zlar ekan, mazkur nutqning ahamiyatlilik darjasini yuqori bo'lishidan qat'i nazar tinglovchi-o'quvchi zerikishi mumkin. Ta'sirli nutqda ohang ham muhim.

Joiz bo'lsa, aytish mumkinki, ta'sirli nutq teran fikr mahsuli sanaladi. Fikri o'tkir, keng qamrovli, mushohadali insonning nutqi ham shunga loyiq bo'ladi. Chunki o'ylab, fikrlab, aql taroziga tortilib, so'ng bayon etilgan nutq tinglovchini e'tiborsiz qoldirmaydi, albatta.

So'zlovchining o'z nutqiga munosabati ham muhim. Shunday bo'lgandagina quruq rasmiyatchilikdan qochish mumkin bo'ladi. So'zlovchi va tinglovchi o'tasida samimiyat paydo bo'ladi. Notiq fikrlarini o'zi yoki auditoriyadagi kishilar hayotidan olingen misollar asosida isbotlashga harakat qilsa, mavzuga doir subyektiv mulohazalarini bildirsa, nutq yana ham ishonarli va ta'sirli chiqadi.

Nutq jozibasi-yu ta'sirchanligi ayniqsa, o'qituvchilar uchun zarur bo'lgan shartlardan biridir. Chunki o'qituvchining nutqi o'tmas, nochor bo'lsa, uning bilimi qanchalik chuqur va tugal bo'lmasin, o'ziga ham azob, o'quvchi sho'rlikka ham azob. Ona tilida puxta, lo'nda va shirador nutq tuza olish malakasi va mahorati matematika o'qituvchisi uchun ham, ona tili o'qituvchisi uchun ham birday zaruriy fazilatdir. O'qituvchi go'zal, o'zni ham, so'zni ham qiynamaydigan, ravon va ifodalarga boy nutqi bilan o'quvchini mahliyo etib, bermoqchi bo'lgan bilimini yosh inson shuuriga osonlik bilan olib kiradi<sup>15</sup>. Ko'rindiki, ta'lim-tarbiya targ'ibotchilarini nutqiga qo'yiladigan talab katta. Chunki ularning quroli so'z. So'zdan unumli, o'rinli foydalanish ularning og'irini yengil qilishda asqatadi.

Nutqning ta'sirli, jozibali bo'lishini ta'minlovchi yana quyidagi hodisalarga e'tibor qaratish foydadan xoli bo'lmaydi.

Nutqimizda maqol, matal, ibora (ayniqsa, frazeologik iboralar), hikmatli so'z (aforizm) lardan unumli foydalanish lozim.

So'zlovchi ko'chma ma'noli so'zlar (metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet)dan, o'rni bilan mubolag'alardan foydalansa ham nutq ta'sirchanligiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Ta'sirchan nutq yaratishda vaqtini inobatga olish ham muhim ahamiyatga ega. Ma'ruza so'zlashda vaqtini inobatga olish notiqlik fazilatlaridan sanaladi. Zero, so'zlash muddati oldin e'lon qilinib, bunga amal qilinmasa, tinglovchilar uchun belgilangan muddatdan keyingi nutqqa tinglovchilar e'tiborsiz bo'lishi mumkin. Chunki tinglovchi miyasi shu muddatgagina moslashib olgan bo'ladi. Qolaversa, nutq muddatdan

<sup>15</sup> Маҳмудов Н. Маърифат манзиллари. – Т., 1999. 28-6.

oldinroq tugatilsa, ayni muddao bo'ladi.

Notiq doimiy ravishda o'z tinglovchilariga hushyor boqishi, zerikish kuzatilgan, qiziqish susaygan vaqtida vaziyatga qarab o'z nutqiga ijodiy yondashmog'i talab etiladi. Notiq muayyan bir mavzu haqida gapirar ekan, o'rni kelganda, o'z hayotidan olingan misollar bilan ma'ruzasini to'ldirishi ham mumkin. Bu ham ishonarli, ta'sirli nutq ko'rinishi bo'la oladi.

Nutqning ta'sirchanligiga erishishda tilning tasviriy vositalari, uslub yaratuvchi vositalari hisoblangan metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish, epitet, takror va adabiy ko'chimlarning ham roli katta<sup>16</sup>.

Nutqning ta'sirchanligi, o'z navbatida nutqning ifodaviyligi va obrazliligini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin. Aniqrog'i, nutqimizda qo'llangan ko'chma ma'noli so'z va iboralar, maqol va matallar, hikmatli so'z va aforizm, she'riy parchalar obrazlilik va ifodaviylikka keng yo'l ochadi.

Xulosa shuki, ta'sirli nutqqa erishish so'zlovchidan mas'uliyat – izlanish, o'ylov, fikrlash, topqirlik, bir so'z bilan aytganda, til bilimini talab etadi. Tafakkur, ong, aql ko'lami qanchalik yuqori bo'lsa, nutq ta'sirchanligi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. O'zbek tili va uning jozibasi haqidagi fikrlaringizni misollar asosida gapirib bering.
2. Nutqning to'g'rilingini ta'minlovchi mezonlar qaysilar?
3. Nutq aniqligini ta'minlovchi mezonlar qaysilar?
4. Nutq aniqligi nutqning to'g'riliği va mantiqiyligi bilan qay jihatdan bog'liq?
5. Nutq aniqligi borasida qanday maqol va hikmatli so'zlarni bilasiz?
6. Nutq aniqligi buzilgan parchalardan misollar keltiring.
7. Nutqning mantiqiyligi nima?
8. Mantiqsiz nutq ko'rinishlariga misollar keltiring.
9. "Nutqning sofligi" deganda nimani tushunasiz?
10. Nutqning tozaligi talablarini tushuntirib bering.
11. Nutqning tozaligi nimalarga bog'liq?
12. O'zbek tili lug'at qatlaming "tozalik darajasi"ni izohlang.
13. Tilning sofligi buzilgan parchalardan namunalar ayting.
14. Nutqning ta'sirchanligi deganda nimani tushunasiz?
15. A.Qodiriyning "So'z so'zlashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak" jumlasini izohlang.
16. Parafrazalarning ta'sirli nutqni hosil qilishdagi o'rni qay darajada?
17. She'riy parchalarning nasriy matndan ko'ra ta'sirli ekaniga misollar keltiring.

---

<sup>16</sup> Rasulov R. Husanov N. Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. - T. 2006 . 32-b.

**Topshiriq.** Davriy matbuotda nutqning to'g'riliqi buzilgan misollarni kuzating, munosabat bildiring.

1. Ammo ko'p qimmatli vaqtimiz to'ylarga borish, yig'gan-terganimizni to'yna yoki sovg'a olishga sarflayotganimiz farovon hayotimiz (aslida – hayotimizni) bir qadar suiiste'mol qilish emasmi? ("Qorovulbozor tongi", 2015- yil, 17-25- sentabr soni).
2. Aravada (aslida – aravaga) o't yuklab, daladan qaytayotgan edim. ("Parvona", 2008-yil, 24-iyun soni).
3. Bunaqada o'zingizga javr (aslida – jabr) qilasiz-ku?! ("Darakchi", 2001-yil, 6-sentabr soni).
4. Barchamiz ma'sulmiz (aslida – mas'ulmiz). (Sarlavhadagi xatolik: "Galaosiyo ovozi", 2009-yil, 1-yanvar soni).
5. Zero, yurtboshimiz takidlaganidek (aslida – ta'kidlaganidek), "... bugungi kunda faqat ijtimoiy jihatda (aslida – jihatdan) yaxshi ta'minlangan harbiy xizmatchilar, shu bilan birga, puxta tayyorgarlikga (aslida – tayyorgarlikka) ega bo'lgan, kuchli, har tomonlama ta'minlangan Qurolli Kuchlarga davlatimiz xafsizligini (aslida – xavfsizligini) ta'minlashga qodir bo'ladi". ("Buxoro adabiyoti va san'ati", 2016-yil, 1-yanvar soni).
6. Yangi – yilingiz (aslida – Yangi yilingiz) muborak bo'lsin, aziz yurtdoshlar! ("Buxoroyi sharif", 2016-yil, 1-yanvar soni).
7. Odamzot (aslida – odamzod) nima maqsadda farzandi dunyoga kelgach, borini berib bo'lsa-da, uni bekam-u ko'st (aslida – bekamu ko'st) voyaga yetkazadi? ("Kelajak ovozi", 2014-yil, 8-son).

**Topshiriq.** Davriy matbuotda nutqning aniqligi buzilgan misollarni kuzating, munosabat bildiring.

- 1.Uyimizda savlat to'kib o'tirgan, ko'cha-kuyda sog'lom, yuzlaridan nur yog'ilib turgan otaxon va onaxonlarimizni ko'rib havas qilamiz. ("Erkatoy", 2015-yil, 2-son)
2. Gaz yoqilg'isi: uning xavfsizligiga javobgarsiz ("Qorovulbozor tongi", 2015-yil, 17-25-sentabr).
- 3.To'rt muchalingizning sog'ligi – katta baxt, o'g'il-qizlaringizning borligi – beqiyos baxt! ("Galaosiyo ovozi", 2016-yil, 1-yanvar)

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Т.: Фан, 1981.
- 2.Абдураҳмонов Ғ. Стилистик нормалар ҳақида //Ўзбек тили ва адабиёти, 1969, №6.
- 3.Бегматов Э. Бобоева А. Асомиддинова М. Адабий норма ва нутқ маданияти. – Т.: Фан, 1983.
4. Бекмирзаев Н. Нотиқлик асослари. Ўқув кўлланма. – Т., 2012.
5. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд, 1992.
6. Маҳмудов Н. Маърифат манзиллари. – Т., 1999.

7. Расулов Р. Хусанов Н. Мўйдинов Қ. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. Ўқув қўлланма. – Т., 2006.
8. Қиличев Э. Қиличев Б. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Бухоро, 2001.
9. Қудратов Т. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1993.

## 6-MAVZU. MATNNI TAHLIL QILISH USULLARI XUSUSIDA REJA:

1. Matnning tahlil usullari (jumladan: lingvistik usul, lingvostilik usul, semantik-stilistik usul, lingvopoetik usul, lingvistik tabdil usuli, stilistik qiyos usuli, statistik tahlil usuli, kognitiv tahlil usuli).
2. Matnning tahlil qilish usullari va matn.

*Tayanch tushunchalar: matnning tahlil usullari, matnning statistik tahlil usuli, matnning lingvopoetik tahlil usuli, semantik-stilistik izoh usuli, leksikografik tahlil usuli, matnning psixolingvistik tahlil usuli.*

Bugungi kunga kelib matnni o'rganishning yigirmadan ortiq usullari, metodlari ishlab chiqilgan va ular tilshunoslik fanida keng qo'llanilmoqda. Ma'lumki, badiiy tahlil vositasida o'quvchi asarga chuqurroq kirib boradi, uning mohiyatini tayin etgan poetik unsurlarni, badiiy-estetik tafakkurni, so'z sehri va jozibasini teran ilg'aydi va haqiqiy kitobxon darajasiga erishadi. Zero, asarni uqish – uni o'qishdan ko'ra muhimroq. Buni professor I.Rasulov quyidagicha izohlaydi: "O'qish, uqish jarayonidagi ijodda aql-hush yetakchilik qiladi. Aniqrog'i, kitobxon bus-butun holda qabul qiluvchi, o'zlashtiruvchiga aylanadi. Asarni o'qish, aslida, o'zi uchun ijro etishdir. Kitobxon voqealarga aralashadi, qahramonlarni jonlantiradi, ularning gap-so'zlarini eshitadi, ruhiy holatlarini yurakdan his etadi. Shundagina badiiy matn estetik zavq manbayiga aylanadi. Zotan, o'quvchi-talabalarda badiiy tahlil malakasi, asar mohiyatini anglash idroki shakllanmasa, u asarni shunchaki ko'rib chiqadi, uquvsiz o'quvda esa syujet voqealari bilan tanishadi, qahramonlar taqdiri haqidagi axborotga ega bo'ladi, nari borsa, asar janrini, nima haqda ekanligini anglaydi, xolos. Bunday o'qish o'quvchi tuyg'ulariga, sezgilariga yetarli ta'sir qila olmaydi, ma'naviyatida yangi sarhadlar kashf eta olmaydi, yanayam achinarlisi, bu darajadagi kitobxon badiiy-estetik jihatdan puxta va pishiq asarlarni shunchaki voqealar bayoni, hodisalar tafsilotidan iborat bo'lgan, badiiyat qonunlariga bo'ysunmagan sayoz asarlardan farqlash imkoniyatidan mahrum bo'ladi, tor va biqiq dunyoqarash bilan cheklanib qoladi".

Badiiy asarni tahlil qilishda undagi barcha shakliy va mazmuniy xususiyatlarga xos qirralarga to'xtalish talab etiladi.

Manbalarda matnning tahlil usullari turlicha keltirilganligiga guvoh

bo'lamiz. Qolaversa, matnning lingvistik tahlilida hamma uchun yagona prinsiplarning bo'lishi ham bir qadar shartli sanaladi. Lingvistik tahlil metodlarini bilish matnni ilmiy-amaliy tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Har bir tahlil usullari o'ziga xos kuzatuvni, yondashishni talab etadi. Ayrim tahlil usullariga to'xtalamiz:

**1. Lingvistik tahlil usuli.** Fanda "lingvistik mikroskop" (N.Shanskiy) atamasi mavjud bo'lib, "Matnning lingvistik tahlili" (- Buxoro, 2004) kitobi muallifi prof. E.Qilichev so'zlari bilan aytganda, mazkur usul orqali "bo'lajak filologlar badiiy asarning g'oyaviy mazmuni, estetik qimmati, badiiy tasvir vositalari hamda janr xususiyatlarini to'laroq anglaydi"<sup>17</sup>. Olim E.Qilichev mazkur kitobida M.Alekseevning A.S.Pushkinning "Haykal" she'rining lingvistik tahliliga bag'ishlangan 272 betlik monografiyasini eslab o'tadi hamda lingvistik tahlil usuli, unda e'tibor berish lozim bo'lgan jihatlarga to'xtaladi. Tilning turli sathlari (fonetik-grafik sath, leksik sath, grammatick sath) bo'yicha tahlil namunalarini keltiradi (Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili. - Buxoro, 2004.15-30-b.). Lingvistik tahlil kuzatuvchidan chuqur til bilimini taqozo etadi. Tadqiq etuvchi tilshunoslikning barcha bo'limlari (fonetika, morfemika, so'z yasalishi... grammatica, punktuatsiya)ning nazariy jihatlarini atroflicha bilishi, o'z bilimiga tayanib muayyan matnni nazariy jihatdan tahlil etishi kerak bo'ladi. Lingvistik tahlil o'z navbatida a) fonetik tahlil; b) fonologik tahlil; d) morfemik tahlil; e) morfonologik tahlil; f) so'z yasalishi tahlili; g) leksik tahlil; h) morfologik tahlil; i) sintaktik tahlil kabi turlarga bo'linadi. Massalan, **leksik tahlilda** matndagi tushunilishi qiyin so'zlar ma'nosi oydinlashtirilishi, so'zning ifoda va maqsadiga ko'ra turlari (sinonim, antonim, omonim, paronim, giponim, graduonim, partonomik so'zlar), lug'at tarkibi so'zlarining kelib chiqishi (umumturkiy so'zlar, arabi, forsiy, ruscha-baynalmilal so'zlar va b.), leksik qatlamning ijtimoiy-dialektal tarkibi, umumxalq so'zları, sheva/mahalliy so'zlar, noadabiy qatlam so'zları, argo va jargonlar, varvar va vulgar so'zlar, ishlatilish doirasi turli darajadagi so'zlar, eskirgan (arxaik va tarixiy so'zlar), neologizmlar (umumiyl neologizmlar va individual neologizmlar), uslubga xoslangan va usluban betaraf so'zlar, barqaror birliklar (frazeologik birliklar, maqol va matal) va h.k.lar inobatga olinadi, har biri keng tahlilga tortiladi. Tilning muayyan tarixiy davridagi holati, ayni holatga xos bo'lgan xususiyatlar, leksik, fonetik va grammatick o'zgachaliklar, tilning hozirgi holati bilan umumiyl va farqli jihatlarini ilmiy tadqiq etish maqsadida o'sha davrga oid adabiy-badiiy asarlarning tili o'rganiladi. Bunda badiiy asarlar tili ayni maqsaddagi tadqiqot uchun faqat material bo'lib xizmat qiladi.

**2. Semantik-stilistik izoh usuli.** B.O'rionboyev, R.Qong'uров, J.Lapasovlarning "Badiiy tekstning lingvistik tahlili" (- T.,1990) kitobida keltirilishicha, matnni to'liq tushunishda bu usul tahlili jarayonida lingvistik, adabiy-tarixiy va ekstra-lingvistik jihatlar hisobga olinadi. Bunda

<sup>17</sup> Қиличев Э. Матннинг лингвистик таҳлили. – Бухоро, 2004. 3-б.

matndagi ifoda vositalarining asosiy ma’no xususiyatlarini aniqlashda lingvistik birliklar (fonema, leksema, frazeologik birlik va h.k. lar) ning mazmuni va vazifasi inobatga olinadi. Til birliklarining matndagi ma’no ifodalari, ma’no nozikliklari, adabiy me’yorlarga muvofiq-nomuvofiqligi, muallifning individual yondashuvlariga e’tibor qaratiladi.

**3.Lingvostistik tahlil usuli.** Bunda ijodkorlarning til imkoniyatlaridan foydalana olish mahorati, lug’at qatlami dagi so’z va frazeologik birliklardan, fonetik vositalar rang-barangligidan, uslub yaratishda xizmati bir qadar keng sanalgan grammatik hamda sintaktik vositalardan foydalanish qobiliyati, bir so’z bilan aytganda, til bilimdonligidagi uquvi va salohiyati baholanadi. Badiiy asarni tahlil etish jarayonida ijodkorlarning til imkoniyatlaridan foydalanishdagi mahorati, adibning o’ziga xos uslubi, uning she’riyatida tasviriylik – obrazlilik, ifodaviylikni yuzaga keltirishda qo’llangan fonetik, leksik-semantik, grammatik-sintaktik vositalar tahlilga tortiladi.

**4.Statistik tahlil usuli.** Matnni o’rganishning bu usuli haqida B.Yo’ldoshevning “Matnni o’rganishning lingvostatistik metodlari” uslubi qo’llanmasida izchil fikrlar bildirilgan, ya’ni unda turli vazifaviy uslubdagi matnlarni statistik metodlar asosida o’rganish usullari, ko’rinishlari, chastotali lug’atlar va ularni yaratish tamoyillari bayon qilingan. Matnni o’rganishning lingvostatistik metodlarini tahlil va tatbiq qilish ham matn lingvistikasining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bu borada S.Karimov, B.Yo’ldoshev, D.O’rinboyevalarning tadqiqotlari e’tiborga sazovor.

Taniqli olim S.Karimov boshchiligidagi yozilgan “Abdulla Qahhorning “ketmon” haqida” nomli maqolada e’tirof etilishicha, iste’dodli yozuvchi A.Qahhor o’zining to’la asarlar to’plamida 101 marta ketmon so’zini qo’llagan ekan. Maqolada takidlanadi: “A.Qahhor matnlarida uchraydigan 101 ta ketmon so’zining 124 holatda uchraydigan mikromatni ushbu birlikning denotativ va konnotativ ma’nolari haqida mulohaza yuritishga imkoniyat yaratadi, Zero, adib asarlari matni ustida olib borilgan leksikografik ishlarning amaliy ahamiyati ham ana shunda”<sup>18</sup>. Yana bir dalil: U.Azimning “Saylanma”si (U.Azim. Saylanma. – T.,1995) tadqiqi ko’rsatadiki, unda qo’llangan undosh tovushlar chastotasi quyidagicha: N tovushi qatnashgan so’zlar miqdori 17586 ta; R-14232; L-11894, M-10909; D-10332; T-8719; G-8031; K-6386; Q-6297; S-6042; Y-4208; Sh-3944; Z-3887; Ch-2785; H-2545; G’-1769; B-1725; X-1306; P-1248; J-1022; F-764 kabi<sup>19</sup>.

Statistik tahlil usuli, o’z navbatida, **leksikografik tahlil usuliga yo’l ochadi**. Bu usul bilan badiiy asar, umuman, ijodkor asarlari, uning so’z

<sup>18</sup>Karimov S. va b. Abdulla Qahhorning “ketmon”i haqida. Stilistika va pragmatika. Konferensiya materiallari. Ilmiy to’plam. 2010, 14-b.

<sup>19</sup>Qarang: Умирова С. Ўзбек шеъриятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърияти мисолида). PhD. – Самарқанд, 2020.

qo'llash mahorati, muallif nutqi neologizmlari, adibning individualligiga ahamiyat qaratiladi. Lekin mazkur usul ko'p hollarda matn tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qoladi. Kompyuter texnologiyasi rivojlangan ayni damda bu usulni joriylashtirish va matnga mazkur usul orqali baho berishda barcha shart-sharoitlar mavjud, mutaxassislar yetarli. Statistik tahlil usuli, leksikografik tahlil usullarini amalga oshirish, avvalo, ijodkor asarlarining to'liq elektron shakli yaratilishi kerak. Har ikkala usulning amaliy ahamiyati shundaki, bunda ijodkor asaridagi ayrim yashirinib yotgan, e'tibordan chetda qolgan so'z va uning ma'no ifodalari yuzaga chiqadi. Bu esa shu til uchun yaratilayotgan lug'atlar uchun ham ahamiyatli. Umuman, mazkur usul tilning rivojlanishiga ham hissa qo'shadi.

**5.Lingvopoetik tahlil usuli.** O'zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o'rghanishga bag'ishlangan ishlarda yaqin yillargacha ikkita yo'nalish yetakchilik qilganligini kuzatish mumkin: 1. Lingvistik yo'nalish. 2. Lingvopoetik yo'nalish.

Badiiy asar tilini lingvopoetik yo'nalishda o'rghanishning asosiy maqsadi lingvistik yo'nalishdan farq qiladi. Bu o'rinda masala tilning turli vazifalarga egaligiga borib taqaladi. Tilshunoslikka oid zamonaviy adabiyotlarda tilning, asosan, to'rt-besh vazifasi qayd etiladi: 1. Kommunikativ vazifa – tilning kishilar o'rtasida asosiy aloqa vositasi ekanligi. 2. Ekspressiv vazifa – turli fikr va tuyg'ularni ifodalash vazifasi. 3. Konstruktiv vazifa – fikrlarni shakllantirish, tartibga solish va ifoda tarzini belgilash vazifasi. 4. Akkumulyativ vazifa – ijtimoiy tajriba va bilimlarni to'plash, saqlash vazifasi.

Badiiy asar tili tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda tilning ayni "ekspressiv vazifasi" atamasi bilan bir qatorda "tilning poetik vazifasi", "tilning badiiy vazifasi", "tilning estetik vazifasi" kabi atamalar ham qo'llanadi. Ammo "tilning estetik vazifasi" atamasi nisbatan ko'p ishlatiladi.

Bilamizki, badiiy asarda tilning boshqa vazifalari ham reallashadi, ammo estetik vazifa birlamchi bo'ladi. Lingvopoetik tahlil usulida xuddi mana shu jihatga urg'u qaratiladi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganlaridek, tilning estetik vazifasining asosiy namoyon bo'lish o'rni badiiy asar matni ekan, bu vazifaning o'ziga xos xususiyatlarini faqat tilshunoslik yoki faqat adabiyotshunoslik doirasida o'rghanish qiyin. Buning uchun adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, poetika kabi adabiyotshunoslik yo'nalishlari va lingvistik stilistika, til tarixi, leksikologiya, semasiologiya, etimologiya, grammatika kabi tilshunoslik yo'nalishlari bir-biri bilan hamkorlikda ish ko'rishi lozim. Tilning estetik vazifasi masalasi bu ikki yirik fan oralig'idagi murakkab muammodir.

**6.Lingvistik tabdil usuli.** B.O'rinboyev, R.Qo'ng'urov, J.Lapasovlarning "Badiiy tekstning lingvistik tahlili" (- T., 1990) kitobida aytishicha, ba'zida matndagi tasvir vositalari (so'z, qo'shimcha, birikmalar) ni almashtirishga zarurat seziladi. *Tabdil* arabcha so'z bo'lib, o'zgarish,

almashish, o'zgartirish kabi ma'nolarni anglatadi<sup>20</sup>. Bunda asosiy maqsad shundaki, ijodkor yaratgan matnning tarkibida o'zgartirishga zarurat sezuvchi til birliklari bo'lib qolishi mumkin. Shunda mazkur usul orqali shu birlik matn mazmuniga mos ravishda boshqa birlik bilan o'zgartiriladi. O'zgartirilgan birlik orqali matnga moslik ta'minlanadi. Lingvistik tabdil o'z xarakteriga ko'ra leksik, morfologik, sintaktik bo'lishi mumkin. Leksik tabdilda matndagi biror so'z, ibora boshqasi bilan (sinonimi, umumiy ma'nosи yaqin so'z bilan) almashtiriladi. Morfologik tabdilda esa grammatik shakllar davr talabiga ko'ra almashtiriladi. Sintaktik tabdil ham mohiyatan shu kabidir.

Mazkur hol, umuman, tabdil usuli ko'pincha tarixiy asarlarni bugungi kunda nashr ettirish jarayonida amalga oshiriladi. Ba'zida bir asar nashrini vaqt o'tishi bilan qayta nashr etish zarurati tug'ilganda mazkur usul qo'l keladi. Ayrim misollarni kuzatamiz:

1. Ming yillar qayralib kelgan qilichni

*Titig'ini* dushman tortajak endi. (G'.G'ulomning "Xalq otlandi" she'ri qo'lyozmasidan)

Ming yillar qayralib kelgan qilichni

*Tatig'ini* dushman tortajak endi. (G'.G'ulomning "Xalq otlandi" she'rining keyingi nashridan)

2. O'g'lim, desang osmonlarga

G'irot bo'lib uchgayman,

Chambil yurtda Alpomishga

*Navkar* bo'lib tushgayman. (M.Yusufning "Vatanim" she'ridan)

O'g'lim, desang osmonlarga

G'irot bo'lib uchgayman,

Chambil yurtda Alpomishga

*Qalliq* bo'lib tushgayman. (S.Nazarxon qo'shig'idan)

Lingvistik tabdil usuli to'la yoki qisman tarzda bo'lishi mumkin. Odatda, to'la tabdil usulida muallif matni o'rnida tabdil matn vujudga keladi (Masalan, "Qutadg'u bilig" tabdili). Ba'zan tabdil matn mazmuni, mohiyati, janri o'zgarib qolishi ham mumkin.

Shuningdek **stilistik qiyos usuli** (bir-biriga mazmunan o'xshash, yaqin bo'lgan matn, ya'ni asar o'zaro qiyoslanadi), **kognitiv tahlil usuli** (matn tahlili jarayonida muallif shaxsiyatiga chuqur e'tibor qaratiladi) va h.k. usullar ham borki, o'rni bilan matn tadqiqi bilan shug'ullanuvchilar mazkur usullar bilan ham ish ko'radi.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda badiiy matnni antroposentrik va uning yo'nalishlari sanaladigan psixolingvistik, sotsiolingvistik,

<sup>20</sup> Ўринбоев Б., Қўнғуров Р.,Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили. – Т.: Ўқитувчи, 1990. 19-6.

lingvokulturologik, pragmatik jihatdan tahlil etishga qaratilgan ishlar ko'lami ancha kengaydi<sup>21</sup>. Bu esa yangi-yangi tahlil usullarini yuzaga kelishiga zamin yaratdi. **Psixolingvistik tahlil usuli, pragmatik tahlil usuli, sotsiolingvistik yoki lingvokulturologik tahlil usullari** kabilarning paydo bo'la borayotgani quvonarli hol sanaladi. Biroq ayni damda yangi tahlil usullarining ilmiy-amaliy asoslari to'la ishlab chiqilgan deb bo'lmaydi.

Ko'rinaridiki, matn ustida ishslash mas'uliyatli jarayon bo'lib, u tadqiqotchidan o'ziga nisbatan jiddiy munosabatni talab qiladi. Talaba yoshlarning matn tahlili bilan shug'ullanishi esa ularga o'rgangan til bilimlarini mustahkamlashiga, undan foydalanishda shu paytga qadar yo'l qo'yib kelayotgan kamchiliklarini tuzatib olishiga, qolaversa, o'z yozma nutqini, matn yaratish ko'nikmasini yanada takomillashtirib borishiga yordam beradi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Matnni tahlil qilish usullari qanday turlarga bo'linadi?
2. "Matnshunoslik" va "Matn tilshunosligi" fanlarining o'xhash va farqli jihatlari haqida nimalar bilasiz?
3. Lingvistik tahlil usuli deganda nimani tushunasiz?
4. Lingvopoetik tahlil usuli deganda nimani tushunasiz?
5. Lingvostilistik tahlil usuli haqida gapiring.
6. Psixolingvistik tahlil usuli, pragmatik tahlil usuli, sotsiolingvistik, lingvokulturologik tahlil usullari haqida nimalarini bilasiz?
7. Statistik tahlil usuli matn tadqiqida qay darajada ahamiyatli?
8. Stilistik qiyos usuli haqida nimalar bilasiz?

**Topshiriq.** "Atirgul – gullarning sarasi" misoli "atirgul" so'zidagi "a" tovushini "fonetik, orfoepik, fonologik" jihatdan "ilingvistik mikroskop" ostida kuzatilgan quyidagi namunasini kuzating va o'zingiz mustaqil ravishda keyingi tovushlardan birini tahlilga torting.

#### **I. Atirgul so'zidagi "a" tovushi "fonetik, orfoepik, fonologik" mikroskop ostida**

- 1) "a" tovushi talaffuzida havo oqimi og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchramaydi. Bu hol "a" tovushining unli ekanligidan dalolat beradi. "a"ni undosh tovushdan farqlovchi belgi – mana shu.
- 2) "a" tovushi fiziologik xususiyatiga, ya'ni tilning yotiqligini (gorizontal) holatiga ko'ra til oldi unlisi, tilning tik (vertikal) holatiga ko'ra keng unli, lablarning ishtirokiga ko'ra lablanmagan unlilar sirasiga kiradi. Lablanmaganligi jihatdan "a"tovushi "o"ga zidlanadi.
- 3) "a" tovushi akustik xususiyatiga ko'ra sofab ovozdan iborat. Bundan

<sup>21</sup> Qarang: Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. – Т.: Фан, 2013.

farqli ravishda “b” tovushini talaffuz qilganimizda ovoz bilan birga, shovqin ham mavjud bo’ladi. Shovqin belgisi “b”da bor, “a”da yo’q. “a” tovushi “b” tovushidan farqli ravishda cho’ziluvchan, musiqaviylikka ega.

4) “a” tovushi so’z tarkibida bo’g’in hosil qila oladi, “b” tovushi esa bo’g’in hosil qila olmaydi.

“a” fonologik jihatiga ko’ra ham o’ziga xosliklarga ega. Umumiylar “a” fonemasi hamda so’z tarkibida kelgan “a” tovushini solishtirib ko’ramiz:

- *qarg’ā, xashak, g’alaba* so’zlaridagi “a” tovushi chuqur til orqa, ayni paytda o’zbek alifbosidagi “qattiq” tovushlardan so’ng shu tovushlar ta’sirida qattiqlik kasb etadi. Shuningdek, q, g’, x tovushlarining til orqaligi “a” tovushining ham nisbatan til orqada hosil bo’lishiga sabab bo’ladi.

- *bahor, dala, jahon* so’zlarida b, d, j kabi portlovchi, jarangli til oldi tovushlaridan keyin kelgan “a” tovushi o’zidagi umumiylar xususiyatni bir qadar yo’qotib, b, d, j tovushlaridagi tabiatni o’zida mujassamlashtiradi.

- *taxta* so’zidagi birinchi “a” va *bola* so’zidagi “a” tovushi ham talaffuzda farqlanishga ega, *bola* so’zidagi “a” tovushining talaffuzida -la urg’uli bo’g’in bo’lgani uchun og’iz keng ochiladi. *Taxta, dala, Laylo* so’zlarida “a” keng unli sifatida emas, balki o’zidan oldingi tovushlar ta’sirida o’rta keng, ya’ni “e”ga moyil talaffuz etiladi.

- “a” tovushi *kar, bar, taxt, baxt* kabi so’zlarda qisqa talaffuz etiladi. Aksincha, ya’ni *katta, zahmat, lola* kabi so’zlar oxirgi bo’g’inida cho’ziq aytildi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Қурбонова М. Йўлдошев М. Матн тилшунослиги. – Т.: Университет, 2014.
2. Ризаев С. Ўзбек тилшунослигида лингвостатистика муаммолари. – Т.: Фан, 2006.
3. Умирова С. Ўзбек шеъриятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърияти мисолида). PhD. – Самарқанд, 2020.
4. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. – Т. Фан, 2013.
5. Йўлдошев М. Бадий матннинг лисоний таҳлили. – Т.: Фан, 2008.
6. Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадий текстнинг лингвистик таҳлили. – Т.: Ўқитувчи, 1990.

## 7-MAVZU. MATNNING ANTROPOSENTRIK TAHLILI XUSUSIDA REJA:

1. Tilni tadqiq etish paradigmalari. “Paradigma” tushunchasi.
2. Antroposentrik paradigmaning shakllanishi.
3. Antroposentrik paradigmaning asosiy yo’nalishlari.

*Tayanch tushunchalar: paradigma, ilmiy paradigma, qiyosiy-tarixiy*

*paradigma, sistem-struktur paradigma, antroposentrik paradigma, lingvistik semantika, til sohibi, psixolinguistika, lingvokulturologiya, pragmalingvistika.*

“Ilmiy paradigma (yunoncha “misol, namuna”) fan obyektini, uning muayyan davrda hokim bo’lgan nazariy tushunchalarini o’rganishga yo’naltirilgan va shu asosda fanning turli bo’limlarida o’xshash bo’lgan, o’zaro bog’langan muayyan tadqiqot metodikalarining majmuyidir. Ilmiy metodologiya va ilmiy metodlardan farqli o’laroq, aniq tarixiy xususiyatga va ijtimoiy-madaniy tarqalish chegarasiga ega.

Paradigma termini 1962-yilda amerikalik faylasuf va tarixchi Tomas Kunning mashhur “Ilmiy inqiloblar strukturasi” asarida muomalaga kiritilgan. Olim T.Kun fikriga ko’ra, paradigma o’z tadqiqot faoliyatiga va obyektiga ega bo’lgan, mushtarak ilmiy va falsafiy g’oyalar bilan birlashgan u yoki bu ilmiy yoki falsafiy hamjamiyatlar tomonidan qo’llaniladigan o’ziga xos metodlar va usullar yig’indisidir.

Paradigma tushunchasi, odatda, Yevropada tilshunoslik fanining shakllanish vaqtida deb hisoblangan hamda XIX asrdan boshlab qo’llanilgan. Umumiy tilshunoslikda 3 ta paradigma farqlanadi: 1. Qiyosiy-tarixiy. 2. Sistem-struktur. 3. Antroposentrik (3-chizma).

**Tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy paradigma.** Mazkur paradigma haqida quyidagilarni aytish mumkin:

Tilshunoslikda ilk ilmiy paradigma qiyosiy-tarixiy paradigma sanaladi. Zero, qiyosiy-tarixiy metod til tadqiqining dastlabki xususiy metodi bo’lgan. XIX asr shu paradigma hukmronligi ostida o’tdi (V.A. Maslova). Bu davrda tilshunoslik ilmi tillarning kelib chiqishi, bobo tillar, qarindosh tillar o’rtasidagi aloqalarni aniqlash, ularning rivojlanish taraqqiyotini belgilash, qiyosiy-tarixiy grammatika va lug’atlar tuzish bilan shug’ullandi.


XI asrdayoq turkiyshunos M. Koshg’ariy “Devoni lug’otit-turk” asarida tillarni o’rganish va tadqiq etishda aynan qiyosiy-tarixiy metodni muvaffaqiyatli qo’llagan edi. Sal kam ming yil avval turkiyshunos olim, qomusiy bilim sohibi M.Koshg’ariy boshlab bergen o’rganish sohasi XIX asrda kelibgina Yevropada amalga oshirila boshlandi.

**Tilshunoslikda sistem-struktur paradigma.** Bunda asosan F. de Sossyurning qarashlariga asoslaniladi. Bu paradigmada, Maslova ta’kidlaganidek, asosiy diqqat predmet/narsa, nomga qaratildi, shuning uchun tilshunoslar diqqat markazida so’z turdi. Mazkur paradigma tilning tuzilishi va uning tarkibini o’rganishi bilan tavsiflanadi. Bu paradigmaga oid tadqiqotlar hozir ham davom etmoqda. Zero, tilning sistema ekanligiga hech kimda shubha yo’q, albatta.

**Tilshunoslikda antroposentrik paradigma.** Mazkur paradigma haqida dastlab quyidagilarni aytish o’rinli:

- ☒ Antroposentrik paradigma tilni uning “sohibi” bo’lgan inson bilan birga tadqiq etadi. Bu paradigmaga asoslangan tadqiqotlar markazida inson omili turadi. Ushbu paradigma XX asrning oxiri XXI asrning boshlarida shakllana boshlagan.
- ☒ Ushbu paradigmaga V. Gumboldtning qarashlari asos bo’lgan (1767-1835).
- ☒ “Til eng avvalo, insonning ichki dunyosi, olamni idrok qilishi, tafakkur tarzi va kamolotini belgilaydigan vosita. Tilga ko’pincha aloqa vositasi sifatida qarashadi. Aslida bu tilning mohiyatini to’g’ri anglamaslik natijasida paydo bo’lgan noto’g’ri qarash. Til faqat aloqa vositasigina emas, u insonning tafakkur tarzini tayin qiladigan, dunyon bilishi, dunyon ko’rishi, eshitishi vositasi hamdir” (N.Mahmudov).

### 3-chizma



Antroposentrik paradigma tilni immanent tarzda, ya’ni o’z egasidan ayro holda tadqiq etishi antipozitivistik qarashlarning yuzaga kelishi natijasida shakllandi. Jahon tilshunosligida matnni antroposentrik paradigma asosida o’rganish asosan lingvistik semantika, lingvokognitologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya, pragmatik tilshunoslikka oid tadqiqotlarda ko’zga tashlanadi. Xususan, N.Xomskiy, U.Cheyf, B.A.Serebrennikov, L.V.Shcherba, Y.N.Stepanov, I.R.Galperin, N.I.Karaulov, N.I.Jinkin, A.A.Leontev, J.Lakoff, T.A.Van Deyk, A.Vejbitskaya, E.S.Kubryakova, E.Rosh, V.P.Belyanin, V.Z.Demyankov, V.A.Maslova, T.M.Dridze, K.F.Sedov kabi tilshunoslarning ishlarida til tizimi shaxs omili bilan bog’liqlikda tadqiq etilgan. O’zbek tilshunosligida til birliklari XXI asr boshlaridan antroposentrik paradigma asosida tadqiq etila boshlandi. Bu borada amalga oshirilgan bu kunga qadar ishlar kognitiv tilshunoslik nazariyasi, matnning sotsiolingvistik, pragmalingvistik xususiyatlari, matnning diskursiv-kognitiv jihatlari, publitsistik matnning mazmuniy persepsiysi, o’zbek bolalar nutqining sotsiopsixolingvistik tadqiqi hamda antroposentrik paradigmaning

nazariy muammolariga bag'ishlangan.

Antroposentrik paradigmaning shakllanishi til egasi – so'zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog'liqdir. Tilshunoslikda antroposentrik burilishning yuzaga kelishi strukturalizmning tilni tadqiq etishning "o'zida va o'zi uchun" tamoyilini chetga surib, asosiy e'tiborini shaxs omiliga qaratdi.

Hozirgi vaqtida tilshunoslikning yetakchi paradigmalaridan biri sifatida tan olinayotgan antroposentrizmning ildizlari V.Gumboldt hamda L.Vaysgerberning nazariy qarashlaridan oziqlandi. *Antroposentrism* so'zi yunoncha *anthropos* – odam hamda lotincha *centrum* – markaz ma'nosini bildiruvchi so'zlar birikuvidan hosil bo'lgan. *Antroposentrism* termini dastlab qadimgi yunon falsafasining "Inson – koinot markazidir" degan g'oyani ilgari suruvchi qarashiga nisbatan qo'llangan bo'lib, bu g'oya O'rta asrlarda Yevropada keng tarqaldi.

Tilshunoslikda til tizimini antroposentrik nuqtayi nazardan o'rganish asosan lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmatik tilshunoslik, lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda namoyon bo'lgan. Antroposentrik paradigma asosida yaratilgan ishlarda til tizimi shaxs omili bilan bog'liqlikda tadqiq etilgan. O'zbek tilshunoslarining lingvistik semantika, pragmatika, kognitiv tilshunoslikka oid tadqiqotlari o'zida antroposentrik yo'naliш tendensiyalarini namoyon qilsa-da, bu boradagi tadqiqotlar hali yetarli darajada emas.

O'zbek tilshunoslida D.Xudoyberganova matnning antroposentrik tadqiqi bo'yicha dastlabki tadqiqotlardan birini amalga oshirdi. Mazkur tadqiqot keyingi bir qator ishlar uchun asos bo'lib xizmat qildi<sup>22</sup>.

**Antroposentrik paradigmaning shakllanishi haqida olimlar quyidagi fikrlarni bildirishadi:**

1. Antroposentrik paradigma tilni immanent tarzda, ya'ni o'z egasidan ayro holda tadqiq etishga antipozitivistik qarashlarning yuzaga kelishi natijasida shakllandi (A.Nurmonov).
2. Prof. Sh.Safarov antroposentrik paradigmaning yuzaga kelishini quyidagicha izohlaydi: "Sistem-struktur paradigma o'zidan oldin yuzaga kelgan qiyoziy-tarixiy paradigmaning "atomistik", ya'ni til hodisalarini alohida-alohida, bir-biridan ajratgan holda tahlil qilinishi natijasida yuzaga kelgan nuqsonlarini bartaraf qilish yo'lini tutdi. Sistem-struktur yo'naliшning asosiy samarasi tilning tizimli hodisa ekanligini isbotlashdan iboratdir. Ammo bu ikki paradigmaning umumiyligi kamchiligi borligi ham ma'lum bo'ldi: bu yo'naliшlarda til o'z egasi – insondan ajralib qoldi. Ushbu nuqsonni yo'qotish yo'lidagi urinishlar pragmatik va kognitiv tilshunoslik paradigmalarining yaratilishiga sabab bo'ldi"<sup>23</sup>.

<sup>22</sup> Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. – Т.: Фан, 2013.

<sup>23</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. 14-b.

3. Prof. N.Mahmudov esa tilshunoslikda antroposentrik paradigmanning shakllanishi haqida mulohaza yuritar ekan, quyidagi fikrlarini bayon qiladi: "Tilning ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antroposentrik paradigmada inson asosiy o'ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi<sup>24</sup>".

Tilshunoslikda antroposentrik tilshunoslik (yoki antroposentrik paradigma; neolingvistika) sohasining shakllanishi til egasi, ya'ni so'zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog'liqdir. "Tilshunoslikda antroposentrik burilishning yuzaga kelishi shu bilan izohlanadiki, tadqiqotchilarning diqqati "til qanday qurilgan" degan masaladan "til qay tarzda amal qiladi" degan masalaga ko'chdi... Tilning qay tarzda amal qilishini tadqiq etish uchun esa tilni uning egasi bo'lgan **shaxs omili** nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish kerak bo'ladi", - deb ta'kidlaydi V.A. Maslova. Inson aqlini, insonning o'ziday, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi.

Ayrim tilshunoslarning fikricha, antroposentrik paragma o'tgan asrda strukturalizm muvaffaqiyatlari natijasi sifatida yuzaga kelgan "o'zida va o'zi uchun" tamoyilini butunlay chetga surib qo'ydi. Bunda asosiy e'tibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya'ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til egasiga qaratildi. Ilmiy paradigmaga "til egasi" kategoriyasining kiritilishi tilshunoslikda shaxs, lisoniy ong, tafakkur, faoliyat, mentallik, madaniyat kabi tushunchalarning yanada faollashuvini taqozo etadi.

#### **Antroposentrik tilshunoslikning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:**

- ☒ Kognitiv tilshunoslik
- ☒ Lingvokulturologiya
- ☒ Psixolingvistika
- ☒ Pragmalingvistika
- ☒ Sotsiolingvistika
- ☒ Etnolingvistika
- ☒ Neyrolingvistika
- ☒ Lingvopersonologiya
- ☒ Kompyuter lingvistikasi

Tadqiqotchilarning fikricha, kognitiv, sotsiolingvistik, etnolingvistik, psixolingvistik, neyrolingvistik, pragmatik va lingvokulturologik yo'nalishlar antroposentrik paragma tarkibiga kiruvchi miniparadigmalar hisoblanadi.

Masalan, antroposentrik paradigmanning yetakchi yo'nalishlaridan biri bo'lgan **kognitiv tilshunoslik** tilni umumiyl kognitiv mexanizm sifatida o'r ganuvchi sohadir. V.Z.Demyankov fikriga ko'ra, kognitiv tilshunoslikda til strukturalarining axborotni qayta ishlashdagi roli nutq yaratilishi va idrok etilishi nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Bunda nutq yaratuvchi va uni idrok

<sup>24</sup> Махмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2012. № 5. 7-6.

etuvchi subyektlar – so'zlovchi va tinglovchiga axborotni qayta ishlovchi tizim sifatida qaraladi. Axborotning verbal bosqichga o'tishida mental tuzilma bo'lgan konsept muhim o'rinni egallaydi.

Antroposentrik tilshunoslikda **konsept** atamasiga tez-tez duch kelish mumkin. Konsept tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillarigacha tushuncha so'ziga sinonim sifatida ishlatalgan bo'lsa, uning hozirgi vaqtdagi izohi kengroq ma'no kasb etganini ko'rish mumkin. N.Y.Shvedova konsept tushunchasi ortida ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o'z tarixiy ildizlariga ega bo'lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini qayd etadi.

*Konsept* lotin tilidagi conceptus – "tushuncha" so'zining kalkasidir. Konsept ikki tomonli xususiyatga egadir. Bir tomonidan, madaniyat konsept ko'rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa tomonidan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba'zan unga ta'sir ko'rsatadi. Inson o'zining individual, betakror madaniyatini saqlagan holda konsept orqali xalqlarning madaniyatiga, turli millat vakillarining mental dunyosiga murojaat qiladi.

Konsept termini borasidagi fikrlar o'zbek tilshunoslari N.Mahmudov, Sh.Safarov hamda A.E.Mamatov tomonidan izohlangan<sup>25</sup>.

Konsept ko'p qirrali va ko'p qatlamlı mental tuzilmadir. Shuningdek, u bir vaqtning o'zida **psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarni** namoyon etadi. Zero, konseptning kognitiv va lingvokulturologik tadqiqotlar obyekti sifatida tavsiflanayotgani ham shundan dalolat beradi. Shu sababli konseptning tadqiqotchilar tomonidan subyektiv, ijtimoiy, lingvomadaniy, badiiy konseptlar sifatida tiplashtirilganligini yagona mohiyatga turli jihatlardan yondashuv sifatida baholash mumkin. Ma'lumki, til tizimi yuqorida sifatlarni o'zida jamuljam etgan nihoyatda serqirra hodisalardan biri hisoblanadi.

Olimlar ta'kidicha, antroposentrik tilshunoslik tilni quruq struktura sifatida emas, balki jonli muloqot va kommunikatsiyaga asoslangan ochiq sistema sifatida o'rganuvchi, boshqa sistemalar – jamiyat, inson, madaniyat, ruhiyat kabilalar bilan uzviy aloqadorlikda tahlil etuvchi, insonni til ichida yoki tilni inson ichida tahlil etishga yo'naltirilgan qarashlar, g'oyalalar va ta'limotlar majmuidir. Bunda ijtimoiy hayotning turli sohalari o'rtasidagi aloqani yoritishda inson "oltin ko'pri" vazifasini o'tashi aytildi.

Masalan, matnni antroposentrik tahlil etish jarayonida (xususan, lingvopersonologiya, sotsiolingvistika yo'nalishlarida) shaxs nutqiga ta'sir etuvchi omillar e'tiborga olinadi. Matn tadqiqi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar yaratilgan matnning muallifi va uning jihatlariga, ya'ni quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim: muallifning yoshi, jinsi, jismoniy holati (sog'lom, kasal va b.), ruhiy holati (xayolchan, ruhiy kasal), intellektual

---

<sup>25</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.

salohiyati (dunyoqarashi keng yoki tor), tug'ilgan yoki uzoq yashagan joyi (shaharda, qishloqda, tog'da, cho'lda yoki Amerikada, Hindistonda va b.), ota-onasining kasb-kori (nonvoy, kosib, tadbirkor, dehqon, o'qituvchi, shifokor va h.k.), uni o'rab turgan qatlam (ziyolilar, o'g'rilar, g'iybatchilar va b.), o'rgangan chet tili (ingliz, turk, rus tili va b.), yashab turgan jamiyatni, shaxsning zoti (kiborlardan, quillardan, xo'jalardan va b.), millati (o'zbek, qozoq, arab, xitoy va b.) Bu esa matnni to'laroq anglashga yordam beradi. Ko'rindaniki, **matnnning antroposentrik tahlili** tadqiqotchidan jiddiy ishni, mas'uliyatni talab etadi.

Zamonaviy tilshunoslikda til tizimini antroposentrik nuqtayi nazardan o'rghanish kuchayib bormoqda. Bugungi kunda mazkur paradigmanning, asosan, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmalingvistika hamda lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlar mazmun va ko'lam jihatdan oshib bormoqda.

### *Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:*

1. Ilmiy paradigmaga ta'rif bering.
2. Ilmiy parigma qachon va kim tomonidan muomalaga kiritilgan?
3. Tilshunoslikda qanday paradigmalar mavjud?
4. Antroposentrik paradigmanning boshqa paradigmalardan farqi nima?
5. Tilshunoslikda antroposentrik parigma qachondan shakllandi?
6. Tilshunoslikda antroposentrik burilishning yuzaga kelishi nima bilan bog'liq?
7. *Antroposentrism* termini qanday tushunchani anglatadi?
8. Qaysi tilshunos olimlarning ishlarida til tizimi shaxs omili bilan bog'liqlikda tadqiq etilgan?
9. Bugungi kunda lisoniy faoliyat bajaruvchisi bo'lgan shaxs omili tilshunoslikning qaysi sohalarida o'rganilmoqda?
10. O'zbek tilshunosligida matn antroposentrik parigma asosida tahlil etilgan qanday ishlarni bilasiz?

**Topshiriq.** Professor N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab" nomli maqolasi bilan tanishing. Mazkur maqolani munozaraga torting.

**Topshiriq.** Quyidagi ilmiy tadqiqotlarning mualliflarini aniqlang.

- ☒ "O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi,
- ☒ ... "Kognitiv tilshunoslik" nomli monografiysi,
- ☒ ... "O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi" nomli dissertatsiyasi,
- ☒ ... "O'zbek tilida matnning pragmatik talqini" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi,
- ☒ ... "Pragmalingvistika" nomli monografiysi,
- ☒ ... "O'xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli" nomli maqolasi,
- ☒ ... "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." sarlavhasi bilan e'lon

- qilingan maqolasi,
- ⊗ ... “O’zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi” nomli dissertatsiyasi,
  - ⊗ ... “O’zbek tilida matnning antroposentrik tadqiqi (matn yaratilishi va mazmuniy idroki misolida)” nomli dissertatsiyasi,

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Маҳмудов.Н. Тил тилсими тадқиқи. – Т.: Mumtoz so’z, 2017.
2. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.
3. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik – Т., 2019.
4. Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Т.: Turon zamin ziyo, 2015.
5. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. – Т.: Фан, 2013.

## **8-MAVZU. MATN TIPOLOGIYASI REJA:**

1. Matnning tuzilish turlari. Makro (maksimal matn) va mikro (minimal matn) matn.
2. Ifoda maqsadi va mazmuniy belgisiga ko’ra matn turlari.

**Tayanch tushunchalar:** tipologik tasnif, matn turi, matn tasnifi, matn tiplari, minimal matn, mikromatn, maksimal matn, makromatn, didaktik matn, tasviriy matn, hikoya mazmunli matn, izoh mazmunli matn, buyruq mazmunli matn, mazmuniy bog’liqlik.

Matn – nutq ko’rinishi bo’lib, vazifasi jihatidan tugal nutqiy butunlidir. Har bir matn murakkab tuzilish va mazmun mundarijasiga ega bo’lib, u og’zaki hamda yozma ijod namunasi hisoblanadi. Tilshunoslikda matn tilning alohida birligi (supersintaktik butunlik) va matn tilshunosligi deb atalayotgan sohaning asosiy obyekti sifatida talqin qilinadi. U hajm va mazmun belgisiga ko’ra ikkiga bo’linadi: 1. Hajm belgisiga ko’ra matn turlari. 2. Ifoda maqsadi va mazmuniy belgisiga ko’ra matn turlari<sup>26</sup>.

**1. Hajm belgisiga ko’ra matn turlari.** Matn gapdan ko’ra yirik hajmli aloqa vositasi, nutqiy faoliyat mahsuli, muayyan qonuniyatlar asosida shakllangan yozma nutq ko’rinishidir. Matn hajm belgisiga ko’ra ikkiga ajratiladi. Minimal matn (mikromatn) va maksimal matn (makromatn). Badiiy uslubda minimal matn deyilganda biror mavzuni yoritishga

---

<sup>26</sup> Qarang: Matn tiplari. Йўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДД. – Т., 2009.

bag'ishlangan o'ta kichik asarlar – qatra, maqol, matal va aforizm, she'r va she'riy parchalar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik tushuniladi. Matnning ichki tomonini mazmun yaxlitligi, tashqi tomonini esa turli shakldagi bog'lamalar, sintaktik vositalar birlashtirib turadi, bunda matn (asar) matnga qo'yiladigan talablarga javob bera oladigan, mazmunan hamda grammatik jihatdan tugal tarzda bo'ladi. Minimal matnlarga misollar:

1. Ayol go'dak isini birinchi farzandi tug'ilganidayoq his etadi. Erkak esa go'dak isi nimaligini neverali bo'lganidan keyin anglaydi!.. Biz – erkaklar doim kechikib yuramiz... (O'.Hoshimov, "Go'dak isi")
2. Erkalangiz qalamni olib/ O'pib qo'ying uni muloyim/ Sho'rlik o'zi yalang'och qolib/ Kiyintirar egasin doim. (A.Oripov, "Qalam" she'ri)

Maksimal matn keng ko'lamdag'i voqealarni yoritishga qaratilgan bo'ladi. Shu jihat bilan minimal matndan farqlanadi. Maksimal matn hajman va mazmunan katta bo'ladi. Badiiy uslubda hikoya, qissa, roman, epopeya kabi yirik hajmli asarlar maksimal matn hisoblanadi. Maksimal matn mikromatnlardan iborat ham bo'lishi mumkin. Bunda eng kichik butunlik abzasga, eng katta butunlik esa bob (qism yoki fasl)larga to'g'ri keladi. Bunday matn tarkibida epigraf, so'zboshi (muqaddima), so'ngso'z (epilog) kabi yordamchi qismlar ham ishtirok etishi mumkin. Ular asar mazmuni va g'oyasiga, shuningdek, mavzuning tanlanishi va yoritilishiga oid ayrim masalalarga qo'shimcha izoh, sharh bo'lib keladi. Ba'zida maksimal matnlar tarkibida intertekstual matn ko'rinishlari ham kuzatiladi.

Matnlar tuzilishi, ya'ni strukturasining qoliplanganligi yoki qoliplanmaganligi jihatdan ikkiga bo'linadi: 1) **turg'un strukturali matn** (bildirishnoma, ariza, ma'lumotnoma va h.k.), 2) **erkin strukturali matn** (hikoya, maqola, qissa, she'r va h.k.) Har ikkalasi o'ziga xos xarakterga ega.

M.Yo'Idoshevning "Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi" nomli doktorlik dissertatsiyasida **ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko'ra matnlar** a) hikoya mazmunli matn; b) tasviriy matn; d) izoh mazmunli matn; e) didaktik matn; f) xabar mazmunli matn; g) buyruq mazmunli matn; hissiy ifoda mazmunli matn kabi turlarga bo'lib o'rganiladi. Biroq ayrim manbalarda muhokama matn (ilmiy, ilmiy-ommabop tarzda), ramziy matn (muayyan bir mavzu ramziy, falsafiy yoritilgan matn) kabi turlar ham uchraydi.

## **II. Ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko'ra matn turlari.**

1. **Hikoya mazmunli matnlar** (narrativ matn). Bunday matnda muallif yoki asar qahramoni, umuman, so'zlovchi o'zi boshidan o'tkazgan,

eshitgan, o'qigan yoki guvohi bo'lgan biror bir voqeani hikoya qilib beradi. Asosan, esdaliklar, ertak va rivoyatlar shu turga mansub bo'ladi. Bunda fe'lning o'tgan zamon shakli birinchi shaxs birlik yoki ko'plikda ifodalananadi. Bunda tasviriy, izoh, xabar, hissiy ifoda mazmunli matnlar birdaniga ishtirok etishi mumkin. Masalan:

*Hotam Asomdan notiqlik bilan shug'ullanishini iltimos qilganlarida, u o'z bilimi va mahorati yetishmasligini aytib, rad etadi. Ammo el iltijo qilavergandan so'ng rozi bo'ladi, notiqlik san'atini egallah uchun bir yil muhlat oladi. Bir yildan so'ng o'zini sinash maqsadida adirga boradi va bir tup daraxt oldiga yaqinlashmoqchi bo'lganida, undagi qushlar "gurr" etib uchib ketadi. Buni ko'rgan notiq Balx aholisiga tayyor emasligini aytib, yana bir yil muhlat so'raydi. Ikkinchchi yili yana o'sha yerdagi daraxt oldiga o'zini sinash maqsadida boradi. Bu safar Hotam daraxtga yaqinlashib, qushlar qimir etmayotganliklarini ko'radi, ammo ularga qo'l cho'zganida ular avvalgiday uchib ketadi.*

Xalq Hotam Asomdan bunday sinovdan maqsadini so'raganda, notiq: "Yovvoyi qushlarni o'ziga rom etolmagan notiq insonlarning ko'nglini yumshata olmaydi", – deydi. Xalq Hotam Asomga yana bir yil muhlat beradi. Uchinchi yilni mutolaa bilan o'tkazgan notiq o'zini shu tariqa yana bir bor sinaydi. U daraxtga yaqinlashib nimalardir deb erkalatganida qushlar jim bo'ladilar, qo'l cho'zganida qushlar qimir etmaydi. Bir qushni qo'liga olib silab, so'ng qo'yib yuboradi va xalqqa qarab sinov tugarini bildiradi.

*Tinglovchilar oldiga borib, nutq so'zlaydi va katta olqishlarga sazovor bo'ladi. (Muhammad Majidiyning "Ziynat ul-majolis" asaridan)*

**2.Tasviriy matnlari** (deskriptiv matn). Bunda biror bir kishi, joy, umuman, har bir narsani tasvirlab berish maqsad qilinadi. Tasviriy matnda ham monologik nutq ko'rinishi yetakchilik qiladi, shu jihat bilan hikoya matniga o'xshab ketadi. Biroq bunday matnda so'zlovchining ko'rgani yoki eshitganini tasvirlar asosida ifoda etish yetakchi bo'ladi.

Tasviriy matn ikki xil, ya'ni to'liq tasvir hamda noto'liq tasvir tarzida bo'ladi. Noto'liq tasvirda bir-ikki tasvir elementi qo'llanadi. Ayrim misollarni kuzatamiz.

1. *Solih maxdum tasviri: Maxdum bo'ychan, olago'sht, siyrak mo'y, oq tan, istarasi issiq bir domla. Yoshi ellikdan oshgan, soch va soqolida birmuncha oqlar ko'rinaldi. Kishi bilan so'zlashganda, ayniqsa, bir narsadan taajjublanganda siyrak va lekin to'g'ri, baquvvat o'sgan soqolini tutamlab, o'ng ko'zini biroz qisib qarar, odat qilgandan bo'lsa kerak, gap orasida "habba" degan so'zni ko'proq ishlatar edi. Domlaning bu "habba"si nima ma'noda qo'llanilar, o'zidan boshqa hech kim bilmaganidek, undan bu to'g'rida izoh ham so'ramagan edilar.* (A.Qodiriy, "Mehrobdan chayon")

2. *Ra'no tasviri: ...Bu go'zal qiz och ra'no gulining tusida yoki oq sariq tusda yaratilgan edi. A'zoda o'sgan tuklarga ham haligi tusning ta'siri bo'ladi. Ra'noning sochi gungurt-qora, ya'ni quyoshsiz joylarda qora*

*ko'rinsa ham, quyoshda biroz sarg'ish bo'lib ko'rinar edi. Shunga o'xhash Ra'noring ko'zida ham buning asari ko'ruladir: mudavvarga (to'garak) moyilroq jodu ko'zi kishiga qattiq qaraganda qoralikdan boshqacha yana bir turluk nur sochar edi. Kipriklari ostida nafis bir surma doirasi bor edi. Qoshi tutash kabi ko'rinsa ham, ko'ndalang yotgan ikki qilich orasini nafis bir quyulib ko'tarilish ajratib turar edi. Burni hech bir munaqqidga berishmaslik mutanosib, har zamon uyalish tabassumiga hozir turg'an nafis irinlarining yuqorig'i qismida sezilar-sezilmas tuklar ko'kargan edi. Yuzi cho'ziq ham emas, oy kulcha ham deb bo'limas, kishiga kulib qaraganda qizil olma ostlarida ikkita zamma ravishlik shakl hosil bo'lar, go'yo bizga chin ra'no guli ochilg'an holatda ko'rinar edi. Sochlari juda quyuq, sanoqsiz kokillar Ra'noring orqa, o'ngini tutib yotar, qaddi uzunliq bilan qisqaliqning o'rtasi, do'ndiq barmoqlarining jimjilog'ida xina gullari, har holda bu qiz yolg'iz Qo'qonningg'ina emas, umuman, Farg'onanining kuylariga qo'shulib maxtaladirk'an go'zallaridan edi. (A.Qodiriy, "Mehrobdan chayon")*

Ko'rindiki, tasviriy matnda partonimik tasvir xarakterli xususiyat hisoblanadi. Tasvirlanayotgan kishining dastlab birlamchi xususiyati tilga olinadi. Keyin unga aloqador xususiyatlar va qismlar yoritiladi.

**3. Izoh mazmunli matnlar** (argumentli matn). Bunday matnda aytيلayotgan fikrning ishonarlilagini ta'kidlash uchun turli dalil va izohlar keltiriladi. Asoslash, isbotlash maqsadida har xil birliklar, jumladan, *chunki, masalan, shu sababdan, shuning uchun* va b. kabilar qo'llanadi.

1. So'z adabiyotning eng birinchi unsuri, uning asosiy quroli. Shunday bo'lgandan keyin bu quroldan foydalanishda adibning beparvoligi katta gunohdir.

2. Nutq yoqimli, mazmundor bo'lmog'i lozim, lekin bu yoqimlilik, o'z navbatida, haqiqatdan kelib chiqmog'i zarur. (B.Paskal)

3. Maqtanib gapirish – zaiflikning birinchi alomati, shuni inobatga olib kimki zo'r ishlarga layoqatli ekan, u tilini tiygan bo'ladi. (Sitseron)

4. Katta nutqlar o'ta zerikarli, shuning uchun ularni nihoyatda e'tiborsizlik bilan tinglaydilar. (F.Bekon)

**4. Didaktik matnlar** (Le texte explicatif – eksplikativ matn). Bunday tipdag'i matnlarda so'zlovchiga pand-nasihat qilish, uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytiganlardan xulosa chiqarishga o'rgatish istagi asosida tuzilgan matn eksplikativ yoki didaktik matn deyiladi. Maqsadga erishish uchun maqol, matal, aforizm, turli hayotiy voqealar, rivoyatlar, masallardan namuna sifatida foydalanishi mumkin. Ba'zida so'zlovchi, ya'ni matn yaratuvchi donolar aytmishlarki, mashoyixlar demishlarki, ulug'lar (eskilar)da shunday gap bor, derlarkim, shunday rivoyat, masal, matal eshitganim bor tarzidagi kiritmalardan ham foydalanadi.

Didaktik matnlar har zamonda yaratilgan. Hozirgi kunda iste'dodli yozuvchi T.Malikning ko'plab kitoblari mazmunan didaktik matn turiga

misol bo'ladi. Jumladan, "Odamiylik mulki", "Po'rtanali ummonda suzar hayot qayig'i", "Umidimiz yulduzları" kabilar aynan didaktik matnlar sirasiga mansub. Didaktik matnga misollar:

1. Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar,  
Har kimki ag'yordurur yor aylar,  
So'z qatig'i el ko'ngliga ozor aylar.  
Yumshog'i ko'ngillarni giriftor aylar. (A.Navoiy)

2...Nedinkim, tilga har nechuk so'zni o'rgatsang, shuni aytur, so'zni o'z joyida ishlatg'il, so'z agar yaxshi bo'lsa, ammo noo'rin ishlatilsa, garchand u har nechuk yaxshi so'z bo'lsa ham yomon, nobop eshitilur. Shuning uchun behuda so'zlamag'ilki, foydasizdir. Bunday befoyda so'z ziyon keltirur va har so'zki, undan hunar isi kelmasa, bunday so'zni gapirmaslik lozim. Hakimlar debdurlar: So'z bir nash'adur, undan xumor paydo bo'lur". ("Qobusnama")

3. Ulug' donishmand yozadi: "Bilmagan ilmdan gapirmagil...Bilmagan ilm-ma'rifatni bilaman deb da'vo qilsang, hech narsa hosil bo'lmaydi va behuda zahmat chekasan".

4. Og'izga kelganni demoq nodonning ishi,  
Oldiga kelganni yemoq hayvonning ishi. (A.Navoiy)

5. **Xabar mazmunli matnlar** (informativ matn). Biror voqe-a-hodisa haqida xabar berish maqsadida tuzilgan yoki havola qilingan matn informativ matn hisoblanadi. Badiiy matnda informativlik o'ziga xos tarzda bo'ladi. Oddiy xabardan farq qiladi. Estetik maqsad yuklangan bo'ladi. Boshqa matn turlari tarkibida keladi. Masalan, Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romani yakunida shunday bir xabarni keltiradi: *Keyingi Marg'ilon borishimda yaqin o'rtoqlardan Yodgorbek to'g'risida surishtirib bildim: Yodgorbek ushbu asrning o'n to'qqiz va yigirmanchi ochliq yillari miyonasida vafot qilib, undan ikki o'g'ul qolibdir. O'g'ullaridan bittasi bu kunda Marg'ilonning mas'ul ishchilaridan bo'lib, ikkinchisi Farg'ona bosmachilarini orasida ekan. Bu kunda nomu nishonsiz, o'luk-tirigi ma'lum emas, deydilar.* (Misol olingan manba: Yo'ldoshev M."Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi". DD. -T.,2009).

6. **Buyruq mazmunli matnlar** (injonktiv matn). Bunda buyruq hamda maslahat ohangi yetakchilik qiladi, matn buyruq maylidagi gaplardan tuzilgan bo'ladi. Bunday matnlar ham qahramon, ham muallif nutqi tarzida bo'lishi mumkin. Misollarni kuzatamiz:

1. *Ey farzand, so'zning yuzin va orqasin bilg'il va ularga riosa qilg'il, har na so'z desang yuzi bila degil, to suxango'y bo'lg'aysen. Agar so'z aytib so'zning nechuk ekanin bilmasang, qushga o'xsharsanki, unga to'ti derlar, ul doim so'zlar, ammo so'zning ma'nosin bilmas.* ("Qobusnama"dan)

2. *Bilgilki, hamma hunardan so'z hunari yaxshi.* ("Qobusnama"dan)

7. **Hissiy ifoda mazmunli matnlar** (ekspressiv matnlar). Bunday matn turlarida his-hayajon kuchli ifodalangan bo'ladi. Insonning ichki kechinmalarini, voqelikka munosabatini o'ziga xos pafos bilan ifodalash maqsadida tuzilgan matnlar hissiy ifoda mazmunli matn deyiladi.

*Mayli, kim qay tildan zavq-u shavq olsa,  
 Mening o'z tilimga ming jonim fido.  
 Erta ona tilim agar yo'qolsa,  
 Men bugun o'lishga bo'lurman rizo.  
 Mayli, qashshoq bo'lsin, mayli, behasham,  
 Lekin mening uchun aziz va suyuk.  
 Jahon minbaridan yangramasa ham,  
 Ona tilim menga muqaddas, buyuk.* (Rasul Hamzatov)

Xullas, kundalik hayotdagi so'zlashuv nutqida ehtiyojimizga ko'ra turli matn turlaridan foydalanamiz. Ba'zan boshimizdan o'tgan yoki o'zimiz guvohi bo'lган voqealarni kimgadir aytib beramiz.. Ba'zan nasihat beramiz, ba'zida so'zlovchini nimadir qilishga undaymiz. Inson hissiyotlarini, tuyg'ularini, hayajonlarini, azob va qayg'ularini ifodalashni, shu orqali tinglovchi yoki kitobxonni ta'sirlantirishni istasa, hissiy mazmundagi matnlardan foydalanadi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Matn tipologiyasi "Matn tilshunosligi" fani uchun qay darajada ahamiyat kasb etadi?
2. Matn ifoda-maqsadiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
3. Matnning ifoda-maqsadiga ko'ra turlarini tavsiflab bering.
4. Matn hajmiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
5. Makromatn va mikromatn, minimatn va maksimmatn atamalari mohiyatni qay darajada oydinlashtira oladi?
6. Sizningcha, matnni yana qanday turlarga bo'lib o'rganmoq lozim?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДД. – Т., 2009.
2. Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Т., 1989.
3. Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Т., 1989.
4. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд, 1992.

**Topshiriq.** Quyidagi matn ko'rinishlari matnning mazmuniy turiga ko'ra qanday turlari sanaladi?

Inson qalbi bilan hazillashmang siz.  
 Unda millat yashar, unda til yashar.  
 Unda ajdod faxri yashaydi so'zsiz,  
 Unda istiqomat qiladi bashar.  
 Inson qalbi bilan hazillashmang Siz,  
 Unda ona yashar, yashaydi Vatan.  
 Uni jo'n narsa deb o'ylamang hargiz,  
 Hayhot! Qo'zg'almasin bu Qalb daf'atan!.. (A.Oripov, "Inson qalbi")

\*\*\*\*\*

- Agar tilingning ortiqcha so'zlashiga ega bo'la olmasang, unda tizgining jilovini shaytonga topshirgan bo'lasan.
- Ko'p so'z-iboralar borki, odamlarga ular fasohatli ko'rinsa-da, Alloh nazdida ular nomaqbuldir – so'zlovchini ham, eshituvchini ham mulzam qilar.
- Ey bo'tam, tilingni yomon so'zlardan saqla.
- Ko'p ortiqcha so'zlashuv eshituvchini ranjitar. (Abdul Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. "Nozik iboralar")

\*\*\*\*\*

Bundan 25 asr oldin buyuk faylasuf Aristotelning oldiga o'ta sergap bir yosh yigitni shogirdlikka olib kelishadi. Ancha suhbatlashgandan keyin yosh yigit ustozidan o'qish uchun qancha haq olishini so'raydi.

– Sendan boshqalarga nisbatan ikki barobar ko'proq haq olaman, – deydi ustoz.

– Nega? – hayron qolib so'radi shogird.

Chunki sen bilan ikki barobar ko'p ishlashim kerak: seni gapirishga o'rgatishdan oldin, avvalo, jim turib eshitishga o'rgatishim kerak, – deydi ustoz (Rivoyat).

## 9-MAVZU. MATN VA USLUB. NOBADIY MATNLAR VA ULARNING TABIATI XUSUSIDA REJA:

1. Rasmiy uslub. Tarixi va buguni.
2. Rasmiy uslub xususiyatlari.
3. Ilmiy matn va unga qo'yiladigan talablar.
4. Ilmiy matn ko'rinishlari va ularning tasnifi.
5. Publitsistik matn va unga qo'yiladigan talablar.
6. Publitsistik matn ko'rinishlari va ularning tasnifi.

*Tayanch tushunchalar: turg'un matn, erkin matn, ma'lumotnomma, e'lon, taklifnomma, majlis bayonnomasi, dalolatnomma, qisqalik, aniqlik; ilmiy uslub, fan sohasi, ilmiy tafakkur, dalil, monografiya, darslik, qo'llanma, dastur, taqriz, referat, mantiqiy izchillik; ommabop uslub, hozirjavoblik, targ'ibot, tashviqot, ijtimoiy-siyosiy terminologiya, ommaviy axborot vositalari.*

*Rasmiy uslub* hozirgi o'zbek tilining davlat-ma'muriy, huquqiy muassasalarida, rasmiy diplomatik munosabatlarida namoyon bo'ladigan ko'rinishidir. Qonun matnlari, farmonlar, farmoyishlar, buyruqlar, xullas,

barcha rasmiy ish qog'ozlari ana shu uslubda shakllanadi. Bu uslubning og'zaki va yozma ko'rinishlari, binobarin, ushbu ko'rinishlarning o'z me'yorlari mavjud.

Rasmiy uslubga oid matnlar, albatta, zarurat tufayli yuzaga kelgan. Insoniyat jamoa sifatida yashashni boshlagandan beri bu kabi matnlar qo'llanila boshlangan. Dastlabki rasmiy ish qog'ozlarining ko'rinishi sifatida miloddan avvalgi davrda Bobilda paydo bo'lgan "Qonunlar majmui" kitobi aytildi.

Sharqda o'rta asrlarda yorliq (xabar, farmoyish, bildirish, tasdiqlash), farmon, noma, bitim, arznama, tilxat kabi ish qog'ozlari keng ishlatilgan. Masalan, XIV asrda To'xtamishxonning polyak qiroli Yag'ayloga yo'llagan yorlig' "*To'xtamish so'zim Yag'ayloga*" deb boshlanadi. Yoki Zahiriddin Boburning otasi Sulton Umarshayx marg'ilonlik Mir Said Ahmadga yozgan rasmiy qog'ozi "*Sulton Umarshayx Bahodir so'zim*" deb boshlanadi.

XIX asrda Qo'qon xonligida keng tarqalgan hujjat turi "patta" bo'lgan. Patta birovga muayyan miqdorda pul, mahsulut, don va h.k.lar berilganligini tasdiqlovchi hujjat turi bo'lgan<sup>27</sup>.

Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda ish ko'rileyotgan ko'pgina hujjatlarning ko'rinishi Yevropa, ya'ni ruslarning ta'siri natijasida yuzaga kelgan. Rus xalqidagi hujjat turlari o'zbekchalishtirilgan. Shu bois ayrim hujjat turlari o'zbek tili grammatikasi tuzilishiga muvofiq kelmaydi. Masalan, rus tilidan aynan tarjima qilish natijasida "ma'lumotnoma" matni "berildi ushbu ma'lumotnoma shu haqdakim..." deb boshlanadi. Bu aynan rus tili grammatikasi asosida tuzilgan ko'rinish (*Dana nastayashiy spravka Ivanovu v tom chto tovarish Ivanov disvitelno priivayet tam adres...*) sanaladi.

Umuman, bugungi kunda rasmiy ish qog'ozlari bilan ishslash hayotimizning tarkibiy qismi sanaladi. Mutaxassislarning aytishicha, boshqaruv xodimlarining 80 foiz vaqtি ish qog'ozlariga sarflanar ekan.

Rasmiy matnlarni tuzishda quyidagilarga amal qilish lozim:

**Aniqlik.** Ushbu uslubda shakllangan matnda noaniqlikka, izohtalab o'rirlarga yo'l qo'yilmasligi lozim. Fikr va mazmun sodda, aniq va tushunarli tilda bayon qilinishi kerak.

**Qolip.** Fikr – mulohaza, bayon asosan bir qolipda ifodalanadi. Shu tarzda ariza, qaror, bildirishnomalar, ma'lumotnoma, shartnoma, tabriknoma singari turli xarakterdagi rasmiy hujjatlarning har birining o'ziga xos bayon etish qolipi bo'ladi. Ayni paytda, ularning har birining alohida so'z va turg'un birikmalari ham mavjud bo'ladi. Masalan, huquqiy hujjatlar matnida quyidagi atamalarga duch kelamiz: *ma'muriy javobgarlik, fuqarolik holati, fuqarolik javobgarligi, aybdor, gumondor, jabrlanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, jamoat kafilligi, surishtiruv, jabrlanuvchi bilan yarashuv va boshqalar*.

Ish qog'ozlari va hujjatlarning xilma-xilligiga qarab ularga oid

<sup>27</sup> Maҳмудов Н. ва б. Ўзбек тилида иш юритиш. – Т., 1990. 6-6.

atamalarning me'yorlashuvi va chegaralanishi ham kuzatiladi. Qiyos uchun diplomatik munosabatlar doirasidagi so'z va iboralarga *ahdlashuvchi oliy tomonlar, elchi, elchixona, muxtor elchi, muxtor vakil, ishonchli vakil, nota, ratifikatsiya, shartnoma, bayonot, qo'shma bayonot, deklaratsiya, tashrif, qarorgoh* kabilar mansub.

Ushbu uslub uchun jargonlar, oddiy so'zlashuvga xos so'zlar, emotsiyal-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlarning ishlatalishi me'yor sanalmaydi va shu jihat bilan boshqa uslublardan keskin farq qiladi.

Rasmiy uslubning grammatik me'yori ham alohida xususiyatlarga ega. Masalan, ot so'z turkumiga oid so'zlar ko'p ishlataladi. Noaniqliklarga yo'l qo'yilmaslik maqsadida ular olmoshlar bilan almashtirilmaydi.

Bu uslubda fe'lning harakat nomi shakli faol qo'llaniladi, gapning kesimi ko'pincha hozirgi zamonning majhul nisbatida ifodalanadi, hujjatning xarakteriga qarab shart mayli shakliga tez-tez murojaat etiladi. Mazkur matnda sonlar va olmoshlar boshqa so'z turkumlariga qaraganda ikkinchi darajali omil hisoblanadi.

Rasmiy uslubning sintaktik alomatlari ham matnda darhol ko'zga tashlanadi. Unda darak gaplar, uning ayniqsa qo'shma gap shakli ko'p ishlataladi. Yoyiq va murakkab so'z birikmalarini mahsuldor hisoblanadi, murakkab tipdagi nomlar keng qo'llaniladi. Gap tuzilishida o'zbek tilidagi odatdagi me'yorga amal qilinadi va yuqorida sanalgan jihatlari bilan ilmiy uslubga o'xshab ketadi.

Sintaktik jihatdan esa sifatdosh va ravishdosh aylanmali konstruksiyalarning hamda ergash gapli qo'shma gaplarning qo'llanilishi bilan xarakterlanadi. Bu matnda *qabul qilinsin, taklif etildi, e'tiborga olinsin* kabi qo'shma kesimlar ko'p qo'llanadi. Kirish so'zlar, odatda, ko'p ishlataladi. So'zlar odatdagi tartibda bo'ladi, inversiyaga deyarli uchramaydi.

***Ilmiy uslub*** ilmiy asarlar uslubidir. Ilmiy uslubning janr xususiyatlari ham keng. Monografiya, risola, darslik, o'quv qo'llanmasi, o'quv-metodik qo'llanma, dastur, ma'ruza matnlari, taqriz va referat shu janr ko'rinishlari hisoblanadi. Garchi ularning har birining bayon usuli va uslubi ma'lum darajada bir-birlaridan farq qilsa-da, til birliklaridan foydalanish me'yoriga ko'ra umumiylikni tashkil etadi.

Ilmiy uslubga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. **Aniqlik.** Har qanday ilmiy bayon, xulosa, shubhasiz, aniqliknini talab qiladi. Shuning uchun bu uslubda so'zlarni aniq, asosan bir ma'noda qo'llash, sinonimik qatordagi variantlardan masalaning mohiyatini birmuncha aniq ifoda etadigan variantini tanlash yoki neytral variantini qo'llash taqozo etiladi.

2. **Obyektivlik.** Har qanday ilmiy matnda fikrning haqqoniyligi, obyektivligi lozim bo'ladi. Muayyan bir fanniy hodisa tadqiqiga yondashgan izlanuvchi mazkur hodisa mohiyatini yaxshi anglagan holda tadqiq ishlarini olib borishi hamda xolisona xulosalarga kelishi kerak.

Ma'lum bo'ladiki, haqqoniylik, obyektivlik nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, bu jarayonda tadqiqotchidan keng duyoqarash talab etiladi.

**3. Mantiqiy izchillilik.** Ilmiy bayon nutqning mantiqiyligi sifati asosida tuziladi. Aslida, nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlari – to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'langandir. Chunki grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifoda etish uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan leksik birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Matnda so'zlar, gaplar, abzaslar o'zaro mantiqiy bog'langan bo'lishi lozim. Shuning uchun ham ilmiy matnlarda bu izchillikni yuzaga keltiruvchi *ma'lumki*, *ma'lum bo'ladiki*, *ta'kidlash lozimki*, *ta'kidlash o'rinniki*, *darhaqiqat*, *binobarin*, *shunday ekan*, *birinchidan*, *ikkinchidan*, *ko'rinaridiki*, *ta'kidlash joizki*, *xulosa qilib aytganda*, *xulosa qilganimizda*, *birgina misol* va b. singari ko'plab bog'lovchi vazifasini bajaradigan so'z va birikmalar qo'llaniladi.

**4. Qisqalik.** Bu xususiyat aynan ilmiy bayonga xos xususiyatdir. Shuning uchun unda tilning tasviriy imkoniyatlaridan deyarli foydalanilmaydi. Ba'zi-ba'zida ilmiy matnlarda zarurat talabi bilan ko'chma ma'noli so'zlar qo'llanilishi mumkin. (Masalan, *Gapning markazi kesim* yoki *Gapning yuragi kesim*. A.Q.G'ulomov. Boshqa bir misol: *Differensial tenglamalarning xususiy hosilalari fizikaga cho'ri bo'lib ishga kirdi, keyin u cho'ridan bekaga aylanib ketdi*. R.Bekjonov).

Ilmiy uslub fonetik jihatdan boshqa uslublardan farqlanmaydi. Leksik qatlamida esa asosan sohaviy atamalar qo'llanadi. Ilmiy matnlarda muallif individualligi kam seziladi. Biroq ayrim olimlarning ilmiy matnlari o'ziga xos so'zlarni qo'llaganligi bilan ham ajralib turadi. Masalan, prof. H.G'. Ne'matov ilmiy matnlarida "jumladan" kiritmasi ornida ko'pincha "chunonchi" birligi, prof. A.Hojiyev ilmiy matnlarida "mazkur" so'zi ko'proq qo'llanganini ko'rishimiz mumkin.

Ilmiy uslubning morfologik xususiyatlari to'g'risida M.Mukarramovning "Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili" (- T., 1984) monografiyasida quyidagi fikrlar uchraydi: "Ilmiy uslubda faqat adabiy tilda me'yor sifatida e'tirof etilgan grammatik ko'rsatkichlardan foydalaniladi. So'z turkumlaridan ot faol, ko'pincha takror qo'llanadi. Subyektiv baho shakllari xos emas. -lar ko'plikdan boshqa semantik-uslubiy ma'nolarni ifodalama-sa-da, atama hosil qilishda ishtirok etadi. Umumiyligida ustun turadi, I-II shaxs qo'shimchalari ishlatilmaydi, III shaxs shakli faol. Undov va taqlid so'zlar ham bu uslubga xos emas. Yuklamalarning esa imkoniyati chegaralangan"<sup>28</sup>.

Ilmiy nutq uchun *deyiladi*, *aytiladi*, *yoritiladi*, *bayon qilinadi*, *aniqlanadi*, *tekshiriladi*, *foydalaniladi*, *ta'riflanadi* singari xoslangan fe'llar mavjud. Fe'lning majhul daraja shakli ham bu uslub uchun xos. Ammo hozirgikelasi zamon shaklidan tashqari xarakterli zamon ko'rsatkichi yo'q.

<sup>28</sup> Мукаррамов М.Хозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. – Т.: Фан, 1984. 35-6.

Kishilik olmoshlari kam qo'llaniladi. Bu gap faqat *muallif* va *men* ma'nolarida qo'llaniladigan hamda kamtarlik ma'nosini ifodalaydigan *biz* olmoshiga tegishli emas.

Shu tarzda ilmiy uslubning *ammo*, *lekin* kabi o'z bog'lovchilar, *bilan*, *uchun*, *kabi*, *singari*, *haqida*, *to'g'risida*, *tufayli*, *sababli*, *doir*, *oid*, *binoan*, *tashqari*, *qaraganda*, *asosan*, *muvofiq*, *qadar* singari ko'makchilarini borligini ham qayd qilish mumkin.

Ilmiy matnda gaplar darak mazmunida bo'lib, asosan sodda yoyiq holda bo'ladi. Agar fikr qo'shma gaplar yordamida ifodalansa, bog'lovchilarning faol ishlatilishi kuzatiladi. Undov, atov gaplar qo'llanilmaydi, nutq monologik xarakterda bo'ladi. Rasmiy uslubdagiga o'xshab gap tuzilishining odatdagagi tartibi qo'llaniladi. Qo'shma gap faol ishlatiladi. Darak gap asosiy mavqeni egallaydi, so'roq va buyruq gaplar deyarli qo'llanilmaydi.

Ilmiy uslub ko'rinishlariga qisqa to'xtalib o'tamiz:

1. **Annotatsiya** [lot. *mulohaza*, qayd; eslatma]. Kitob, maqola va h.k. mazmuni, ahamiyati haqidagi qisqacha ma'lumot, qisqa ta'rif.

2. **Tezis** [yun. *qoida*, isbot]. Ilmiy asar, maqola, ma'ruza va sh.k.lardagi asosiy g'oyalarning qisqa va lo'nda bayoni.

3. **Taqriz** [ar. *biror kitob (asar)ni maqtab yozish*]. Ilmiy, badiiy va b. turdag'i asarga tanqidiy nuqtayi nazardan berilgan yozma baho, tahlil.

4. **Maqola** [ar. *nutq*; *kichik asar*]. To'plam, jurnal, gazeta va sh.k.lar uchun yozilgan ilmiy yoki publisistik asar.

5. **Uslubiy qo'llanma**. O'quvchi-talabalar uchun yaratilgan, dars samaradorligiga xizmat qiladigan, muayyan bir mavzularni anglashga amaliy yordam bera oladigan mashq, turli topshiriqlar, testlar banki, savol-javoblar, turli pedtexnologiyalarni o'zida jamlagan, asosan, amaliy jarayonda qo'llanadigan ko'rsatma.

6. **O'quv qo'llanma**. Uslubiy qo'llanma hamda darslik oralig'ida bo'lgan, nazariy va amaliy materiallarni o'zida jamlagan, talabalarning o'quv jarayonlarida faol qo'llanadigan, ularga fan haqidagi bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qila oladigan adabiyot.

7. **Monografiya** [yun. *mono+graf*, graf – yozmoq]. Bir mavzu, bir masalani har tomonlama, chuqr yoritishga qaratilgan asar. Kamida 6 b/t. dan iborat bo'ladi. Ilmiylik yuqori darajada bo'ladi.

8. **Darslik**. Bir yoki bir necha muallif tomonidan yaratiladigan, hajman va mazmunan murakkab bo'lgan, o'quvchi-talabalarga fan sirlarini o'rgatishga qaratilgan asar.

9. **Dissertatsiya** [lot. *disserto* – fikr yuritish, tadqiq etish]. Ilmiy daraja olish uchun yozilgan tadqiqot turi.

Xullas, ilmiy uslub yillar davomida shakllangan o'z qonun-qoidalari hamda tur-ko'rinishlariga ega.

**Ommabop uslub**. Publisistik matn. Publisistik (lat. *publicus* – *ijtimoiy* so'zidan) matn, keng ma'noda, ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritadigan davriy matbuot, ijtimoiy-siyosiy adabiyot, siyosiy nutqlarni o'z

ichiga oladi. Til taraqqiyotida muhim omil sanaladigan publitsistika o'z navbatida tilning imkoniyatlaridan ham keng foydalanadi.

Ommabop uslub imkoniyatlarining kengligini lingvistik va ekstralivingistik (paralingvistik) – tildan tashqaridagi omillarning mustahkam aloqadorligida kuzatamiz. Publitsistik janrda yozilgan asarlarning mohiyatan hozirjavobligi, ularning axborot hamda targ'ibot-tashviqot xarakterda bo'lishi va ommani dunyo yoki mamlakatimiz miqyosida sodir bo'layotgan voqeа-hodisalardan zudlik bilan xabardor qilish natijasida yuzaga keladigan novatorlik unda tabiiy ravishda yangi ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning qo'llanilishi va tilimizda me'yorlashishiga sabab bo'ladi. Boshqacha aytganda, ommabop uslub tilning yangi so'z va iboralar hisobiga boyib borishiga ko'maklashadi.

Ommabop uslub ma'lum ma'noda oraliq uslub sanaladi. Bu uslubda shakllangan matnlar obrazliligi, ta'sirchanligi, tasviri vositalarning mahsuldor qo'llanilishi bilan badiiy uslubga yaqinlashsa, dialektizmlar, istorizmlar, argo va jargonlar qo'llanilmasligi bilan undan uzoqlashadi. Ifodaning aniqligi va publitsistik janrlarga xoslangan hamda ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning qo'llanilishi bilan ilmiy uslubga o'xshaydi. Ayni paytda, ifodadagi qisqalik, lo'ndalik, ixchamlik, yorqinlik kabi xislatlar ham uni ilmiy uslub bilan yonma-yon qo'yadi.

Radio va televideniyedagi ayrim chiqishlar shuni ko'rsatadiki, bu uslubdagi matnda so'zlashuv uslubi elementlari ham ba'zan aralashib ketishi mumkin.

Ma'lumki, publitsistika badiiy, siyosiy, ilmiy jabhalarni qamrab oluvchi yirik soha hisoblanib, ommaviy axborot vositalari sanaladigan radio va televideniyeda, gazeta va jurnallar sahifalarida aks etadigan yangilik, xabar, reportaj, tahlilnama, bosh maqola, maqola, ocherk, felyeton, pamflet, e'lon, reklama singari qator janrlarni qamrab oladi. Ana shu qamrov doirasining kengligi o'z navbatida til birliklarining har bir janrda alohida tarzda me'yorlashuvini taqozo etadi. Bu o'rinda esa me'yorlashishning umumiyligi jihatlari xususida so'z yuritish imkoniyati mavjud.

Ommabop uslubning badiiy uslub bilan mushtarak tomonlari, ayniqsa, uning leksikasi va frazeologiyasida seziladi.

Ko'p uchraydigan publitsistik uslub terminlari sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

**Muxbir** [ar. xabarchi, xabar beruvchi]. Radio va televideniyeda, gazeta va jurnallarda faoliyat yuritadigan yuqori malakali, saviyali shaxs.

**Jurnalist.** Jurnal so'zi bilan bog'liq bo'lib, davriy matbuotda – radio va televideniyeda, gazeta va jurnallarda faoliyat yuritadigan yuqori malakali shaxs.

**Reportaj** (reportaj tayyorlash) [ing. xabar bermoq]. Voqeа sodir bo'lgan joyning o'zidan matbuot, radio, televideniye orqali zudlik bilan xabar berish. Reportyor ing. *muxbir*.

**Intervyu** [ing. uchrashuv, yuzma-yuz suhbat]. OAV uchun biror kishi bilan o'tkazilgan suhbat, suhbat matni.

**Lavha** – biror voqeа-hodisa haqida kichik asar.

**Ocherk** [rus. tasvirlamoq, bayon qilmoq]. Hayotiy dalillar asosida yozilgan kichikroq badiiy asar.

**Pamflet** [ing. risolacha, kichik asar]. Biror hodisaga munosabat bildirish, "aks-sado". Ijtimoiy-siyosiy mavzuga bag'ishlangan maqola.

**Felyeton.** [fr. varaq]. Kundalik hayotdagi biror bir holat yoki shaxs tanqid qilib yozilgan maqola turi.

Xullas, publitsistika va bu uslubda yozilayotgan asarlar o'z xarakteriga ko'ra farqlanadi. Ular kundalik turmush bilan birga o'sib, ommalashib bormoqda.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:***

1. Rasmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari haqida nimalar bilasiz?
2. Rasmiy uslubdagi matn va unga yondosh matn xususiyatlari haqida gapiring.
3. Ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.
4. Ilmiy uslub va ilmiy-ommabop uslub xususiyatlari haqida gapiring. Farqli jihatlarini ko'rsating.
5. Ilmiy matn ko'rinishlarini sanang.
6. Ilmiy uslub ko'rinishlariga tavsif bering.
7. Ommaviy uslubning o'ziga xos xususiyatlari haqida nimalar bilasiz?
8. Publitsistik uslubdagi matn va unga yondosh matn xususiyatlari haqida gapiring.
9. Publitsistik matn ko'rinishlarini sanang.
10. Publitsistik uslub ko'rinishlariga tavsif bering.
11. Bugungi kun publitsistik uslubga xos matnlarda uchraydigan xato va kamchiliklar nimalarda kuzatiladi?

**Topshiriq.** *Gul, tomchi, chumoli, tuproq* kabi so'zlardan birini tanlab, ham ilmiy, ham badiiy, ham publitsistik uslubda matn yarating.

**Topshiriq.** Publitsistik uslubga xos quyidagi misolni kuzating, mantiqiylik, aniqlik buzilgan o'rirlarni topishga harakat qiling: *2000-yildan buyon mamlakatimizda irsiy va tug'ma nuqsonli bolalar tug'ilishi 1,7 baravardan kamaygan, istiqlol yillarida odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan 73 yoshga, ayollarning umr ko'rishi esa 5 yoshgacha o'zgargan* ("Kelajak avlod" gazetasi, 2014-yil, 8-son).

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бабаханова Д. Ўзбек адабий тилида расмий иш услуби. – Т., 1987.
2. Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик талқини: ДДА. – Т., 2001.
3. Маҳмудов Н. ва б. Ўзбек тилида иш юритиш. – Т., 1990.
4. Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. – Т.: Фан, 1984.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2006-2008.

## 10-MAVZU. MATNNING FONOSEMANTIK TAHLILI REJA:

1. Fonetik vositalarning uslub yaratishdagi o'rni.
2. Badiiy adabiyotda fonetik vositalar.
3. Fonetik hodisalarning matndagi imkoniyatlari.

*Tayanch tushunchalar: fonosemantika, fonetik vositalar, alliteratsiya, assonans, geminatsiya, grafik belgilar, unlilar uslubiyati, undoshlar uslubiyati, ohang, urg'u, fonetik hodisalar.*

Ma'lumki, til birliklarining denotativ ma'nosiga konnotativ ma'no yuklash nafaqat leksik-grammatik shakllar bilan, balki fonetik va grafik belgilar orqali ham amalga oshiriladi. She'riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she'rda o'ziga xos jozibador ohang bo'ladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qo'llash natijasida erishiladi. Shu sabab adiblar tovushlar haqida quyidagicha yozadi:

Tovushlarning kichik- ulug'i,  
Tovushlarning hidi, bo'yি bor.  
Tovushlarning sovuq, ilig'i,  
Tovushlarning rangi-ro'yi bor. (M.Shayxzoda)

Umuman, tovushlar, ularning matndagi imkoniyatlari haqidagi dastlabki qarashlar Aflatun va Arastu yashagan davrlarga to'g'ri keladi. Bugungi kunda fonosemantika borasidagi qarashlar ham rivojlanib bormoqda. Unga ko'ra har bir tovush shunchaki emas, balki asosli ravishda yuzaga kelgan. L.Barlasning "Rus tili. Stilistika" asarida M.Lomonosovning rus tili misolida **а** tovushi ulug'vorlikni, kutilmagan qo'rquinchni; **е, і, ю** tovushlari mayinlikni, yoqimlilikni, yig'loqilikni va kichik narsalarni; **я** yoqimlilikni, quvnoqlikni, mayinlik va moyillikni; **о, у, ы** qo'rquinch va kuchli narsalarni; **г**'azab, hasad, hadiksirash va qayg'uni anglatishi; **к, п, т, б, г, д** tovushlari to'mtoq, ma'nosiz so'zlarda qo'llanishini; **с, х, ц, ch, r** talaffuzda jarangdor va shiddatkor, buyuk, baland, kuchli va ajoyib narsa va hodisalarni ifodalashi; **ж, з, в, л, м, н** muloyim talaffuz etilishi va shuning uchun muloyim va yumshoq narsa, harakatlarni ifodalashi haqidagi fikrlarni qayd etadi.

She'riyatda asosan, alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar

takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi. Nasrda unlilarni cho'zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so'zlarning fonetik qobig'ini o'zgartirib yozish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta'minlanadi. Badiiy adabiyotda qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo'lish, xafa bo'lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching-kesatiq, olqish, so'roq, ta'kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istik, qo'llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda yozuvchilar unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usulidan foydalanadilar. Masalan, unlilarni birdan ortiq yozish. Bunda unlining cho'zib talaffuz qilinganligi tushuniladi. Unlini cho'zib talaffuz qilish orqali qahramonning voqelikka munosabati oydinlashtiriladi.

Fonetik vositalar bilan yuzaga chiqadigan rang-baranglik nutq tovushlarining so'zda paradigmatic va sintagmatik munosabatga kirishganida ro'yobga chiqib, uslubiy ahamiyat kasb etadi. Talaffuzda tovushlarni ikkilantirish, takror qo'llash, tushirib qoldirish turlicha qo'shimcha ma'no bo'yoqlarini yuzaga chiqaradi. Bu hol nutq tovushlarining emotsiyal-ekspressiv xususiyati bilan bog'liq jarayon sanaladi. Bu borada o'zbek tilshunosligida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Quvonarlisi shundaki, o'zbek tilshunosligida ham grafik, ham fonetik vositalarning matniy imkoniyatlari monografik tadqiqq etilgan<sup>29</sup>. Ijodkorlar o'z badiiy niyatini amalga oshirish maqsadida grafik vositalarning turli shakllaridan foydalanishga harakat qilishadi. Natijada fonografik vositalar fonopoetika uchun material bo'lib xizmat qiladi, badiiy uslub me'yorlari ta'minlanishiga ko'mak beradi. Bunda fonetik vosita sifatida alliteratsiya, assonans, geminatsiya asosiy o'rinn tutadi. Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga ham alohida e'tibor qaratiladi. She'riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she'nda o'ziga xos jozibadorlik, nutqning boshqa ko'rinish-u shakllarida takrorlanmas ohang ham bo'ladi. Mana shu ohangdorlikka nutqning eng kichik birliklari – nutq tovushlarini tovlantirib, o'rni bilan saralab, chertib-chertib qo'llash orqali erishiladi. Nasrda ham, nazmda ham unlilarni cho'zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta'minlanadi. So'zdagi tovushni cho'zib talaffuz etish ma'noni kuchaytirish, belgini orttirib ifodalash, ruhiy holat yoki muayyan munosabatni aniqroq ifodalashga xizmat qila oladi.

**Alliteratsiya.** Badiiy asar tilining ohangdorligini va ta'sirchanligini ta'minlashda alliteratsiyaning o'rni beqiyos. She'riy nutqda misralar, undagi so'zlar hamda bo'g'inlar boshida yoki oxirida bir xil undosh tovushlarning takror qo'llanilishiga alliteratsiya deyiladi. Tovushlar zamiridagi

<sup>29</sup> Ҳайдаров А. Коннотатив маънонинг фонетик воситаларда ифодаланиши. Монография. – Т.: Наврўз, 2017.; Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар. НД. – Т., 1996.

musiqiylikka asoslangan bu usul qadimdan Sharq she'riyatida keng qo'llanilib kelingan. Ko'hna badiiyatshunoslik (ilmi bade')da alliteratsiya tavzi san'ati deb yuritilgan.

Alliteratsiya fonostistik hodisa sifatida O.Axmanova tomonidan aniqroq izohlanganligiga guvoh bo'lamiz. Mazkur hodisa bir xil yoki talaffuziga ko'ra bir-biriga yaqin tovushlarning, tovush birikmalarining so'z boshida, bo'g'in boshida takrorlanib kelishi hamda ohangdorlikni hosil qilishi sifatida sharhlanadi<sup>30</sup>. Bundan esa muayyan bir poetik maqsad ko'zlangan bo'ladi, albatta. Bunday usulni shoir Elbek ijodida ham kuzatish mumkin: *Ko'klamda ko'karsa ko'k ko'katlar/ Ko'klarga ko'milsa kattakattalar/ Ko'm-ko'k ko'karib ko'rinsa ko'llar/Ko'ngilni ko'tarsa ko'rkli gullar.*

**Assonans.** Badiiy nutqqa intonatsion butunlik, ohangdorlik va emotsiyal-ekspressivlik bag'ishlashga **assonans** ham xizmat qila oladi. Assonans aynan yoki yaqin unlilarning takrorlanib kelishidan hosil bo'ladigan ohangdoshlikdir. Assonans badiiy matn, ayniqsa, she'riyatda alleteratsiya kabi ohangdoshlik uchun ishlatiladi. Bu fonetik usul ko'pincha qofiyadosh so'zlar tarkibida kelib, she'riy nutqqa ko'tarinki ruh va musiqiylik baxsh etadi. Masalan: *Meni kuzatma, guman/ O'zim sendan bezganman/ Ta'qib etma har zamon/ Dastingdan ko'p ozganman.* Bu to'rtlik orqali [e] hamda [a] tovushlari assonans hosil qilganligi kuzatiladi. Toshpo'lat Ahmadning "Ehtiyoj" she'rida ham [e] hamda [a] tovushlari bilan bog'liq assonans uchraydi:

*Mardni ag'yor etuvchi ehtiyojdir, ehtiyoj,  
Aljni abgor etuvchi ehtiyojdir, ehtiyoj.*

**Geminatsiya.** Badiiy nutqda keng qo'llaniladigan fonetik usullardan yana biri geminatsiyadir. "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da mazkur hodisa "qo'sh undoshlik – ikki aynan bir xil undoshli holatning yuzaga kelishi" sifatida izohланади<sup>31</sup>. Prof. H.Ne'matovning "O'zbek tilining tarixiy fonetikasi" o'quv qo'llanmasida esa bu hodisa "qo'shoqlanish" yoki "ikkilangan undosh" deb yuritiladi<sup>32</sup>. "Qo'shoqlanish – undoshlarning cho'zilishi, ikkilanishi hodisasini fonetik o'zgarishlar sirasida ko'rib chiqish o'ta shartlidir. Lekin bu hodisa faqat ikki unli orasidagi yakka undoshda sodir bo'la olishi bilan fonetik o'zgarishlarga o'xshaydi. Qo'shoqlanish, asosan, ikki unli orasida kelgan [k], [q], [t] tovushlarida va faqat 2, 7, 8, 9, 30, 50 sanoq sonlarini nomlashda sodir bo'ladi. Bu sonlarni bir undosh bilan ham, ikkilangan undosh bilan ham talaffuz etish mumkin bo'lган. Sanoq sonlar nomidagi bu xil qo'shoqlanish sabablari haligacha ochilmagan. Lekin *katta, latta, yakka, yalla, chakki, ukki* kabi so'zlardagi ikkinchi [t], [l], [k] lar tarixan morfologik ko'rsatkich bo'lib, ulardag'i qo'shoqlanish singish (adaptatsiya) natijasidir degan fikrlar ham fanda mavjud. Geminatsiya – ikkita bir xil undoshning so'z tarkibida qavatlanishi. Sifatlarning

<sup>30</sup> Ахманова О. Словарь лингвистических терминов. – М.: СЭ, 1969. С.40.

<sup>31</sup> Ноjiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Т.: O'zME, 2002.

<sup>32</sup> Неъматов Ҳ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1992. 86-6.

kuchaytiruv (intensiv) formalarida ham geminatsiya hodisasi uchraydi.

Ma'lumki, so'zda bir undoshni atayin ikkilantirib keltirish konnotativ ma'noni hosil qiladi. Mazkur hol, ya'ni geminatsiya fonostilik hodisasidan Toshpo'lat Ahmad ham unumli foydalangan. Shoir ayrim misralarda ma'lum bir estetik maqsad bilan, ya'ni ko'ngil ifodalarini to'laqonli yetkazish (ma'noni kuchaytirish, belgining me'yordan ortiqligini ko'rsatish, harakatning davomiyligini ifoda etish) maqsadida unga murojaat etadi: 1. *Borliqqa tun cho'ksa, kun qora bo'lg'ay/ Hazinlik sasidan dil pora bo'lg'ay/ Tuhmat balosiga yo'lliqsak magar/ Zamin ham, zamon ham ovvora bo'lg'ay.* ("Fasl ko'zlari")

2. *Shakkar deb kutganing og'u bo'ldi-ku/ Quvonch deb kutganing qayg'u bo'ldi-ku/ Ayniy oh chekadi, tani yuz pora/ Sitamlar domida qolgan Buxoro!* ("Buxoronomo")

3. *Rahmatt! Ammo etingiz oshkor: Kim yashagan avval bu uyda/ Ko'chganmi yo o'chgan ovozi?..* ("Dramatik she'r")

4. *Ajib iqbol ro'y berdi shunda/ Birov so'rab keldi uni eshikdan/ Tilida: Nima bo'pti? Xo'shsh?! Rangi qip-qizil anorday/ Tuzaladi!!.* ("Hayotga qaytish")

Bu kabi namunalarni yana ko'plab keltirishimiz mumkin. Mazkur misollarda geminatsiyani yuzaga keltirgan *shakkar, rahmatt, xo'shsh* kabi so'zlarni ijodkor ma'lum uslubiy maqsad bilan qo'llagan. Ularni ayni shaklda qo'llash orqali ma'no kuchaytirilgan, undosh qavatlantirilmaganda esa (shakar, maza) uslubiy bo'yoqqa erishib bo'lmas edi.

Ba'zida *labbay, darrov* (yozilishi aslida me'yoriy sanaladigan) singari so'zlarni ham geminatsiya hodisasidagi so'z deb baholash kuzatiladi. Ammo ayrim manbalarda, jumladan, A.Haydarovning "Konnotativ ma'noning fonetik vositalarda ifodalanishi"<sup>33</sup> monografiyasida bu hodisaga biroz boshqacha yondashiladi. "Ba'zi holatlarda undoshlarni ikkilantirish orqali cho'ziqlik hosil qilinadi, xolos. Bu hol so'z ichida vujudga keltiriladi va tasviriy vosita bo'lib xizmat qiladi. Biroq bu o'rinda ayrim so'zlar tarkibida tabiiy ravishda keladigan bir tipdagi qo'sh undoshlarni to'g'ri va to'liq talaffuz qilish hamda yozish talab etilishini ham qayd qilish lozim. Boshqa bir holatda esa, ya'ni bir undoshni atayin ikkilantirib talaffuz qilish va yozish konnotativ ma'no hosil qiladi", – deb yozadi muallif. Aytilganidek, undoshlarning qavatlanishi alohida uslubiy vositadir. Dush kelgan tovushni qavatlab qo'llab bo'lmanidek, so'zda turli sabablar bilan yonma-yon kelgan barcha undoshlarni ham liingvopoetik jihatdan ahamiyatga ega deb bo'lmaydi.

Undosh tovushlarning cho'ziqligi bir tipdagi undoshlarning takrorlanishi va grafik jihatdan ifodalanishi orqali ro'yobga chiqadi. Undosh cho'ziqligining grafik jihatdan ifodalanishi ham o'ziga xos kechadi.

Bilamizki, fonostistikka uchun xilma-xil grafik belgilar ham xizmat

<sup>33</sup> Ҳайдаров А. Коннотатив маънонинг фонетик воситаларда ифодаланиши. Монография. –Т.: Наврӯз, 2017. 31-б.

qila oladi<sup>34</sup>. Bu hol zamonaviy adabiyot rivoji bilan birga yanada rango-rang tus kasb eta boryapti. O'quvchi e'tiborini jalb etish maqsadi bilan ijodkor fonografik vositalar, jumladan, so'zda tovushlarni bir necha bor qo'llash, bo'g'inlarga ajratib yozish, misra ichida so'zni bosh harf yoki bosh harflarda, yoki qalin shriftda yozishdan unumli foydalanishga harakat qiladi.

Misollarni kuzatamiz:

1. *Tegrangda davrasin qurmishdir ilhom/ Ajib bir makon bu: Shoir va Ilhom.* (A.Oripov, "Pushkin")

2. *Matematika, qo'yning to'la sir bo'ladi.*

*Birga birni ko'paytirsa bir bo'ladi.*

*Qovurg'amning tagida bir qumri yig'lar,*

*Doskadan meni ayirsang – SHE'R bo'ladi.* (M.Yusuf, "Matematika darsi")

Tahlilga tortilgan she'riy misralarda *Shoir, Ilhom, SHE'R* so'zlari ma'lum bir shakllarda ifodalanib, uslub yaratishga xizmat qilgan.

Fonetik (fonografik) ifodalilikning yana bir turi so'zlarni bo'g'inlab yozishdir. Bunda muayyan bir maqsad ko'zlangan bo'ladi. Ijobiy yoki salbiy munosabatni ta'kidlash uchun so'zlarni bo'g'inlab yozish kuzatiladi. Masalan: *Ayt-may-man. Ket-may-san va h.k.*

Badiiy matnda ko'p nuqtaga ham grafik obrazlilik, ifodaviylikni yuzaga keltiruvchi vosita sifatida qaraladi. Ko'p nuqtaning qo'yilish o'rirlari turlicha. Bu manbalarda izohlangan. Toshpo'lat Ahmad ijodidan ayrim misollar: *Men yengildim...baland qaddim buzikdir/ Egilmagan boshim bugun egikdir.* ("Spitamenning so'nggi qo'shig'i") *Bilamiz. Vatanga yovqurlar kerak/ Qarchig'ay nigohli botirlar kerak/ Goh esa... beminnat shotirlar kerak – Ey mehnatga hamdam, ukajonlarim!* ("O'zbek o'g'lonlariga") – *Erk degani ne, bobo? – Erkmi?.. Bu – o'tlig' nido! Men va xayol... Derazam ochiq/ Yomg'ir aro qadam saslari...* ("Tun. Tanhoman. Derazam yopiq")

Xulosa qilib aytganda, fonetik birliklar asl vazifasidan tashqari emotisional-ekspressiv vazifani ham bajaradi. Fonetik birliklardagi qo'shimcha ma'nolar nutqni ta'sirchan qiladi va uni jilolantiradi. Shoir va yozuvchilar tasvirlanayotgan voqeа-hodisalarining nazarda tutilgan muhim tomoniga o'quvchi diqqatini tortish uchun bu kabi vosita va usullardan foydalanadi.

### *Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:*

1. Fonetika, fonologiya, fonosemantika kabi bo'limlarning o'xshash hamda faqli jihatlari haqida gapiring.
2. Uslub yaratishda qaysi fonetik vositalar ishtirok etadi?
3. Alliteratsiya, assonans haqida ma'lumot bering, misollar aytинг.

<sup>34</sup> Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар. НД. – Т.,1996.

4. Alliteratsiya, assonansning nasr va nazmda kelgan ko'rinishlaridan misollar ayting.
5. Geminatsiya hodisasini izohlang, misollar bilan tushuntiring.
6. Badiiy matnlarda qo'llangan "bo'g'inlarga ajratib yozish, misra ichida so'zni bosh harf yoki bosh harflarda, yoki qalin shriftda yozish"ga misollar topib ayting.

**Topshiriq.** Mustaqil ravishda alliteratsiya, assonans qatnashgan badiiy parchalar yaratishga harakat qilib ko'ring.

**Topshiriq.** Atrofingizdagи do'st-birodarlarining nutqiga ahamiyat bering. Ular nutqidagi tovushlar qo'llanishi, nutq ohangi haqida suhbat uyushtiring.

**Topshiriq.** Quyidagi fikrga o'z munosabatingizni bildiring.

*"Ruhshunoslar shuni aniqladilarki, omma oldida gapirishdan qo'rqish, o'limdan qo'rqishdan keyin ikkinchi o'rinda turar ekan..."*

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Ахманова О. Словарь лингвистических терминов. – М.: СЭ, 1969. С.40.
2. Ҳайдаров А. Коннотатив маънонинг фонетик воситаларда ифодаланиши. Монография. –Т.: Наврўз, 2017.
3. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўз.МЭ, 2002.
4. Неъматов Ҳ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1992.
5. Умирова С. Ўзбек шеъриятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърияти мисолида. PhD. – Самарқанд, 2020.
6. Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар. НД. – Т.,1996.

#### **11- MAVZU. BADIY MATNDA MORFOLOGIK VOSITALAR REJA:**

1. Lug'aviy shakllarning matndagi uslubiy imkoniyatlari.
2. Sintaktik shakllarning matndagi uslubiy imkoniyatlari.
3. So'z yasovchi shakllarning matndagi uslubiy imkoniyatlari.

**Tayanch tushunchalar:** grammatik shakl, lug'aviy shakl, sintaktik shakl, so'z yasovchi affiks, juft so'z, takror so'z, murakkab shakl, affikslar sinonimligi.

Badiiy matnda qo'llangan grammatic shakllar ham o'ziga xos izlanishni, kuzatishni talab etadi. Morfologik birliklarning estetik vazifasi deganda maxsus so'z shakllari vositasida, shuningdek, ma'lum bir grammatic ma'no va vazifaga ega bo'lgan so'z formasini maxsus qo'llash orqali ekspressivlik-emotsionallik yuzaga keltirish tushuniladi.

Bu o'rinda ravishga xos ayrim grammatic shakllarning ma'noviy-uslubiy tabiatini yoritishni maqsad qildik<sup>35</sup>. **Sodda yasama ravishlarning ma'noviy-uslubiy xususiyatlari:**

Sodda yasama so'zlarning bir qismi o'ziga xos konnotativ ma'nolarga ega. Bu holat, tabiiyki, ravishga oid yasovchi qo'shimchalar bilan ham bog'liq. Ravish yasovchi affikslarning qo'shimcha ma'no ifodasi grammatic shakllar uslubiyatining tarkibiy qismi hisoblanadi.

O'zaro sinonimik munosabatda bo'lgan ravish yasovchi affikslar xususiy tabiatini, o'ziga xos semantik-funksional belgilari bilan xarakterlanadi<sup>1</sup>. Ravish yasashda ishtirok etuvchi sinonim affikslar uslubiy qo'llanishiga ko'ra farq qilib, turlicha ma'no nozikliklarini ifoda etishi kuzatiladi.

*-larcha* affiksi bilan hosil bo'lgan ravishlar qiyoslanishni, o'xshashlikni bildiradi: *otalarcha, do'stlarcha, birodarlarcha, telbalarcha, olimlarcha, erkaklarcha, qo'rqoqlarcha, dehqonlarcha* va b.

Mazkur qo'shimcha ba'zida *-ona, -chasiga* kabilalar bilan sinonimlikka kirishadi, ya'ni ular ma'no jihatdan juda yaqin yangi-yangi so'zlar hosil qilishda ishtirok etadi: *do'stlarcha ko'rishmoq – do'stona ko'rishmoq; yigitlarcha kurashmoq – yigitchasiga kurashmoq* va b. Ko'rindiki, *-ona, -chasiga* affikslari mohiyatan *-larcha* affiksi bajargan vazifani bajaradi. *-ona* affiksi shaxsga oid harakat-holatning belgisini, *-chasiga* otlarga qo'shilib asosdan anglashilgan shaxs yoki narsaga xos tarzda, shunga xos usul bilan bajarilishini bildiruvchi ravish yasaydi. Mana shu yaqinlik ularni birlashtiradi. Biroq ularda uslubiy farqlanish ham seziladi. *-ona* affiksli ravishlar ko'proq yozma nutq uslubida qo'llanadi: *Bu Rashidning mardona kurashi edi.* (Shuhrat) Bunda tantanavorlik, ko'tarinkilik anglashiladi: *Xalqimiz cho'lga g'olibona yurish boshladi.* (S.Nazar) *-chasiga* affiksli ravishlar chapanilik, sodda, jo'n nutq ko'rinishini hosil qilishda ko'proq qo'llanadi: *Bir ozdan keyin o'zing bilan alohida erkakchasiga gaplashamiz.* (D.Nuriy)

Ta'kidlash lozimki, *-larcha, -ona, -chasiga* affikslari doim ham o'zaro o'rin almasha olmaydi. Masalan, *Kimni koyidi, kimni otalarcha maqtadi.* (Oybek) misolida *otalarcha* ravishidagi *-larcha* affiksini *-ona* yoki *-chasiga* affikslari bilan almashtirib bo'lmaydi. O'zbek tiliga oid lug'atlardan foydalangan holda aytish mumkinki, *-larcha, -ona, -chasiga* affiksli quyidagi ravishlar o'zaro sinonimlikka kirishadi:

***-larcha, -ona:***

<sup>35</sup> Asadov T. O'zbek tilida ravishlarning ma'noviy-uslubiy xususiyatlari. Monografiya. – Buxoro: "Buxoro", 2010.

*vahshiyarcha* – *vahshiyona*  
*birodarlarcha* – *birodarona*  
*ayyorlarcha* – *ayyorona*  
*ablahlarcha* – *ablahona*  
*mardlarcha* – *mardona*  
*do'stlarcha* – *do'stona*  
*olimlarcha* – *olimona*  
*tajovuzkorlarcha* – *tajovuzkorona*

- *larcha*, -*chasiga*:

*dehqonlarcha* – *dehqonchasiga*

*o'rtoqlarcha* – *o'rtoqchasiga*

*do'stlarcha-do'stchiasiga*

*yigitlarcha* – *yigitchasiga*

-*larcha*, -*ona*, -*chasiga*: *do'stlarcha* -- *do'stona* -- *do'stchiasiga*,  
*o'zbeklarcha* – *o'zbekchasiga* – *o'bekona*

Kuzatilgan misollarning biri o'rniда ikkinchisini ishlatish nutqning mazmun mohiyatiga deyarli ta'sir etmaydi. Biroq har bir so'zning nutq jarayonida o'z o'rni borligini unutmaslik lozim. Muayyan bir so'z nutq jarayonida o'z imkoniyatlarini, ifodaviy jilolarini namoyon qilishi mumkin. Yuqoridagi misollarni mazmunan tamoman teng deb bo'lmaydi. Ularning aksariyati nozik uslubiy farqlanishga ega. Ijodkor ushbu so'zlarni qo'llashda ma'lum bir maqsadni ko'zda tutadi.

Mohiyatan yaqinlik, asosan, -*larcha* va -*ona* affikslarida kuzatiladi. Lug'at qatlqidagi -*larcha* affiksli 60 dan ortiq, -*ona* affiksli 100 ga yaqin so'zlarning keng iste'molda qo'llanuvchi qismigina o'zaro o'rin almashishi – sinonimik munosabatida bo'lishi aniqlandi. Ular orasidagi ma'noviy farq shundaki, -*larcha* affiksli ravishlarda -*lar* (ko'plik) ko'rsatkichiga xos xususiyat, ya'ni ko'plik, umumlashtirish, birlashtirish tushunchalari sezilib turadi: *Jo'ra do'stlarcha koyib-koyib, hujrani besh tiyinlik chaqaday qulfini ko'rsatdi-da, yo'qoldi.* (Oybek)

-*larcha* affiksi ayrim *sanoq son, soat, oy, yil, asr* kabi vaqt bildiruvchi so'zlardan ravish yasaganda -*ona* affiksi bilan sinonimlikka kirishmaydi: *Nega har kuni ishdan qaytganida qizchasin ko'tarib, soatlarcha erkalatmadni.* (Oybek)

-*larcha* affiksli ravishlar nafaqat harakat belgisini, balki narsa-buyum, belgining belgisini bildirishi mumkin: *Mardlarcha kurashmoq mardlarning ishi.* (S.Ahmad) *Uning so'zlari bolalarcha sodda, samimiyl, lekin aniq va ravon edi.* (Oydek)

-*ona* affiksi yaqin o'tmishda o'ta faol so'z yasovchi qo'shimcha bo'lganligi aniqlandi. Birgina A.Qodiriyning hajviy asarlarida mazkur qo'shimcha bilan yasalgan o'nlab so'zlarni uchratish mumkin. Misollarni kuzatamiz: 1. *Shoirona xayolingdagi shu haqiqatlarni ko'rmoqchi bo'lsang, tumanlarga kirib chiq.* 2. *Do'sting bo'lgan go'sht ma'yusona orqangdan qarab qolar.* 3. ... ushbu kunlarda hamma mahkamalarda o'zimizning turkona ona tili bilan ish qilayotganlaridan xabar berdi.

-ona affiksli so'zlarning nutq ta'sirchanligini kuchaytirish, jozibadorligini ta'minlashdagi xizmati katta. Mazkur qo'shimcha hozirgi kunda o'z faoliyatini to'xtatgan emas. U bilan bog'liq yangi-yangi so'zlarni yozma nutq namunalarida uchratish mumkin: 1. *Nutqning eng haroratlari, eng kuchli joyiga kelganda, artistona harakat qilib, raisga ma'nodor qarab qo'yardi.* (S.Nazar) 2. *Qodiriyyona – Chexovona hikoyalar yo'q darajada.* (Mirmuhsin) Bir qaraganda, -ona affiksli yuqoridagi so'zlarda nutqiy g'alizlik mavjusdekk tuyuladi. Binobarin, har qanday yasama so'z dastlabki holatida eshituvchiga g'ayritabiiy tuyulishi mumkin. Til taraqqiyoti natijasi o'laroq yuqoridagi kabi so'zlarning nutqimizdagi o'rni kengayib boraveradi.

-chasiga murakkab affiksi grammatik tabiatiga ko'ra -cha affiksiga juda yaqin turadi. Qiyoslang: *ochiqcha gapplashmoq – ochiqchasiga gapplashmoq, chalqancha suzmoq – chalqanchasiga suzmoq.* -chasiga murakkab affiksida asosiy yukni -cha elementi bajaryapti, -siga elementi uslubiy vazifa bajarish uchun qo'llangan, ya'ni ma'noni ajratib ta'kidlash uchun xizmat qilmoqda: *Norqo'zi bilan yigitchasiga bir gapplashsin.* (H.G'ulom) Ko'rindiki, yuqoridagi kabi so'zlarda stilistik effektni kuchaytirish maqsadida -cha hamda -siga qo'shimchalari pleonastik qo'llangan. Xullas, *ochiqcha – ochiqchasiga, yashirinchacha – yashirinchasiga, harbiycha – harbiychasiga* kabilarda o'zaro farqlanish usluban bo'lib, bu uslubiy farqlanish ularning tilda saqlanib kelayotganligiga imkon yaratgan. Nazarimizda, bu kabi misollarda -siga elementi yuklama vazifasida (vazifadosh yuklama) keladi.

Ikkita bir xil vazifadagi affikslarning kontakt pozitsiyada pleonastik qo'llanishining yorqin dalilini ravish yasovchi -lay, -cha affikslarida kuzatish mumkin: *butunlay – butunlayicha, tiriklay – tiriklayicha*<sup>36</sup>. *Butunlayicha, tiriklayicha* kabilalar ma'noni kuchaytirish, ajratib ko'rsatish va emotSIONallikni ifodalash uchun qo'llanadi.

-lab affiksi miqdor, hajm-o'lchov, vaqtini bildiruvchi so'zlardan ravish yasaydi: *grammlab, tonnalab, gektarlab, chelaklab, vagonlab* va h.k.

Vaqt birliklarini bildiruvchi so'zlar (*minutlab, kunlab, oylab, haftalab, yillab*)da -lab qo'shimchasi ish-harakatning shu vaqt davomida bajarilishini yoki bajarilmasligini anglatuvchi payt ma'noli so'zlar hosil qiladi. *Bular dushman pozitsiyasiga yaqinroq borib, biror qulay joyda soatlab, ba'zan kuni bo'yi poylab yotishadi.* (A.Qahhor) Misolda qo'llangan *soatlab* ravishi payt ma'nosining miqdoriy darajasini bildiradi. Payt ma'nosining miqdoriy ko'rsatkichi *soniyalab* ravishidan *yillab, asrlab* so'zlarigacha o'sib boradi. *Grammlab, kilolab, tonnalab* ravishlari sof og'irlik o'lchovini bildiradi.

Mazkur qo'shimcha hozirgi kunda ham muayyan vazifalarni bajarishga intilib, o'rin-joy oti (*yerlab, egatlab, yonlab, tepalab, osmonlab*), payt oti (*oqshomlab, saharlab, azonlab, tonglab*), ayrim sifat (*yaxshilab,*

<sup>36</sup> Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. – Т.: Фан, 1988. 34-6.

*arzonlab*), qisman olmosh va taqlid so'zlardan (*shunchalab, pag'alab*) ravish yasashga xizmat qilmoqda.

-*lab* affiksining ma'no kuchaytirishdagi xizmatini takror ravishlarda kuzatish mumkin: *dasta-dastalab, etak-etaklab, yashik-yashiklab*. Bu holda miqdor ma'nosi ikki usul bilan – sintaktik va morfologik yo'l bilan pleonastik qo'llanib, ta'kid, kuchaytirish, ma'noni bo'rttirish vazifasini bajargan.

Umuman, ravish yasovchi unumli-sermahsul affikslarning o'ziga xos uslubiy xususiyatlari mavjud. Ulardagi sinonimlik va polisemantiklik o'z-o'zidan grammatik uslubiyatni, aniqrog'i, ravish yasovchi qo'shimchalar uslubiyatini yuzaga keltiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Juft va takror ham ma'lum bir grammatic shakl sanaladi. Shu sababli mazkur birlklarga ham to'xtalamiz:

**Juft ravishlar** va ularning komponentlari turlicha ma'no-munosabatda bo'ladi. Ular semantik-funksional jihatdan juft holdagi boshqa turkum so'zlaridan boyroq. Juft ravishlar anglatgan ma'no ifodasiga ko'ra, asosan holat, payt, o'rin, miqdor ma'nolariga ega. Juft ravishlar guruhiba *arzon-garov, asta-sekin, ag'dar-to'ntar, birin-ketin, bugun-erta, imi-jimida, kecha-kunduz, nari-beri, oyda-yilda, oylab-yillab, oldinma-ketin, omon-eson, onda-sonda, ostin-ustun, ochin-to'qin, ochiq-oydin, och-nahor, sekin-asta, topa-tuta, to'kin-sochin, to'la-to'kis, uzil-kesil* kabi so'zlar mansubdir (Qarang: Ilova).

Juft ravishlarning shakllanishi barcha mustaqil so'z turkumlari bilan bog'liq. Mana shu hol ularning turli-tuman ma'no ifodalariga egaligidan dalolat beradi.

*Arzon-garov* ravishi o'z ma'nosida "arzimas pulga, juda arzonga" atash semasiga ega: *Agar oilangni shunaqa arzon-garovga qo'yishingni bilganimda, ularni bir soat ham ushlab turmas edim.* (T.Malik) Ushbu so'z ko'chma ma'noda ham keng ishlataladi. *Arzon-garov evaziga kelgan baxt.* (Gazetadan) misoldida buni ko'rish mumkin.

Ma'no ifodasi nisbatan keng juft ravishlarga *asta-sekin, bugun-erta, kecha-kunduz, erta-kech, nari-beri, uzil-kesil, unda-bunda* kabilar misol bo'ladi.

Juft ravishlar biror-bir hodisani aniqroq ifoda etishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, tartibsiz holatni ifoda etishda *alg'ov-dalg'ov, ostan-ustun, chappa-rosta, o'lda-jo'lda* ravishlari qo'llansa, vaqt uzuksizligi ma'nosini kuchaytirish maqsadida *ertayu-kech, kecha-kunduz, qishin-yozin* kabilar ishlataladi.

*Birin-ketin, birin-birin, oldinma-keyin* kabi juft ravishlar ma'no jihatdan o'zaro juda yaqin. Ularning manbalardagi izohi deyarli farqlanmaydi. Biroq *oldinma-keyin* jonli so'zlashuvda ko'proq qo'llanadi. Shu bilan birga, qisman yozma nutq namunalarida ham ishlatalishi kuzatiladi: *Fursat yetgach, ikkala o'g'lini oldinma-keyin Moskvadagi o'qishga kiritdi.* (T.Malik)

*Ura-sura* juft so'zi ikki ma'noga, aniqrog'i, atash va ifoda semalariga

ega. Ushbu so'z atash ma'nosida sof harakat ma'nosiga ega: *Cholni o'g'ri deya tutdilar, Ura-sura podsho sari etdilar.* (H.Olimjon) Bunda "urmoq, surmoq" harakati bilan bog'liq ma'no mavjud. Asl ma'nodan tashqari mazkur so'z "*ura-sura qochmoq*" tarzidagi qo'llanishga ham ega. Juftlashgan so'z (fe'l)ning ravishga aylanishdagi asosiy belgi – unda yuz bergen leksik-semantik va grammatic o'zgarishdir.

Juft ravishlarni umumiy ma'nolariga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- a) **holat/tarz ma'nosida:** arzon-garov, asta-sekin, ag'dar-to'ntar va h.k;
- b) **payt/zamon ma'nosida:** bugun-erta, kecha-kunduz, erta-kech va h.k;
- d) **miqdor va payt ma'nosida:** oylab-yillab, kecha-kunduz.

Juft ravishlar bulardan tashqari ma'lum bir vaziyatda – bog'li qurshovda o'ziga xos yangi-yangi xususiyatlarni namoyon qilishi mumkin. Bu hol mazkur so'zlarning bir qadar oldin shakllanib ulgurganligidan dalolat beradi.

**Takror ravish.** Ayrim takroriy so'zning ravishga aylanishidagi asosiy belgi undagi leksik va grammatic o'zgarishdir. Ravish yasalishining mazkur turida, odatda ravishdan tashqari muayyan so'zning ikki bor takrorida yangi ma'noli boshqa bir so'z voqelanadi.

Takror ravishning uslubiy imkoniyatlaridan asosiysi shundaki, ular ma'no ifodani kuchaytirish uchun qo'l keladi. Bu guruha alohida-alohida, asta-asta, ahyon-ahyonda, basma-bas(iga), ba'zan-ba'zan, bekordan-bekorga, biyron-biyron, birin-birin, birma-bir(lab), bitta-bitta(lab), bobma-bob, bora-bora, bot-bot, boshma-bosh, vazmin-vazmin gala-gala, galma-gal, goh-goh, gul-gul, guruh-guruh, dam-badam, dona-dona, yelkama-yelka, yonma-yon, zo'r-bazo'r, zo'rma-zo'raki, va h.k. ravishlarni belgilash mumkin. Takror ravishlarning miqdori bu bilan cheklanmaydi, albatta. Ular sirasi davr bilan bog'liq holda o'sib boradi. Masalan, miqdor ma'noli vagon-vagon, mashina-mashina kabi takror ravishlar ijtimoiy hayotning keyingi bosqichida, aniqrog'i, XX asr o'rtalarida paydo bo'lgan.

Bu shakllarda ham o'ziga xos grammatic ma'nolar yuzaga chiqadi. Mana shu grammatic ma'nolar zamirida ayrim qo'shimcha ma'no ifodalar ham zohir bo'ladi. Masalan, *bobma-bob* – *bob-bob*; *zarrama-zarra* – *zarra-zarra*; *ko'pdan-ko'p* – *ko'p-ko'p*; *ochiqdan-ochiq* – *ochiq-ochiq* kabi misollaridagi ma'no imkoniyat turlicha. Shuningdek, *yonma-yon*, *galma-gal*, *qulogma-qulog*, *izma-iz*, *yildan-yil*, *bekordan-bekor* kabi ravishlarni *-ma*, *-dan* shakllarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Asosiy ma'no yuki shu shakllar zimmasida. Yoki *to'g'ridan to'g'ri*, *dam badam* takror ravishlaridagi *-dan*, *-ba* grammatic shakllari qo'shimcha ma'no noziklik ifodasi uchun ishlatilgan. Qiyoslang: 1. *Lekin boyagi vahimaning asorati hali ketmagan, dam-badam vujudiga titroq kirardi.* (Ch.Aytmatov)

Nutqiy ravonlikni, ayniqsa, tejamkorlikni ta'minlashda ham takror ravishlarning o'z o'rni bor. Qiyoslab ko'ramiz: *Eshikma-eshik yurmoq* – *u eshikdan bu eshikka yurmoq*, *endi-endi ko'nikmoq* – *yaqin kunlarda ko'nikmoq*, *yuzma-yuz o'tirmoq* – *bir-biriga qarab o'tirmoq* va h.k.

Estetik ta'sir darajasi takror ravishlarida o'ta kuchli. Ularning aksariyati badiiy uslubga xoslangan bo'ladi. Poetik nutqda ham keng qo'llanadi: *Asrlar birma-bir o'tar va ahir, Yuksalar qarshimda eng baxtli odam.* (A.Oripov) *Vijdon azobida qovrilsang bot-bot, Hayhot! Kimga borib dod deysan, axir.* (A.Oripov)

Takror ravishlarning barchasi ham ma'no bo'rttirish, kuchaytirish uchun qo'lanmaydi. Shu jihatdan ularni ikkiga bo'lish mumkin:

a) **ma'no kuchaytirish maqsadida qo'llanuvchi ravishlar:** *biyron-biyron, bot-bot, gul-gul, zo'rg'a-zo'rg'a, oz-oz, tez-tez, sira-sira, sekin-sekin, zarrama-zarra, etak-etak, hovuch-hovuch, takror-takror* va b.

b) **neytral ma'no ifodasi uchun qo'llanuvchi ravishlar:** *galma-gal, yelkama-yelka, navbatma-navbat, izma-iz, goh-goh, qo'lma-qo'lva* b.

Takror ravishlarning ma'no imkoniyati quyidagicha:

1) **holat-tarz ma'nosini bildiradi:** *alohida-alohida, asta-asta, basma-bas, bekordan-bekor(ga), birma-bir, bitta-bitta(lab)* va b. Mehmonxonada er-u xotin yonma-yon o'turishdilar. (A.Qodiriyl)

2) **payt-vaqt ma'nosini bildiradi:** *ba'zan-ba'zan, ahyon-ahyon(da), endi-endi, yildan-yilga, kundan-kun* va b. Vaqt-vaqt bilan *G'ilayni ko'rib turishga majbur.* (T.Malik)

3) **daraja-miqdor ma'nosini bildiradi:** *oz-oz, ko'p-ko'p, kam-kam, etak-etak, hovuch-hovuch, mashina-mashina* va b. Bular ifodalangan ma'no miqdoran kam ham (*oz-oz, kam-kam, qatra-qatra, zarra-zarra*), *ko'p ham (qop-qop, etak-etak, hovuch-hovuch, mashina-mashina, yashik-yashik)* bo'lishi mumkin: *Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.* (Maqol)

4) **holat yoki payt ma'nosini bildiradi:** *tez-tez, o'qtin-o'qtin* kabi. *Yuragi gursillab tez-tez urib ketdi.* (Ch.Aytmatov)

Ko'rindiki, takroriy ravishlarda uslubiy xususiyatlardan keng kuzatiladi. Ular qo'llanish doirasi, ma'no ko'lami, ma'nodagi o'ziga xosliklari bilan xarakterlanadi.

### Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Lug'aviy shakllarning matndagi uslubiy imkoniyatlari haqida ma'lumot bering.
2. Sintaktik shakllarning matndagi uslubiy imkoniyatlari haqida ma'lumot bering.
3. So'z yasovchi shakllarning matndagi uslubiy imkoniyatlari haqida ma'lumot bering.
4. Grammatik shakllar sinonimligi va antonimligiga misollar ayting, izohlang.
5. So'zlarning takrori va uning uslubiy vazifalarini tushuntiring.
6. Juft so'zlar va ularga xos jihatlar haqida nimalar bilasiz?

**Topshiriq.** "Har bir kishining madaniyat darajasi, o'qib qanchalik tarbiya ko'rganligi uning yozma va og'zaki nutqidan bilinadi".(S.Ibrohimov) Ushbu fikrni izohlang.

**Topshiriq.** Mazkur parchalarni aniq nutq ko'rinishi deya olamizmi? Aniqlikka putur yetkazayotgan til birliklarini toping va izohlang.

1. *Shu bilan birga, uning o'ttizga yaqin ilmiy maqolalari xorijda va Respublikamizning ilmiy va ommabop jurnallarda nashr etilmoqda.* 2. *Uning, Zulfiya Isroi洛vaning, shunga o'xshash mavzularda chop etilgan ko'pgina maqolalarida, asosan, ayollarning paranjini tashlab, ko'chakuylarda ochiq yurgan yoki uyda o'tirganlari bilan tub ma'noda ozodlikka chiqmaganliklarini uqtiradilar.* (Har ikkala parcha olingan manba: "Buxoro adabiyoti va san'ati" gazetasidan, 2016-yil, 28-yanvar)

#### Foydalanaligan adabiyotlar:

1. Asadov T. O'zbek tilida ravishlarning ma'noviy-uslubiy xususiyatlari. Monografiya. – Buxoro: Buxoro. 2010.
2. Asadov T., Azimova A. Toshpo'lat Ahmad she'riyati lingvostilistikasi. Monografiya. – Buxoro: Durdona. 2023.
3. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд, 1992.
4. Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. – Т.: Фан, 1988. 34-б.
5. Таджиев Ё. Аффиксальная синонимия в узбекском языке. АДД, – Т., 1991.
6. Қиличев Э. Қиличев Б. Нутқ маданияти ва услубият асослари.– Бухоро, 2001.
7. Қудратов Т. Нутқ маданияти ва услубият асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1993.
8. Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДДА. – Т., 2009.

### 12-MAVZU. BADIY MATNNING LEKSIK TAHLILI (umumiste'moldagi so'zlar misolida) REJA

1. Polisemantik so'zlarning badiiy matndagi o'rni.
2. Sinonim va antonim so'zlarning badiiy matndagi o'rni.
3. Frazeologik birliklar.

**Tayanch tushunchalar:** *lingvopoetik tahlil, emotsional-ekspressivlik, badiiy-estetik maqsad, sinonim, muallif nutqi neologizmi, antonim, kontekstual antonimlik, frazeologizm, frazeologik birlik.*

Lug'aviy birliklarning ishlatilish doirasi jihatdan ularni quyidagicha ikki qatlamga ajratish mumkin:

1. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlam.

## 2. Ishlatilish doirasi chegaralangan qatlam.

Bu o'rinda ishlatilish doirasi chegaralanmagan, ya'ni umumiste'moldagi so'zlarning badiiy adabiyotdagi o'rniga to'xtalamiz. Bunda iste'dodli shoira Zulfiya Isroilova sheriyatidan olingan misollardan foydalanamiz. Tahil jarayonida S.Karimovning "Zulfiya asarlari lingvostilistikasi" asariga ham o'rni-o'rni bilan murojaat etamiz<sup>37</sup>.

Ma'lumki, badiiy matnning lingvopoetik tahlilida, ayniqsa, so'z alohida o'rin tutadi. Demakki, so'z qo'llashning san'at darajasida yoki san'at darajasida emasligini baholash uchun, eng avvalo, so'z, uning ma'nosi va bu ma'nuning tuzilishini aniq tasavvur qilish lozim. Albatta, so'zning qo'llanishi bilan bog'liq holda yuzaga chiqadigan qo'shimcha ma'no nozikliklari, mazmun o'zgachaliklari turli tasvir usullari va vositalari orqali reallashishi mumkin. Ammo ta'kidlash joizki, bunday qo'shimcha ma'no nozikliklari aksar hollarda, avvalo, so'z ma'no qurilishining o'zida imkoniyat sifatida mavjud bo'ladi, ular so'zning ma'no qurilishi tarkibida ilgaridan qayd etilgan bo'ladi, umuman, badiiy ma'nolar ular asosida yuzaga keladi.

Badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilganiga e'tiborni qaratish kerak. Chunki badiiy matnda so'zdagi konnotativ ma'no muhim, bu konnotativ ma'noni harakatga keltirish, unga asoslangan holda yaxlit badiiy mazmunga xizmat qiladigan original badiiy ma'nolarni yuzaga keltirish yozuvchining mahoratiga bog'liq. Shuni ham alohida ta'kidlamoq kerakki, konnotatsiya badiiyat uchun xizmat qilishga qaratilgan.

So'zlarning asosiy ko'pchiligi polisemantik hisoblanadi. Odatda, har bir so'z ma'lum bir predmet, belgi kabilarning atamasi sifatida paydo bo'ladi. Keyinchalik u boshqa turdag'i predmet, belgilarga tatbiq qilinadi, natijada so'z leksik ma'nosida siljish sodir bo'ladi. Ana shunday taraqqiyotning oqibatlaridan biri sifatida monosemantik so'z polisemantik so'zga aylanadi.

Zulfiya she'riyatida ko'p ma'nolilikning turli ko'rinishlari, aniqrog'i, ko'chimning turli bosqichlari uchraydi. Xalqning jonli tiliga yaqinlik Zulfiya Isroilova ijodining o'ziga xos uslubidir. Zulfiya "Oltin kuz" she'rida yurtining har bir faslini o'zgacha mehr bilan sevishini aytadi hamda polisemantik so'zlardan o'rinali foydalanadi:

Sevaman, *oltin kuz*, sevaman jondan,  
*Atlas tabiatli go'zal chog'ingni*.  
Ko'zni erkalagan chaman bog'ingni.  
*Daraxtlar libosi rango-rang*, gulgun.

Ko'p ma'noli so'zlar nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga ko'maklashuvchi lisoniy vositadir. Badiiy matnda yozuvchining mahorati bilan bir so'zning birdan ortiq ma'nosi harakatga keltiriladi va ayni so'z obrazlilikni ta'minlashda ishtirok etadi.

<sup>37</sup> Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография.– Самарқанд: СамДУ нашри, 2006.

Zulfiya she'rlarida ko'z so'zining ko'p bor ko'chma ma'noda kelganligiga guvoh bo'lamiz:

Shafaq nuri go'zal, deydilar,  
Men shafaqqa keldim yuzma-yuz.  
Jilvalarim zarhal, deydilar...  
Tong misoli tindirmaydi *ko'z*

Keyingi she'rni kuzatamiz:

Uydirmaga cho'zmas qo'llarin,  
Ayon: she'riyatga tiz cho'kar qalam.  
*Dil ko'zi* oq ko'rib hayot yo'llarin,  
Oldinga undaydi sur'atli har dam.

Dam va kun dalaga ketgan yoyilib,  
Qayda ishli tuproq shu yerda o'zi.  
Har zoye nafasga bizdan koyinib,  
Dakki, chaqiriqday boqadi *ko'zi*.

Tasviriylik va ifodaviylikni kuchaytiruvchi, matnda estetik funksiya bajarib, an'anaviy tarzda ishlataladigan ko'chimlar Zulfiyaning "Mening tongim" she'rida kuzatiladi:

*Ona tuproq* oromda yotar  
Olib tungi rizq-u qudratni.  
Mening tongim qalbimda otar,  
O'ydan, ko'zdan haydab zulmatni.

Zulfiya Isroilova ijodida xususiy muallif ko'chimlari (muallif nutqi neologizmlari)ni ham ko'ramiz:

Dalada paxtalar kumushi porlab,  
Momiq yuzlarini quyoshga tutsa,  
Terimchi chechanlar etaklab,qoplab  
Tog'day xirmonlarga keltirib to'ksa. ("Oltin kuz")

Ma'lumki, paxtaning kumushga o'xshatilishi (rang o'xshashliligi) ancha keng qo'llanadi. Shoira shu asosda "kumush"ning yana bir assotsiyatisini uyg'otadi: paxtalarning ochilishi kumushning porlashiga o'xshatiladi, go'yo paxtalarning ochilishi bilan hammayoq kumushdek nur sochib porlab ketdi. Bundan shu narsa anglashiladi, leksik metaforaning mazmuni bir so'z doirasida anglashilishi mumkin bo'lsa, matn ichidagi metaforaning ma'nosi matndagi boshqa so'zlar bilan aloqada oydinlashadi (Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография.– Самарқанд: СамДУ нашри, 2006).

Umuman, shoira she'riyatida ko'chishning turli ko'rinishlarini uchratish mumkin. Har bir ko'chim mantiqli va asosli ekanligi kuzatiladi.

**Zulfiya Isroilova she'riyatida sinonim va antonim so'zlar.** Badiiy matndagi poetik faollashgan leksik vositalarning lingvopoetik qimmatini belgilashda sinonim va antonim so'zlar alohida o'ringa egaligi ma'lum. Sinonimlar – talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma'nosi bir xil (umumiyl) bo'lgan, qo'shimcha ma'no nozikligi, emotsional bo'yog'i, qo'llanishi kabi bir

qator xususiyatlari bilan o'zaro farqlanadigan so'zlardir<sup>38</sup>. Umuman olganda, sinonimlar shaxs, narsa, belgi, xususiyat, voqeа-hodisa va harakatning bir necha nom bilan aytilishidir. Sinonimlar til boyligi bo'lib, avvalo, narsa va hodisalarning nozik ma'no bo'yoqlarini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Tilda sinonimlarning ko'p bo'lishi tilning estetik vazifasini yanada to'liq bajara olishini osonlashtiradi. Badiiy matndagi sinonimlar tahlilida, asosan, ikki jihatga e'tiborni qaratish zarur. Ulardan biri muallifning ikki yoki undan ortiq sinonimdan ifodalanayotgan mazmun uchun eng maqbul birini tanlashi bo'lsa, ikkinchisi ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq sinonimik birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg'un holda qo'llashidir. Bunda til birliklarining takrori natijasida yuzaga keladigan ifoda kambag'alligi va rangsizligi bartaraf etiladi.

Zulfiyaning "Kimni kutasan" she'rida iztirob – ozor so'zlari bir o'rinda sinonim sifatida kelganiga guvoh bo'lamiz:

Ko'zing muncha yo'lda intizor,  
Ey, bahordan barkamol husn.

*Iztirobing* dilimga *ozor*-

Ishq hijronin bilganim uchun.

Zulfiya qalamiga mansub quyidagi misralarda "osmon" va "ko'k" so'zlari lug'aviy sinonimiya hodisasini hosil qiladi:

Simob to'lqinlari tutib *osmonni*,  
Muttasil yomg'irlar zeriktirsa ham,

....

Bulut chodirini yirtib, mo'ralab,  
Chiqsa quyosh, **ko'kka** bo'laman maftun.

Zulfiya o'z ijodida bir vaqtning o'zida ayni bir misrada ham sinonim so'zni, ham antonim so'zni qo'llay olgan ijodkordir. Buni uning "Baxtim bor ajoyib kishilar aro" she'rida ko'ramiz:

Baxtim bor: ajoyib kishilar aro  
*Tug'ilib gurkirab... keksayar* umrim,  
O'shalar she'rimga baxsh etgan sado,  
Hayotim yo'lini yoritgan nurim.

Ushbu misralarda shoira "tug'ilmoq" hamda "gurkiramoq" so'zlarini darajalash asosida sinonimik munosabatga kiritadi, shuningdek, sinonimlarga qarama-qarshi holatda "keksaymoq" zid ma'noli so'zni qo'llash bilan she'rning badiiylik darajasini oshiradi.

Shoira ijodida juft so'zlarning sinonimligi ham kuzatiladi. Jumladan, "Kechir, qoldim g'aflatda" she'rida buni ko'ramiz:

Seni birdan jonsiz ko'rdim,  
Jonim chiqdi mening-da.  
*Es-hushimdan* ajrab turdim,  
Tuyg'um ketdi sening-la.

Antonimlik til sathining barcha bo'limlari uchun xos hodisa bo'lib, fonetik,

<sup>38</sup> Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi , 1974.3-6.

leksik, grammatik (morfologik), sintaktik birliklarda kuzatiladi. Shuningdek, barqaror birliklarda ham mazkur hodisa keng uchraydi. Mazkur hodisada yuqorida sanalgan birliklar mazmunan – mantiqan zid tushuncha va tasavvurlarni yuzaga keltiradi. Antonimlik adabiyotshunoslikda antiteza hodisasi, tazod san'ati yuzaga kelishida ham muhim o'ringa ega.

Antonim hodisasi o'zbek tilshunosligida XX asrda keng tadqiq etilgan<sup>39</sup>. Shuningdek, mazkur hodisa uchun amaliy material bo'lib xizmat qiladigan lingvistik lug'at, ya'ni antonimlar lug'ati ham tuzilgan.<sup>40</sup>

Masalan, Zulfiyaning "Iqrorga vaqt yetdi" she'ridagi quyidagi misralarida *but* – *chala* antonimligi kuzatiladi:

O'ylasam, hayotga o'zni bag'ishlab,  
Burchlar savalabdi misoli jala.  
Mahram qalamimni tishimda tishlab,  
Yashabman, ishlarim goh **but**, goh **chala!**

Antonimiya ikkita til birligi orasida bo'ladi. Bulardan biri ikkinchisiga nisbatan antonim bo'lib, ikkisi birgalikda antonimik juftni hosil etadi. Antonimlarning har biri sinonimlarga ega bo'lishi mumkin, ammo bu antonimik juftlik holatiga ta'sir etmaydi.

Antonimlardagi mantiqiy qarama-qarshilikdan kelib chiqib tadqiqotchilar ta'kidlashadiki, ular badiiy uslubda kuchli poetik vosita vazifasini bajarishi mumkin. Haqiqatdan ham, narsalar va hodisalar o'rtasidagi belgi va xususiyatlarni aniq farqlashda, ularni bir-biriga zid tarzda tasvirlashda antonimlar o'ziga xos tasviriy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, "Ko'ngil" she'rini kuzatamiz:

Elda yumushlar ko'p: **ekmoq, undirmoq,**  
Butun yer yuzida hayot sochsin gul.  
Yovuzlikni olov olmay **so'ndirmoq,**  
Toki, inson yashay olsin xushko'ngil!

Bu she'riy parchada "ekmoq" va "undirmoq" sinonim birliklariga "so'ndirmoq" so'zi antonim sifatida qo'llangan.

"O'quvchimga" she'rida shoira "kulmoq" va "g'am chekmoq" so'zlari bilan kontekstual antonimlik hodisasini hosil qilgan:

Ishq, haqiqatan qudrati go'yo  
Mening bilan tebratdi qalam.  
Qo'shiqlarim bilmay g'ash, riyo,  
Oshkor **kuldim**, oshkor **chekdim g'am.**

Antonimik munosabat odatda bir turkum so'zlarda bo'ladi. Shunga ko'ra antonimiya sifat, ravishlarda ko'p. Masalan, "Bahor keldi seni so'roqlab" she'rida buning yorqin ifodasini ko'rish mumkin.

Qani o'sha kuychi, xayolchan yigit?  
Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol.

<sup>39</sup> Исаbekов Б.О. Лексическая антонимия в современном узбекском языке. АКД. – Т., 1973; Шукuroв Р. Ўзбек тилида антонимлар. – Т.: Фан, 1977.

<sup>40</sup> Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. – Т.:Ўқитувчи, 1980.

Nechun qora libos, sochlaringda oq,  
Nechun bu ko'klamda sen parishonhol?

“Xotira satrlari” she'rida ham shoira fikrlar to'lqinini kuchli ifodalash maqsadida zid ma'noli so'zlar zanjiri usulidan foydalanadi. Sevinch - alam, tug'ilish - o'lim kabilardan o'rinali foydalanib go'zal misralar yaratadi.

Nurga to'lgan uylar sehrilar nigoh,

*Sevinch-u alamga,*

*Tug'ilish - o'limga*

Ishq-u iymonga

Vatan, baxt atalmish nurli bir panoh.

Ko'rinaridiki, Zulfiya Isroilova o'z she'rlarida sinonim hamda antonim so'zlardan mohirona foydalanganki, bu she'rlarining ta'sirchanligi va badiiyatini oshirgan.

Frazeologik birliklardan o'rinali foydalanish adiblarning badiiy mahoratini ko'rsatib turuvchi muhim vositalaridan sanaladi.

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning nazariy jihatlari borasida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan<sup>41</sup>. Shuningdek, frazeologik birliklar izohli lug'atining mayjudligi ham mazkur hodisa borasidagi bajarilgan ishlar ko'lами belgilay oladi.

Umuman, o'zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning lingvistik hamda lingvopoetik tadqiqi borasida yetarlicha ishlar amalga oshirilgan. Bugungi kunda frazeologizmlarning lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlangan ishlar ko'lами ham kengaymoqda.

Turmush tarzimizdagi xilma-xil voqeа-hodisalarning tagiga yetish, turli-tuman harakat holatlarga baho berish, katta-kichik tajribalarni umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalari bo'lgan iboralar badiiy matnda doimo poetik aktual bo'ladi<sup>42</sup>.

Frazeologik birliklar mazmun-mohiyatiga ko'ra a) badiiy uslub (ko'ksini ochmoq, dilini yoqmoq, chehrasi ochilmoq); b) jonli so'zlashuv nutqi (ko'zi tushmoq, yeng shimarmoq, jonini olmoq); d) shevaga xosligi (eshikka chiqmoq, qatim tortmoq, ajal tortib kelmoq); maqol-matal xarakterida bo'lishiga (igna bilan quduq qazimoq, go'ri nurga to'lmoq) ko'ra ham alohidilikka ega<sup>43</sup>.

Iste'dodli adib Toshpo'lat Ahmad she'riyatida frazeologik birliklar anchagini (Qarang: Asadov T., Azimova A. Toshpo'lat Ahmad she'riyati lingvostilistikasi. Monografiya. –Buxoro, “Durdona”, 2023, 34-42-b.). Mazkur hodisaning shoir ijodidagi ahamiyatini to'laroq anglash uchun ayrimlarini kuzatamiz:

*O'tmishingni ko'rding-ku, ey sen –  
G'ofil banda, ochgil ko'zingni.*

<sup>41</sup> Йўлдашев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари.: НДА.– Т.,1993.

<sup>42</sup> Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДДА. – Т., 2009. 36-б.

<sup>43</sup> Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография. – Самарқанд, 2006.

*Uzr so'ra, yolvor, yalingin,  
Tavof ayla ular izini. ("Uyqum keldi")*

Mazkur parchada *ko'zingni* och iborasi obrazli vosita sifatida qo'llangan.

Bu o'rinda mantiqiy qurshovning roli va ta'siri yuqori, qolaversa, ushbu iboraning inversiya holatidagi ifoda shakli ham ma'no ta'sirchanligini oshirgan.

Shoir ijodida ko'z so'zi bilan bog'liq *ko'z tikmoq, ko'z tutmoq, ko'zdan uyqu qochmoq, ko'zi to'rt bo'lmoq, ko'z ostidan qaramoq* kabi iboralar ishlatalilgan. Misollarni kuzatamiz: *Pirpiragan yulduzlarga men/ Ko'zim tikib suqlanaman jim/ Yarqiragan yulduzlarga men/ Qalbim ochgum misli munajjim.* ("Yulduzlar nidosi") *Ko'kka ko'z tutmasang* mayliga, lekin/ Muqaddas yeringda yorug' yulduz bo'l! ("Yulduzlar nidosi") El *ko'zidan qochirib uyqu/ Vang'ur-vung'ur qilgani-qilgan.* ("Bosh egarkan shohlar ham") *Ota-oni mo'rt bo'ladi, qadrini bil/ Seni deb ko'zi to'rt bo'ladi, qadrini bil.* ("Bog'boningdur") *Ishq sharobin icholmay qolganmisiz armonda/ Yer chizib, ko'z ostidan qaroshingiz muloyim.* ("Muloyim") *Ne ajab, avlodning aqlida bugun/ Yuz ochsa, ko'z ochsa muammo, tugun.* ("Buxoronoma")

Shoir "Sirli so'z" nomli she'rida gulshanda gullarning ochilishiga ko'ra "ko'z ochmoq" birligini qo'llab, tashxis san'atini hosil qiladi. Kuzatamiz: *Ana, oftob chiqdi – nur sharorasi/ Soyalar chekindi, gulshan ochdi ko'z.*

Boshqa bir misol:

*Ne bo'ldi-yu, kal boshga taqdir  
Qo'ndirgandek baxtning qushin.  
Bu badbaxt ham yugurib, oxir/  
Tutdi chog'roq mansab boshini.* ("U yoshlikdan")

Umuman, Toshpo'lat Ahmad o'z ijodida frazeologik birliklarni she'riyat talablariga mos tarzda – ham shaklan, ham mazmunan o'rinali qo'llagani kuzatildi, shuningdek, ayrim frazeologik birliklar shoir maqsadi o'laroq shaklan yangilanganligini ham kuzatish mumkin.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:***

1. Polisemantik so'zlarning badiiy matndagi o'rni haqida gapiring.
2. Sinonim va antonim so'zlarning badiiy matndagi o'rni haqida gapirib bering.
3. Frazeologik birliklar va ularning uslubiy vazifalari haqida nimalar bilasiz?
4. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlam so'zlarini ta'riflang.
5. Ishlatilish doirasi chegaralangan qatlam so'zlarini misollar bilan tushuntiring.

**Topshiriq.** "O'g'ri" hikoyasidan olingen quyidagi parchani o'qing. Undagi leksik-grammatik vositalarni izohlang.

*Qobil bobo ro'para bo'lganda amin og'zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag'baqasini osiltirib kuldi.*

– Ha, sigir, yo'qoldimi?

- *Yo'q... sigir emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi.*
- *Ho'kizmi?... Ho'kiz ekanda! Himm... Ola ho'kiz? Tavba!...*
- *Bor-yo'g'im shu bitta ho'kiz edi..*

*Amin chinchalog'ini ikkinchi bo'g'inigacha burnuga tiqib kuldi.*

- *Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho'kiz edi?*
- *Ola ho'kiz*
- *Yaxshi ho'kizmidi yo yomon ho'kizmidi?*
- *Qo'sh mahali...*
- *Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa keta beradimi?*
- *Bisotimda hech narsa yo'q...*
- *O'zi qaytib kelmasmikin?... birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da! Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin!*

*Qobil bobo yerga qarab tek qotdi.*

**Topshiriq.** Quyida berilgan paronim juftliklar asosida gaplar tuzing. Paronim so'zlar manosini izohlang.

Diplomat – diplomant, dars – darz, xiyla – hiyla, yod – yot, burch – burj, ganch - ganj, ta'qib – taqib, ta'rif – tarif, shtab – shtob, yondosh – yondash, yoqilg'i – yonilg'i, asil- asl, ahil- ahl, tunamoq- to'namoq.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1974.
2. Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография.– Самарқанд: СамДУ нашри, 2006).
3. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд, 1992.
4. Қиличев Э. Қиличев Б. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Бухоро, 2001.
5. Қудратов Т. Нутқ маданияти ва услубият асослари.–Т.: Ўқитувчи, 1993.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили фразеологизмларининг изоҳли

луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1978.

7. Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1980.
8. Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДДА. – Т., 2009.

### 13-MAVZU. CHEGARALANGAN QATLAM SO'ZLARINING BADIY ADABIYOTDAGI IIFODASI REJA

1. Chegaralangan qatlam so'zlari.
2. Eskirgan so'zlar.
3. Neologizmlarning badiiy matndagi ifodasi.
4. Atamalarning badiiy matndagi ifodasi
5. Mahalliy so'zlarning badiiy matndagi estetik qiymati.
6. Varvar, vulgar so'zlarning she'riyatidagi ifodasi.

*Tayanch tushunchalar: chegaralangan qatlam so'zlari, estetik qiymat, eskirgan so'z, neologizm, atama, noadabiy qatlam so'zlari, mahalliy so'z, sheva so'zlar, varvar, vulgar so'zlar.*

Ma'lumki, chegaralangan leksika ham lug'at qatlamimizning tarkibiy qismi sanaladi. U leksik qatlam uslubiyati bilan bog'liq. Leksik uslubiyatga bag'ishlangan ishlarda chegaralangan qatlam so'zlari ham u yoki bu darajada tahlilga tortiladi.

Ijodkorlar – shoirlar chegaralangan so'zlardan o'rnila foydalanib, o'qishli misralar yaratganliklariga ham guvoh bo'lamiz. Chegaralangan qatlam so'zlari – mahalliy so'zlar, atamalar, noadabiy qatlam so'zlari, varvar, vulgarlar, argo, jargolar, neologizmlar shoirning ijodiy maqsadi uchun qo'llangan bo'ladi.

Chegaralangan qatlam so'zlari ham aruz vaznida, ham barmoq vaznida yozilgan she'rlarda uchraydi. Hatto she'r bobida kam ijod etgan, nasriy asarlari bilan xalq qalbiga chuqur kirib borgan A.Qodiriy ijodiga mansub she'riy misralarda ham ishlatilish doirasi tor so'zlarni uchratamiz. Iste'dodli ijodkor bunday so'zlardan mohirona foydalanganligiga guvoh bo'lamiz:

Pildir-piss,  
Guvala, lo'mboz, zanbil,  
Ashtak-nashtak,  
Temirtak, pistak.  
Tog'dan lov-lov,  
Miyang g'ov-g'ov.  
Chug'urchiq: chir-chir,  
Tartarak: tar-tar,  
Sopqon, g'o'lak  
Otilmadi padar chalpak

Uying kuysin, Hoji Mirak. (“Pildir, piss”)

She’riy misolda qo’llangan *pildir-pis*, *ashtak-pashtak*, *temirtak*, *pistak*, *padar chalpak*, *uying kuysin* kabilar chegaralangan leksik qatlam so’zlari bo’lib, muayyan bir maqsadni yuzaga chiqarish uchun ishlatilgan.

**Eskirgan so’zlar.** Badiiy matnda tasvirlangan, badiiy matn yaratilgan davrni, bundagi adabiy til me’yorlarini bilmasdan turib, eskirgan yoki yangi so’zni ajratib ham, bunday so’zlarning lingvopoetik qimmatini belgilab ham bo’lmaydi. Arxaik so’zlar muayyan davrning yozma uslubini ifodalashda yoki qahramonning nutqiy xarakteristikasini berishda ham lingvopoetik vosita sifatida ishlatiladi.

Masalan, ijodkor Abdurauf Fitratning “Mirrix yulduziga” she’rini barcha birdek hayajonlanib o’qiydi. Bu she’rda ijodkorning hasratlari, dard -alamlari kuylangan. Bu she’r mazmuni o’quvchi uchun tushunarli, faqatgina ayrim so’zlar bugungi kunda eskirgan bo’lib, izohtalab. Bu she’rdagi tarixiy so’zlar sirasiga *dag’i*, *o’ksuz*, *chog’ir*, *qopchiq*, *xoqon* kabilar mansub. *Dag’i* so’zi qadimgi turkiy tilga oid so’z bo’lib, “yana” ma’nosida qo’llangan. *O’ksuz* (*o’ksik*), *chog’ir* (*may*), *qopchiq* (*hamyon*), *xoqon* (*mansab*) kabi tarixiy so’zlar eski o’zbek adabiy tiliga xos.

Fitratning “Sharq” she’rida daraxt so’zining tarixiy qo’llanishi – “og’och”ni kuzatamiz:

*Og’ochlari* yashil kiyimlar kiygan,

Terilishar *toping’oli* tangriga

Bu misralarda toping’oli so’zi ham eski leksik qatlam birligi hisoblanadi. Bu so’z intilmoq, harakat qilmoq ma’no ifodasida ishlatilgan.

Tarixiy so’zlarning hozirgi o’zbek she’riyatidagi ifodasi ham keng. Shoirlarning ijodiy merosida tarixiy so’zlar ma’lum bir maqsad ifodasi uchun qo’llanilib turardi. Iste’dodli shoir E.Vohidov ijodidagi ayrim tarixiy so’zlar qo’llangan misralarni tahlilga tortamiz. Shoirning “Dutorim tori ikkidur” nomli she’rida *Yag’mo*, *Sayhun*, *Jayhun*, *gardun*, *ochun* kabi tarixiy so’zlar qo’llangan. Ko’rinadiki, bиргина she’rda bu kabi tarixiy so’zlarning ko’p qo’llanishiga muayyan bir ehtiyoj, zarurat mahsuli sifatida qarash mumkin. Yetti bandli ushbu she’rdan bir bandini kuzatamiz:

Nigorim chashmi ikkidur:

Biri *yag’mo*, biri *jodu*,

Bu jodudan ikki ko’zim,

Biri *Sayhun*, biri *Jayhun*.

Bu parchadagi jodu, Sayhun, Jayhun so’zlari tarixiy so’z. Yag’mo so’zi “O’zbek tilining izohli lug’ati”da quyidagicha izohlanadi: Yag’mo esk.(eskirgan) talon-taroj, buzg’unlik. Shoir aytmoqchiki, sening ko’zlaring go’yoki jonimni talon-taroj qilg’uvchidir, undan menga, jonimga panoh yo’qdir. Shuningdek, Amudaryo va Sirdaryoning eski nomi bo’lgan Sayhun hamda Jayhun so’zlari ham tarixiy so’z (arkaik so’z) hisoblanadi.

Rauf Parfi bir she’rida mumtoz adabiyotda keng qo’llangan tahayyul so’zini qo’llaganiga guvoh bo’lamiz:

*Taxayyul mayiga* termulaman jim,

Men endi shunday aftoda.

Taxayyul o'zlashma so'zi "xayolga keltirmoq, eslamoq" ma'no ifodasiga ega. Bu so'z tarixiy bo'lib, bugungi kun lug'aviy qatlamida ishlatilmaydi.

Yuqoridagi misolda qo'llangan may so'zini ham tarixiy so'z deb baholamoq kerak. Chunki bu so'z ham hozirgi o'zbek adabiy tilida ishlatilmaydi. May so'zi tarixiy asarlarda uchraydi.

Xalqimizning suyukli shoirlaridan yana biri A.Oripov sanaladi. Shoir she'riyati axloqiy-falsafiy, ijtimoiy-ma'rifiyiligi bilan o'quvchini o'ziga tortadi. A.Oripov she'rlarida ham chegaralangan qatlam so'zlari uchraydi:

Vatan degan chog'da oddiy *oshyon*,

O'lan to'shagini anglaganlar mo'l.

\*\*\*

Sizdek farzandlarga sharafdir *pеша*,

Sizga mangulikning xush taronasi.

Shoir "Suv" she'rida puchmoq tarixiy so'zini qo'llaydi:

Uchragan *puchmoqni* kovlab erinmay,

Albatta , u yerga suv quyar.

Puchmoq so'zi eskirgan bo'lib, badiiy uslubda qo'llanishi bilan xarakterlanadi. Bu so'z "chet, pastqam joy, ovloq" ma'no ifodalariga ega.

A.Oripovning "Muallim" she'rida *ganj, kalom kabi tarixiy (arxaik)* so'zlar uchraydi.

Rost aytsam, o'zingsan eng avval daho,

Sen hayot *ganjida* dur-u bebafo.

Ulug' ayyomingda she'riy *kalom* bu,

Shoirlar nomidan qutlug' salom bu.

Ganj so'zi "boylik, xazina", kalom so'zi "so'z , nutq" ma'no ifodalarga ega.

Xullas, shoirlar tilning leksik qatlami imkoniyatlaridan foydalanishda eskirgan so'zlarga ham yetarlicha ahamiyat berishganliklarini ko'rish mumkin.

**Neologizmlarning badiiy matndagi ifodasi.** O'zbek tili leksikologiyasiga bag'ishlangan adabiyotlarda neologizmlarning lingvistik tabiatini to'g'risida bir qancha mulohazalar bayon etilgan. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan, yangi narsa-hodisa va tushunchalarni ifodalash uchun hosil qilingan so'zlar, ya'ni neologizmlar vaqtqi-vaqtqi bilan tilda paydo bo'lib tursa-da, badiiy matn uchun ular ko'p ham ahamiyatli emas. Badiiy matn uchun ijodkorning o'zi tomonidan, badiiy niyatni ifodalash maqsadi bilan yasalgan, yaratilgan individual neologizmlar estetik qimmatga molikdir. Ijodkor tomonidan yasalgan yangi so'z, avvalo, yangiligi bilan o'quvchi diqqatini o'ziga tortadi va o'ziga xos o'r'in egallaydi. Asar ta'sirchanligi individual neologizmlar bilan bog'liqdir. Fikrimiz isboti uchun iste'dodli shoir I.Mirzo ijodiga murojaat qilamiz:

Ko'pirib boradi qo'ng'ir bulutlar,

Hademay *yomg'irzor* bo'ladi paydo. ("Kuz")

Boshqa bir she'rni tahlilga tortamiz: Meni ayadingmi, o'zingnimi yo/ Qiz

qalbi qizg'aldoq emas, *tilsimtosh!* ("Metroda") Misralardagi *yomg'irzor*, *tilsimtosh* so'zlari I.Mirzo yaratgan yangi so'zlar bo'lib hisoblanadi. Bu kabi qo'llanish boshqa ijodkorlarda uchramaydi.

Zulfiya ijodida XX asr boshlari yangilik sanalgan quyidagi so'zlar qo'llanilgan: zootexnik, kadr, konchi, kostyum, laureat, tekstil, raport, pudrat va boshqalar. Ammo to'liq ma'noda ularning shoira asarlari tilida obrazli estetik vazifa bajarganligi to'g'risida gapirib bo'lmaydi. Ular umumxalq tilida mahsuldor qo'llaniladi va faol lug'at tarkibidan mustahkam o'rin olgan. Ko'pchilik so'z ustalarida bo'lgani kabi Zulfiya individual uslubini aniqlovchi omillardan biri uning mualliflik neologizmlaridir. O'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan, asosan, affiksatsiya usulidan foydalanib, shoira yangi qurilmalar yaratadi. Uning o'ziga xosligi esa bu so'zlarning o'zbek tilida uchramagan shakllarda namoyon bo'lishida va natijada yangi ma'noli birlik hosil bo'lishida ko'rindi. Shoira alohida e'tibor bergen ba'zi affikslarni ko'rib o'tamiz.

-parast affiksi: *Sezaman o'qigan va uqqan onimda/ Nur yo'lday dilparast she'rlardan shoirning ko'zini.*

-zada affiksi. Bu qo'shimcha orqali Zulfiya birmuncha poetik hisoblanadigan *bo'ronzoda* so'zini hosil qiladi: *Jaranglovchi begona shu til/ Bo'ronzoda chag'aloqsimon/ Yuraklarni qiladi chil-chil.*

Umuman, neologizmlarning paydo bo'lishi til rivojining umumiyligiga qonuniyatlariga muvofiq ravishda kechadi. Tabiat va jamiyatdagi taraqqiyot esa rivojlanishning asosi sanaladi. Ijodkorlar ijodida neologizmlar jamiyat ruhini berish, o'z niyatlari va xohishlariga ko'ra yangi yasalmalar yaratish bilan yuz berishi kuzatildi.

**Atamalarning badiiy matndagi ifodasi.** Bu kabi so'zlar ham lug'at qatlamicizda o'z o'rniغا ega. Ilmiy atamalar, asosan, fan, texnikaga oid bo'ladi. Kasbiy atamalar esa turli kasb-hunar doirasida qo'llaniluvchi so'zlar sanaladi.

Badiiy adabiyotda, jumladan, poeziyada atamalarning qo'llanishi ham muayyan maqsad asosida ro'y beradi. O'zbek she'riyatida ijodkorlarimiz ijod mahsulida atamalardan unumli foydalanganlar. Shulardan ayrimlariga to'xtalamiz.

Masalan o'zbek xalqining sevimli shoiri Muhammad Yusuf "Matematika darsi" she'rida yozadi:

*Matematika* qo'yni to'la sir bo'ladi,  
*Birga birni ko'paytirsak* bir bo'ladi.  
Derazadan mo'ralaydi olma shohi,  
Ufqda bulut ertaga yomg'ir bo'ladi.

Misralarda *matematika*, *birni birga ko'paytirmoq* kabi ilmiy atamalar qo'llangan. Shuningdek, she'rda kashf emoq, tayin, adabiyot, miltiq, ko'proq, o'q, doska kabi atamalarning qo'llanishi ham keng kuzatiladi.

Erkin Vohidovning "Temurbek daholari" she'rida ham bir qator atamalar, ya'ni ilmiy terminlarga murojaat qilingan. Ushbu she'r tarkibida burj (astronomiya termini), nurlanmoq, to'lqin (fizika termini), "Kaissa-F", "CHS-7", "K-14", "D-5", "B-3" kabi texnik apparatlar kodlari uchraydi. Har bir raqamli nom muayyan bir narsa-hodisa bilan bog'liq. Misollarni kuzatamiz:

Mana bu chambarak,  
**"Kaissa-9"**  
**"CHS-7"** bilan shaxmat suradi.  
Manov sandiq esa  
Uch kundan buyon,  
Bo'lajak shaharga reja quradi.  
Hech qachon **"K-14"**, **"D-5"** ustidan  
**"B-3"**ga yozmaydi yumaloq xatlar.

Erkin Vohidovning "Jumadan qolgan odam" she'rida *doktor, nol uch, hamshira, tez yordam, igna, zotiljam* kabi shifokorlik kasbiy terminlari, "Bizdan keyin hech bir avlod qayta qurmasin" she'rida *qayta qurish, ting'ir-ting'ir, kolligiya, raport, kommunu, prinsip, mix, ketmon, buldozor*, kabi bir qancha chegaralangan qatlam so'zlarining qo'llanganligiga guvoh bo'lamic. Bularning ko'pi atamalar hisoblanadi. She'rdagi bu so'zlar shoir istagini yuzaga chiqarish maqsadida qo'llanilgan. Har bir so'z ma'lum bir maqsad uchun, o'rnida ishlatilgan.

Muhammad Yusuf ijodida ham terminologiyaga oid birliklar o'rni-o'rni bilan qo'llanilganini yuqorida ko'rib o'tdik.

Shoir "Quruvchi samolyotlar" she'rida «Fizika, sen topdingmi,/ "Sen topdingmi, Al-jabr?" deb yozsa, "Matematikani yomon ko'raman" she'rida quyidagicha dardli misralar yaratadi:

**Atomlar - matematika,**  
**Vodorodlar - matematika.**  
Qiruvchi samolyotlar,  
**Krematoriylar - matematika.**  
Matematikani yomon ko'raman.

Shoir qalb kechinmalarini terminologik birliklar orqali ta'sirchan yuzaga chiqaradi. Xullas, bir qator nofaol leksemalar bilan birga atamalar ham uslub yaratish uchun lozim bo'lganligi kuzatildi. Ular shoirlar ijodida she'r mazmuniga hamohang holda qo'llanilganligini kuzatdik.

**Mahalliy so'zlarning badiiy matndagi estetik qiymati.** Mahalliy (sheva) so'zlarning she'riy misralarda qo'llanishi o'ziga xos tarzda kechadi. Bunday so'zlar ko'pincha nasriy asarlarda kuzatiladi. Jumladan, S.Ayniuning "Qullar", A.Qahhorning "Sinchalak", A.Muxtorning "Tug'ilish" asarlarida sheva so'zlardan ko'p foydalilanligini ko'ramiz. Shuningdek, zamonaviy o'zbek adabiyotida T.Murod, T.Malik asarlarida ham bu kabi so'zlar uchraydi.

She'riy asarlarda mahalliy til birliklarining qo'llanishi Z. Isroilova, G.G'ulom, S.Zunnunova, E.Vohidov, A.Oripov, M. Yusuf va boshqa

ijodkorlar asarlarida uchraydi. Sheva so'z va grammatik birliliklarning misralardagi ifodasi ham adib ko'zlagan umumiy mazmun-mohiyat atrofida yig'ilgan bo'ladi.

Sheva so'z va grammatik shakllar she'r o'ynoqilagini, ta'sirchanligini, sodda va ravonligini ta'minlashga ko'mak beradi. Umuman, badiiy matnda poetik aktuallashuv nuqtayi nazaridan shevaga xos so'zlar guruhi, shuningdek, shevaga xos talaffuz va morfologik shakllar diqqatga sazovordir. Ular hududiy mansublik, mahalliy koloritni ta'kidlash uchun xizmat qiladi.

She'riy asarlarda, nazmda mahalliy so'zlar, asosan, adib tilidan berilishi lozim. Bu bir qadar mushkul ish. Bunda shoir o'ta hushyorlik bilan ish ko'rmog'i darkor.

G'afur G'ulom asarlari matnida uchraydigan umumxalq tilidagi ayrim so'zlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, shoirning o'z ona tilini mukammal bilganligiga yana bir bor amin bo'lamiz. Asarlarida keltirilgan *ko'zanak*, *qarqara*, *tobish*, *toymoq*, *qumosh*, *so'yri*, *shukufa*, *ichqitmoq*, *qulg'una*, *mutamoq*, *chibin*, *ushumoq*, *chodirxayol* va *boshqalar bundan dalolat beradi*.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da ko'zanak so'zining kam qo'llanishi ta'kidlanib, uning ko'zga o'xshash teshik ma'nosini berishi aytilgan va undagi har ikki misol ham G'.G'ulomdan keltirilgan.

Bolari uyasining kichik ko'zanagi ham  
O'z yashovchi elining vatan - ona siynasi.

("Tinchlik minbaridan")

"Izohli lug'at" da *qarqara* so'zining sharhi quyidagicha berilgan: "Bo'yni, tumshug'i va oyoqlari uzun botqoq qushi, qo'tonlarning bir turi". G'.G'ulom qo'llagan *qarqara* so'zi ham ana shu matn mazmunida, ya'ni o'g'illarga nisbatan avj olib o'smoq, voyaga yetmoq iboralari qo'llangan:

Kattakon oilaning *qarqara* o'g'illari,  
Barchasi ham mehnatkash, ayolmand, bolajonli

G'.G'ulom "Assalom" she'rida "avrab birovning haqqini yemoq, o'marmoq, qalloblik, tekinxo'rlik bilan birovning haqqiga yashamoq" ma'nosini beradigan *mutamoq* so'zini keltiradi:

Bas endi, janoblar xo'p *mutadingiz*,  
Haq-hisob kuni ham yaqindir, axir!  
Afrika, Hindiston, Iraq-u Ajam  
Tevaning to'shiday bo'ldi tap-taqir.

M. Yusufning o'zbek tili bilimdoni, so'zshunos ekanligiga shubha yo'q. Uning ijod mahsulida ham umumxalq tiliga oid birliklar keng kuzatiladi. Shoirning "Nasiba" she'rida Farg'ona shevasiga xos grammatik birlik qo'llangan:

Kun tegmagan bo'yning uzra tilla marjon,  
Qaqshatdingiz qoshingizni suza-suza.  
Ay, birovning nasibasi - Nasibajon ,

Ajralishdek, endi *qandoq qilavuza*.

Ushbu she'rdagi *qilavuza* so'zi tarkibida sheva unsuri bor. Bu bilan shoir o'ynoqi, o'qishli misralar yaratishga erishgan. Shu nuqtayi nazardan *kelavuza*, *tilavuza*, *yig'lab olavuza*, *o'zivuzam*, *bilavuza* kabilarda ham mahalliy birlik vositasini ko'rishimiz mumkin.

E.Vohidov ham umumxalq tilidan zavqlangan, ilhom olgan. Bu esa uning ba'zi she'rlarida uchraydi:

Xorazmcha talaffuzini

Xush ko'raman u yer qizlarin,

"*Qo'ysangiza*" degan so'zini .

Ular buni aytsa muloyim

Tillaridan asal to'kilar.

Xorazmlik qizlarni doim

"*Qo'ysangiz-a*" degizgim kelar.

Shoir Xorazm shevasidan zavqlanadi, undan ilhom oladi. Uning bu zavq-shavqi qog'ozga tushib, go'zal misralar yaraladi.

Xullas, mahalliy so'zlarning she'riy asarlardagi o'rni ham o'ziga xos va mos bo'lishini kuzatdik. Bu ham alohida tadqiqot uchun asos bo'la oladi.

**Varvar, vulgar so'zlarning she'riyatidagi ifodasi.** Varvar so'zlar adabiy tilga o'zlashmagan til birliklaridir. Tilning lug'at tarkibiga kirmagan, faqatgina og'zaki nutqda mavjud bo'lgan bunday chet so'zlar badiiy nutqda qahramon xarakteri, milliy mansubligi va ichki dunyosi tasavvurida hamda voqeahodisaga xorijga xoslik ta'kidini berish maqsadida ishlatiladi. Shuningdek, voqealar bo'lib o'tayotgan o'rniga ishora qilish yoki nutqiy vaziyat va unda ishtirok etayotganlarning milliy mansubligi haqida ma'lumot berish istagi bilan ham kiritilishi mumkin.

Tilshunoslikda vulgarizmlar deb ataluvchi haqorat so'zlarida o'ta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik, haqorat kabi bir qator ifoda semalari ochiq ko'rinish turadi. Bunday so'zlar ko'proq ayni shu xususiyatiga ko'ra matnga olib kiriladi. Bunday so'zlar, asosan, qahramon tilidan qo'llanadi. Haqorat, qarg'ish so'zlar kimning nutqida qo'llanishiga ko'ra ham jiddiy farqlanadi.

Ijodkorlar ham o'rni-o'rni bilan bu kabi so'zlarga murojaat qilganlarini uchratish mumkin. Bu muayyan bir uslubiy talab bilan amalga oshiriladi. Iste'dodli shoir G.G'ulom bir she'rida shunday yozadi:

*Sut ko'r qilgur, haromi Gitler, oqpadar,*

Farzandning qadrini qayerdan bilsin.

Shoir bu misralar bilan butun nafrati, qalb tug'yonlarini sochib tashlaydi. *Sut ko'r qilsin, haromi, oqpadar so'kinch* (vulgar), qarg'ish so'zlarni she'nda keltirish bilan adibning urushga, notinchlik va dilxunlikka nisbatan munosabati bayon etilgan.

Xuddi shunga hamohang holda A.Oripov dushmanlarga qarata "g'addor yov" birikmasini qo'llagani ham ma'lum:

Jasur saflar aro ot surib mag'rur,

Eng *g'addor* yovlarni etgansiz g'orat. ("General")

G'addor so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "xoin, zolim" tarzida sharhanadi. "Vulgar" sanalmish bu so'z Mirtemir ijodida ham uchraydi: Bilardikki, yovuz, **g'addor, benomus fashizm** o'lajak.

G'addor so'zi ma'no ifodaning ta'kidi, ta'sirchanligi jihatidan xoin, zolim so'zlaridan ustun turadi. Shuningdek, badiiy uslubga xosligi bilan ham ajralib turadi.

G'.G'ulomning "Sen yetim emassan" she'rida ham vulgar so'zlarni uchratish mumkin:

*Bu yerda – odamzod shaklida yurgan la'nati devlarning  
Manfur, yuqumli, maraz namoyishi topolmas huquq.*

Shu o'rinda G'.G'ulomning varvar so'zlardan o'z she'rlarida foydalanish mahoratini kuzatamiz. Varvar so'zlarning ham she'riyatda o'z o'rni mavjud.

Shoir baynalmilallikni qalbdan his qila olgani uchungina ijod jarayonida bir matnning o'zida turli tillarga xos bo'lgan so'z va iboralarni bemalol ishlata bildi:

O'rta Osiyoning Sharq fakulteti  
**Lisonlar, zabonlar,** tillar-la obod.

"Obaki dandon" she'rida quyidagi misralarni o'qiyimiz:

*Duyuzlamalarga cho'y emasdir ikki dunyo,  
Bilmay o'ngu so'l, atrofda qolib bo'lmoq ovvora -  
Bir necha riyokor "madaniy" xumparlar uchundir.*

Bu yerda du so'zining qo'llanilishi matn talabi bilan amalga oshirilgan bo'lishi ham mumkin. Chunki shu satrning o'zidayoq o'zbekcha ikki so'zi turibdi.

Bir matnning o'zida bir necha tilga oid so'z, iboralarning ishlatalishi G'.G'ulomning quyidagi parchalarida ham kuzatiladi:

Uch soat burunroq Toshkentdan salom,  
Shoir tong otarda zavqdan asabiy.

**Великая, неоподибимая жывая  
Столица советской державы ("Moskva")**

...  
Hamisha ro'baro', yondosh, nafasdosh,  
**Говорит Москва** - Moskva so'ylar. ("Moskvamiz")

Yana bir misol:

Rus xalqining izidan xaloslik topdi o'zbek,  
Vatanimiz bepoyon, butun xalq jondosh-o'rtoq,  
**"Товариш"** degan so'z-u - bu endi o'z so'zimiz,  
"Кибрит" so'zidan ko'ra "**спичка**" miz yaqinroq  
Ota-bobolar ham aytadilarki:

**"Soli nek az bahor ma'lum meboshad"**

Ey ustodlar ustodi,  
Yasha, sog bo'l, zindabod.  
(Bir-biriga shogird, bir-biriga ustod)  
Yorug' yuzimizga do'stlar, yoronlar  
Degaylar: "Xo'b shudast". ("Tezu toza ter")

Umuman, chegaralangan so'zlar sirasida varvar va vulgar leksemalar ham muhim o'rinn tutadi. Ularning she'rga olib kirilishi shoir iste'dodi, so'z sehrini teran anglaganligidan dalolat beradi.

### *Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:*

1. "Chegaralangan qatlam so'zlari" terminini izohlang.
2. Eskirgan so'z, tarixiy so'z, arxaizm va istorizmlarni bir-biridan farqlab izohlang.
3. Neologizmlarning badiiy matndagi ifodasini misollar bilan izohlang.
4. Atamalarning badiiy matndagi ifodasi qanday?
5. Mahalliy so'zlarning badiiy matndagi estetik qiymati, deganda nima tushunasiz?
6. Varvar, vulgar so'zlarning she'riyatidagi ifodasini izohlang.

**Topshiriq.** Quyida berilgan badiiy asar namunalarini o'qing. Nutqda ortiqcha qo'llanilgan "parazit" so'zlarni izohlang, mazkur parchalar qaysi asarlardan olingan va kimning nutqida uchraydi?

1. – *Habba ... mana shu yerga Anvar akangga uy solib beramiz, Ra'no. Bu senga qalay o'xshaydir, qizim?*
2. *Sharifboy yostiqdan burilib, yonidagi uchinchi yigitga qaradi: - Palanat, qachon kelgan ekan?*
3. – *Xo'sh, innankeyin, qanday qilib sindi. Ro'zg'orda mening pichog'imdan boshqa pichoq qurib ketgan ekanmi?*

**Topshiriq.** Chegaralangan qatlam so'zlari qatnashgan badiiy parchalardan namunalar keltiring.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1974.
2. Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2006.
3. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд, 1992.
4. Қиличев Э. Қиличев Б. Нутқ маданияти ва услубият асослари.– Бухоро, 2001.
5. Қурдатов Т. Нутқ маданияти ва услубият асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1993.
6. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiyalar. 2010.
7. Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДДА. – Т., 2009.

### Reja:

1. Badiiy matnda sintaktik-ekspressivlikning namoyon bo'lish shakllari.
2. Sintaktik parallelizm.
3. Emotsional va ritorik so'roq gaplar.
4. Inversiya, ellipsis, sukut.
5. Gradatsiya va antiteza.
6. Farqlash va o'xshatish.

*Tayanch tushunchalar: sintaktik parallelizm, emotsional gap, ritorik so'roq gap, inversiya, ellipsis, parsellyatsiya, segmentatsiya, sukut, gradatsiya, antiteza, o'xshatish.*

Sintaktik vositalar badiiy matnda integrativ munosabatlarning yuzaga kelishida faol ishtirok etishi barobarida ayni munosabatlar fonida xilma-xil badiiy ma'no-mazmunlarni ham ifodalay oladi. Bu ma'noda ularning badiiy matndagi estetik salmog'i leksik vositalar imkoniyatidan qolishmaydi<sup>44</sup>. Qolaversa, bugungi kun tilshunosligida sintaktik vositalarning tasviriy ifoda imkoniyatlarini o'rganadigan alohida soha – ekspressiv sintaksisning yuzaga kelishi ham sintaktik vositalarning muhim ahamiyat kasb etishini, matn strukturasini o'rganishga qiziqishning ortib borayotganini ham ko'rsatadi.

Ekspressivlikning namoyon bo'lish shakllarini o'rgangan o'zbek tilshunosi A.Abdullayev sintaktik vositalarni sanar ekan «sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog'lovchilarning maxsus qo'llanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so'roq» kabi uslubiy figuralar «fikrning o'ta ta'sirchan ifodalanishi»ga xizmat qilishini ta'kidlaydi<sup>45</sup>.

Umuman, tilshunoslikda sintaktik ekspressiv vositalar sifatida yuqorida sanab o'tilgan hodisalar bilan birga ellipsis, antiellipsis, kesish, pozitsion-leksik takror, parsellyatsiya, segmentatsiya, sintaktik kengaytiruvchilar bilan kelgan leksik takror, monologik nutqdagi savol-javob konstruksiyalari, bog'lovchisizlikning ayrim turlari, so'z birikmasi komponentini almashtirish, sintaktik parallelizm, undov konstruksiyalar, nominativ gaplar zanjiri, so'zni maxsus ekspressiv-stilistik joylashtirish kabilar aytildi. M.Yo'ldoshevning doktorlik ishida sintaktik vositalarning aktuallashishi haqida quyidagicha fikr keltiriladi: "Bizningcha, o'zbek tilida badiiy matnda poetik aktuallashadigan sintaktik vositalarning asosiyлари quyidagilardan iborat: sintaktik parallelizm, emotsional gap, ritorik so'roq gap, inversiya, ellipsis (antiellipsis), parsellyatsiya, atov gaplar (segmentatsiya), gradatsiya, oksymoron (g'ayriodatiy birikmalar), antiteza (sintaktik konstruksiyalarda), farqlash, o'xshatish, sukut, korreksiya va boshqalar"<sup>46</sup>.

**Sintaktik parallelizm.** Parallelizm keng tushuncha bo'lib, bu tilshunoslikning barcha bo'limlari bilan bog'liq. Parallelizmning yorqin

<sup>44</sup> Yuldashev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. DDA. –T.,2009. 39-b.

<sup>45</sup> Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Т.: Фан, 1983. 58-6.

<sup>46</sup> Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДДА. – Т., 2009.

ko'rinishi sintaksisda uchraydi. Umuman, badiiy matnda sintaktik jihatdan bir xil shakllangan gaplar yoki bir xil sintaktik konstruksiyalar ham uchrab turadi. Bunday sintaktik parallelizm badiiy matnda tegishli fikrning poetik ta'kid olishi uchun xizmat qiladi. Masalan: *Oshxona taraf quloq tutadi. Darvoza taraf quloq tutadi. Molxona taraf quloq tutadi. Ovoz qayerdan kelyapti – bilolmaydi* (T. Murod, "Otamdan qolgan dalalar")<sup>47</sup>. Mazkur hodisaning badiiy matndagi ahamiyati haqida tadqiqotchi R. Shukurov shunday yozadi: "Parallel birlıklarning asosiy vazifasi fikrga izoh berish, eng muhim, unga tinglovchini to'la ishontira olishdan iborat. Ular til uslubiy vositalarining boyish manbalaridan biri bo'lib, poetik nutqda ko'p qo'llanadigan, eng mahsuldor va ta'sirchan sintaktik birlik hisoblanadi".<sup>48</sup>

Quvonarlisi, o'zbek tilshunosligida parallelizm hodisasi maxsus tadqiqot obyekti ham bo'lган. R.Shukurovning nomzodlik dissertatsiyasi shu masalaga qaratilganligi bilan ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchi parallel sintaktik butunliklarning umumiyligini va xususiylik dialektikasi asosida shakllangan variantlar o'rtasidagi turli munosabatlarni ifoda etuvchi nutqiy hodisa sifatida baholaydi, unga uslubiyat va nutq madaniyatining tekshiruv obyekti sifatida qaraydi. Tadqiqotchi parallelizmni shakliy va mazmuniy parallellizm sifatida ikkiga bo'lib o'rganadi.

**Emotsional gaplar.** So'zlovchining o'ta xursandlik yoki o'ta xafalik holatlarini yoki qahramonning his-hayajonini, voqeа-hodisaga emotсional munosabatini ifodalovchi gaplar emotсional gaplar hisoblanadi. Emotsional gaplar tarkibida maxsus ijobiy va salbiy bo'yoq dor so'zlar bo'lishi mumkin. Qolaversa, his-tuyg'u ifodalovchi undovlar (*eh, oh, esiz, vo-ajab, eh attang, ura kabi*), munosabat ifodalovchi murojaat birlklari – undalmalar qatnashadi va ular nutqning ekspressivligini ta'minlashga xizmat qiladi: *Oh! – deb yubordi bir yigitcha.* (S.Ahmad), *O', ma'lumotli ekansiz-ku!* (X.To'xtaboyev) *Naqadar go'zal manzara!*

**Ritorik so'roq gaplar.** Bunday gaplar ham badiiy matnning emotсional-ekspressivligini ta'minlovchi poetik vositalardan hisoblanadi. Badiiy tilda, ba'zida ommaviy-publisistik uslubda so'zlovchi (qahramon) o'z ichki kechinmalarini, his-tuyg'ularini hayajon bilan ifoda etadi. Bunda ritorik so'roq gaplar ham muhim o'rinn tutadi. Bunda savol beruvchi ham, javob beruvchi ham so'zlovchining o'zi bo'ladi. Anig'i, bunday gaplar javob talab qilmaydi. Bu kabi gaplar yo darak gaplarga yoki undov gaplarga sinonim bo'ladi. Ayrim ritorik so'roq gaplar tarkibida *nahotki, axir* kabi ta'kidni kuchaytiruvchi so'zlar keladi. Ular nutqqa ko'tarinki ruh bag'ishlaydi va tasdiqning kuchli emotсиya bilan ta'kidlanishi uchun xizmat qiladi. Bunday gap shakllari qahramonning hayratlanishini, quvonchini, ajablanishini, shubha va gumonsirashini, g'azab va nafratini ifodalashda juda qo'l keladi. Ichki va tashqi nutqda, monologik va

<sup>47</sup> Misol olingan manba: Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДДА. – Т., 2009. 40-б.

<sup>48</sup> Шукурев Р. Синтактик параллелизмнинг услубий вазифалари // Ўзбек тили ва адабиёти. 2004. 2-сон, 73-б.

dialogik nutqlarda keng qo'llaniladi. Ritorik so'roq gapda ifodalangan fikr shuning uchun kuchli poetik ta'kid oladi. Ayrim misollarni kuzatamiz: *Nega go'zal ko'rinar olam/ Nega qarab to'ymas ko'zlarim?* (H.Olimjon) *Endi kimga arzini aytadi? Kimdan yordam so'raydi? Kimga bolasini boqizadi?* (M.Ismoilii) *Ilmni mashaqqatsiz egallab bo'ladi*?

Ko'rinadiki, muayyan bir fikrlar ritorik so'roq gap shaklida ifodalansa, estetik ta'sirning darajasi yuqori bo'ladi.

**Inversiya.** Ma'lumki, gap bo'laklarining joylashish tartibi bor, biroq ba'zan gapning muayyan bir tartibi o'zgartiriladi, ya'ni ijodkor maqsadi o'laroq gap bo'laklari tartibi o'zgartiriladi. Bu, odatda, she'riyat tilida yuz beradi. Natijada inversiya yuzaga keladi. Inversiya og'zaki va badiiy uslub uchun xos xususiyat sanaladi. Badiiy matnda qahramonlar nutqini jonli nutqqa yaqinlashtirishda, ularning tilini individuallashtirishda mazkur usuldan foydalaniladi. Ayrim misollarni kuzatamiz: *Navbahor: ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar/ Suhbat aylaylik, kelinglar, jo'ralar, o'rtoqlar.* (Muqimiyl) *Shovulladi tun bo'yish shamol/ Qaldiroqlar ko'chdi larzakor/ Shivirlading yonimda xushhol/ "Yana keldi, do'stginam, bahor".* (A.Oripov)

**Ellipsis.** Bu poetik sintaksis figuralardan biri bo'lib, nutqda biror gap bo'lagini ongli ravishda tushirib qoldirish usuli sanaladi. Nutqiy aloqa jarayonida ba'zi gap bo'laklarining muayyan maqsad bilan tushirilishi hodisasi – ellipsis tildagi lingvistik iqtisod, lisoniy tejamkorlik tamoyili asosida voqelanadi. Undan maqsadsiz qaytariqlar oldi olinadi, tavtologiyadan xoli bo'lish ko'zlanadi.

Badiiy matnda ellipsis kuzatilganda qaysi gap bo'lagi ellipsisga uchraganligi va bundan qanaqa maqsad kuzatilganligi izohlanadi. Ellipsis maqollarda ham ko'p uchraydi. So'zlarning tushirilishi natijasida maqol tabiatiga xos ixchamlik va ifodalilik yuzaga keladi. Misollarni kuzatamiz: 1. *Noshud yetganga maqtanar, Botir qaytganda.* (Maqol) 2. *Ot kishnashib topishar, odam – eslashib.* (Maqol) 3. *Charxi kajraftorning bir shevasidan dog'man/ Ayshni nodon surib, kulfatni dono tortadur.* (Furqat) Keltirilgan misollarning birinchisida ikki bor *odam* (noshud va botir so'zlari bilan), ikkinchisida *topishar* so'zi, uchinchisida ham *odam* (nodon va dono so'zlari bilan) so'zi ellipsisga uchragan.

Badiiy matndagi mayjud kontekst va semantik omillarga ko'ra tushirilib qoldirilishi (ellipsis) mumkin bo'lган bo'laklarning tushirib qoldirilmasisligi, ya'ni antiellipsis ham badiiy maqsadga xizmat qilishi mumkin. Tushirib qoldirilmagan bo'laklar tegishli fikrni yanada ta'kidlashga, nutq egasining turli hissiy-emotsional holatlariga urg'u berishga ko'maklashadi.

**Parsellyatsiya.** Mazkur hodisa ham badiiy matnda o'ziga xos o'ringa ega. Alovida estetik salmoq kasb etadi. Badiiy matnda parsellyativ konstruksiyalar matn komponentlarini ekspressiv-estetik maqsadga ko'ra qayta tartiblash orqali namoyon bo'ladi. Masalan: "*Hurriyat vaadolat uchun kurashish kerak*" gapi "*Kurashish kerak. Hurriyat uchun. Adolat uchun*" tarzida qayta tartiblansa, ikkita parsellyativ konstruksiya (*Hurriyat uchun va Adolat uchun*) yuzaga keladi. Ko'rinib turganidek, birinchi holatga qaraganda ikkichi holatda

mantiqiy ta'kid va estetik ta'sir sezilarli darajada ortiq. Mazkur hodisa ham nasriy, ham nazmiy asarlarda kuzatiladi.

**Segmentatsiya.** Mazkur termin ostida umumiylar tilshunoslikda mohiyatan "atov gap"larga mos birliklar o'rganiladi. Bu borada M.Yo'ldoshev shunday yozadi: "...Segmentlashda ham ana shunday mantiqiy ta'kidli uzb, bo'lak yoki bo'laklar gapdan tashqariga chiqariladi, ammo parsellyatsiyadan farqli o'laroq gapning oldiga chiqariladi. Segmentlash natijasida asosiy hollarda atov gaplar shakllanadi. Masalan, *Ona ulug' zot* gapini segmantlash natijasida *Ona! U ulug' zot* tarzida atov gap shakllanadi, shuning uchun ham atov gaplar hamisha asosiy gapdagi muayyan bir bo'lak bilan nisbatlangan bo'ladi, bu o'rinda asosiy gapdagi ega bilan nisbatlangan. Atov gaplar kitobxon ko'z o'ngida biror voqeа-hodisani, narsa-buyum yoki davrni jonli gavdalantirishga, uning xotirasi yoki xayolida ular bilan aloqador voqeа-hodisalarni tiklashga xizmat qiluvchi muhim tasviri vositadir. Ular, asosan, xabar maylining hozirgi -kelasi, ba'zan esa o'tgan zamon shaklida keladi. Atov gap yig'iq yoki yoyiq holda bo'ladi.

**Gradatsiya.** Mazkur hodisa so'zlar zanjiridan iborat bo'ladi hamda so'z ma'no ifodasining kuchayishi (mohiyatiga ko'ra ko'tariluvchi gradatsiya – klimans) yoki pasayishi (pasayuvchi gradatsiya – antiklimans) ni yuzaga keltiradi. U ko'pincha nutq birliklarining ketma-ket qo'llanishi asosida birining ikkinchisi ma'nosini kuchaytirib borishidan iborat poetik hodisa sanaladi.

Ko'pincha mazkur hodisani yuzaga chiqarishda graduonimik so'zlar ishtirok etadi. Biroq gradatsiya qamrovi kengroq, ya'ni badiiy matndagi gradatsiyaning yuzaga chiqishi doim ham graduonimik so'zlarga bog'liq bo'lavermaydi. Mazkur hodisaga misol tariqasida Toshpo'lat Ahmadning "Uyqum keldi" jumlesi bilan boshlanadigan quyidagi she'riy parchasini keltirishimiz mumkin:

*O'tmishingni ko'rding-ku, ey sen –  
G'ofil banda, ochgil ko'zingni.  
Uzr so'ra, yolvor, yalingin.  
Tavof ayla ular izini...*

Ushbu misralarda qo'llangan *uzr so'ra, yolvor, yalin, tavof ayla* kabi so'zlar o'zaro sinonimik qatorni hosil qilayotgandek ko'rinsa-da, ulardagi ma'no ifodaning oshib borishi, ya'ni graduonimik so'zlardan iboratligi mazkur holatni tom ma'noda gradatsiya hodisasi sifatida baholashimizga asos bo'la oladi. Parchadagi *uzr so'ramoq* so'zi gradatsiyaning dastlabki, ya'ni kuchsiz qutbi bo'lsa, *tavof aylamoq* so'zi keyingi – oxirgi, kuchli qutbi sanaladi.

**Antiteza.** Antiteza mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo'yish, zidlash hodisasi tarzida tushuniladi. Voqeа -hodisalar mohiyatidagi ziddiyatni ochish uchun asosan, badiiy matnda zid ma'noli qo'shimchalar, zidlovchi bog'lovchilar, so'z va iboralardan foydalilaniladi. Sintaktik zidlash asosan bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gap shakllarida kuzatiladi.

Mazkur hodisa, asosan, til bilimidagi zid ma'nolilik orqali yuzaga chiqadi. Bunda zid ma'noli affikslar, so'zlar, jumlalar, barqaror birliklar, sodda va

murakkab gaplar ishtirok etadi. Biroq mazkur hodisaning yuzaga chiqishi faqatgina bu hodisalar bilan bog'liq emas. Antiteza hodisasi antonimlikdan ko'lami kengligi bilan ajralib turadi. Olimlar ta'kidlashicha, antiteza inson faoliyatidagi muhim axloqiy, ijtimoiy, fanniy qarashlar umumlashmasini aynan ifodalashda juda qulay usul hisoblanadi.

**Oksyumoron.** Bu hodisada ham antitezada bo'lgani kabi mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga mazmunan zid bo'lgan ikki tushunchani ifodalovchi so'zlar birga qo'llaniladi. Bunday g'ayriodatiy birikmalar antitezaning bir ko'rinishi sifatida talqin ham qilinadi. Biroq har qanday zid ma'noli so'z oksyumoron hosil qilavermaydi. Bu ikki hodisa, ya'ni antiteza va oksyumoronning o'zaro munosabati haqida tilshunos olim S.Karimov shunday yozadi: "Chunki bunda [oksyumoronda] ma'nolari bir-biriga qaramaqarshi ishtirok etadi. Shu bilan birga, ular o'rtasidagi jiddiy farq ham bor. Bu farq shundan iboratki, antitezada ma'no bir-biriga zid birliklarni parallel, yonma-yon qo'yish orqali ochiladi, oksyumoronda esa bu ikki so'z birikma holida bo'ladi va zid ma'noli so'zlardan ularning har birining ma'nosi saqlab qoltingan yangi bir kontekstual ma'no kelib chiqadi"<sup>49</sup>.

Ma'lum bo'ladiki, istalgan ikki so'z (zid ma'noli so'z)ni biriktirish bilan oksyumoron yuzaga kelavermaydi. Bunday birikmalar yozuvchining badiiy tafakkur mahsuli, individual uslub ko'rinishi ham hisoblanadi.

Professor S.Karimov rahbarligida yozilgan S.Umirovanning "O'zbek tilida lingvistik vositalar va poetik individuallik" (U.Azim she'riyati misolida) monografik tadqiqotida Usmon Azim asarlarida qo'llangan *muz* va *olov* so'zlari orqali yuzaga kelgan antitezalar tahlilga tortiladi va shoir she'riyatida kuzatiladigan oksyumoronlar sifatida *sukunatda yig'lamoq*, *o'lik xitob*, *tunlarim yop-yorug'*, *jimjit suhbat*, *jim so'z*, *qafasda ozodlik*, *o'limda gullamoq*, *mitti osmon*, *totli og'riq* kabilar keltiriladi. Kuzatamiz: *Tog'lar sukunatda yig'lab yotdilar/ Parvozsiz qismatning zalvorin sezib* ("Yurak")

**O'xhatish.** Mazkur hodisa o'zbek tilshunosligida yetarlicha tadqiq etilgan. O'xhatishning tasviriy vosita sifatida badiiy adabiyotdagi roli, uning lingvistik tabiatni tilshunoslik fanida ancha o'rganilgan. Sintaktik birliklar sanaladigan badiiy tasvir vositalari, jumladan, o'xhatish, metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitetlar "trop" (troplar) termini ostida ham o'rganiladi. Troplar nutq ta'sirchanligini oshirish, ifodaviylikni ta'minlash maqsadida qo'llanadi<sup>50</sup>. Badiiy tasvir vositalaridan asosiysi bo'lgan o'xhatishlarning matndagi ahamiyati yuqori. Fanda o'xhatishning yuzaga kelishi, uni paydo qiluvchi vositalar, mazkur hodisaning nazariy asoslari, o'xhatishlarning yondosh hodisalarga munosabati maxsus o'rganilgan, Qolaversa, prof. N.Mahmudov hamda D.Xudoyberganovalar tomonidan "O'zbek tili o'xhatishlarining izohli lug'ati" ning (-T.,2013) yuzaga kelishi bu boradagi ishlarning keng ko'laminib belgilaydi.

<sup>49</sup> Каримов С.А. Бадиий услуг ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1994, 46-б.

<sup>50</sup> Каримов С.Зулфия асарлари лингвостилистикаси.Монография. – Самарқанд, 2006. 100-б.

O'xshatish qiyosga asoslanadigan eng qadimgi tasviri vosita sanaladi. Unda, uning tuzilmasida to'rt unsur nazarda tutiladi: 1) o'xshatish subyekti; 2) o'xshatish etaloni; 3) o'xshatish asosi; 4) o'xshatish vositasi. Masalan: "Karimaxon guldek qiz" gapida Karimaxon – o'xshatish subyekti, gul – o'xshatish etaloni, qiz – o'xshatish asosi, -dek esa o'xshatishning vositasi. Ba'zi manbalarda "o'xshatish maqsadi" haqida ham so'z boradi.

O'xshatish etaloni o'xshatish konstruksiyasining poetik qimmatini, estetik salmog'ini belgilaydi. O'xshatish etaloni qanchalik original bo'lisa, o'xshatish konstruksiyasi ham shu darajada ohorli bo'ladi. Bilamizki, an'anaviy o'xshatishlar og'zaki nutqda ko'p ishlatiladigan, shu sababdan ta'sirchanligini nisbatan yo'qotgan o'xshatishlardir. Masalan: *paxtaday oq, muzday suv, xo'tikday qaysar* kabi. Xususiy, ya'ni muallif o'xshatishlari ijodkorning o'ziga xos nigohi, tajribasi, badiiy tasavvuri asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratiladi, shuning uchun ular badiiy matnda hamisha estetik ta'kid oladi, poetik aktuallashadi.

Iste'dodli ijodkor Abdulhamid Cho'lpon yaratgan erkin o'xshatishlar bu fikrimizga yorqin misol bo'la oladi, nazarmizda. Adibning "Kecha va kunduz" asaridan kuzatamiz: 1. *Ikkala kundoshning ko'zlari birdaniga, o'g'il ko'rgani haqida xabar olgan otaning ko'zlariday, ravshan bir olov bilan charaqladi.* 2. *Miryoqib ikki kishining pichirlashib gaplashganini eshitdi, yuragi objuvoz likopiday ura boshladi.* 3. *Uning [Mingboshi] oyoqlari tobut ko'tarib borayotgan musulmonning oyoqlaridek chalishib-chalishib ketar edi.*

Ko'rinaridiki, bu kabi o'xshatishlar favquloddaligi, originalligi bilan o'quvchiga tez ta'sir ko'rsatadi. Eng asosiysi, muayyan bir vaziyat, ruhiy va jismoniy holat, narsa-hodisani kitobxon ko'z o'ngida ravshan gavdalantira oladi.

Xullas, o'xshatishlar badiiy adabiyotda, xususan, she'riyat tilida katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, muallif nutqi o'xshatishlari (individual nutq ko'rinishlari) badiiy matn uchun xarakter kasb etadi. Bunda, albatta, asosli, mantiqqa tayanib yaratilgan o'xshatishlargina til jozibasi, nutq obrazliligi uchun xizmat qila oladi.

Nutqning ta'sirli, jozibali bo'lishini ta'minlovchi yana quyidagi sintaktik hodisalarga e'tibor qaratish foydadan xoli bo'lmaydi. Ularning ayrimlarini kuzatamiz:

1. **Izohlovchi.** "Izohlovchi bo'lak" ham uslub, uslubiy bo'yoq yaratishda keng xizmat qila oladi. Mazkur birlik badiiy adabiyotda, ommaviy-publisistik uslubda, so'zlashuv uslubida ko'p qo'llanadigan hamda xilma-xil ma'no ifodalariga ega gap bo'laklaridan biri sanaladi. Ayniqsa, o'xshatish, xoslik ma'no ifodasiga ega izohlovchilar (*Butoqlarga qo'yib gul-kitobini varaqlashga tushadi bulbul-g'azalxon.* E.Vohidov)

2. **Ajratilgan bo'lak.** Bu vosita yordamida voqelik, narsa-hodisa belgisi odadagidan ko'ra orttirilib, qabartirilib yuzaga chiqariladi. Kitobxonning e'tiborini tortishda, unga yuqori ta'sir etishda ajratilgan bo'laklarning badiiy adabiyotdagi o'rni muhim sanaladi. Masalan: *Qobil bobo, yalangbosh, yalangoyoq, eshik yonida dag'-dag' titraydi.* (A.Qahhor) *Qalandarov, ko'ngli g'ash, g'o'za oralab kirib keldi.* (A.Qahhor) *Qo'llar ishlar tez – mo'jizakor.*

## (Oybek)

Ajratilgan bo'laklar biror bir belgini ta'kidlash bilan birga, butundan qism ajratish, shaxs va narsa haqida qo'shimcha ma'lumot berish, izohlashga ham xizmat qiladi.

**3. Undalma (murojaat birligi).** Murojaat birligi sifatida ham o'rganiladigan mazkur sintaktik hodisa badiiy adabiyotda turli nozik ma'no ifodalar, subyektiv munosabatlар ham ifodalay oladi. Murojaat birliklari fikr (gap) boshida kelganda buyurish ma'nosini ifoda etsa, fikr o'rtasi va oxirida kelganda subyektiv ma'no (muhabbat, suyish yoki aksincha holat) anglatadi.

Badiiy adabiyotdagi murojaat birliklari ham ikki ko'rinishda uchraydi: 1) erkin murojaat birliklari; 2) turg'un murojaat birliklari. Badiiy adabiyot uchun erkin, ya'ni muallifning yorga qarata qo'llagan individual murojaat birliklari salmoqqa ega. Masalan, iste'dodli yozuvchi va shoир Abdurauf Fitrat she'riyatidagi yangilik bo'yog'iga ega murojaat birliklarini kuzatamiz: *Qip-qizil gulim, yop-yorug' oyim/ Ketma, tur biroz, men ko'ray seni.* ("Kim deyay seni?") *Yovuz yorim, yuzingga hech boqolmam/ Ko'ngil dardim poyingga hech to'kolmam.* ("Bir oz kul") Bilamizki, shoир qo'llagan ko'pgina ko'chma ma'nodagi so'zlar ozodlik, hurlik, tinchlik ramzi bo'lib ham kelgan. Fitrat yuqoridagi kabi murojaat birliklaridan tashqari yorga murojaat shakllari sifatida *nozli quyosh, ikki ko'zim, erka malak, jon chechagi*, kabi yangilik bo'yog'iga ega undalmalardan ham foydalangan.

**4. Kiritmalar.** Badiiy adabiyotda qahramonning muayyan bir tabiat - o'ziga xos salobati yo xususiyatini namoyon etishda, qabartirib ko'rsatishda kiritmalar ham ahamiyat kasb etadi. Kiritmalar, ayniqsa, kirish so'zlar uslub jihatdan ham farqlanadi: 1) jonli so'zlashuvda qo'llanadigan kirish so'zlar: *xayriyat, menimcha, mayli, yo'g'e, yaxshi, qariyalarning aytishicha, mening bilishimcha, bilishimcha, qaradimki, taxminimcha, hech bo'lmasa, ishqilib* va h.k.; 2) badiiy adabiyot (she'riyat) da qo'llanuvchi kirish so'zlar: *afsuski, esiz, baxtimga, yaxshiyamki, deydilarki, shoyad, ajabo, toleyimga* va h.k. Kirish so'z va kirish birliklar tasdiq, inkor, fikr tartibi, izoh, fikr yo'nalishi, xulosalash, e'tiborni tortish, voqealarni rivojlantirish, matn birliklarini bir-biriga bog'lash kabi keng ma'no ifodalariga ega.

Xullas, sintaktik vositalarning badiiy adabiyotdagi ifodasi keng bo'lib, ular nutqning aloqaviy xususiyatlaridan asosiylari sanalgan nutqning obrazliligi, ifodaviyligi, ta'sirchanligini ta'minlashda o'z o'rni va imkoniyatlariga ega.

Badiiy asarda muayyan ta'sirchanlikni oshirishda matn tarkibi bilan hamohang ekstraliningvistik vositalardan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Ekstraliningvistik vositalarga kontekst, situatsiya (ma'lum bir vaziyat), ijtimoiy muhit, ikki va ko'p tillilik, mimika va h.k. kabi omillar kiradi.

Xullas, sintaktik vositalarning badiiy adabiyotdagi ifodasi keng bo'lib, ulardan samarali, o'rinli foydalanish ijodkor badiiy niyati va iqtidori bilan belgilanadi.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:***

1. Qanday sintaktik vositalarning matndagi imkoniyati keng?

2. Sintaktik parallelizm haqida nimalar bilasiz, misollar bilan tushuntiring.
3. Emotsional va ritorik so'roq gaplar haqida gapiring.
4. Inversiya, ellipsis, sukut haqida nimalar bilasiz?
5. Gradatsiya va antiteza hodisalarini sharhlang.
6. O'xshatishlar lug'ati haqida ma'lumot bering.
7. Sintaktik vositalar uslubiyati bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilgan?

**Topshiriq.** Quyidagi misollarda qanday sintaktik vositalar poetik aktuallashgan deb o'ylaysiz?

1. Yosh bir joyga borib qolganda, birovning eshigini qoqib, qosh-qovog'iga qarashdan og'ir ish bormi? (A.Q.)
2. O! Ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomondan teshilgan. (A.Qahhor)
3. Qiyinchilik chekib, odam hur bo'lur,  
    Sadafga qamalib qatra dur bo'lur. (Umar Xayyom)
4. Tilingda bo'lsa boling/ Kulib turar iqboling. (Maqol)
5. Yam-yashil o'tov. Hulkar bu yerga kelsa, qanday quvonadi! (P.Qodirov)
6. Jaloliddin! U ertak. U bizning ka'bamiz, jonimiz. (Sh.Xolmirzayev)
7. Kunduzni tun deb o'ylab, sarhadga keldi o'gri,  
    Ko'rshapalak oxiri otashga keldi to'g'ri.  
Dushmanning tepasidan yozib po'lat qulochin.  
    Kalxat bilan olishgay osmonda zo'r lochin. (H.Olimjon)
8. Vaqt kelar dunyoning bog'chalaridan/ Tutunday tarqaydi o'lik xitoblar. ("Saylanma")
9. Uning [Mingboshi] oyoqlari tobut ko'tarib borayotgan musulmonning oyoqlaridek chalishib-chalishib ketar edi. (Cho'lpion)

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Т.: Фан, 1983. 58-б.
2. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд, 1992.
3. Каримов С.А. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1994, 46-б.
4. Құдратов Т. Нұтқ маданияти ва услубият асослари. – Т.: Үқитувчи, 1993.
5. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Т.: Fan va texnologiyalar. 2010.
6. Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДДА. – Т., 2009.
7. Шукуров Р. Синтактик параллелизмнинг услубий вазифалари // Ўзбек тили ва адабиёти. 2004. 2-сон, 73-78-б.

#### **15-MAVZU. MATNGA PSIXOLINGVISTIK JIHATDAN YONDASHUV REJA:**

1. Psixolingvistika.
2. Psixolingvistika va matn.

*Tayanch tushunchalar: antroposentrik tilshunoslik, matn va shaxs, matn va o'quvchi, matn va yozuvchi, psixologiya, psixolingvistika, shartlilik, jonlilik, monologik nutq turlari, ichki nutq, ochiq nutq, kechinma, mahorat, yorug' matn, qorong'u matn.*

Ma'lumki, dunyo tilshunosligida matnga dastlab semantik va sintaktik nuqtayi nazardan yondashilgan. Keyingi yillarda, xususan, XXI asr boshlaridan matnni lingvokulturologik, pragmatik, sotsiolingvistik, kognitiv va psixolingvistik tamoyillar asosida tadqiq etish tendentsiyasi kuchaydi. Unga faqat semantik-sintaktik jihatdan bog'langan gaplar yig'indisi sifatida emas, balki ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan muloqot shakli, o'zida muayyan til sohiblarining bilimlarini, lisoniy tafakkurini, milliy psixologiyasi va mentalitetini aks ettiruvchi mental qurilma sifatida qarala boshlandi. Bugungi kunda lisoniy faoliyat bajaruvchisi bo'lgan shaxs omilini o'rganish tilshunoslik sohalari – psixolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika kabi sohalarda chuqurlashib bormoqda. Ayni vaqtida, tilga antroposentrik yondashuv ushbu sohalarning eng so'nggi yutuqlarini o'zida mujassam etib, mustaqil paradigma sifatidagi maqomini tobora mustahkamlab bormoqda. Antroposentrik paradigmanning shakllanishi **til sohibi – so'zlovchi shaxs** omilini tadqiq etish bilan bog'liqdir. Tilshunoslikda antroposentrik burilishning yuzaga kelishi strukturalizmning tilni tadqiq etishning "o'zida va o'zi uchun" tamoyilini chetga surib, asosiy e'tiborini shaxs omiliga qaratdi. Taniqli rus tilshunosi Y.N.Karaulov til va shaxs masalalariga bag'ishlangan maqolalar to'plamiga yozgan so'zboshisida «Har qanday matn ortida lisoniy tizimlarni egallagan muayyan **shaxs** turadi» degan fikrni alohida ta'kidlagan edi. Bugungi kunda lisoniy faoliyat bajaruvchisi bo'lgan **shaxs** omilini o'rganish yuqorida qayd etilgan tilshunoslik sohalari, xususan, psixolingvistikada chuqurlashib bormoqda.

Tilshunoslikda matnni **psixolingvistik jihatdan** o'rganish o'ziga xos tarixiga ega. Ayniqsa, tilshunoslari I.Lisakova, A.Leontev, N.Evchik, A.Shtern, T.Drozdovalarning bu boradagi tadqiqotlari diqqatga sazovor. Bu yo'nalishdagi ishlarda matnning yaralishi va tushunilishi (persepsiysi) bilan bog'liq jarayonlar, ya'ni inson psixologiyasi va matn yaratish qobiliyati o'rtaсидаги bog'liqligi masalalari ko'rib chiqiladi.

Matnning antroposentrik mohiyati psixologiya va lingvistika sohalari kesishuvi natijasida yuzaga kelgan psixolingvistikada yorqinroq namoyon bo'ladi. Psixolingvistik tadqiqotlarda matnning matn tuzuvchi – matn – retsipyentdan iborat uchlik nuqtayi nazaridan tadqiq etilishi unda shaxs omilining rolini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Psixolingvistikaga doir ko'plab tadqiqotlar yaratgan rus tilshunosi va psixologi V.P.Belyanin "Osnovi psixologicheskoy diagnostiki (modeli mira v literature)" nomli asarida matnga lingvistik va psixologik yondashuv haqidagi o'z konseptsiyasini yaratdi.

Yana bir tilshunos A.Novikovning fikriga ko'ra, matn yaxlitligi faqat uning mazmuniy tuzilishiga xosdir. A.Novikovning ushbu xulosasi psixologik va kognitiv nuqtayi nazardan to'g'ri bo'lsa-da, matnning tashqi tuzilishi – sintaktik-struktur jihatini e'tiborga olmaganligi bilan munozaralidir. Zero, matn yaxlitligini uning ichki tuzilishigina ta'minlamaydi. A.Novikov matnning psixolingvistik belgilari qatorida axborot siqiqligi (kompressivnost)ni ham qayd etadi.

Matnni psixolingvistik aspektda o'rgangan Y.A.Sorokin uning bog'lanishli va yaxlitlikdan iborat belgilariga quyidagi tarzda yondashadi: "Matn yaxlitligi psixologik nuqtayi nazardan retsipyent va matnning o'zaro munosabati jarayonida yuzaga keluvchi yashirin proyeksiyon (konseptual) holatdir, shuningdek, bog'lanishli til/nutq qurilishi unsurlari barobarida uning qurilish unsurlari bo'limgan qismlarning o'zaro hamkorligi natijasi hamdir.

Yurtimizda ham bu yo'naliishda ishlar yuzaga kelmoqda. Xususan, I.Azimovaning nomzodlik dissertatsiyasida psixolingvistikadagi matnning mazmuniy persepsiyasiga oid umumnazariy qarashlar sharhi berilgan, matnni tushunishga ta'sir etuvchi lingvistik va ekstralengvistik omillar psixolingvistik tajribalar asosida aniqlanib, matnni tushunish jarayonining darajalari ko'rsatilgan, shuningdek, ishda matnning mazmuniy persepsiyasidagi birliliklar aniqlanib, ularning formal-semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, D.Xudoyberganovaning "Matnning antroposentrik tadqiqi" kitobida ham psixolingvistika va uning predmeti, obyekti haqida fikrlar bayon etilgan<sup>51</sup>.

Aytish joizki, ilmiy paradigmaga "til egasi" kategoriyasining kiritilishi tilshunoslikda shaxs, lisoniy ong, tafakkur, faoliyat, mentallik, madaniyat kabi tushunchalarning yanada faollashishini taqozo etadi. Shaxs omilining tadqiqi tilshunoslik fanining psixologiya, falsafa, mantiq, madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan bir nuqtada kesishishiga ham olib keladi.

"Til egasi" tushunchasi hozirgi vaqtida quyidagi ma'nolarda ishlatilmoqda:  
a) muayyan tilda nutqiy faoliyatni amalga oshiruvchi, ya'ni nutq tuzish va uni idrok etish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxs; b) tildan muloqot vositasi sifatida foydalanuvchi shaxs, kommunikant; v) o'z millatining milliy-madaniy, ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi lug'at tarkibini egallagan, uni namoyon etuvchi shaxs; muayyan til vakili. Hozirgi tadqiqotlarda tilshunoslikning turli yo'naliishlari shaxs omili masalasiga o'z xususiyatidan kelib chiqib yondashmoqda.

Yana shu narsani ta'kidlash lozimki, tadqiq obyektimiz bo'lgan matn yaratilishi va uning mazmuniy idroki masalasi bevosita psixolingvistik omillarga ham daxldor hisoblanadi. "Psixolingvistika asoslari" kitobining mualliflari I.N.Gorelov, K.F.Sedovlarning ta'kidiga ko'ra, psixolingvistika tilshunoslikdagi *antroposentrik yo'naliishning yadrosini* tashkil etadi.

XXI asrning dastlabki yillardan o'zbek tilshunosligida antroposentrik

<sup>51</sup> Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. – Т. Фан, 2013.

paradigma asosida bajarilgan tadqiqotlar, asosan, quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirildi: 1) sotsiolingvistika; 2) kognitiv tilshunoslik; 3) lingvistik pragmatika; 4) psixolingvistika; 5) antroposentrik paradigmaning umumnazariy masalalari. Bu tadqiqotlar o'zida antroposentrik paradigma tamoyillarini aks ettirgan dastlabki ishlar hisoblanadi.

S.M.Mo'minovning "O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o'zbeklarning o'ziga xos muloqot xulqi ijtimoiy-lisoniy nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Tadqiqotdan muloqot xulqining milliy xarakter bilan aloqador jihatlari haqida, shuningdek, uning inson psixologiyasi va fiziologiyasi bilan bog'liqligi xususidagi qarashlar ham o'rinni olganki, buni til tizimiga antroposentrik yondashuv sifatida baholash mumkin. Olim muloqot nutqi haqidagi ishlaridan birida, jumladan, shunday yozadi: "Muloqot xulqi muammosini milliy xarakter, millat aholisining o'ziga xos urf-odatlari, qadriyat va an'analarini hisobga olmasdan turib mutlaqo o'rganish mumkin emas. Chunki muloqot xulqi millat xarakterining uzviy bir qismi bo'lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir"<sup>52</sup>.

S.M.Mo'minov o'z tadqiqotida muloqotning psixolingvistik aspektini tahlil qilar ekan, tilning insonga ta'siri uning vazifalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi: "Muloqot inson psixologiyasi va fiziologiyasi bilan chambarchas bog'liq hodisadir. Chunki har qanday nutq tafakkur bilan, tafakkur esa ruhiyat bilan bog'liqdir. Tanani ruh boshqarib turadi. Demak, ruhga ta'sir etgan har qanday narsa tanaga ham ta'sir etadi. Bularning hammasi muloqotning psixofiziologik aspektini tashkil etadi"(O'sha manba: 73-b.).

I.Azimovaning "O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi" nomli tadqiqotida asosiy e'tibor "matnni tushunishga ta'sir etuvchi lingvistik va ekstralolingvistik omillarni psixolingvistik tajribalar asosida aniqlash, matnning mazmuniy persepsiyasidagi birliklarni aniqlash va ularning formal-semantik xususiyatlarini tahlil qilish"ga qaratilgan. Olima yo'naltirilgan assotsiativ tajriba usuli yordamida gazeta matnlari persepsiysi bo'yicha quyidagi darajalarni belgilaydi: assotsiativ daraja, leksik-morfologik daraja, kontekstual daraja, struktural daraja va matn darjasи. Tadqiqotchi bunda "stimul matndagi lisoniy omillar, matndagi so'zlarning aynan eslab qolinishi, eslab qolning so'zlarning kontekstual ma'nolarining konkretlashishi, stimul matnga xos mazmuniy strukturaning shakllanishi va yaxlit matn proyeksiyasining hosil bo'lishi"ni matn idrokidagi asosiy jarayonlar sifatida belgilaydi. I.A.Azimovaning fikricha, so'z, so'z shakli, so'z birikmasi va sintagma matn mazmuniy idrokidagi birliklar hisoblanadi.

I.Azimovaning mazkur ishi o'zbek tilshunosligida gazeta matnlari idrokining birinchi marta psixolingvistik tajribalar asosida tadqiq etilganligi bilan e'tiborga molikdir. Tadqiqot o'zbek tilshunosligida matnni psixolingvistik tahlil etishga doir navbatdagi ishlar uchun ham nazariy, ham amaliy jihatdan muayyan ahamiyat kasb etadi.

<sup>52</sup> Мўминов С. Мулоқот нутқининг ҳудуд жиҳатдан хосланиши.– Фарғона, 2007. 39-b.

Psixolingvistika – til birliklari ortida yashiringan psixologik omillarni matnning lingvistik xususiyatlari bilan birga o'rganish sanaladi. V.Belyanin "Psixologik tashxis asoslari" (2000) kitobida yozganidek, "hamma joyda – fonetika, morfologiya, leksika va semantika, hatto ritmika, vazn, musiqa, grammatika va shakliy kategoriyalar ortida psixologik omillar yashiringan". Psixologiyada inson emotsiyasi affekt (kuchli, qisqa muddatli reaksiya), hissiyat (uzoq, turg'un reaksiya), kayfiyat, stress (ruhiy zarba) kabi turlarga bo'lib o'rganiladi.

V.Belyanin matnni psixolingvistik tahlillab quyidagi turlarga bo'lib tahlil etadi:

- a) yorug' matnlar;
- b) qorong'u matnlar;
- d) qayg'uli matnlar;
- e) quvnoq matnlar;
- f) murakkab matn va b.

Ma'lumki, insonning nutqiy qobiliyati uning miya o'ng yarimshari faoliyati bilan bog'liq. Nutq so'zlash, umuman, matn yaratish temperament bilan ham bog'liq. Bu nazariy va amaliy jihatdan o'z isbotini topgan. Olimlar ta'kidicha:

- 1) *sangvinik temperamentli* kishilar (yoshlar)da so'zlashganda tetiklik, jo'shqinlik sezilib turadi, ularidan yaxshi notiqlar yetishib chiqish ehtimoli baland bo'ladi;
- 2) *flegmatik temperamentli* kishilar (yoshlar) nutqida biroz sustkashlik kuzatilishi, ular kamgap bo'lishi aytildi;
- 3) *melanxolik temperamentli* kishilar (yoshlar) nutqida sokinlik bo'lib, ularda tushunish, nutqiy vaziyatni his etish kuchli bo'ladi, lekin so'zlashda ishonchszilik bo'ladi;
- 4) *xolerik temperamentli* kishilar (yoshlar) da tez va shoshib-shoshib gapirish, o'z gapini o'tkazish, ma'qullah kuchli bo'ladi.

Ko'rindaniki, hech bo'limganida psixologiya fani alifbosidan ta'lim sohasida faoliyat olib boruvchilar, xususan, til imkoniyatlarini yoshlarga o'rgatuvchi mutaxassislar tanish bo'lishlari kerakki, bu ta'lim samaradorligini oshirishda, dars mashg'ulotlarini samarali tashkillashtirishda qo'l keladi.

Matn yaratish yoki uni tahlil etishda antroposentrik tilshunoslikning psixolingvistika sohasi nazariy-amaliy bilimlarini bilish hamda unga amal qilsh ko'zlangan maqsadni berishini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:***

1. Psixolingvistikaning psixologiya hamda lingvistikaga munosabati haqidagi fikrlaringizni bayon eting.
2. Nutq so'zlash, matn yaratishda temperament qay darajada ahamiyatli?
3. O'zbek tilshunosligida psixolingvistika bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilgan?
4. Psixolingvistika va matn, ya'ni matnda qahramonning ruhiy holatlari aks etgan parchalardan misollar keltiring.

### **Topshiriq.**

1. Matn tadqiqi bilan shug'ullangan olimlardan biri Y.Kubryakovaning "Inson o'ylab keyin gapiradimi yoki ikkalasi bir vaqtida amalga oshadimi?" tarzidagi fikriga izoh bering.

2. O'.Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasidagi qahramonlarning ruhiy kechinmalarini tahlilga torting.

**Topshiriq.** Badiiy adabiyotdan *yorug' matnlari*, *qorong'u matnlari*, *qayg'uli matnlari*, *quvnoq matnlari*, *murakkab matn* turlariga matn namunalari toping.

**Topshiriq.** Jonlantirish asosida tuzilgan quyidagi matn bilan tanishing.

*Nihoyat, qo'ng'iroq eliga bahor kirib keldi. U ming xil noz, ming xil karashma bilan urush zahmatlari ezib tashlagan urush odamlarining yuragiga yashash ishqini soladi. Ularni erkaladi, sochlarini siladi, adirlarni qip-qizil lolalarga to'ldirdi, butun borliqqa go'zallik gilamini yoydi. Janjalkash, asabiy bo'llib qolgan odamlarning dimog'ini erkaladi, ularni qirlarga yetaklab chiqdi, ko'zlaridan o'pdi.* (N.Eshonqul, "Urush odamlari" qissasidan).

**Topshiriq.** "Tun bu – qush", "Yomg'ir bu – sir", "Dengiz bu – raqib", "Gul bu – qalb ", "Yolg'izlik bu – jallod" mavzularida jonlantirish asosidagi matn tuzing.

### **Foydalaniłgan adabiyotlar:**

1. Махмудов.Н. Тил тилсими тадқиқи. – Т.: Mumtoz so'z, 2017.
2. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.
3. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik – Т., 2019.
4. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. – Т.: Фан, 2013.

### **16-MAVZU. MATNGA LINGVOKULTUROLOGIK JIHATDAN YONDASHUV REJA:**

1. Lingvokulturologiya yo'nališining yuzaga kelishi.
1. Lingvokulturologiya antroposentrik tilshunoslikning yetakchi yo'nališi.
2. Matnda madaniy belgilari voqeligi.

**Tayanch tushunchalar:** *lingvokulturologiya, antroposentrik tilshunoslik, matn va shaxs, lingvistikva madaniyatshunoslik, matn va o'quvchi, matn va yozuvchi, psixologiya, psixolingvistika.*

Zamonaviy tilshunoslikning asosiy yo'nalişlaridan biri bo'lgan lingvokulturologiya XX asrning so'nggi choragida shakllana boshladi. Tadqiqotchilarining ta'kidlashicha, "lingvokulturologiya" termini V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan (Телия В.Н.Русская фразеология: семантический, pragmaticеский и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа "Языки русской культуры", 1996. – 288 с.).

Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida so'z borar ekan, tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.fon Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlaydilar

( Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.). Tilshunoslilikda bu sohaning shakllanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, U.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbitskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning fikrlari muhim rol o'ynaganligi ta'kidlanadi<sup>53</sup>

XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya dunyo tilshunosligidagi yetakchi yo'naliishlardan biriga aylanib ulgurdi. Lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o'rganuvchi fan bo'lib, u o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi.

Hozirgi vaqtida lingvokulturologiya, xususan, rus tilshunosligida eng rivojlangan yo'naliishlardan biri bo'lib, bu borada bir qancha o'quv qo'llanmalar yaratilgan. Tilshunoslarning e'tirof etishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A.Maslova tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma hisoblanadi<sup>54</sup>. Mazkur o'quv qo'llanmada lingvokulturologiya sohasining metodlari, obyekti va predmeti, yo'naliishlari yoritib berilgan, muyyan til birligini lingvokulturologik tahlil qilish namunalari ko'rsatilgan.

"Til va madaniyat" masalasi ko'p qirrali bo'lib, unga tarixchi, tilshunos, faylasuf, psixolog, etnograf va adabiyotshunos turlicha yondashadi. Til va madaniyat aloqadorligi, madaniy belgilar, mental xususiyatlarning tilda ifodalanish darajasini *lingvokulturologiya* o'rganadi.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda, asosan, quyidagi masalalar tadqiq etilganini ko'rish mumkin: 1) muayyan nutqiy janrning lingvokulturologik xususiyatlari. Bunda ko'pincha miflar, xalq og'zaki ijodiga xos janrlar tili tahlil etilgan; 2) muayyan uslubda yozilgan asarda lingvokulturologik konsept ifodalanishi tadqiqi. Bunda asosan badiiy-nasriy asarlar tili tahlil etilgan; 3) qiyosiy aspektidagi ishlar. Bunda asosan rus tilidagi lingvomadaniy birliklar ingliz, nemis, fransuz tillari bilan qiyoslangan; 4) lingvokulturologiyaning pedagogika fani bilan bog'liq jihatlari. Bunda talabalarda lingvokulturologik birliklarni aniqlash va tahlil etish malakasini hosil qilish asosiy maqsad qilib olingen.

Professor N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antroposentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi. Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo'lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: "Til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish

<sup>53</sup> Qarang: Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. Вып. 7. 2004. – С. 238-243.

<sup>54</sup> Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие. – М.: Academia, 2001. – 208 с.

orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (*nutq madaniyati*)" emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmuyi (*madaniyat tarixi, o'zbek madaniyati*)" demakdir. Shunday bo'lgach, nutq madaniyatining o'rganish muammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o'rganish obyekti tamoman boshqadir"<sup>55</sup>.


Shuningdek, tilshunos olima D.Xudoyberganovaning "Matnning antroposentrik tadqiqi" (2013) monografiyasida o'zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlari ham ma'lum ma'noda o'rganilgan. Unda pretsedent birliklar va lingvomadaniy birliklarning matn yaratilishidagi o'rni, o'xshatish mazmunli matnlar, metaforalarning matn yaratilishidagi o'rni, jonlantirish asosida matnlarning lingvokulturologik xususiyatlariga alohida e'tibor berildi.

Lingvokulturologiyaning tadqiqot yo'nalishlari sifatida quyidagilar aytildi:

1. Sinxron lingvokulturologiya. Bunda bugungi kunda muayyan bir millat tilida namoyon bo'ladigan madaniy xususiyatlari tadqiq etiladi.
2. Diaxron lingvokulturologiya. Tilda saqlanib qolgan qadimgi urf-odatlar, an'analar, ularning nomlari, madaniyat bilan uyg'unlikda tadqiq qilinadi.
3. Qiyosiy lingvokulturologiya. Bir til oilasiga mansub (masalan: o'zbek, qozoq, turk, qoraqalpoq va b. tillarida mavjud) lisoniy-madaniy xususiyatlarning o'xhash va farqli jihatlari o'rganiladi.
4. Chog'ishtirma lingvokulturologiya. Turli (noqardosh) tillarning lingvomadaniy xususiyatlari chog'ishtirilib o'rganiladi. (Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. 2018). (Qarang: 4-chizma).

---

<sup>55</sup> Маҳмудов Н. Тилнинг муқаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти.– Т., 2012. – № 5. – Б. 10.



Lingvokulturologiyaning bevosita matn bilan bog'liq jihatiga kelsak, shuni aytish lozimki, matn ham boshqa til birliklari qatorida bu sohaning tadqiq obyektlaridan biri hisoblanadi. "Lingvokulturologiya" kitobining muallifi V.A.Maslova bu borada quyidagicha yozadi: "Matn tilshunoslik va madaniyatning haqiqiy kesishuv nuqtasidir. Zero, matn til hodisasi va uning oliy sathi hisoblanadi, shu bilan birga, u madaniyat mavjudligining amal qilish shakli hamdir. Lingvokulturologiya esa tilni madaniy qadriyatlar ko'zgusi sifatida tadqiq etadi". V.A.Maslovaning, xususan, o'xshatish- matnlar haqidagi fikri ham e'tiborga molikdir. Olma o'xshatishlarning matn yaratilishidagi o'rniliga yana to'xtalib, ular matnda struktur-kompozitsion vazifani bajarishi va matn mohiyatini ta'minlovchi vosita maqomida bo'lishini aytadi. Kuzatishlar natijasida aytish mumkinki, o'xshatish va uning qisqargan shakli bo'lgan metaforalar matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyat kasb etishi bilan birga, til egalarining milliy-madaniy tafakkuriga xos jihatlarni ham namoyon etuvchi hodisa bo'la oladi. O'xshatish va metaforalar asosiga qurilgan matnlar muayyan tilda qoliplashgan matn shakllari (ularni matnning pretsedent shakllari tarzida ham baholash mumkin)ni aniqlash imkoniyatini ham beradi.

**Matnda o'xshatishlar.** Har bir xalqning o'ziga xos o'xshatishlari mavjud. Mazkur o'xshatishlarda shu xalqning mentaliteti, o'zligi, hodisalarga munosabati namoyon bo'ladi. Bir xalqqa xos o'xshatish boshqa xalqqa ham aynan shu tarzda bo'lavermaydi. Bu har bir xalqning tafakkuri, inson ongida olamning lisoniy manzarasi voqelanishi bilan bog'liq. Masalan, o'zbek xalqi (umuman, barcha turkiy xalqlar) uchun yuzning oyga qiyosi (*oy yuzli dilbar, oydek qiz* va b.) ijobjiy hol. Ammo rus xalqi uchun bu hol odatiy holat emas. Rus xalqi uchun oy "sovuqlik ramzi" sanaladi. Sochlarni "qirov"ga o'xshatish biz uchun me'yoriy hol bo'lsa, Afrika xalqi esa oqorgan sochlarni sutga qiyoslaydi. Sochning qoraligini o'zbek xalqi "tun", inglizlar "zog" (qush),

qozoqlar "ko'mir", ruslar "qorasaqich"ga o'xshatadi. Arab xalqi o'ta go'zal ayollarini urg'ochi tuyaga qiyoslasa, ingliz, fransuz xalqi uchun tuya "qaysarlik, zulm, alamzadalik" ramzi sanaladi yoki o'zbek xalqida qizlarning chiroyli yurishini "bedana yurish"ga, hindlar esa "fil yurish"ga, braziliyaliklar chiroyli ko'zlarni sigirning ko'ziga, qirg'izlar esa Issiqko'lga qiyoslashsa, o'zbek xalqi "ohuko'z", "quralayko'z" ko'chimlarini qo'llaydi. Ko'rinaradiki, har bir xalq o'xshatishlari bilan ham farq qiladi. Bularga e'tibor qaratish esa matn tadqiqi davomida zarur sanaladi.

**Pretsedent birliklar.** Lingvokulturologiyadagi matn bilan bog'liq yana bir hodisa bu – pretsedent matn masalasiidir. Tadqiqotchi O.E.Artemovaning so'zlari bilan aytganda, pretsedent janrlar – madaniy axborotning "akkumulyatori"dir<sup>56</sup>.

Pretsedent birliklar til tizimini tadqiq etishning yetakchi yo'naliishlaridan biri bo'lgan lingvokulturologiyaning asosiy o'rganish obyektlaridan biri hisoblanadi. Mazkur birliklarga bag'ishlangan tadqiqotlarda qayd etilishicha, pretsedent termini tilshunoslikda birinchi marta Y.N.Karaulov tomonidan qo'llangan. Ayrim tadqiqotlarda pretsedentlik intertekstuallikning bir turi sifatida qayd etilgan. Pretsedentlik intertekstuallikning namoyon bo'lish shakllaridan biri bo'lib, til sohiblarining asosiy qatlamiga yaxshi tanish ekanligi, nutqda qayta-qayta qo'llanishi bilan xarakterlanadi. Bunday jumalalarga nisbatan "qanotli so'zlar" atamasi ham qo'llanadi.

O'zbek xalqiga xos pretsedent birliklar sifatida "Siz o'shami", "Otamdan qolgan toshyna qani", "Shipiyonlar haqida", "Otamni uylantiraman deydi", "Befon yozamiz", "Bir qarich til kerakmasmi?", "O'nta qo'y nima bo'ladi" va b.larni aytish mumkin. Yoki Alpomish, Go'ro'g'li, Shiroq, To'maris, Muqanna, Mahmud Torobi, Amur Temur, Jaloliddin Manguberdi, Bobur, Navoiy, Nodira, Mashrab, Furqat, Fitrat, Cholpon, Usmon Nosir, Qodiriy, Oybek, Qahhor, E.Vohidov, A.Oripov, M.Yusuf va boshqa ko'plab vatandoshlarimiz pretsedent nomlar bo'lib keladi.

V.Maslova bunday so'zlarga nisbatan "muayyan millat vakillariga yaxshi tanish bo'lgan shaxs nomlari" deb baho bersa, Y.Karaulov "birdan ortiq shaxsga tegishli bo'lgan, qayta-qayta murojaat qilinadigan matn" deya yozadi.

---

<sup>56</sup> Артемова О.Е. Лингвокультурная специфика текстов прецедентного жанра "лимерик": На материале английского языка: ДКН – Уфа: БашГУ, 2004. – С. 24.

## SHIPIYONLAR HAQIDA



SIZ O'SHAMI?..



Konsept ham lingvokulturologiyada eng faol qo'llanuvchi birliklaridan sanaladi. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi. Masalan, *uy* konsepti o'zbek kishilarining tafakkurida quyidagicha assotsiatsiyalarini:

- a) yashash joyi – bino – ko'p qavatli uy – hovli – xonardon – oila;
- b) katta, kichik, chiroqli, shinam, yorug', yangi, eski;
- v) mehribonlik uyi, dam olish uyi, madaniyat uyi.

Ko'chma ma'noli birliklarni yuzaga chiqaradi: *uy ichi* "oila a'zolari", *uyi buzilmoq* "er-xotinning ajralishi", *uyi kuymoq* "xonavayron bo'lmoq".

Lingvomadaniy konsept etnomadaniy xususiyatga ega bo'lgan va borliq haqidagi funksional ahamiyatga molik informatsiyani uzatadigan madaniyatning asosiy birligidir. U madaniy universaliyalarni ifodalaydi. Lingvomadaniy konsept tafakkurda mavjud bo'ladi, u o'zida kognitiv-ratsional va emotsiunal-psixologik mazmunni biriktiradi. Lingvomadaniy konsept barcha til egalari uchun dunyoqarash modeli vazifasini o'taydi. Lingvomadaniy konsept milliy xarakterning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi madaniyat vositasi ham hisoblanadi.

Konsept har bir jamiyatning o'ziga xos etik, estetik, mantiqiy va milliy an'anaviy turmush tarzi xususiyatini ifoda etuvchi termin hisoblanadi. Tushuncha konseptning bir qisminigina ifoda eta oladi. O'.Yusupovning ta'biri bilan aytganda, "*Konsept bilan tushunchani aysbergga o'xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo'lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir.*"

#### LEKSIK MA'NO VA KONSEPT

- ⊗ So'zning leksik ma'nosini va konseptning farqi ularning kategorial mavqeyida ko'rindi. So'zning leksik ma'nosini tilning semantik maydoni birligi hisoblanadi, konsept esa inson tafakkuri mahsuli bo'lib, nutq orqali fikrni bayon qilish jarayonini amalga oshirishda ishtirok etadigan ifoda formasi hisoblanadi.
- ⊗ Konsept termini so'z ma'nosining mohiyatidan kengroqdir. Konseptlar millat tarixining rivojlanishi mobaynida ham o'z strukturasi va shu strukturani tashkil qiluvchi belgilarni yo'qotmaydi.
- ⊗ Konsept doimo shaxs bilan bog'liq. Konsept o'z ichiga so'zning leksik ma'nosiga xos ravishda intellektual, hissiy, estetik axborotni olishi, terminga xos ensiklopedik axborotni qamrab olishi mumkin. Ammo konsept na leksik ma'no va na tushuncha emas. U alohida bir xalq, ijtimoiy sinf, alohida maktab yoki aynan bir individning borliqdagi predmet yoki hodisaga bo'lgan qarashlari asosida yuzaga kelgan mental hodisadir.

Non, osh, tuz konseptlari:

- ⊗ Non, osh, tuz konseptlari milliyligimiz, madaniyatimiz belgisidir. Non, osh, tuz konseptlari o'zaro taomligi, oziq-ovqatligi, rizq-nasiba, tirikchilik ma'nolari bilan birlashadi. Ushbu tushunchalar eng ulug', eng aziz ne'mat sifatida xalqimizning qon-qoniga singib ketganki, hatto mana

shu konseptlar zamirida *tilak bildirish, duo, qarg'ish* ma'nolari ham shakllangan.

- ⊗ *kartoshka* konsepti madaniy o'ziga xos konseptlardan biri hisoblanadi. Kartoshka ruslar uchun nochor ovqatlanish etaloni, buni *сидеть на одной картошке* frazeologizmi misolida ham ko'rish mumkin; beloruslar uchun odatiy milliy taom, ikkinchi non, muhim ozuqa hisoblanadi. Yoki *non* konseptini olsak, o'zbeklar uchun non muhim ozuqa etaloni hisoblansa, koreys, yapon, xitoy xalqlari uchun muhim ozuqa hisoblanmaydi. Ular uchun *guruch* asosiy ozuqa etaloni sanaladi.

Xullas, ko'plab tadqiqotchilarning e'tirof etishicha, lingvokulturologiya antroposentrik paradigmanning yetakchi yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bu yo'nalishni nazariy jihatdan boyitish, kelgusi tadqiqotlarni aynan shu soha bilan uyg'un tarzda amalgam oshirish tilimiz hamda madaniyatimiz yutuqlaridan bo'la oladi, albatta.

#### *Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:*

1. Lingvokulturologiyaning obyekti va predmeti haqida nima deya olasiz?
2. Sinxron lingvokulturologiyaning o'rganish obyekti haqida nimalar bilasiz?
3. Diaxron lingvokulturologiya haqida gapiring.
4. Qiyosiy lingvokulturologiya haqida, uning o'rganish obyekti bo'yicha nimalar bilasiz? Misollar bilan tushuntiring.
5. Chog'ishtirma lingvokulturologiya nimani o'rganadi?
6. Konsept termini so'z ma'nosining mohiyati haqida gapiring.
7. So'zning leksik ma'nosi va konseptning farqi qanday?
8. Pretsedent birliklar qanday so'zlar?
9. Umumiy pretsedent birliklar haqida nimalar bilasiz?
10. Matnda madaniy belgilar voqeligi deganda nimani tushunasiz?

#### **Topshiriq.**

1. V.Demyankovning "Tilshunoslik maydonida start olgan tadqiqotchi finishda "qo'shma fanlar" manziliga yetib keladi" tarzidagi qarashini izohlang.

2. Badiiy asardan madaniy belgilar mujassam parchalardan namunalar keltiring.

**Topshiriq.** Quyidagilar bilan tanishing. Shunga bog'liq yana qanday fikrlarni bilasiz?

Rus madaniyatida *it* (salbiy hodisalar bilan bir qatorda) sodiqlik, vafodorlik, oddiylikni assotsiatsiyalaydi. Jumladan, *собачья верность, собачья преданность, собачья жизнь* kabi frazeologik birliklarda mazkur xususiyatlар o'z aksini topgan; beloruslarda *it* salbiy xususiyatlarni ifodalaydi. O'zbeklarda va qator boshqa turkiy xalqlarda *it* haqoratni bildiradi. Ruslarda *cho'chqa* a) ifloslik, b) nonko'rlik, v) tarbiyasizlikni; inglizlarda *pig* ochofatni, o'zbeklar, qirg'izlar, qozoqlar va boshqa musulmon xalqlarida *cho'chqa* sof diniy nuqtayi nazardan o'ta haqoratni ifodalaydi; vietnamlarda *cho'chqa* ahmoqlik ramzi bo'lib keladi.

**Topshiriq.** Lingvokulturologiya bilan bog'liq quyidagi fikrlarni kuzating hamda munosabat bildiring.

*Madaniy meros* – madaniyat uchun ahamiyatli bo'lgan madaniy boyliklar, informatsiyaning berilishi.

*Madaniy an'analar* – ijtimoiy va madaniy merosning qimmatli unsurlari majmuyi.

*Madaniy jarayon* – madaniyat hodisalari tizimiga aloqador bo'lgan unsurlarning o'zaro ta'siri.

*Mentallik* – milliy xarakterning intellektual, ma'naviy va iroda xususiyatlarini o'zida birlashtiradigan, ona tili kategoriyalari va shakllaridagi dunyoqarashning ko'rinishi. Mentallikning birligi mazkur madaniyatning konsepti hisoblanadi. A. Y. Gurevichga ko'ra, mentallik – dunyoni ko'rish yo'lli, u g'oya bilan o'xshamaydi. Mentallik falsafiy, ilmiy yoki estetik tizimlar emas, u fikr emotsiyadan qismlarga ajralmagan jamiyat tafakkurining darajasi. Xalq mentalligi tilning muhim konseptlarida dolzarblashadi.

*Mentalitet* – (nem. mentalität < lot. mens, mentis – aql, idrok) jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, madaniy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlardagi aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati.

**Topshiriq.** Konsept haqidagi quyidagi fikrlar bilan tanishing, munosabat bildiring.

**S.A.Askoldov:** "Bu bir tur yoki boshqa turdag'i tushunchalar haqidagi fikrlash jarayonini o'zida aks ettiradigan birlikdir".

**N.D.Artyunova:** "Inson va dunyo o'rtasidagi bog'liqlik o'rnatadigan madaniy qatlamni o'zida namoyon qiladi".

**S.G.Vorkachev:** "Tildagi o'z ifodasi va lingvokulturologik spetsifikasiga ega tushuncha, tasavvur va bilimlar to'plamidir".

**Y.N.Shvedova:** "Konsept tushunchasi ortida ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o'z tarixiy ildizlariga ega bo'lgan mazmun turadi".

**D.S.Lixacheva:** "So'zning lug'at ma'nosi bilan insonning o'z milliy qarashlari to'qnashuvi natijasida hosil bo'ladigan fikrlash jarayonining mahsuli".

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. – Т., 2011
2. Маҳмудов Н. Тилнинг муқаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2012. № 5. 3-16-б.
3. Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебник. – М.: Academia, 2001.
4. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.
5. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik – Т., 2019.
6. Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Т.: Turon zamin ziyo, 2015.
7. Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. – Т.: Фан, 2013. – 136 б.
8. Xolmanova Z., Saydahmedova O., Nurullayeva O. Lingvokulturologiyaga oid

ayrim tushunchalar tadqiqi. – T., 2017.

## 17-MAVZU. MATNGA SOTSIOLINGVISTIK JIHATDAN YONDASHUV REJA:

1. Sotsiolingvistika, uning asosiy tushunchalari, bu boradagi ilmiy izlanishlar.
2. Sotsiolingvistika tilshunoslikning alohida sohasi sifatida. Matn va sotsiolingvistika.

**Tayanch tushunchalar:** *sotsiolingvistika, sotsiolingvistika obyekti, sotsiolingvistika predmeti, lakuna, lingvistik geografiya, lingvistik atlas, kartalashtirish, realiya, sleng, koyne.*

Sotsiolingvistikaning dastlabki ilmiy asoslari XIX–XX asrlardagi bir qator olimlarning ishlarida o’rganildi. Biroq “sotsiolingvistika” termini keng miqyosda 1952-yilda (dastlab amerikalik tadqiqotchi X.Karri tomonidan qo’llangan) paydo bo’lganligi qayd etiladi. Tilning ijtimoiy turli-tumanligi haqidagi dastlabki fikrlar XVII asrning boshlarida vujudga keladi. Bu borada Gonsalo de Korreas tilning ijtimoiy turli-tumanligi xususida shunday yozgan: “Tilda viloyatlardagi dialektlardan tashqari, mazkur viloyatlarda yashovchilarining yoshi, mavqeyi, mol-mulki bilan bog’liq ayrim shakllar ham mavjud bo’ladi. Bular: qishloq aholisi, avom xalq, shaharliklar, zodagonlar, saroy ahli, tarixchi olimlar, din arboblari, qariyalar, erkaklar, ayollar va hatto, bolalarning tillaridir”.

Sotsiolingvistika tilshunoslikning tilni va uning mavjud bo’lgan ijtimoiy sharoitlar bilan bog’liqligini o’rganadigan sohasidir. Aslidayam, til o’z asosini jamiyatdan, jamiyat esa tildan qidirgan. Til ijtimoiylikka ega. Sotsiolingvistika ijtimoiy sharoitlar, til egalarining yoshi, ijtimoiy mavqeyi, madaniyat va bilim darajasi, yashash joyi orasidagi farqlari, shuningdek, ularning muloqot vaziyatiga bog’liq bo’lgan nutqiy muomalasidagi farqlarni ham o’rganadi. Ko’rinadiki, sotsiolingvistika tilning jamiyat hayotidagi roli, uning ijtimoiy tabiat, ijtimoiy vazifalari, ijtimoiy omillarning tilga bo’lgan ta’sir mexanizmi bilan bog’liq masalalarni o’rganadigan tilshunoslik sohasidir. Sotsiolingvistika faqatgina ijtimoiy tilni, jamiyat nutqini kuzatish bilan emas, balki tilga munosabat ham bildirib boradi.

Til xalqning turmushi, moddiy va ma’naviy madaniyati, jamiyat a’zolarining ijtimoiy munosabatlarini o’zida xolis aks ettiradi. Buni esa sotsiolingvistika o’zida to’laroq aks ettiradi. Olimlar fikricha, sotsial lingvistika (sotsiolingvistika) til paydo bo’lishi, taraqqiyoti va yashashining, jamiyatning tilga va tilning jamiyatga bo’lgan ta’sirining ijtimoiy shartlanganligini o’rganuvchi tilshunoslik yo’nalishidir.

**Sotsiolingvistikaning obyektini** belgilashda tilshunoslар turlicha yondashadi. Tilshunoslarning bir guruhi butun tilga tegishli bo’lgan ijtimoiy jarayonlarni, til va jamiyat munosabatlarida o’rganadi, lekin bu jarayonda nutq

so'zlovchisiga, tilning kelib chiqishiga, uning umumiy xususiyatlariga munosabat bildirishmaydi. Boshqa bir guruh tilshunoslar esa turli tillarning individual variantliligiga va mikrojarayonlar (shaxslararo muloqot, kichik guruhlar muloqoti)ga e'tibor qaratishadi.

Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini, uning ijtimoiy vazifalarini, ijtimoiy omillarning tilga ta'sirini o'rganadi. Ta'kidlash lozimki, ikki yoki uch til amal qilayotgan jamiyatlarda sotsiolingvist quyidagi savollarga javob olishi lozim, ya'ni javob bera olishi kerak: Birinchidan, bu tillar ijtimoiy hayotning qaysi sohalarida qo'llaniladi? Ikkinchidan, mavqeyi va funksiyalariga ko'ra ular orasidagi o'zaro munosabat qanday bo'ladi? Uchinchdan, qaysi til "hukmronlik qiladi", ya'ni qaysi til davlat tili yoki asosiy muloqot vositasi sifatida rasman qabul qilingan va qaysi tillar so'zlashuv tili hisoblanadi? To'rtinchidan, ikki tillilik qanday sharoitlarda va qaysi shakllarda yuzaga keladi? Demak, sotsiolingvistikaning *obyekti* til yoki tillarning ijtimoiy faoliyati, ayni holatidir. Til muayyan ijtimoiy strukturaga ega bo'lgan jamiyatda faoliyat ko'rsatadi, sotsiolingvistikani tilni ijtimoiy kontekstda o'rganadigan fan deyish mumkin.

*Sotsiolingvistikaning predmetini* belgilashda nemis sotsiolingvistlari quyidagi fikrlarni bildirishgan. Jumladan, A.N. Dittmar sotsiolingvistikaning predmetini shunday izohlagan: "Sotsiolingvistika predmetini tilshunoslik va ijtimoiy fanlarning metodlaridan foydalanib: Kim kim bilan qaysi tilda, qanday ijtimoiy muhitda va qanday maqsadda gaplashyapti, nutq aktining oqibati qanday bo'ladi? degan qator savollarga javob beruvchi tarzida tushuntirish mumkin". D.Vunderlix sotsiolingvistikada alohida kommunikativ jarayonlarning ichida bevosita kuzatiladigan turli omillarning o'zaro aloqasining tadqiq etilishi, ya'ni jamiyatning ijtimoiy differensiatsiyasining qandaydir asos sifatida o'rganilishini, uni nutqiy muomalaning rol, vaziyat va mavzu turlariga ajraladigan sotsiologik o'chovlari bilan bog'lanishini istiqbolli yondashuvlardan biri, deb hisoblagan.

Til tafakkur quroli ekan, jamiyatga, albatta, ijobiy ma'noda ta'sir ko'rsata olishi lozim. Sotsiolingvistika nutqimizga kirib kelayotgan yoki lug'at qatlamimizdan yo'qolib borayotgan so'z va iboralar bilan ham ish ko'radi. Sotsiolingvistika yo'nalishida *lakuna*, *koyne* (muloqot tili, yozma varianti bo'limgan kengayib borayotgan shahar tili), *sleng* (qo'pol, dag'al nutq), *realiya* (muayyan bir madaniyatga xos bo'lib, boshqa xalqlarga tarjima qilib bo'lmaydigan so'z va tushunchalar), shuningdek, "*lingvistik xarita*", "*geografik lug'at*" (muayyan bir millatga xos urf-odatlar lug'ati) kabi terminlar tez-tez qo'llanadi.

Lakuna termini franzuscha "bo'shliq, bo'sh joy, chuqurlik" demakdir.

- ⊗ Lakunar birliklar tushunchaning so'z ko'rinishidagi ifodasi mavjud bo'lmasligi natijasida yuzaga keladi. Lakunar birliklar muayyan madaniyatda mavjud tushunchani nomlaydi, bu tushuncha boshqa

madaniyatda ham mavjud, biroq shu tushuncha leksik birlik sifatida o'sha madaniyatning tilida voqelanmaydi.

- ☒ Lakuna termini XX asrning 70-80- yillaridan boshlab qo'llangan.
- ☒ J.P. Vine va J.Darbelne bu borada yozadi: "Bir tildagi so'z boshqa tilda muqobilini topa olmagan o'rnlarda har doim lakuna hodisasi voqelanadi".
- ☒ Lakuna masalasi birinchi bo'lib XV asrda Alisher Navoiy tomonidan o'rtaga tashlangan.
- ☒ Lakuna ichki va tashqi lakunaga ajratiladi. Bir til materiali asosidagi lakunalar ichki lakuna hisoblanadi. Til ichidagi lakunar birliklar kam o'rganilgan.
- ☒ Ikki va undan ortiq tillardagi lakunalar tillararo lakunani, ya'ni tashqi lakunani yuzaga keltiradi. Alisher Navoiy qarashlari tashqi lakunaga misol bo'ladi.

O'zbek shevalaridagi lakunlar birliklar: OLACHALPOQ – 1) qori erib, qorayib qolgan tog' yuza qismi; 2) quyosh nuri daraxt yaproqlari orasidan tushib turgan joy (Qashqadaryo, Dehqonobod). BASALQI – yoshida kam farqi bor aka -uka, opa-singillarga nisbatan ishlatiladigan so'z (Qashqadaryo, Dehqonobod). BORAK (burak) – yoshligida gul chiqib, vaqtida davolanmagani uchun yuzida dog' belgilari qolgan odam (Qashqadaryo, G'uzor). ESKAN (eskan) – ovqat, chang-to'zon, iqlim yoqmasligi sababli badanda toshib chiqadigan toshma shish (Qashqadaryo, Kasbi) ASHKIN (ashkin) – tishi tushgan, old tishi yo'q kishilarga aytildi: Yosh boshi bilan Qosim ham ashkin bo'libdi-ya! (Samarqand, Qo'shrabot, Qoratosh qishlog'i shevasi). BORVAJ (bo'rvoy) – oyoqning tizzadan songacha bo'lgan qismi (Qashqadaryo, Davtosh) BEBILCHAK (bebilchak) – oyoqning yuzi (Namangan, Uychi).

Lakunalarning til uchun ahamiyati quyidagicha:

- ☒ tilni ichki imkoniyatlar hisobiga boyitishga xizmat qiladi.
- ☒ Lakunlar birliklar turkiy tillarning, xususan, o'zbek tilining keng imkoniyatlarini namoyon etadi. O'zbek xalqi narsaning yoki hodisaning o'zinigina emas, uning qismlarini ham nomlaganini ko'rsatadi.
- ☒ Lakunlar birliklar matn mazmunini rang-barang ifodalashda amaliy ahamiyatga ega.

Lakunlar birliklarni ommalashtirish uchun quyidagi ishlarni yo'lga qo'yish lozim:

- ☒ Sheva so'zlari tarkibidagi lakunlar birliklarni aniqlash va lug'atini e'lon qilish. Shu lug'atlar asosida o'quv lug'atlarini yaratish.

- ☒ Lakunar birliklar yuzasidan tadqiqotlar olib borish.
- ☒ Yozuvchi va shoirlarning lakunar birliklardan keng foydalanishlarini yo'lga qo'yish.

**Lingvistik geografiya.** Tilshunoslik fanining har bir alohida til hodisasini tarqalish chegarasini aniqlaydigan sohasi bo'lib, uning ham asosiy tekshirish obyekti dialektologiya singari dialekt hisoblanadi. Chunki dialekt tarixan tarkib topgan territorial birlidir. Tilshunoslikning bu yo'naliishiga ulkan hissa qo'shgan olimlar sifatida V.V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, A.G'ulomov, S. Ibrohimov, F. Abdullayev, M. Mirzayev, A. Aliyev kabi oimlarni e'tirof etish mumkin.

**Lingvistik atlaslar** – maxsus programma – so'roqlik asosida tayyorlangan, ma'lum til yoki shevalarga xos xarakterli xususiyatlarining tarqalish chegarasini aks ettiruvchi lingvistik kartalar.

**Areallar** – mos hodisalar ayrim bo'laklarning lingvistik kartada tarqalish zonasini, ya'ni tilning dialektal farqlanishini anglatadi.

**Kartalashtirish** – lingvistik geografiyaning asosiy vazifasi – til hodisalarining territoriyaga tarqalishini kartalashtirish va tadqiq qilish hamda shundan kelib chiqqan muammolarni hal qilishdan iborat. Ma'lumki, jonli tildagi har bir lingvistik hodisa o'zining tarqalish chegarasiga, o'z hududiga ega. Tovush o'zgarishi bir sheva yoki dialektga xos bo'lsa ham, baribir, hudud jihatdan chegaralangandir.

Xullas, sotsiolingvistika til va jamiyat, tilning jamiyatdagi roli, jamiyatning tilga, tilning jamiyatga ta'siri masalalari bilan shug'ullanadigam soha hisoblanadi.

#### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:***

1. Sotsiolingvistika yo'naliشining paydo bo'lishi haqida nimalar bilasiz?
2. Sotsiolingvistikaning asosiy tushunchalari, bu boradagi ilmiy izlanishlar haqida fikr bildiring.
3. "Matn va sotsiolingvistika" atamasini izohlashga harakat qiling.
4. *Lakuna, koyne, slen, realiya, lingvistik xarita, geografik lug'at* atamalariga izoh bering. Misollar bilan izohlang.
5. Areal tilshunoslik va dialektologiya fanlarining o'ziga xos jihatlari haqida fikrlaringizni bayon eting.
6. Tilshunoslikning rivojida sotsiolingvistikaning xizmati qay darajada deb o'ylaysiz?

**Topshiriq.** Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida turkiy til va sart (fors-tojik) tilini solishtirar ekan turkiy tildagi ayrim tushunchalarning fors-tojik tilida ifodalanmasligi, madaniy bo'shliq hosil qilishi haqidagi mulohazalarini

bayon etadi. Manbadan foydalangan holda ushbu ma'lumotlar haqida ma'lumot bering.

**Topshiriq.** Ijtimoiy tarmoqlardagi so'zlashuvlar, ularning holati, tilning tozaligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan unsurlar haqida qisqa ma'ruza tayyorlang.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. – Т., 2011
2. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2012. № 5. 3-16-б.
3. Қурбонова М.А. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социопсихолингвистик тадқиқи. ДДА. – Т., 2009.
4. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.
5. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik – Т., 2019.
6. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. – Т.: Фан, 2013.
7. [www.ziyouz.com..](http://www.ziyouz.com..)

## 18-MAVZU. MATN TAHLILIDA GENDROLINGVISTIK JIHATDAN YONDASHUV REJA:

1. Gender tilshunosligining yuzaga kelishi
2. Erkak va ayollarga xos nutqiy birliklar.
3. Genderolingvistika – mustaqil yo'nalish sifatida.

**Tayanch tushunchalar:** gender, genderolingvistika, ayolar nutqi, erkaklar nutqi, ijtimoiy holat, ijtimoiy munosabat, shaxs tili va gender omillar.

Tilshunoslikning XX asrdagi taraqqiyotini va XXI asrdagi muhim yo'nalishlarini sotsiolingvistika, psixolingvistika, kompyuter lingvistikasi, kognitiv lingvistika kabi chegaradosh yo'nalishlar belgilab bergani bejiz emas, chunki bu sohalar tilni bevosita uni amaliyot bilan bog'lab o'rGANADI. Bu taxlit o'rGANISH tilshunoslikni yana bir bosqichga ko'tarishi bilan birga til haqidagi tasavvurlarni yanada oydinlashtirishga, uning strukturasini chuqurroq tahlil qilishga, tilning rivojlanishi, insondagi psixologik va fiziologik jarayonlarda tilning ahamiyati kabi masalalarni aniqlashtirishga yordam beradi. So'nggi paytlarda ommaviy axborot vositalari, xususan, matbuotimiz sahifalarida jinslararo munosabatlarga oid publisistik chiqishlar sezilarli darajada ko'paydi. Ayniqsa, ayollarning jamiyatdagi rolini oshirish ko'zda tutilgan mulohazalar ancha salmoqli. Bungacha ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda erishilayotgan eng jiddiy natijalar ham aynan jins tushunchasiga u yoki bu darajada taalluqli bo'lib kelyapti.

XXI asrda ilm-fanga kirib kelayotgan gender tadqiqotlarda ikki jinsning o'ziga xos va mushtarak tomonlari tadqiqi turli sohalar, jumladan, iqtisodiyot, huquqshunoslik, pedagogika, sotsiologiya hamda tilshunoslik kabi fanlarning

azaliy tarmoqlari negizida yangi bir yo'nalish sifatida rivojlanmoqda. Gender tilshunosligining asosiy tushunchalaridan biri gender stereotiplari atamasi hisoblanadi. Gender stereotiplari – bu ayol yoki erkakka xos barcha xususiyatlar tizimidir.

Gender – umumiy mazmuniga ko'ra erkak va ayollar o'tasidagi farq sanaladi. Ikkala jins vakillari nutqiy jihatlarini nemis tilshunosi Joul Oates "Ayol, erkak va til" nomli asarida izohlab beradi. Erkaklar o'tasidagi nutq ko'proq siyosiy mavzularda bo'lib, dunyoda bo'layotgan yangiliklar, sport va mashinalar haqida bo'ladi. Ular nutqida ko'proq bosiqlik, vazminlik kuzatiladi. Ayollar nutqida ko'proq kundalik turmush bilan bog'liq suhbatlar, uy-ro'zg'or, oila, kiym-kechak bilan bog'liq mavzular kuzatiladi, shuningdek, ular nutqida nolish, hasrat qilish hollari uchraydi. Ayollar o'z xursandchiligini yuqori darajadagi emotsiya, turli noverbal hodisalar bilan ifodalasa, erkaklar o'z xursandchiligini bosiqlik bilan ifoda etadi. Jahlga minish, haqorat qilish ko'proq erkaklarda kuzatiladi<sup>57</sup>

Albatta, erkaklar nutqida bosiqlik, vazminlik, ayollar nutqida esa nolish, hasrat yetakchilik qiladi, biroq bunday deb keskin xulosa chiqarish ham biroz nisbiy sanaladi. Bunday vaqtarda shaxsnинг ijtimoiy holatini ham inobatga olish kerak bo'ladi. Masalan, o'qimishli, ziyoli o'qituvchi ayol bilan bozordagi yoki uy bekasining nutqi o'zaro farqlanadi.

Gender tushunchasi quyidagilar bilan farq qiladi: 1. Erkaklarga xos gender stereotiplar. 2. Ayollarga xos gender stereotiplar. 3. Tashqi ko'rinish bilan bog'liq gender stereotiplari; 4. Xarakter xususiyati bilan bog'liq gender stereotiplari.

Erkaklarga xos gender stereotiplar hamda ayollarga xos gender stereotiplar o'zaro farqlanadi. Erkaklarning yuz a'zolari qismi ifodasini aks ettiruvchi gender stereotiplariga quyidagilar kiradi: *burgut ko'z, qirg'iy ko'z, lochin ko'z, o'tkir nigohli, burni katta, burgut burun, yuzi yalpoq, tirtiq, yonoqlari bo'rtib chiqqan, labi do'rdaygan, qoshlari qalin, jingalak sochli* kabi.

Masalan, "Shaytanat" asaridan misollarni kuzatamiz:

Bu qoraqosh yigit ko'zlarini sal suzib qarasa, uncha-muncha ayol zoti dosh berolmay qolardi (I kitob, 17-b.); Burni biroz puchuq, yuzi dumaloqdan kelgan, qalin qora qoshli odam xunuk ko'rinsa-da, bejirim burun, bejirim lab, bejirim yuzli odamlarga nisbatan istaraliroq edi. (I kitob, 29-b.); Giyohvand yigitlardan birining pastki labi osilgan, ko'zlari chaqchaygan, ikkinchisining qarashlari sovuq, o'ng yuzida uzun tirtig'i bor edi (III kitob, 210-b.); Videobar og'asi, chaqchaygan ko'zlaridan biron-bir ma'no uqish mushkul bo'lgan, qalin mo'ylovi turtib chiqqan tumshug'iga husn berish orniga battar xunuklashtirgan barzangi yigit(I, 63-b.).

Erkaklarning tana a'zolari qismi ifodasini aks ettiruvchi gender stereotiplariga quyidagilar kiradi: *bo'yni yo'gon, tepakal, qanshari pastroq, davangirday, shopmo'ylov, hamma yog'i yung, ingichka mo'ylov, cho'qqisoqol,*

<sup>57</sup> Мўминов С. Мулоқот нутқининг ҳудуд жиҳатдан хосланиши.–Фарғона, 2007.

*qo'ng'iz mo'ylov, sersoqol, alpqomat, bahaybat devday, barzangi, gavdali, oyoq-qo'li uzun, mitti, ixchamgina, davangirday, beli baquvvat, xushsurat, ko'rimsizgina, fildek, polvon, pahlavon, buqaday* kabi.

"Shaytanat" asaridan misollarni kuzatamiz:

Bu xirildoq ovoz boshiga gurzi bo'lib urilib, sapchib tushdi (I kitob, 7-b.); Bu xushsurat yigit, xotinini o'ldirib qamalib ketganidan keyin ham shuhrati so'nmagan... (III kitob, 17-b.); U uch boshli ajdarhoni yengish qasdida chiqqan ulovsiz, yarog'siz pahlavon holida edi. (II kitob, 201-b.); Saidqimorboz vodiyda beli baquvvat yigitlardan edi. (II kitob, 24-b.); ... qishloqqa tepakal bir o'ris jingalak sochlari oqarib ketgan bir o'zbek bilan kelib, Zohidni surishtirdi. (III kitob, 69-b.); ...choyni ichib ulgurmay, jussasi kichik, eti ustixoniga yopishgan, qaldirg'och mo'ylavi o'ziga yarashgan odam ko'rindi. ... Ozg'in, chayir bo'lgani uchun Kesak polvon.

Erkak kishiga nisbatan qo'llanuvchi nomlar orasida, ota semasini ifodalovchi leksik birliklar alohida e'tirof etiladi. Otaga yaqin oila a'zolari tomonidan murojaat qilinganida, odatda, uni ismini aytib chaqirish humatsizlik hisoblanadi. Ayollar turmush o'rtog'iga *otasi, dadasi, dadajonisi, bobojonisi, buvasi, bovasi* deb murojaat qilishadi.

O'zbek oilasida ayolning o'z eriga uning ismi orqali murojaat qilishi kam kuzatiladi. *Odam, bu kishi, aka* kabi leksik murojaatlarni, odatda, suhbatdoshlar davrasida ishlatsa, *begim, jonim, azizim* kabi murojaat shakllarini o'zaro suhbatda, faqat er-xotin o'rtasidagi muomalada qo'llaydi.

Ba'zida ayol kishi erkakka nisbatan murojaatning mavhum shaklidan foydalanishi kuzatiladi: – *Turing, hoy, turing, qudalaringiz kelishdi.* (T.Malik)

Gender tadqiqotlari lisoniy faoliyat subyektini ijtimoiy biologik maqomga ega bo'lgan shaxs sifatida ta'riflash maqsadini nazarda tutib, u sotsiolingvistikaning bir qismidir, deya aytish mumkin. Biroq mazkur yo'nalishning o'z obyekti va predmeti mavjudligini inobatga olish lozim. Gender atamasi har qanday jamiyatda erkak va ayol jinsiga xos bo'lgan shaxsga nisbatan anglashiladigan xatti-harakatlar va nuqtayi nazarlar birligidir. Gender yo'nalish markazida inson va uning nutqini tadqiq etish muhim sanaladi. Faqat bunda erkak va ayol nutqi o'zaro qiyosan tadqiq etilishi inobatga olingan bo'ladi.

Lingistik genderologik tadqiqotlardan ko'zlangan asosiy maqsad ayollar va erkaklar nutqiga xos bo'lgan, shuningdek, har ikkala jinsiga xos bo'lgan nutq ko'rinishlari kuzatiladi, tadqiq etiladi. Shaxs nutqining bu ikkala jins vakillari nutqi kuzatilganda ular nutqi o'rtasidagi fonetik, leksik-semantik, grammatik jihatdan farqlanishni yaqqol ko'rish mumkin.

Mutaxassislar ta'kidlaganlaridek, istalgan turdag'i shaxs nutqi genderologiya nuqtayi nazardan o'rganilganda muallif tomonidan amalga oshiriladigan til birliklari tanlovinga sotsial, etnomadaniy, sabablarini aniqlashga imkoniyat yaratiladi<sup>58</sup>.

E'tibor qaratish kerakki, bir millatga xos ayol va erkak nutqi boshqa

<sup>58</sup> Йўлдошева Д., Ортикова Х. Лингвоперсонология - тилшуноликнинг мустақил соҳаси. –Т.: Paradigma, 2018. 23-b.

millatda o'zgachalik kasb etishi mumkin. Masalan, o'zbek tilida faqatgina ayollarga xos so'zlashuvning gender xususiyatlari ayrim xorijiy tillarda ikkala jins vakillariga ham xos bo'lishi mumkin. Bu esa qiyosiy genderologiyaga yo'l ochishi va shunga mos tadqiqotlarni yuzaga keltirishi mumkin.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:***

1. Gender tilshunosligining yuzaga kelishi sabablari haqida nimalar bilasiz?
2. Erkaklarga xos nutqiy birliklar qatnashgan badiiy asarlardan misollar ayting.
3. Ayollarga xos nutqiy birliklarga misollar ayting.
4. Genderolingvistika mustaqil yo'nalish sifatida qaysi yo'nalishlar bilan bog'liq.

**Topshiriq.** Erkak va ayollar nutqiga xos jihatlar – lug'aviy va grammatik birliklar haqida fikrlaringizni bayon eting.

**Topshiriq.** Lisoniy portret deganda nima tushunasiz? Quyidagi misollarning muallifiga izoh bering. Nutq ortidagi shaxsni topishga harakat qiling.

1. “O'z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin”.

2. “Holo o'zi [Mavlono Muin Voiz] dag'i azim voizdurur va muridlari ko'p. Minbar ustida devonavor ilk tashlamog'i va taxtani tepmog'i ko'pdur, o'zin “Muin devona” bila ta'bir qilur va ko'p baland va past so'zlar aytur. Chun junung'a mu'tarif, har nav so'z aytsa mazurdur”.

3. “Tilingni yaxshi hunar bila o'rgatg'il va muloyim so'zdin boshqa narsani odat qilg'ilmag'il. Nedinkim, tilga har nechuk so'zni o'rgatsang, shuni aytur, so'zni o'z joyida ishlatgil, so'z agar yaxshi bo'lsa, ammo noo'rin ishlatilsa, garchand u har nechuk yaxshi so'z bo'lsa ham, yomon, nobop eshitilur”.

4. Shamollapti o'g'lingiz. Ichiray desam, sut yo'q, tomog'iga malham bo'lardi. Tog'dagi juvonalarining inak bo'lguncha kosamiz oqarmas ekan.

5. – Xudoyo ayamdi daydiga davo bergin...”

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Мўминов С. Мулоқот нутқининг худуд жиҳатдан хосланиши. – Фарғона, 2007.
2. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. –Т., 2019.
3. Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. – Т.: Фан, 2013.
4. Йўлдошева Д., Ортиқова Ҳ. Лингвоперсонология – тилшуноликнинг мустақил соҳаси. –Т.: Paradigma, 2018.

## 19-MAVZU. MATNGA PRAGMALINGVISTIK JIHATDAN YONDASHUV REJA:

1. Umumiy tilshunoslikda pragmalingvistikaning o'rganilishi.
2. O'zbek tilshunosligida pragmalingvistikaning o'rganilishi.
3. Badiiy matnlarning pragmalingvistik tahlili.

*Tayanch tushunchalar: pragmatika, pragmalingvistika, lingvistik pragmatika, lingvopragmatika, tagma'no, oshkora tagma'no, yashirin tagma'no, propozitsiya, nutqiy vaziyat, kontekst bilan aloqadorlik.*

"Pragmatika" (yunoncha pragma - ish, harakat, bajarilgan, ishga qobiliyati bor, ishchan) aslida falsafiy tushuncha bo'lib, u faylasuf Sokratdan oldingi davrlarda ham qo'llanishda bo'lgan va keyinchalik uni J. Lokk, E.Kant kabi faylasuflar Aristoteldan o'zlashtirganlar. Shu tariqa falsafada pragmatizm oqimi yuzaga kelgan. Bu oqimning asosiy taraqqiyot davri XIX-XX asrlardir. Ayniqsa, XX asrning 20-30-yillarida pragmatizm g'oyalarining keng targ'ibi boshlandi. Amerika va Yevropada bu targ'ibotning keng yoyilishida Ch.Pirs, R.Karnap, Ch.Morris, L.Vitgenshteyn kabilarning xizmatlarini alohida qayd etmoq kerak. Pragmatika haqidagi asosiy g'oya amerikalik olim Ch. Pirs tomonidan o'rtaqa tashlangan. Yana bir amerikalik olim Ch. Morris ushbu g'oyani rivojlantirgan va pragmatika terminini semiotika bo'limlaridan birining nomi sifatida amaliyatga kiritgan. Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida qamrab oluvchi nutq jarayoni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo'ladi. Lingvistik pragmatika aniq shakl va tashqi ko'rinishga ega emas.

Uning doirasiga so'zlovchi subyekt, adresat, ularning aloqa aralashuvidagi o'zaro munosabatlari, aloqa aralashuv vaziyati bilan bog'liq ko'plab masalalari kiradi. Nutq subyekti bilan bo'g'liq holda biror bir axborot yoki fikrni yetkazish, so'roq, buyruq, istak, iltimos, maslahat, uzr so'rash, shikoyat; nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari; suhbat, so'zlashish qoidalari, so'zlovchining maqsadi, so'zlovchi tomonidan adresatning umumiy bilim jamg'armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va boshqa hislatlariga baho berilishi; so'zlovchining o'zi bayon qilayotgan xabarga munosabati kabilar o'rganiladi. Pragmatikada nutq adresati, o'zaro aloqaga kiruvchilarning munosabatlari, muayyan aloqa vaziyati singari omillar bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Pragmalingvistikaning predmetini aniqlashga harakat qilganlardan yana bir tilshunos G. Klaus bo'lib, u pragmatikani "belgililar va ushbu lisoniy belgilarni yaratuvchi, uzatuvchi hamda qabul qiluvchi shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi" fan sifatida ta'riflaydi. Ushbu ta'rifdan ko'riniib turibdiki, pragmatikaning predmetini aniqlashda G. Klaus ham boshqa semiotiklar kabi belgi va uni idrok etuvchi interpretator munosabatidan uzoqlashmaydi, u "pragmatika dastlabki o'rinda lisoniy belgilarning

psixologik va sotsiologik tomonlarini o'rganuvchi nazariyadir" deb xulosa chiqaradi.

J.Layonz pragmalingvistikaning predmetini aniqlash va uning ta'rifini berishga harakat qildi: "Pragmatika tinglovchini uzatilayotgan axborotni xuddi so'zlovchi istaganidek qabul qilishga undash maqsadi uchun mos keladigan lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qo'llanishini tavsiflaydi. Pragmatika lisoniy vositalarning shaxslararo muloqatdagi rolini aniqlash bilan shug'ullanadi".

A.Kasherni pragmalingvistik tahlilning asosiy maqsadini "qo'yilgan maqsadga erishishda lisoniy vositalardan foydalanishni ta'minlovchi insonga xos bo'lgan qobiliyat qoidalarini" yoritish va tushuntirish deb ta'riflaydi.

Pragmalingvistika tilshunoslikning yo'nalishi sifatida 1970-yillardan tadqiqot obyekti sifatida o'rganila boshlangan. Albatta, tilning pragmatik tabiatи xususida qadimdan turli qarashlar bayon etilgan. Bu mavzu Suqrot, so'ng Aristotel davrida o'rganilgan bo'lib, fikr ifodalashda til bilan hamohang ravishda yordamchi vositalar ham ahamiyatli ekani, tilning asosiy vazifasi aloqa-aratashuv ekan, uni ro'yobga chiqarishda so'zlovchi va tinglovchi asosiy figura bo'lishi, notiqlik san'atida fikr uzatishda ovozning sifat o'zgarishlari, ovozning baland yoki past ifodalanishi axborotni uzatishda qo'shimcha nozikliklar berishi aytib o'tilgan edi. O'tgan asrning 20-30-yillarida falsafada alohida oqim sifatida pragmatizm g'oyalari ham targ'ib qilingan.

Pragmatika o'zbek tilshunosligida XXI asr boshlarida o'rganila boshlandi. Sh.Safarovning "Pragmalingvistika" ( - T., 2008), M.Hakimovning "O'zbek tilida matnning pragmatik tadqiqi" (DD. -T., 2001.), "O'zbek pragmalingvistikasi asoslari" (-T., 2013), M.Qurbanovning "O'zbek bolalar nutqining pragmatik aspekti" kabi asarlari bu yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan dastlabki monografik plandagi ishlar sanaladi.

M.Hakimovning "O'zbek tilida matnning pragmatik talqini" (2001) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o'zbek tilshunosligida lingvistik pragmatikaga oid nazariy masalalar birinchi marta monografik aspektida tadqiq etildi. Mazkur tadqiqotda lingvistik pragmatikaning tarixiy ildizlari, uning umumnazariy masalalari, ushbu yo'nalishning tilshunoslikning boshqa yo'nalishlari bilan munosabati haqida bahs yuritilgan, matn semantik tuzilishida qatnashuvchi pragmatik mazmun turlari o'zbek tilidagi matnlar misolida tadqiq etilgan.

M.Hakimovning mazkur tadqiqoti o'zbek tilshunosligidan hozirgi vaqtida antroposentrizmning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblangan lingvistik pragmatikaga doir tushuncha va terminlarning o'rın olishida muhim ahamiyat kasb etdi. Tadqiqot, xususan, nutqiy akt nazariyasi hamda matnning pragmasemantik masalalarini yoritib bergenligi bilan e'tiborga molikdir.

Dissertatsiyada lingvistik pragmatika nazariyasi tilning milliy o'ziga xosligini ko'rsatib berishda muhim rol o'ynashi alohida ta'kidlanadi: "Millatga bo'lgan hurmatning asl namunasi sifatida tilimizga davlat tili maqomining berilganligi o'zbek tili va unga xos milliy xususiyatlarni o'rganishga dunyo

xalqlari intilishining qiziqishi pragmatika nazariyasiga, uning mohiyatiga bo'lgan ehtiyojni yanada orttirmoqda. Sababi lingvistik pragmatika nazariyasi, ya'ni nutqning amaliy qo'llanishi bilan bog'liq hodisalar talqini o'sha tilga xos milliy o'ziga xoslikni anglash uchun qulay imkoniyatlar yaratadi".

Prof. Sh.Safarovning "Pragmalingvistika" nomli monografiyasi ham alohida o'rIN tutadi. Monografiyada Sh.Safarov til va nutq dixotomiysi, lisoniy faoliyat, lisoniy qobiliyat, diskurs kabi tushuncha va terminlar haqidagi jahon tilshunosligida mavjud fikrlarga munosabat bildiradi. A.Nurmonovning ta'kidiga ko'ra mazkur monografiya yuqori saviyada yozilgani bilan ajralib turadi va o'zbek tilshunoslari tilshunoslikning yangi yo'nalishi bo'lgan pragmalingvistika muammolari bilan chuqr va atroflicha tanishtiradi.

M.Hakimov, M.Gaziyevalar tomonidan nashr etilgan "Pragmalingvistika asoslari" darsligi (- T.,2020) pragmalingvistika borasidagi izlanishlarni yengillashtirdi, deyish mumkin. Mualliflar aytganidek, "magistr talabalarning "Pragmalingvistika" kursini o'zlashtirishlarida hamda bu mutaxassislikda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan izlanuvchilarning fanga doir tayanch tushunchalarni egallashlarida "Pragmalingvistika asoslari" darsligi ahamiyatga molik" (- T., 2020).

Mazkur tadqiqotlardan tashqari, o'zbek tilshunoslida N.Qazaqovaning "Badiiy matn pragmalingvistik tahlil obyekti sifatida" (- Namangan,2019.), F.Tursunovaning "Badiiy matnning pragmalingvistik tahlili"(- Andijon,2016.) kabi u yoki bu darajadagi ishlar ham amalga oshirildi.

"Pragmalingvistika asoslari" darsligida pragmalingvistikaning umumiy va xususiy masalalari atroflicha ochib berilgan, deyish mumkin. Pragmalingvistikaning tadqiqot obyekti sifatida aloqa-aratashuv jarayonidagi tovush sezgisiga asoslangan verbal ifodalar, ko'rish va his qilish sezgilariga asoslangan nolisoniy ifodalar aytildi.

Kishilar o'rtasidagi kommunikativ munosabat, bilamizki, yo verbal, yoki noverbal shaklda bo'ladi. Shuningdek, barcha axborotlar oshkora yoki yashirin tarzda bo'ladi. Bu nutqiy vaziyat, so'zlovchining ichki maqsadi bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Ifodaning yashirin bayoni, jumlaning **tag ma'nosi** so'zlovchi va tinglovchining fikrlash faoliyati, olam haqidagi tasavvurlari bilan uzviy bog'liq. So'zlovchining tashqi olam haqidagi tasavvurlari qanchalik keng bo'lsa, u nutqiy vaziyat darajasini shu qadar tez fahmlaydi. So'zlovchi oshkora ifodalab bo'lmaydigan axborot ko'rinishini tagma'no shaklida ifoda etadi. Umumyashirin ma'no tagma'no usuliga aylantiriladi yoki turli tana harakatlari bilan yuzaga chiqadi. Tagma'no, ya'ni "matn ichida matn", "yashirin matn" rus tilshunoslida "podtekst" atamasi bilan ifoda etiladi.

Tagma'no badiiy asarlarda ikki usulda beriladi: **oshkora verbal bayon** (bunda muallif tagma'noni o'zi izohlagan bo'adi), **nooshkora (yashirin) bayon**.

Quyidagi misollarni kuzatamiz:

1. Anchadan keyin Qalandarov xuddi o'ziga gapirganday dedi:

- Kolxozda ayshingizni qilib yura berasiz. Partiya tashkilotining sekretariga ish yo'q deyish mumkin. Paxta har yili yuz! Pilla yuz! Oqsagan tarmog'imiz yo'q deyish mumkin. O'zingiz ham bilsangiz kerak?

*Saida nima deyishini bilmay qoldi. Qalandarovning bu gaplaridan: "Sen emas, sendan durustroq sekretarga ham muhtoj emasman" degan ma'no chiqardi. (A.Qahhor)*

2. *Qaytish xabari Oftoboyim qulog'iga yetishgandan keyin uning avvalgi uchrashishi qizi bilan edi. Chunki eriga qaraganda ham ko'proq ixtiyorni qizida bo'lganini yaxshi bilar edi. Shu xabarni Hasanalidan eshitishi ila to'g'ri Kumushning yoniga kiradi:*

- *Kumush, -dedi kulimsirab, – qaytar emishmiz, dadang aytibtilar.*
- *Kumush qo'lida nimadir tikib o'tirgan edi. Ko'zini ishdan olmadi.*
- *Qaytsalaringiz xayr-xo'sh.* (A.Qodiriy)

Ko'rindiki, birinchi misolda muallif kitobxon anglashi lozim bo'lgan ma'noni ("Sen emas, sendan durustroq sekretarga ham muhtoj emasman" tarzidagi ma'no) o'zi bayon etadi. Ikkinci misolda esa Kumushning uyiga qayta ketmasligi, ya'ni Otabek xonadonida qolishi uning "Qaytsalaringiz xayr-xo'sh" jumlesi bilan yashirin tarzda berilyapti. Bularni anglash yoki anglatish pragmalingvistikaning vazifalaridan sanaladi.

So'zlovchi oshkor aytishni istamagan holatni yashirin tarzda matn tarkibiga singdiradi. Xalq orasida "kosa tagida nimkosa bor" tarzidagi naqlning yurishi ham shu bilan bog'liq.

Oshkora bayonga ega bo'limgan tagma'no ko'rinishi yashirin tarzda berilgan bo'lsa-da, tinglovchi (kitobxon) uni anglab oladi. Tagma'no tinglovchiga turli darajadagi qiyinchilik tug'dirishi mumkin, albatta, buni anglab olish kitobxon, ya'ni tinglovchi dunyoqarashi bilan bog'liq. Yana bir misolni kuzatamiz:

*Xudoychi "Huzuri muborakka" kirib ta'zim qildi...*

- *Chaqirdingme? – dedi xon*
- *Taqsim!*
- *Izn beramiz!*

*Xudoychi qulluq qilgan ko'yи orgasi bilan yurib, birinchi xonaning dahliziga keldi va dahlizda kutib turgan Anvarni "huzuri muborak" sari yo'lga soldi. Anvar "huzuri muborak"ning eshidiga to'xtab, ta'zim ado qildi va uning yonidagilarga ham yarim ta'zim ishorasini berdi.*

- *Ishlaring yoqshime, mirzo! – deb so'radi xon.*
- *Duolar barakasida, qiblagoh, – dedi Anvar.* (A.Qodiriy "Mehrobdan chayon")

Ushbu matnda kommunikantlarning mavqeyi, lavozimidan va suhbatning mazmunidan kelib chiqqan holda muloqot o'ta rasmiy tarzda kechmoqda. Shuning uchun ta'zim qilish, suhbat davomida lisoniy birliklardan chegaralangan holda foydalanish, nolisoniy vositalardan foydalanishda ham nutqiy etiketni saqlagan holda muomala olib borishi ko'zga tashlanadi. Asarda dialogning yuzaga chiqishida g'ayrioddiy holat (imo-ishorada, talaffuzda, mimik holatlarda va b.) bo'limgani sababli muallif nutqiga, muallif remarkasiga yoki izoh va sharhlarga hojat bo'limgan. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatlar muloqotning tashkil etilishi va borishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa

kommunikantlarning o'zaro munosabatlaridan, salomlashuvidan boshlanadi. Kishi biri ikkinchisiga ro'para bo'lganida o'zaro ko'rishuvdan ular o'rtasidagi munosabatni va muloqotning qanday kechishini aniqlash mumkin bo'ladi. Albatta, bu o'rinda kommunikantlarning o'zaro uchrashuvlaridan maqsad ham ahamiyatli bo'lib, agar salomlashuv matnda nostandard nominatsiya bilan ifoda etilgan bo'lsa va lisoniy vosita ham o'ziga xos bo'lsa, mavzu shunga yarasha mazmunda davom etadi.

Pragmalingvistika sohasi ish ko'radigan yana bir hodisa bu **propozitsiya** sanaladi. Bu hodisa ham nutq jarayonida, nutq vaziyati bilan bog'li holda so'zlovchi va tinglovchi uchun muhim sanaladi. Masalan, nutqiy jarayonda "Bu kishi Ahmadjonning ukasi Karimjon bo'ladilar" gapi orqali so'zlovchi va tinglovchiga oldindan quyidagilar ma'lum ekanligi anglashiladi:

1. Ahmadjonning tinglovchi uchun tanish ekanligi.
2. Tanishtiruvchi shaxs (Karim) Ahmaddan kichik ekanligi.
3. Ahmadjon haqida noo'rin so'zlamaslik lozimligi.

Xullas, pragmalingvistika so'zlovchi (matn yaratuvchi) hamda tinglovchi (kitobxon) orasida munosabatni belgilaydigan, har ikkala taraf uchun obrazli qilib aytadigan bo'lsak, "ko'prik" vazifasini o'taydigan hodisa sanaladi. Badiiy matnni pragmatik tahlil qilish har bir tahlilchidan sinchkovlik va e'tiborlilikni talab etadi. Ta'kidlash kerakki, bu yo'nalishning nazariy-amaliy jihatlari to'la ishlab chiqilgan deb bo'lmaydi. Bu muammolarni hal qilish bugungi kun pragmalingvistika sohasi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar oldida turgan vazifalardan hisoblanadi.

#### *Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:*

- 1."Pragmatika" tushunchasini izohlang
- 2.Pragmatika tilshunoslikning qaysi masalalari bilan shug'ullanadi?
- 3.Nutqiy vaziyat deganda nima tushunasiz?
- 4.Nutqiy individuallik deganda nima tushunasiz?
- 5.O'zingiz yoqtirgan badiiy asardan o'qib, uning pragmalingvistik xususiyatlarini izohlashga harakat qiling (Lingvistik va pragmatik tahlillar jiddiy farqlanishi kerak).
- 6.Tag ma'no va presuppozitsiyaning farqini ayting.

**Topshiriq.** Quyidagi parchada tagma'noning qanday ko'rinishi (ya'ni oshkora tagma'nomi yoki yashirin tagma'nomi) berilgan?

Tanishgani boshqa hech narsa bo'lmagani uchun Saida kabinetni qulflab, bog'ga chiqdi. Qalandarov oldida bir choynak choy, so'rida oyog'ini salanglatib o'tirar edi. *Saidani ko'rib "Kabinetni qoyil qilibmanmi" degan ma'noda: "Xo'sh qalay?" deb iljaydi.* (A.Qahhor)

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив pragmatik мазмунини шакллантирувчи категориялар. ДДА. – Т., 2010.
2. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг pragmatik талқини. ДДА. – Т.,

2001.

3. Ҳакимов М., Газиева М. Прагмалингвистика асослари. Darslik. – Т., 2020.
4. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. НДА. – Самарқанд, 1993.
5. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. НДА. –Т., 2000.
6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 286 б.

## GLOSSARIY

**Antroposentrik tilshunoslik** – grek. *anthropos* – odam +lot. sentrum - markaz. Tilshunoslikda tilga inson omili nuqtayi nazaridan yondashish. Bu paradigma shaxs va uning tilini vobasta, uyg'un o'rganadi. Mazkur paradigma bir necha ichki turlarga bo'linadi.

**Antroposentrik paradigma** – tadqiqotchilar qiziqishlarining obyektdan subyektga o'zgarishi, yo'naltirilishi, ya'ni insonning tilda, tilning esa insonda tahlil qilinishi. Bunda asosiy e'tibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya'ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til egasiga qaratiladi. Antroposentrik paradigma nuqtayi nazaridan inson dunyoni o'zining nazariy va amaliy faoliyati orqali taniydi.

**Buyuk shaxslar lingvopersonologiyasi** – Yevropa lingvopersonologiyasining alohida yo'nalishi. Unda buyuk shaxslarning "lisoniy shaxsi portreti" yaratiladi va uning lisoniy xususiyatlari asosida shaxsning individual qirralari o'rganiladi.

**Diaxron sotsiolingvistika** – til rivojlanishining jamiyat rivojlanishi bilan aloqasini tavsiflovchi jarayonlarni, ya'ni til tarixini xalq tarixi bilan bog'lab o'rganuvchi sotsiolingvistik tadqiqotlar yo'nalishi.

**Didaktik matn** – bunday tipdagi matnlarda so'zlovchiga pand-nasihat qilish, uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishga o'rgatish istagi asosida tuzilgan matn eksplikativ yoki didaktik matn deyiladi. Maqsadga erishish uchun maqol, matal, aforizm, turli hayotiy voqealar, rivoyatlar, masallardan namuna sifatida foydalanilishi mumkin.

**Diskurs** – fr. diskours – nutq, harakat. Bu termin tilshunoslikda bir necha xil ma'noda talqin qilinadi. Bu termin dastlab "bog'lanma matn" tushunchasini ifodalagan bo'lsa, keyinchalik suhbat, dialog tushunchalariga nisbatan ham qo'llanila boshladi. Mazkur termin ostida hozirgi kunda o'zida nolisoniy, xususan, psixologik, ijtimoiy va shaxs ongi bilan bog'liq omillarni mujassam etgan nutq tuzilmasini tushunish tendensiyasi ustuvorlik qilmoqda.

**Etnopsixolingvistika** – nutqiy faoliyatda muayyan an'analar bilan bog'liq muomala elementlarining qanday paydo bo'lishini, turli til egalarining verbal va noverbal muloqotidagi farqlarni o'rganuvchi tilshunoslik yo'nalishi.

**Gender tilshunosligi** – umumiylar mazmuniga ko'ra erkak va ayollar o'rtasidagi nutqiy farqlanishlarni kuzatadi. Gender tushunchasi quyidagilar bilan farq qiladi: 1. Erkaklarga xos gender stereotiplar. 2. Ayollarga xos gender stereotiplar. 3. Tashqi ko'rinish bilan bog'liq gender stereotiplari; 4. Xarakter xususiyati bilan bog'liq gender stereotiplari.

**Hikoya mazmunli matn** – bunday matnda muallif yoki asar qahramoni, umuman, so'zlovchi o'zi boshidan o'tkazgan, eshitgan, o'qigan yoki guvoh bo'lgan biror bir voqeani hikoya qilib beradi. Asosan, esdaliklar, ertak va

rivotatlar shu turga mansub bo'ladi. Bunda fe'lning o'tgan zamon shakli birinchi shaxs birlik yoki ko'plikda ifodalanadi.

**Izoh mazmunli matn** – bunday matnda aytilayotgan fikrning ishonarliligini ta'kidlash uchun turli dalil va izohlar keltiriladi. Asoslash, isbotlash maqsadida har xil birliklar, jumladan, chunki, masalan, shu sababdan, shuning uchun va b. kabilar qo'llanadi.

**Frazeologizm** – turg'un birikmalarning obrazli, ko'chma ma'noga ega turi bo'lib, til egasining dunyoni, hodisalarni o'ziga xos ko'rishini namoyon etadi. Frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o'z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi.

**Geshtalt** – nemischa so'z bo'lib, u "obraz, tuzilma, yaxlit shakl" ma'nolarini anglatadi. Geshtalt yaxlit obraz hisoblanadi, ya'ni biron bir obyektni butunicha idrok qilinishi geshtalt deb tushuniladi. Geshtaltlar konseptual bog'lanishlar bo'lib, ular inson psixikasining botiniga tegishli bo'lgan va tabiiy tilning kategoriyalari doirasidan tashqarida yotgan universal tasavvurlar mohiyatidir.

**Konsept** – lotin tilidagi conceptus «tushuncha» so'zining kalkasidir. Rus tilshunosligida *konsept* tushunchasi XX asrning birinchi choragida faylasuf S. Askoldov tomonidan ilmiy muomalaga kiritiladi. Ushbu termin tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillariga qadar *tushuncha* so'ziga sinonim sifatida ishlataligan bo'lsa, bugungi kunga kelib uning izohi *tushuncha* terminiga nisbatan kengayganini ko'rish mumkin. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi.

**Kognitiv tilshunoslik** – (lot. cognitio – bilim). Til birliklarining axborotni qayta ishlashdagi rolini nutq yaratilishi va idrok etilishi nuqtayi nazaridan o'rganuvchi fanlararo soha. Kognitiv tilshunoslik til va ong munosabatini, olamni konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish, bilish jarayonlarida va tajribalarni umumlashtirishda tilning o'rni kabi masalalarini tadqiq etadi.

**Koyne** – aholi turli guruhlarining ijtimoiy va lisoniy aloqalari jarayonida shakllangan dialektlararo og'zaki muloqot vositasi; shahar tili.

**Lingvistik tabdil usuli** – bunda assosiy maqsad shundaki, ijodkor (umuman, matn yaratgan shaxs) yaratgan matn tarkibida o'zgartirishga zarurat sezuvchi til birliklari boshqasi bilan almashtiriladi. Mazkur usul orqali shu birlik matn mazmuniga mos ravishda o'zgartiriladi. Lingvistik tabdil o'z xarakteriga ko'ra leksik, morfologik, sintaktik bo'lishi mumkin.

**Lingvistik tahlil usuli** – bu tahlil kuzatuvchidan chuqur til nazariyasi bilimini taqazo etadi. Tadqiq etuvchi tilshunoslikning barcha bo'limlari (fonetika, morfemika, so'z yasalishi... grammatika, punktuatsiya) nazariy jihatlarini atroflichcha bilishi, o'z bilimiga tayanib muayyan matnni nazariy jihatdan tahlil etishi kerak boladi. Lingvistik tahlil, o'z navbatida: a) fonetik tahlil, b) fonologik tahlil, d) morfemik tahlil, e) morfonologik tahlil, f) so'z yasalishi tahlili, g) leksik tahlil, h) morfologik tahlil, i) sintaktik tahlil kabi turlarga bo'linadi.

**Lingvotilistik tahlil usuli** – bunda ijodkorlarning til imkoniyatlaridan foydalana

olish mahorati, lug'at qatlamidagi so'z va frazeologik birliklardan, fonetik vositalar rang-barangligidan, uslub yaratishda xizmati bir qadar keng sanalgan grammatic hamda sintaktik vositalardan foydalanish qobiliyati, bir so'z bilan aytganda, til bilimdonligidagi uquvi va salohiyati baholanadi.

**Lingvokulturologiya** (lot. lingua "til"; cultus "hurmat qilish, ta'zim qilish"; yunon. "ilm, fan") – madaniyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan til tadqiqining yangi sohasi. Lingvokulturologiya madaniyat va tilning o'zaro aloqasini, o'zaro ta'sirini, tilda o'z aksini topgan xalq madaniyatining ko'rinishlarini tadqiq etadi.

**Lingvomamlakatshunoslik** – tilda o'z aksini topgan milliy realiyalarni o'rganadi. Milliy realiyalar muqobilsiz til birlklari bo'lib, ular mazkur madaniyatga xos bo'lgan hodisalarni ifodalaydi.

**Lingvopersonologiya** – har bir til egasining o'ziga xos shaxsiy xususiyatlari uning tilida aks etishi, va shu asnoda har bir so'zlovchi alohida lisoniy shaxs ekanligini tadqiq etadi. Shu nuqtayi nazardan shaxs va tilning o'zaro munosabati va ularning o'zaro ta'siri masalasi, inson nutqi orqali uni tushunish, his etishni o'rganadi.

**Lingvopoetika** – lingvistikva poetikaning oralig'ida yuzaga kelgan tilshunoslik sohasi sanaladi.

**Lisoniy shaxs** – lingvopersonologiya yo'nalihsining asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, nutqni yaratuvchi, uni boshqalarga uzatuvchi va idrok etuvchi shaxsni anglatadi.

**Lakuna** (lot. lacuna "bo'shliq, chuqurlik, cho'nqir joy"; frans. lacune "bo'shliq, bo'sh joy") – biron xalqning maishiy, madaniy, ijtimoiy va tarixiy hayoti uchun xarakterli va boshqa xalq uchun begona bo'lgan, boshqa tilda aniq muqobili bo'limgan so'z va so'z birikmali. Lakunalar qiyoslanayotgan tillarda o'xhashi bo'limgan so'zlar bo'lib, ular, asosan, tillarning qiyosida seziladi.

**Matn** – matn biron-bir muallifga tegishli bo'lgan, ikki va undan ortiq gapdan tashkil topgan, ma'lum fikrlar majmuasi hisoblangan, matn tarkibidagi birlklar grammatik-semantik jihatdan bog'liq bo'lgan qo'lyozma yoki nashrdan chiqqan asar tushuniladi.

**Matn birlklari** – ko'pchilik tadqiqotchilar fikriga ko'ra, matnning asosiy birlklari sifatida supersintaktik butunlik (murakkab sintaktik butunlik), gap, abzas sanaladi.

**Matn birlklarini bog'lovchi vositalar** – matn tarkibiy qismlari o'zaro shakliy va mazmuniy yaxlitlikka ega bo'ladi. Mana shu yaxlitlikni ta'minlashda ishtirok etadigan maxsus hodisalar (vositalar) mavjud. Takrorlar, sinonimlar, olmoshlar, murojaat birlklari, kiritmalar va h.k.lar matn birlklarini bog'lashda ishtirok etadi.

**Mentalitet** (nem. mentalität < lot. mens, mentis – aql, idrok) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, madaniy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlardagi aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati. Mentalitet – xalq mentalligini, uning aqliy va ruhiy quvvatining ichki tuzilishini va differensiatsiyasini aks

ettiradigan kategoriya.

**Muqobilsiz leksika** – har qanday til yoki dialektda boshqa tilga bir so'z bilan tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlar. Muqobilsiz leksika muayyan xalq madaniyatiga xos hodisalarни aks ettiradi. U ko'pincha mahalliy xalqqa xos pul, masofa-uzunlik birliklari, ro'zg'or ashylari, kiyim-kechak, yegulik-ichkilik va h.k. tushunchalarni anglatadigan so'zlardan tarkib topadi.

**Nutqning aniqligi** – aniqlik tilning, avvalo, leksik me'yorlari, so'ng grammatik me'yorlari bilan bog'liq. Aniq nutq obyektiv borliq va nutq mazmunining mosligi sifatida yuzaga chiqadi.

**Nutqning mantiqiyligi** – nutqning asosiy sifatlari – to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'liqidir. Chunki grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifoda etish uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan leksik birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi mumkin.

**Nutqning ta'sirchanligi** – asosan, adabiy tilning og'zaki shaklida nutqning ta'sirchanligiga e'tiborliroq bo'lish talab etiladi. Ta'sirchan nutq tinglovchi va o'quvchining e'tibori va qiziqishini hisobga oladigan nutq sanaladi.

**Nutqning tozaligi** – bunga barcha birdek mas'ul sanaladi. Har bir kishi kiyimi, xonasi, tana a'zolari, o'y-xayollarini toza tutganidek, o'z nutqini ham sof saqlashi, uni ortiqcha, yot unsurlar – varvarlar, vulgarlar, "parazit so'zlar", noadabiy qatlam so'zlaridan himoyalashi shart va zarur.

**Nutqning to'g'riliği** – grammatik me'yorlar asosida tuzilgan nutq bo'lib, asosan, ikki me'yorga – urg'u va grammatik me'yorga amal qilishni taqozo qiladi. **Psixolingvistika** – matnning antropotsentrik mohiyati psixologiya va lingvistika sohalari kesishuvi natijasida yuzaga kelgan psixolingvistikada yaqqol namoyon bo'ladi. Psixolingvistik tadqiqotlarda matnning matn tuzuvchi – matn – retsipyentdan iborat uchlik nuqtayi nazaridan tadqiq etilishi unda shaxs omilining rolini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

**Pretsedent birliklar** – muayyan til sohiblariga yaxshi tanish bo'lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatda qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so'z birikmalari, jumlalar hamda matnlardir.

**Sinxron sotsiolingvistika** – til va jamiyat aloqalariga tegishli munosabatlar va jarayonlarni o'rganadi. Munosabatlar bu aloqalarning statikasini, jarayonlar esa ularning dinamikasini ifodalaydi.

**Statistik tahlil usuli** – bu usulda turli vazifaviy uslubdagi matnlarni statistik metodlar asosida o'rganish nazarda tutiladi, matndagi til birliklari chastotasi inobatga olinadi. Chastotali lug'atlar va ularni yaratish tamoyillari nazarda tutiladi.

**Supersintaktik butunlik** – gaplardan iborat bo'ladi. Ammo har qanday ikki va undan ortiq gap birikib sintaktik butunlikni hosil qilavermaydi. Matnning mazkur birligida quyidagi sifatlar mavjud bo'lishi lozim: 1) yagona kichik bir mavzuning mavjudligi; 2) gaplar mazmunining umumiyligi, o'zaro uyg'unlik; 3) semantik yaxlitlik; 4) grammatik yaxlitlik; 5) kommunikativ yaxlitlik.

**Sotsiolingvistika** – tilshunoslikning tilni va uning mavjud bo’lgan ijtimoiy sharoitlar bilan bog’liqligini o’rganadigan sohasi. Sotsiolingvistika tilning jamiyat hayotidagi roli, uning ijtimoiy tabiatni, ijtimoiy vazifalari, ijtimoiy omillarning tilga bo’lgan ta’sir mexanizmi bilan bog’liq masalalarni o’rganadigan tilshunoslik sohasidir.

**Submadaniyat** – ikkinchi darajali, tobe madaniyat tizimi (masalan, yoshlar submadaniyati va h.k.).

**Tasviriy matn** – bunda biror bir kishi, joy, umuman, har bir narsani tasvirlab berish maqsad qilinadi. Tasviriy matnda monologik nutq ko’rinishi yetakchilik qiladi, shu jihat bilan hikoya matniga o’xshab ketadi. Biroq bunday matnda so’zlovchining ko’rgani yoki eshitganini tasvirlar asosida ifoda etish yetakchi bo’ladi.

### **“Matn lingvistikasi” fanidan test savollari**

1. O’zbek tilshunosligida qaysi olimlar matn tilshunosligi bilan shug’ullangan?  
A) T.Mirzayev, A.Mamajonov, N.Turniyozov  
B) A.Mamajonov, N.Turniyozov, M.Yo’ldoshev  
C) N.Turniyozov,M.Hakimov, O.Azizov  
D) O.Bozorov, A.Hojiyev, M.Hakimov
2. M.Yo’ldoshev matnni qaysi jihatdan tadqiq qilgan?  
A) asosan, badiiy jihatiga ko’ra  
B) pragmatik xususiyatlariga ko’ra  
C) matn sintaksisini o’rgangan  
D) matn derivatsiyasini o’rgangan
3. M.Hakimovning tadqiqotlari matnning qaysi jihatlarini qamrab oladi?  
A) matn derivatsiyasini B) lingvopoetik jihatlarni C) pragmatik jihatlarini D) matndagi til va nutq birliklarining iyerarxiyasini
4. Badiiy matn tilshunosligida nutqiy birliklar yana qanday nom bilan yuritiladi?  
A) etik birliklar B) potensial birliklar C) grammatick birliklar D) lisoniy birliklar
5. Qaysi o’zbek tilshunosi matndagi til va nutq birliklarining pog’onali munosabatlarda tutgan o’rnini aniqlash bilan shug’ullangan?  
A) N.Turniyozov B) A.Mamajonov C) M.Yo’ldoshev D) S.Boymirzayeva
6. Hajm belgisiga ko’ra matnning qanday turlari bor?  
A) qisqa va uzun matn B) aktual va passiv matn C) makro va mikromatn D) hikoya, darak, ma’lumotnoma, buyruq mazmunli matn
7. Matn tilshunosligi fanining o’rganish obyekti nima?  
A) tilning lisoniy qurilishi B) matn tahlili va matnning nazariy muammolari  
C) tilning tabiatni D) tilning iyerarxik qurilishi, og’zaki va yozma matn
8. O’zbek tilshunosligida ilk bor “matn” tushunchasini yoritib bergen olim kim?  
A) G’.Abdurahmonov B) A.G’ulomov C) Sh.Rahmatullayev D) A.Hojiyev
9. Matn nazariyasi, matn muammolari bo’yicha nisbatan zamonaviy qarashlar kimning ilmiy tadqiqotlarida ko’zga tashlanadi?  
A) G’.Abdurahmonov B) A.Mamajonov C) S.Boymirzayeva D) J.Lapasov
10. So’zlovchi va tinglovchiga oldindan ma’lum bo’lgan, matnda aniq

- ajratilmaydigan, har ikkala shaxsga ham ayon bo'lgan jihat nima?
- A) pragmatik jihat B) analitik jihat C) sintaktik jihat D) kommunikativ jihat
11. Matnning asosiy tarkibiy qismlari berilgan qatorni toping
- A) gap, super sintaktik birlik, abzas B) so'z, gap, super sintaktik birlik C) so'z, gap, gap mundarijasi D) gap, abzas, mikromatn
12. Matn tilshunosligida matnni qabul qiluvchi qanday termin bilan nomlanadi?
- A) retsipyent B) matn muallifi C) korrespondent D) reportyor
13. O'zbek tilshunosligida matn tadqiqiga bag'ishlangan dastlabki asar qaysi?
- A) N.Turniyozov "Matn tilshunosligi" B) S.Boymirzayeva "Matn mazmunida temporallik semantikasi" C) A.Mamajonov "Tekst lingvistikasi"  
D) M.Yo'ldoshev "Badiiy matn lingvopoetikasi"
14. O'zbek tilshunosligida matn pragmatikasi bo'yicha amalga oshirilgan dastlabki tadqiqot ishi kimga tegishli?
- A) M.Hakimovga B) M.Yo'ldoshevga C) N.Turniyozovga D) A.Mamajonovga
15. Uslubiy mohiyatiga ko'ra matnning ilmiy matn tipiga quyidagilardan qaysilari kiradi?
- A) ma'lumotnama, buyruq, tavsiyanoma B) tezis, ma'ruza, annotatsiya, taqriz  
C) farmon, farmoyish, buyruq D) ma'lumotnama, tavsiyanoma
16. Matn temporalligi deganda nima tushuniladi?
- A) matndagi harakat sodir bo'lgan makon  
B) matnda berilgan xabarning shartliligi  
C) matnda sodir bo'lgan harakatning tarzi  
D) matndagi harakat, xabar zamoni
17. Og'zaki matn dunyo tilshunosligida yana qanday nom bilan ataladi?
- A) diskurs B) tekst C) annotatsiya D) sillabus
18. O'zbek tilida matnning nazariy masalalarini o'rganish qachondan boshlangan?
- A) XX asrning oxirlaridan  
B) XX asrning boshidan  
C) XXI asrning boshidan  
D) XX asrning o'talaridan
19. Matn kategoriyalarini kognitiv, pragmatik tahlillar asosida qaysi tilshunos o'rgangan?
- A) S.Boymirzayeva B) M.Yo'ldoshev C) M.Hakimov D) A.Mamajonov
20. Presedent birliklar, o'xshatishlar, asosan, qaysi tilshunoslik bo'limi birliklari sanaladi?
- A) psixolingvistika  
B) lingvomadaniyatshunoslik  
C) lingvopersonologiya  
D) sotsiolingvistika
21. Perifraz nima?
- A) mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki tushunchani qo'shib qo'llash  
B) yonma-yon gaplar, sintagmalarining bir xil sintaktik qurilishga ega bo'lishi  
C) narsa, hodisani o'z nomi bilan emas, xarakterli belgi-xususiyatlari asosida

tasviriy usul bilan ifodalash

D) diniy e'tiqod, irim, qo'rqish va shu kabilar ta'sirida so'zning ishlatalishini cheklash

22. Ommabop uslub o'zbek tilshunosligida qaysi olim tomonidan monografik yo'nalishda o'rganilgan?

A) Qurbonov T. B) Hojiyev A. C) Mahmudov N. D) Rustamov A.

23. Badiiy matnda "Noto'g'ri talaffuzni ifodalash" usuliga nima deyiladi?

A) alliteratsiya B) assonans C) grafon D) geminatsiya

24. Evfemizm nima?

A) narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi

B) ko'chimlardan foydalanish

C) nutqning tovushlar takrori yordamidagi xushohangligi

D) varvar va vulgarlardan nutqda foydalanish

25. "Agnonim" atamasi noto'g'ri ta'riflangan qatorni toping.

A) nomalum nom

B) lug'aviy ma'no anglatmaydigan so'zlar

C) tagma'no

D) Ular badiiy adabiyotda uslub yaratishda xizmat qila oladi.

26. Agnonimlarning badiiy matnda uslubiy maqsad bilan qo'llanilish hodisasi nima deyiladi?

A) agnomaziya B) paronomaziya C) ma'nodoshlik D) ko'chim

27. Matnning tarkibiy qismlari berilgan qatorni toping

A) so'z, gap, gap mundarijasi

B) gap, super sintaktik birlik

C) so'z, gap, abzas, super sintaktik birlik

D) gap, abzas, mikromatn

28. Badiiy matnning sintaktik xususiyatiga kirmaydigan hodisani toping.

A) geminatsiya, leksikolizatsiya, muallif nutqi neologizmlari

B) sintaktik parallelizm,

C) inversiya, ellipsis

D) emotisional gaplar

29. "Matn mazmunida temporallik semantikasi" asarining muallifi kim?

A) A.Mamajonov B) S.Boymirzayeva C) M.Yo'ldoshev D) N.Turniyozov

30. Matnlar amaliy maqsadiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

A) yozma va og'zaki matnlar

B) dialog va monolog

C) minimal va maksimal matn

D) his-hayajon matn, didaktik matn, buyruq-xitob matni...

31. O'zbek tilshunosligida matn nazariyasiga bag'ishlangan dastlabki asar qaysi?

A) N.Turniyozov, B.Yo'ldoshevlarning "Matn tilshunosligi" asari

B) M.Yo'ldoshevning "Badiiy matn lingvopoetikasi" asari

C) B.O'rinoylevning "Badiiy tekstning lingvistik tahlili" asari

D) A.Mamajonovning "Tekst lingvistikasi" asari

32. "Badiiy tekstning lingvistik tahlili" asari qachon nashr bo'lgan va

mualliflarini toping.

- A) 1990, B.O'rinboyev, R.Qo'ng'uров, J.Lapasov B) 1995, A.Hojiyev, E.Begmatov C) 2000, A.Rustamov D) 1989, J.Lapasov

33. O'zbek tilining badiiy tasvir vositalarini belgilang.

- A) sinekdoxa, takror B) metafora, metonimiya C) vazifadoshlik, ellipsis D) gradatsiya, ko'chim

34. Matnda supersintaktik butunliklarning mohiyati, sintagmatik va semantik-uslubiy xususiyatlarini ilmiy asoslagan kim?

- A) A.Mamajonov B) M.Abdupattoyev C) N.Turniyozov D) M.Yo'ldoshev

35. Qaysi qatorda matn tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalar berilgan?

- A) takrorlar, olmoshlar, sintaktik parallelizm

- B) takrorlar, olmoshlar arxaizmlar

- C) sintaktik paralellizm, istorizm

- D) takrorlar, olmoshlar, ellipsis

36. O'zbek tilshunoslaridan kim matnni murakkab sintaktik butunlik sifatida o'rgangan?

- A) I. Mirzayev B) S.Boymirzayeva C) M.Abdupattoyev D) M.Hakimov

37. "Tekst lingvistikasi" o'quv qo'llanmasining muallifi kim?

- A) A.Mamajonov B) B.Yo'ldoshev C) M.Abdupattoyev D) M.Hakimov

38. M.Yo'ldoshev "Badiiy matn lingvopoyetikasi" nomli asarida matn birliklariga nimalarni kiritishni ma'qul ko'radi?

- A) gap va supersintaktik birlik

- B) so'z, gap, abzas, bob

- C) gap va supersintaktik birlik, abzas, jumla

- D) so'z, gap, supersintaktik birlik

39. "Matn tilshunosligining to'liq asoslanishi uchun hali kamida yuz yil kerak", deya ta'kidlagan olim kim edi?

- A) M.R.Mayenova B) K.Gauzenblas C) I.R.Galperin D) R.Harveg

40. Kim o'zbek tilining so'zlashuv uslubini tadqiq etdi ?

- A) H.Usmonov B) R.Qo'ng'uров C) B.O'rinboyev D) A.Mamajonov

41. Kimning ishida matnni "lingvistik mikroskop ostida" o'rganishga oid mashq namunalari keltirilgan?

- A) H.Usmonov B) A.Mamajonov C) E.Qilichev D) N.Ulug'ov

42. Kommunikatsiya (matn)da ma'lumotni qabul qiluvchi kim?

- A) kommunikant B) retsipiyyent C) persepsiya D) president birliklar

43. Tilxat matnning tipologik jihatdan qanday matn turiga kiritish mumkin?

- A) turg'un strukturali matn

- B) erkin strukturali matn

- C) mikromatn

- D) buyruq mazmunli matn

44. "Matn funksional jihatdan tugallangan nutq birligidir". Ushbu fikr kimga tegishli?

- A) K.Kojenikovaga B) Yan Korjenskiyga C) A.A. Leontevga D) A.Boguslavskiga

45. Matnning maksimal birligi qaysi?

- A) jumla B) supersintaktik butunlik C) gap D) qo'shma gap

46. Hozirgacha abzas haqida qanday mulohazalar mavjud? 1. Abzas – sintaktik birlik; 2. Abzas – sintaktik birlik emas; 3. Abzas – kompozitsion-stilik birlik; 4. Abzas – kompozitsion-grafik usul; 5. Abzas – leksik birlik; 6. Abzas – fonologik birlik.

- A) 1,2,3,4
- B) 1,4,5,6
- C) 1,2,4,6
- D) 1,3,5,6

47. Turg'un strukturali matnlar qaysilar? 1) ma'lumotnama, 2) dalolatnama, 3) she'r, 4) roman 5) hikoya, 6) maqola, 7) tilxat, 8) annotatsiya

- A) 3,4,5,6
- B) 1,2,7,8
- C) 2,3,5,7,8
- D) 1,3,4,5,6

48. Erkin strukturali matnlar qaysilar? 1) ma'lumotnama, 2) dalolatnama, 3) she'r, 4) roman 5) hikoya, 6) maqola, 7) tilxat, 8) annotatsiya

- A) 2,3,5,8
- B) 3,4,5,6
- C) 1,2,7,8
- D) 3,4,5,7

49. Nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma'nosini kuchaytirib borishdan iborat uslubiy jarayon –

- A) kogeziya B) gradatsiya C) ellipsis D) konsept

50. O'zbek tilshunosligida matnga nisbatan "supersintaktik butunliklar" terminini qo'llashni maqsadga muvofiq deb hisoblagan olim kim?

- A) A.Mamajonov B) M.Abdupattoyev C) I.Rasulov D) N.Mahmudov

51. Badiiy matnning ifoda mazmuniga ko'ra tiplari qaysilar? 1) hikoya mazmunli matn. 2) ilmiy matn. 3) tasviriy matn. 4) rasmiy matn. 5) izoh mazmunli matn.

- A) 1,3,5
- B) 1,2,3,4,5
- C) 1,3,4
- D) 2,4

52. ... deyilganda keng ko'lAMDAGI voqealarni yoritish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan butunlik nazarda tutiladi.

- A) Tasviriy matn B) Izohli matn C) Maksimal matn D) Ifoda mazmunli matn

53. XX asrning 60-yillariga qadar ..... lingvistik tahlilning eng yuqori pog'onasi deb hisoblanar edi.

- A) so'z birikmasi sintaksisi
- B) fraza tahlili
- C) gap sintaksisi
- D) leksema tahlili

54. "Yaqin davrga qadar lingvistik kuzatuvalar gap shakli nihoyasiga yetgan yerda tugatilar edi. Ko'plab gaplarni o'z ichiga olgan matn esa mazkur ilmiy izlanishlar doirasidan chetda qolar edi". Ushbu fikr muallifi kim?

- A) M. To'xsanov B) R.Mayenova C) R.Harveg D) I.R.Galperin
55. "Mikromatn va o'zbek badiiy nutqida uning kogerentligini ifodalovchi vositalar" mavzusida qaysi olim nomzodlik ishini himoya qildi?
- A) A.Mamajonov B) M.To'xsanov C) E.Qilichev D) H.Usmonov
56. Qaysi o'zbek tilshunosi matndagi til va nutq birliklarining pog'onali munosabatlarda tutgan o'rnnini aniqlash bilan shug'ullangan?
- A) N.Turniyozov B) A.Mamajonov C) M.Yo'ldoshev D) S.Boymirzayeva
57. O'zbek tilida matnning nazariy masalalarini o'rganish qachondan boshlangan?
- A) XX asrning oxirlaridan  
B) XX asrning boshidan  
C) XXI asrning boshidan  
D) XX asrning o'rtalaridan
58. "O'zbek tilida matnning antroposentrik tadqiqi (matn yaratilishi va mazmuniy idroki misolida)" nomli dissertatsiya muallifi kim?
- A) D. Lutfullaeva B) Z.Xolmonova C) Sh.Iskandarova D) D.Xudoyberganova
59. "Til tilsimi tadqiqi" nomli monografiya muallifi kim?
- A) N. Mahmudov B) Sh. Safarov C) M.Hakimov D) A.Nurmonov
60. "O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi" nomli dissertatsiya muallifini aniqlang
- A) Iroda Azimova B) Munavvara Qurbonova C) Durdona Lutfullaeva D) Muhayyo Hakimova
61. "O'zbek tilida matnning antroposentrik tadqiqi (matn yaratilishi va mazmuniy idroki misolida)" nomli dissertatsiya muallifi kim?
- A) D. Lutfullaeva B) Z.Xolmonova C) D.Xudoyberganova D) Sh.Iskandarova
62. Antroposentrik paradigmaga xos eng muhim xususiyat nima?
- A) til tizimini belgilar munosabatidan iborat struktura sifatida tadqiq etadi  
B) til tizimini shu til mansub bo'lgan etnos va til sohiblari bilan aloqadorlikda tadqiq etadi  
C) til tizimini diaxron aspektida tadqiq etadi  
D) til tizimini immanent tarzda tadqiq etadi
63. "Pragmalingvistika" nomli monografiya muallifi kim?
- A) M.Hakimov B) N. Mahmudov C) M.Mirtojiev D) Sh. Safarov
64. Tilshunos olimlar qaysi hodisani pretsedent birliklarning eng asosiy xususiyati sifatida belgilaydilar?
- A) mashhurlik B) ko'pma'nolilik C) takrorlanuvchanlik D) universallik
65. Pretsedent fenomenlar haqidagi nazariyada ularning nechta turi qayd etilgan?
- A) 2ta B) 3ta C) 4ta D) 5ta
66. N. Mahmudov va D. Xudoyberganova qaysi lingvomadaniy birliklar izohli lug'atini tuzishgan?
- A) iboralar B) turg'un o'xshatishlar C) metaforalar D) maqollar
67. N. Pronko qaysi terminni birinchi marta qo'llagan?
- A) Etnolingvistika B) Lingvokulturologiya C) Kognitiv tilshunoslik D) Psixolingvistika

68. Hozirgi davrda antroposentrik paradigmaning qaysi sohasi bo'yicha o'zbek tilshunosligida tadqiqotlar kam yaratilgan?
- A) etnolingvistika B) kognitiv tilshunoslik C) pragmalingvistika D) lingvokulturologiya
69. Tilshunoslikda ilmiy paradigmalar necha turga bo'linadi?
- A) 2 ga: qiyosiy-tarixiy, til oilasi  
B) 3 ga: til strukturasi, til tizimi, til oilasi  
C) 3 ga: qiyosiy-tarixiy, tizimli-strukturaviy, antroposentrik  
D) 3 ga: antropotsentrik, til oilasi, tizimli-strukturaviy
70. "Ilmiy paradigma" termini nechanchi yilda muomalaga kiritilgan?
- A) 1960-yilda  
B) 1962-yilda  
C) 1965-yilda  
D) 1970-yilda
71. "Ilmiy paradigma" termini kim tomonidan muomalaga kiritilgan?
- A) T.Kun B) F.de Sossyur C) V.A. Maslova D) Boduen de Kurtene
72. Tilshunoslikdagi ilk ilmiy paradigma qaysi?
- A) tizimli-strukturaviy B) antroposentrik C) egosentrik D) qiyosiy-tarixiy
73. Tizimli-strukturaviy paradigmada asosiy e'tibor nimaga qaratiladi?
- A) obyektga B) subyektga C) tizimga D) nutqqa
74. Antroposentrik paradigmada asosiy e'tibor nimaga qaratiladi?
- A) nutqqa B) subyektga C) tizimga D) obyektga
75. XIX asrning paradigmasi qaysi belgi ostida kechgan?
- A) strukturalizm belgisi B) ijtimoiylik belgisi C) inqilob belgisi D) tarixiylik belgisi
76. T.Kun paradigmalarning o'zgarishini nima deb ataydi?
- A) progress B) regress C) ilmiy inqilob D) yangilik
77. Lingvokulturologiyaning obyekti nimaga asoslanadi?
- A) tilga B) faqatgina madaniyatga C) jamiyatga D) insonga
78. Alovida guruh tilining o'ziga xosligini o'rghanadigan fanni aniqlang?
- A) lingvokulturologiya B) sotsiolingvistika C) lingvomamlakatshunoslik D) etnolingvistika
79. Sotsiolingvistika qanday soha?
- A) til va madaniyat munosabatlarni o'rghanadigan soha  
B) dialektik qonunlarni o'rghanadigan sohasi  
C) tilshunoslikning tilni va uning mavjud bo'lган ijtimoiy sharoitlar bilan bog'liqligini o'rghanadigan sohasi  
D) nutqiy faoliyatni o'rghanadigan sohasi
80. "O'zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolinguistik tadqiqi" nomli dissertatsiya muallifini aniqlang.
- A) M. Qurbonova B) D.Xudoyberanova C) D. Lutfullaeva D) Z.Xolmonova
81. Kognitiv tilshunoslikda qaysi muammo o'rganiladi?
- A) til va madaniyat uzviyligi  
B) lison vositasida bilimlarni saqlash, ifodalash va uzatish mexanizmlari  
C) tilning shakliy xususiyatlari

D) tilning nominativ vazifasi

82. *Olamning lisoniy manzarasi* terminini tilshunoslikka kim olib kirgan?

A) V.fon Gumboldt B) F. de Sossyur C) Sh.Balli D) L. Vaysgerber

83. Mashhur matnlar yoki vaziyatlar bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek, muayyan sifatlarning namunaviy yig'indisiga ishora qiluvchi ramziy birliklar...

A) pretsedent nomlar deyiladi

B) pretsedent jumlalar deyiladi

C) pretsedent matnlar deyiladi

D) pretsedent vaziyatlar deyiladi

84. *Besh qo'l barobar emas* maqoli qaysi madaniy kod asosida shakllangan?

A) temporal kod B) somatik kod C) vaqtga doir kod D) makoniy kod

85. Muayyan madaniy mazmunni shartli, ramziy va kodlangan tarzda ifodalovchi moddiy yoki ideal belgilar tizimi...

A) olamning lisoniy manzarasi deyiladi.

B) intertekstuallik deyiladi.

C) madaniyat kodlari (madaniy kodlar) deyiladi.

D) olamning ilmiy manzarasi deyiladi

86. Alovida guruh tilining o'ziga xosligini o'rganadigan fanni aniqlang?

A) lingvokulturologiya

B) sotsiolingvistika

C) lingvomamlakatshunoslik

D) etnolingvistika

87. Etnolingvistika, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, lingvomamlakatshunoslik kabi fanlarning o'zaro bog'liqligi nimada?

A) fanning markazida til va madaniyat turadi

B) fanning markazida til turadi

C) fanning markazida tabiat va jamiyat turadi

D) fanning markazida inson turadi

88. Lingvokulturologiyada qaysi muammo o'rganiladi?

A) Til va jamiyat uzviyiligi

B) Til, shaxs, tarix masalalari

C) Til orqali madaniyatni, madaniyatni o'rganish orqali tilni tushunish masalasi

D) Badiiy adabiyotda inson ruhiyatining berilishi masalalari

89. O'zbek tilshunosligida "Lingvokulturologiya"ning nazariy masalalari bilan maxsus shug'ullangan olimlar kimlar?

A) Abdulhamid Nurmonov, Nizomiddin Mahmudov, Yorqinjon Odilov

B) Nizomiddin Mahmudov, Durdonha Xudoyberganova, Shoira Usmonova

C) Miraziz Mirtojiyev, Ra'no Sayfullayeva, Baxtiyor Mengliyev

D) Azim Hojiyev, Ergash Umarov, Hamidulla Dadaboyev

90. Nizomiddin Mahmudov, Durdonha Xudoyberganovalar qaysi lingvomadaniy birliklar lug'atini tuzishgan?

A) "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati" (-T. "Ma'naviyat", 2013.)

B) "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" (-T. "O'qituvchi", 1974.)

C) "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati" (-T. "O'qituvchi", 1081.)

- D) "O'zbek tili tasviriy ifodalarning izohli lug'ati" (-T. "O'qituvchi", 1997.)
91. Tilshunos olimlar qaysi hodisani pretsedent birliklarning eng asosiy xususiyati sifatida belgilaydilar?
- A) taqdiri fofija bilan tugagan qahramonlarni
  - B) hajviy asar qahramonlari
  - C) bir millatga xos barcha asar qahramonlari
  - D) xalq orasida mashhur, tez-tez tilga olinadigan qahramonlar va jumlalar
92. Lingvokulturologiya fan sifatida qachondan vujudga keldi?
- A) XX asrning 80-yillaridan
  - B) XX asrning 70-yillaridan
  - C) XX asrning 60-yillaridan
  - D) XX asrning 90-yillaridan
93. Diaxron lingvokulturologiya nimani o'rganadi?
- A) hozirgi kundagi lingvomadaniy o'zgarishlarni
  - B) xalq madaniyatining holatini
  - C) xalqning muayyan davriga tegishli lingvomadaniy xususiyatlarni
  - D) turli xalqlarning madaniyatini
94. Qiyosiy lingvokulturologiya nimani o'rganadi?
- A) bir til oilasiga mansub tillardagi lisoniy-madaniy xususiyatlarni
  - B) turli (noqardosh) lingvokulturologik xususiyatlarni
  - C) xalqning muayyan davriga tegishli lingvomadaniy o'zgarishlarni
  - D) turli xalqlarning madaniyatini
95. O'xshatishlarning qanday turlari mavjud?
- A) badiiy o'xshatishlar va obrazli o'xshatishlar
  - B) asliy o'xshatishlar va tarjima o'xshatishlar
  - C) muallif o'xshatishlari va erkin o'xshatishlar
  - D) individual-muallif o'xshatishlari va turg'un o'xshatishlar
96. Erkin o'xshatish (individual-muallif o'xshatishlari) berilgan qatorni toping.
- A) Bolalari qo'rqqanidan baqadek qotib qolishdi.
  - B) Uni kiyib Matmusa, Yigit bo'ldi chaqmoqday. (E.Vohidov)
  - C) To'yan qo'ziday bo'lib o'tirishini qarang uni. (P.Qodirov)
  - D) Bu suvni ichsang toychoqdek dikirlab ketasan. (E.A'zam)
97. Lakunalar ko'proq qaysi sohada qo'llanadi?
- A) Psixolingvistikada    B) Sotsiolingvistikada    C) Lingvokulturologiya    D) Pragmalingvistikada
98. "Mening tilim chegaralari millatim dunyoqarashi chegarasini ifodalaydi" jumlasini qaysi olim aytgan?
- A) V.Gumbold    B) V.Vinogradov    C) B.Maslova    D) Y. Karaulov
99. Turkiy xalqlarning totemi qaysi hayvon bo'lgan?
- A) ayiq    B) yo'lbars    C) bo'ri    D) turna
100. O'zbek tilshunosligida qaysi olimlar matn tilshunosligi bilan shug'ullangan?
- A) N.Turniyozov, M.Hakimov, O.Azizov, N.Turniyozov, M.Yo'ldoshev
  - B) Mamajonov, N.Turniyozov, M.Yo'ldoshev
  - C) T.Mirzayev, M.Yo'ldoshev, A.Mamajonov, N.Turniyozov

- D) O.Bozorov, A.Hojiyev, M.Hakimov  
101. M.Hakimovning tadqiqotlari matnning qaysi jihatlarini qamrab oladi?  
A) lingvopoetik jihatlarni  
B) matn derivatsiyasini  
C) pragmalingvistik jihatdan  
D) matndagi til va nutq birliklarining iyerarxiyasini
102. O'zbek tilshunosligida ilk bor "matn" mohiyatini yoritib bergan olim kim?  
A) A.G'ulomov B) A.Mamajonov C) G'.Abdurahmonov D) S.Boymirzayeva
103. O'zbek tilshunosligida kim "matn nazariyasi, muammoning mohiyati, yechimlari" haqida o'z qarashlarini bayon qilgan?  
A) A.G'ulomov B) A.Mamajonov C) G'.Abdurahmonov D) S.Boymirzayeva
104. So'zlovchi va tinglovchiga oldindan ma'lum bo'lgan, matnda aniq ajratilmaydigan, har ikkala shaxsga ham ayon bo'lgan jihat nima?  
A) pragmatik jihat B) sotsiolingvistik jihat C) psixolingvistik va kommunikativ jihat D) lingvokulturologik jihat
105. Presuppozitsiya terminini yana qanday nomlash mumkin?  
A) predikativlik B) modallik C) matn mazmuni D) tag ma'no
106. Abzasni matnning tarkibiy qismi deb hisoblamaydigan olimlar unga qanday ta'rif beradilar?  
A) stilistik belgi B) til belgisi C) kompozitsion-stilistik usul D) nutqiy birlik
107. Super sintaktik birlikning hajmini qat'iy belgilab bo'ladimi?  
A) Ha, u ikki-uch gapdan iborat  
B) Yo'q, uning qat'iy hajmi yo'q  
C) Ha, u bir abzasdan iborat bo'ladi  
D) U individual bo'ladi, har kim o'zicha belgilashi mumkin
108. O'zbek tilshunosligida matn tadqiqiga bag'ishlangan nisbatan keyingi tadqiqot qaysi?  
A) M.Yo'ldoshev "Badiiy matn lingvopoetikasi"  
B) N.Turniyozov "Matn lingvistikasi"  
C) A.Mamajonov "Tekst lingvistikasi"  
D) A.Mamajonov, M.Abdupattayev "Matn sintaksisi"
109. O'zbek tilshunosligida matn derivatsiyasi bo'yicha amalga oshirilgan dastlabki tadqiqot ishi kimga tegishli?  
A) S.Boymirzayeva B) D.Muhammedova C) M.To'xsanov D) D.Turniyozeva
110. Badiiy matnning mazmuniy bog'liqligini ta'minlovchi jihat qaysi?  
A) Kogeziya B) Geshtat C) Kompitentlik D) Konsept
111. Kattalik jihatidan gapdan keyingi o'rinda turuvchi birlik qaysi?  
A) abzas B) period C) murakkab sintaktik butunlik D) erkin gap
112. Og'zaki matn dunyo tilshunosligida yana qanday nom bilan ataladi?  
A) tekst B) nutq faoliyati C) fatika D) diskurs
113. Mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo'yish, zidlash hodisasi nima deb nomlanadi?  
A) antiteza B) oksyumoron C) anafora D) gradatsiya
114. Frazeologik iboralarni qayta ishlashning turli usullari qaysi olim tomonidan keng o'rganilgan?

A) M.Yo'ldoshev B) A.Mamajonov C) I.Rasulov D) B.Yo'ldoshev

115. Matn ichida qo'llanilgan o'zga matn ko'rinishlarini aniqlash va ularning asar mazmuni bilan qay darajada uyg'unligi belgilash tamoyili qaysi?

A) badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash tamoyili

B) badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash tamoyili

C) badiiy matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash tamoyili D) makon va zamon birligi tamoyili

116. Perifraza nima?

A) narsa, hodisani o'z nomi bilan emas, ularni xarakterli belgi-xususiyatlari asosida tasviriy usul bilan ifodalash

B) yonma-yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo'lishi

C) diniy e'tiqod, irim, qo'rqish va shu kabilar ta'sirida so'zning ishlatalishini cheklash

D) mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki tushunchani qo'shib qo'llash

117. Ommabop uslub o'zbek tilshunosligida qaysi olim tomonidan monografik yo'nalishda o'rganilgan?

A) Boymirzaeva S. B) Qurbonov T. C) Mamajonov A. C) Rasulov R.

Umarov E.

118. Asarda qo'llanilgan so'z yoki iboralarni, jumlalarni qayta tuzib ko'rish, o'xhashi bilan almashtirib ko'rish va shu asosda baho berishga nima deyiladi?

A) lisoniy tabdil usuli

B) matn variantlarini qiyoslash usuli

C) semantik-stilistik tahlil usuli

D) lug'atlarga asoslanish usuli

119. Aynan yoki yaqin unlilarning takrorlanib kelishidan hosil bo'ladigan ohangdoshlik nima?

A) assonans B) geminatsiya C) anafora D) epifora

120. Yunonchada "bilinmagan, tushunarsiz, noma'lum" degan ma'nosi ifoda etuvchi hodisani aniqlang.

A) litota B) idioma C) agnonim D) sintagma

121. Onomastikada *teoniim*larning o'rganish obyektini belgilang.

A) qush nomlari B) ilohiy shaxs nomlari B) tog' nomlari D) qabr, mozor nomlari

122. Matnda supersintaktik butunliklarning mohiyati, sintagmatik va semantik -uslubiy xususiyatlarini ilmiy asoslagan kim?

A) A.Mamajonov B) M.To'xsanov C) D.Xudoyberanova D) M.Abdupattoyev

123."Vazifasiga ko'ra abzas tinish belgilari sirasiga kiradi". Mazkur fikr kimga tegishli?

A) A.Gvozdev B) V.Admoni C) I.Galperin D) X. Vaynrix

124. O'zbek millatiga xos pretsedent birliklar berilgan qatorni ko'rsating.

A) Manas, Aldar ko'sa, Xizr

B) Otabek, Kumush, O'zbekoyim, Zaynab, Asadbek

C) Layli, Majnun, Maxtumquli, Alpomish, Barchinoy

D) Afandi, Sotti, Taras Bulba, Otello

125."Beg'ubor, juda ham beg'ubor shabada esdi" gapi qaysi sintaktik figuraga misol bo'ladi?

A) Takrorga B) Metaforaga C) Ritorik so'roqqa D) Epiforaga

126. Nutqni ta'sirchan bayon qilishda va uslubning rangdor bo'lishini ta'minlashda qaysi leksik vositadan foydalilaniladi?

A) Metafora B) Omonim C) Antonim D) Sinonim

127. Kishi yoki predmetning tabiatini va mohiyatiga xos bo'limgan zid belgini unga nisbatan qo'llash hodisasi qaysi atama bilan aytildi?

A) Antonim B) Oksyumoron C) Sinonim D) Epigraf

128. Logik jihatdan qarama-qarshi bo'lgan ikki fikrni qiyoslash hodisasi nima deyiladi?

A) Antiteza B) Gradatsiya C) Takror D) Anafora

129. Yonma-yon gaplar, sintagmalarining bir xil sintaktik qurilishga ega bo'lishiga nima deyiladi?

A) Parallelizm B) Okkazionalizm C) Dialektizm D) Varvarizm

130."Matnning lingvistik tahlili" kitobining muallifi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Mirzayev I. B) Yo'ldoshev B. C) Qilichev E. D) Lapasov J.

### Test javoblari

1. B	26. A	51. A	76. C	101. C	126. D
2. A	27. C	52. C	77. A	102. A	127. B
3. C	28. A	53. C	78. B	103. C	128. A
4. A	29. B	54. B	79. C	104. A	129. A
5. A	30. A	55. A	80. A	105. D	130. C
6. C	31. D	56. A	81. B	106. C	
7. B	32. A	57. A	82. D	107. B	
8. A	33. B	58. D	83. A	108. A	
9. C	34. B	59. A	84. B	109. D	
10. A	35. A	60. A	85. C	110. A	
11. A	36. C	61. C	86. B	111. B	
12. A	37. A	62. B	87. D	112. D	
13. C	38. B	63. D	88. C	113. A	
14. A	39. D	64. A	89. B	114. D	
15. B	40. C	65. C	90. A	115. B	
16. D	41. C	66. B	91. D	116. A	
17. A	42. B	67. D	92. D	117. B	
18. A	43. A	68. A	93. C	118. A	
19. A	44. C	69. C	94. A	119. A	
20. B	45. B	70. B	95. D	120. C	

21. C	46. A	71. A	96. C	121. B
22. A	47. B	72. D	97. B	122. D
23. C	48. B	73. A	98. A	123. A
24. A	49. B	74. B	99. C	124. B
25. C	50. B	75. D	100. B	125. A

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

- Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017.
- Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2018.
- Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2019.
- Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2020.

### II. Normativ-huquqiy hujjatlar

- Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сонли Қонуни.
- Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрь “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5544-сонли Фармони.
- Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябр “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сон Фармони.
- Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрь

“Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрь “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-6097-сонли [Фармони](#).

10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 29 январ “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги атамалар комиссиясининг фаолиятини ташкил қилиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 40-сонли Қарори.

### III. Maxsus adabiyotlar

11. Абдураҳмонов X., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Т.: Фан, 1981.
12. Абдуллатоев М. Ўзбек матнида суперсинтактик бутунликлар. НД. –Т., 1997.
13. Абдураҳмонов F. Стилистик нормалар ҳақида //Ўзбек тили ва адабиёти, 1969, №6. 23-28-б.
14. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. – Т., 2011.
15. Asadov T. O'zbek tilida ravishlarning ma'noviy-uslubiy xususiyatlari. Monografiya. – Buxoro: Buxoro. 2010.
16. Asadov T., Azimova A. Toshpo'lat Ahmad she'riyati lingvostilistikasi. Monografiya. – Buxoro: Durdona. 2023.
17. Ахманова О. Словарь лингвистических терминов. – М.: СЭ, 1969.
18. Бабаханова Д. Ўзбек адабий тилида расмий иш услуби. –Т., 1987.
19. Бегматов Э. Бобоева А. Асомиддинова М. Адабий норма ва нутқ маданияти. – Т.: Фан, 1983.
20. Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар. ДДА. – Т., 2010.
21. Гальперин И. Текст как объект лингвистического исследования.-М.: Наука, 1981.
22. Ҳайдаров А. Коннотатив маънонинг фонетик воситаларда ифодаланиши. Монография. –Т.: Наврӯз, 2017.
23. Ҳакимов М. X. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва парадигматик хусусиятлари.НД. – Т., 1993.
24. Ҳакимов М. X. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. ДД. – Т., 2001.
25. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1974.
26. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.:Ўз.МЭ, 2002.
27. Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография.– Самарқанд: СамДУ нашри, 2006.
28. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд, 1992.
29. Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. - Т.: Фан, 1988.
30. Маҳмудов Н. ва б. Ўзбек тилида иш юритиш. – Т., 1990.
31. Маҳмудов Н. Маърифат манзиллари. – Тошкент, 1999.

32. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2012. № 5. 3-16-б.
33. Маҳмудов.Н. Тил тилсими тадқиқи. – Т.: Mumtoz so'z, 2017.
34. Маҳмудов Н., Худойберганова Д, Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. –Т.: Маънавият. 2013.
35. Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Т., 1988.
36. Маслова В.А. Лингвокультурология.Учебник. – М.: Academia, 2001.
37. Мирзаев И. Лингвистик поэтика ва унинг филологик таҳлилдаги ўрни. Илмий тўплам. –Т.: Университет, 2002. 20-23-б.
- 38.Мирзаев И. Лингвопоэтик таҳлил-ижодий тафаккур соҳибини тайёрлашнинг бирламчи омили эканлиги ҳақида. Илмий тўплам З-том. –Т.:ЎзМУ нашри, 2006, 81-83-б.
39. Миртоҷиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: Мумтоз сўз, 2010.
40. Муҳиддинов М., Каримов С. Fafur Ғуломнинг поэтик маҳорати. Монография. – Самарқанд, 2003.
41. Москальская О.И. Грамматика текста. – М.: Высшая школа, 1981.
42. Мукаррамов М.Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. – Т.:Фан, 1984.
43. Мўминов С. Мулоқот нутқининг ҳудуд жиҳатдан хосланиши. – Фарғона, 2007.
44. Неъматов Ҳ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1992.
45. Қиличев Э. Матннинг лингвистик таҳлили. – Бухоро, 2004.
46. Қиличев Э. Қиличев Б. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Бухоро, 2001.
47. Қурбонова Т.Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент:Ўқитувчи, 1993.
48. Қурбонова М. Йўлдошев М. Матн тилшунослиги. – Т.: Университет, 2014.
- 49.Қурбонова М.А. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социопсихолингвистик тадқиқи. НДА – Т., 2009.
50. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили фразеологизмларининг изоҳли луғати.– Т.: Ўқитувчи, 1978.
51. Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукurov Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. – Т.:Ўқитувчи, 1980.
52. Расулов Р. Ҳусанов Н. Мўйдинов Қ. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. Ўқув қўлланма. – Т., 2006.
53. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Т.: Fan va texnologiyalar. 2010.
54. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.
55. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008.
56. Таджиев Ё. Аффиксальная синонимия в узбекском языке. АДД, – Т., 1991.

57. Турниёзов Н. Матн лингвистикаси. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2004.
58. Турниёзов Н., Йўлдошев Б. Матн тилшунослиги – Самарқанд, 2006.
59. Тўхсанов М. Ўзбек бадиий нутқида микроматн ва унинг табиати. НД – Т., 1987.
60. Умирова С. Ўзбек шеъриятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърияти мисолида. PhD. – Самарқанд, 2020.
61. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik – Т., 2019.
62. Xolmanova Z., Saydahmedova O., Nurullayeva O. Lingvokulturologiyaga oid ayrim tushunchalar tadqiqi. –Т., 2017.
63. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. – Т. Фан, 2013.
64. Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Т.: Turon zamin ziyo, 2015.
65. Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар. НД. – Т.,1996.
66. Йўлдошева Д., Ортиқова Ҳ. Лингвоперсонология – тилшуноликнинг мустақил соҳаси. –Т.: Paradigma, 2018.
67. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Т.: Фан, 2008.
68. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДД. – Т., 2009.
69. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2006-2008.
70. Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили. – Т.: Ўқитувчи, 1990.

#### **IV. Elektron ta'lim resurslari**

<http://en.wikipedia.com>  
<http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html>  
<http://www.twirp.cs.com>  
<http://en.wikipedia.com>  
<http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html>  
[www.ziyouz.com..](http://www.ziyouz.com..)

## **MUNDARIJA**

- 1-MAVZU. MATN TILSHUNOSLIGI"NING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI XUSUSIDA
- 2-MAVZU. MATNNING LINGVISTIK TAVSIFI
- 3-MAVZU. LINGVOPOETIKA MUSTAQIL YO'NALISH SIFATIDA
- 4-MAVZU. MATNNING TARKIBIY QISMLARI. MATNNING TARKIBIY QISMLARINI BOG'LOVCHI VOSITALAR
- 5-MAVZU. NUTQNING KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARI MATN BUTUNLIGINI TA'MINLOVCHI VOSITA SIFATIDA
- 6-MAVZU. MATNNI TAHLIL QILISH USULLARI XUSUSIDA

- 7-MAVZU. MATNNI ANTROPOSENTRIK TAHLILI XUSUSIDA  
8-MAVZU. MATN TIPOLOGIYASI  
9-MAVZU. MATN VA USLUB. NOBADIY MATNLAR VA ULARNING TABIATI XUSUSIDA  
10-MAVZU. MATNNING FONOSEMANTIK TAHLILI  
11-MAVZU. BADIY MATNDA MORFOLOGIK VOSITALAR  
12-MAVZU. BADIY MATNNING LEKSIK TAHLILI (umumiste'moldagi so'zlar misolida)  
13-MAVZU.CHEGARALANGAN QATLAM SO'ZLARINING BADIY ADABIYOTDAGI IFODASI  
14-MAVZU. BADIY MATNDA SINTAKTIK VOSITALAR  
15-MAVZU. MATNGA PSIXOLINGVISTIK JIHATDAN YONDASHUV  
16-MAVZU.MATNGA LINGVOKULTUROLOGIK JIHATDAN YONDASHUV  
17-MAVZU. MATNGA SOTSIOLINGVISTIK JIHATDAN YONDASHUV  
18-MAVZU. MATN TAHLILIDA GENDROLINGVISTIK JIHATDAN YONDASHUV  
19-MAVZU. MATNGA PRAGMALINGVISTIK JIHATDAN YONDASHUV